

M.A.YAKUBOVA

IQTISODIY SIYOSATGA KIRISH

O'QUV QO'LLANMA

TOSHKENT - 2022



3.102

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

M.A.YAKUBOVA

IQTISODIY SIYOSATGA KIRISH

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
o'quv qollanma sifatida tavsiya etilgan**

TOSHIKENT- 2022

Yakubova M.A.// “Iqtisodiy siyosatga kirish” O’quv qollanma// «TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI» MCHJ Toshkent – 2022, 252 – bet.

Tuzuvchi: **Yakubova M.A.**– “Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti” kafedrasida katta o’qituvchisi.

Taqrizchilar: **Xashimov, P.Z.**– i.f.n.dotsent “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasida (OZMU).

Saidkarimova M.I. – i.f.n.dotsent “Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrasida”(TDTU).

“Iqtisodiy siyosatga kirish” fanini o’rganish jarayonida va natijasida talabalarga bozor iqtisodiyotida davlat qo’llaydigan iqtisodiy siyosatning yo’nalishlarini, qonuniyatlarini va mexanizmini nazariy asoslab berishni hamda ularni tahlil qilishni o’rgatadi.

Ushbu o’quv qollanma, zamonaviy iqtisodiy siyosat haqida yaxlit tizimli tasavvurini shakllantirish, O’zbekiston davlat iqtisodiy siyosatining mohiyati va asosiy yo’nalishlari, dolzarb iqtisodiy muammolarni tadqiq qilishda qo’llaniladigan tahliliy apparatning tuzilishi va xususiyatlarini haqida ma’lumot beradi.

ISBN 978-9943-8669-2-8

© **Yakubova M.A.**

© «TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI» MCHJ. 2022

KIRISH

“Iqtisodiy siyosatga kirish”fanni o’qitishdan maqsad –talabalarda zamonaviy iqtisodiy siyosat haqida yaxlit tizimli tasavvurini shakllantirish, O’zbekiston davlat iqtisodiy siyosatining mohiyati va asosiy yo’nalishlari, dolzarb iqtisodiy muammolarni tadqiq qilishda qo’llaniladigan tahliliy apparatning tuzilishi va xususiyatlarini namoyon etish.

“Iqtisodiy siyosatga kirish” fanini o’rganish jarayonida va natijasida talabalar bozor iqtisodiyotida davlat qo’llaydigan iqtisodiy siyosatning yo’nalishlarini, qonuniyatlarini va mexanizmini nazariy asoslab berishni hamda ularni tahlil qilishni bilishlari kerak.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o’z ichiga oladi:

-iqtisodiy siyosatga oid iqtisodiy tushunchalarni, qonuniyatlarning mazmunini va amaliyotda ularni qo’llanilishini o’rgatib borish, iqtisodiy oqimlar va zamonaviy kontsepsiyalar bilan talabalarni tanishtirib borish;

-iqtisodiy siyosat amalga oshirish tamoyillarini, davlat tomonidan olib boriladigan iqtisodiy siyosatning asosiy yo’nalishlarini va vositalarini tushuntirib borish;

-iqtisodiy siyosat amalga oshirish jarayonini hamda mikro- va makro darajada uning natijalarini tahlil qilishni o’rgatib borish;

-talabalarni iqtisodiy adabiyotdan va iqtisodiy saytlardan foydalanishni o’rgatish;

- iqtisodiy holatlarni matematik va grafik uslublardan foydalanib tahlil qilishni o’rgatish.

1-MODUL.KIRISH. Davlat iqtisodiy siyosati

1.1. Iqtisodiyot tushunchasi. Ehtiyojlarning cheksizligi va resurslarning cheklanganligi – iqtisodiyotning bosh muammosi. Resurslarning turlari: yer, mehnat, kapital va tadbirkorlik qobiliyati.

Insoniyat hayoti va uning taraqqiyoti juda murakkab, ko'p qirrali va g'oyat chigal muammolarga bo'ydir. Shu muammolarni echish va o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida kishilar turli yo'nalishlarda, sohalarida faoliyat ko'rsatadilar. Demak, insonning turli faoliyatlari ichida eng asosiysi, insoniyatning yashashi va uning kamol topishini ta'minlaydigani moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lgan iqtisodiy faoliyatdir. Cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga etkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar yaxlit qilib, bir so'z bilan, **iqtisodiy faoliyat** deb ataladi.

Qadimda iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli uy xo'jaligi doirasida ro'y bergan. Shuning uchun qadimgi grek olimlarining (Ksenofont, Platon, Aristotel) asarlarida iqtisodiyot – uy xo'jaligi va uni yuritish qonunlari deb tushuntirilgan. Arab leksikonida «iqtisod» tejamkorlik ma'nosida tushunilgan, chunki islom diniga oid adabiyotlarda tejamkorlikka alohida e'tibor berilgan. Lekin, hozirgi davrda iqtisodiyot keng ma'noni anglatib, faqatgina uy yoki individual xo'jalik yuritish yoki tejamkorlik ma'nosini anglatmaydi, balki iqtisodiyot – yirik xususiy xo'jalik, jamoa xo'jaligi, hissadorlik jamiyatlari, davlat xo'jaliklaridan, moliya va bank tizimlaridan, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo'shma korxonalar, davlatlar o'rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlaridan iborat o'ta murakkab ijtimoiy tizimni anglatadi.

Cheklangan iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanib, aholining to'xtovsiz o'sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish maqsadiga erishish, resurslar va mahsulotlarni to'g'ri taqsimlash yo'llarini topish iqtisodiyotning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Iqtisodiyot qamrov darajasiga qarab turlicha bo'lishi mumkin: jahon iqtisodiyot, mamlakat iqtisodiyoti, milliy iqtisodiyoti, tarmoq iqtisodiyot, funksional iqtisodiyot, mintaqa iqtisodiyoti, korxonalar yoki firma iqtisodiyoti, oila iqtisodiyoti.

Ba'zan ularni yaxlitlashtirib, makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot deb ataladi. Ularning hammasi bir maqsadga boysungan: u ham bolsa insoniyatning yashashi, ko'payishi va kamol topishi uchub shart-sharoit yaratib berish, turli xil hayotiy vositalarni yaratib, ularni ehtiyojlarini qondirib borishdan iboratdir. Inson tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlarning, resurslar harakati boyicha takror ishlab chiqarish quyidagilardan iboratdir:

- 1) ishlab chiqarish jarayonidir
- 2) ayirboshlash jarayoni;
- 3) taqsimlash jarayoni;

4) iste'mol qilish jarayoni.

Bularning ichida eng asosiysi va boshlang'ichi **ishlab chiqarish jarayonidir**. Chunki hamma tovar va xizmatlar xuddi shu bosqichda yaratiladi. Agar ishlab chiqarilmasa, taqsimlanadigan, ayirboshlanadigan va nihoyat, iste'mol qilinadigan narsalar bo'lmaydi.

Ikkinchi muhim faza esa **taqsimot jarayonidir**. Bu bosqichda, eng avvalo, ishlab chiqarish vositalari, kapital va ishchi kuchi, tovar va xizmatlarning alohida turlari, ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, sohalar, hududlar va nihoyat, korxonalar o'rtasida taqsimlanadi.

Ayirboshlash jarayoni – takror ishlab chiqarishning muhim fazasidir. Har bir tovar turini ishlab chiqaruvchi o'z tovarini sotib, o'ziga kerakli bo'lgan boshqa tovar yoki xizmatlarni sotib oladi. Iqtisodiy aloqa – ayirboshlash, pul orqali oldi-soldi jarayoni sodir bo'ladi.

Iqtisodiyotda takror ishlab chiqarishning oxirgi fazasi **iste'mol jarayonidir**. Bu jarayonda tovarlar va xizmatlar turli kishilar, guruhlar tomonidan iste'mol qilinib, ularning ehtiyojlarini qondiradilar. Iste'mol ikki turda bo'ladi: ishlab chiqarish iste'moli va shaxsiy iste'mol. Ishlab chiqarish iste'molida ishlab chiqarish vositalari (kapital) va ishchi kuchidan foydalanilib, unumli iste'mol qilinadi. Shaxsiy iste'mol jarayonida esa iste'mol buyumlari pirovard foydalanilib, ular yo'qotiladi va o'rniga yana yangisini ishlab chiqarish zaruriyati paydo bo'ladi.

Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi – ehtiyojlarning cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligidir.

Insonning yashashi va kamol topishi, umuman insoniyatning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan hayotiy vositalarga bo'lgan zarurati iqtisodiyot nazariyasi fanida **ehtiyaj** deb ataladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni o'z ichiga oladi. Moddiy ehtiyojlar, bu avvalo, kishilarning o'zlariga foydali bo'lgan moddiy ne'matlarni xarid qilish va foydalanishga bo'lgan zaruratdir. Ma'naviy ehtiyojlar kishilarning bilim va dam olish, madaniy saviyasini oshirish, malaka-mahoratga ega bo'lish, har xil xizmatlardan bahramand bo'lish kabi moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan ko'plab hayotiy zaruratlarini o'z ichiga oladi.

Ehtiyojlar yakka tarzda va birgalikda qondirilishi mumkin. Bu esa ehtiyojning tabiatiga va uni qondiruvchi obe'ktlar xususiyatiga bog'liq. Jamiyat ehtiyojlariga quyidagi bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

- a) jamiyatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi;
- b) jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum;
- v) tabiiy-geografik sharoitlar;
- g) tarixiy-milliy an'analar va urf-odatlar;
- d) aholi sonining o'sishi, uning tarkibidagi o'zgarishlar;
- e) xalqaro, davlatlar, millatlar va mintaqalar o'rtasidagi aloqalar.

Ehtiyojlarning o'sib borishi, uni qondirish vositalari darajasi bilan chegaralanadi. Chunki ehtiyojlar cheksiz o'zgargani holda uni ta'minlash uchun kerak bo'ladigan iqtisodiy resurslar cheklangan bo'ladi. Iqtisodiy resurslar deganda, tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalanish mumkin bo'lgan barcha vosita va imkoniyatlar majmui tushuniladi.

Iqtisodiy resurslarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) tabiiy resurslar (er, er osti boyliklari, suv, o'rmon va biologik resurslar);
- 2) ishchi kuchi resurslari (kishilarning aqliy va jismoniy qobiliyatlari);
- 3) kapital (foйда olish maqsadida ishlatiladigan binolar, stanoklar, mashinalar, asbob-uskunalar, inshootlar, qurilmalar, sotishga tayyor tovarlar, pul mablag'lari va boshqalar);
- 4) tadbirkorlik qobiliyati (kishilarning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish qobiliyatlari).

Cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, ishlab chiqarish imkoniyatlarini va ehtiyojlarni qondirishning darajasini oshirish zarurligi iqtisodiyot oldiga quyidagi muammolarni qo'yadi.

1. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning optimal variantlarini (eng zarur va tejamli turlarini) tanlab olish va resurslarni ko'proq ishlab chiqarishga jalb qilish.
2. Mavjud resurslarning har bir birligidan tejab-tergab, samarali foydalanish.
3. Fan-texnika yutuqlarini va yangi texnologiyalarni joriy qilib, yangi energiya, material, xom-ashyo turlari, ularning manbalarini topib, foydalanishga jalb qilish, resurslar unumdorligining oshishiga erishish.

Bu muammolarni hal qilish zaruriyati kishilardan chuqur iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishni taqozo qiladi.

Iqtisodiyotga oid bilimlar antik dunyoning ko'zga ko'ringan olimlari Ksenofont, Platon, Aristotel asarlarida, shunigdek qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo olimlarining asarlarida qarab chiqilgan edi.

Biz uzoqqa bormasdan ming yillar osha bizga etib kelgan Qur'oni Karimni, hadislarini, Qobusnomani, Ibn Xaldun asarlarini, bobolarimiz Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek asarlarini o'qir ekanmiz, ularda insonning yashashi uchun tabiat ehsonlari etarli emasligi, ijodiy mehnat qilish kerakligi qayta-qayta uqtirilganligiga yana bir karra amin bo'lamiz. Jumladan, arab mutafakkiri Ibn Xaldun Abduraxmon Abu Zayd (1332-1406)ning iqtisodiyot bilimlarini rivojlantirishdagi hissasi juda kattadir. Uning 1370 yilda yozilgan «Kitob-ul-ibar» («Ibratli misollar kitobi») asarida dunyoda birinchi bo'lib tovarning ikki xil xususiyatini – iste'mol qiymati va qiymat tushunchalarini,

oddiy va murakkab mehnatni, zaruriy va qo'shimcha mehnat hamda zaruriy va qo'shimcha mahsulot tushunchalarini ajrata bildi.

Alisher Navoiyning iqtisodiy masalalarga oid g'oyalari 1482 yilda yozilgan «Vaqfiya» va 1500 yilda yozilgan «Mahbub-ul-qulub» asarlarida bayon etilgan. U kishi mahsulotni uch qismga bo'lib, birinchi qismini ketgan xarajatga, ikkinchi qismini o'zining va oilasining ehtiyojlariga, uchinchi qismini esa aholining ijtimoiy manfaatlar uchun sarflashga chaqiradi. Bundan tashqari mahsulotni yaratishda mehnatning roliga va ishlab chiqarish vositalarining ishtirokiga alohida e'tibor beradi. Shu bilan birga boylikni halol mehnat bilan topish, to'plash va foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Lekin Aristoteldan boshlab butun dunyoning, jumladan O'rta Osiyoning ko'pgina olimlari iqtisodiyotni izchil o'rganish asosida uning ko'pgina qonun-qoidalarini, tushunchalarini yoritib bergan bo'lsalar ham, hali iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida shakllanmagan edi.

Iqtisodiyot nazariyasi mustaqil fan sifatida ko'pgina mamlakatlarda milliy bozor shakllangan va jahon bozori vujudga kelayotgan davrlarda «siyosiy iqtisod» nomi bilan shakllana boshladi.

Siyosiy iqtisod grekcha so'zdan olingan bo'lib «politikos» - ijtimoiy, «oykos» - uy, uy xo'jaligi, «nomos» - qonun degani. YA'ni uy yoki ijtimoiy xo'jalik qonunlari ma'nosini beradi. 1575-1621 yillarda yashab, ijod qilgan fransuz iqtisodchisi Antuan Monkreten birinchi marta 1615 yilda «Siyosiy iqtisod traktati» nomli kichik ilmiy asar yozib, bu fanni mamlakat miqyosida iqtisodiyotni boshqarish fani sifatida asosladi. Keyinchalik klassik iqtisodchilar bu fikrni tasdiqlab, siyosiy iqtisod keng ma'noda moddiy hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni boshqaruvchi qonunlar to'g'risidagi fandır, deb yozgan edilar.

1.2. To'la bandlik va ishlab chiqarishning potensial hajmi

Ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklifi o'rtasida bozor muvozanatiga erishilishi natijasida aholining ish bilan oqilona bandligi ta'minlanadi. Bu esa mehnat bozorida ishsizlikning yo'l qo'yilishi mumkin (tabiiy) darajasiga erishishning muhim imkoniyatlaridan biridir. Bunday muvozanat ish beruvchilar va «mehnat qobiliyati» egalarining iqtisodiy manfaatlarini eng muqobil tarzda amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunda ishchi kuchiga uning kasbiy-malakaviy tayyorgarligiga mos narxlar belgilanadi. Xuddi shular tufayli aholining oqilona bandligi, ijtimoiy takror ishlab chiqarish va ishchi kuchining qiymati asosida «mehnat qilish qobiliyati»ni bozorda sotish uchun taklif qilganlarning turmush darajasi shakllanishi ham ta'minlanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida 100 % ish bilan bandligini ta'minlash mumkin emas. "To'la bandlik" tushunchasi ma'lum darajadagi ishsizlikning bo'lishiga yo'l qo'yadi va bu ishsizlikning darajasi normal deb hisoblanadi (ishsizlikning tabiiy darajasi). Shu bilan birga, oqilona bandlik to'g'risida ishsizlik me'yori ko'rsatkichi

orqali mulohaza qilish mumkin. Zamonaviy g'arb iqtisodiy adabiyotida to'liq va oqilona bandlik ishsizlikning tabiiy me'yori mavjud bo'lgandagina erishiladi, degan nuqtai nazar ommalashgan. Ishsizlikning tabiiy me'yori - bu uning shunday darajasiki (talab va taklifning ushbu tarkibida), bunda ish haqining real darajasi va narxlar mehnat unumdorligining o'sish darajasi nol' bo'lganda o'zgarishsiz saqlab qolinadi. Amalda ishsizlik me'yori joriy (friksion) va tarkibiy ishsizlik yig'indisi orqali baxolanadi. Tarkibiy ishsizlik ilmiy-texnika taraqqiyoti ta'siri ostida iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar tufayli paydo bo'ladi. G'arb mamlakatlarida 3-4% darajada hisoblanadigan tabiiy ishsizlik me'yorini O'zbekiston sharoitida oqilona bandlikni aniqlash uchun qo'llash mumkinmi, degan savol tug'iladi.

Barcha demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlari qo'yidagi mezonlarda o'z aksini topadi: mehnat bozorining samarali rivojlanishini yuqori ko'rsatkichi - aholini ish bilan oqilona bandligini shakllanishi; yollanma ishchi kuchiga mehnat haqini (narxini) eng past miqdorini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan minimal iste'mol byudjetidan kam bo'lmagan holda belgilanishi; ishchi kuchiga talab va uning taklifi o'rtasida muvozanatga erishish. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) qabul qilgan mezonlarga ko'ra, aholining ish bilan oqilona bandligi shakllanishining muhim shart-sharoitlari - mehnat turlari bo'yicha mashg'ul bo'lish, ish va yashash joyini erkin tanlash, aholi mobilligining turli ma'muriy cheklanishlarini bekor qilish, mehnat haqidagi qonunlarga qat'iy rioya qilgan holda ishga joylashish kafolatini berishdan iboratdir. Majburiy mehnat qilishdan voz kechish har bir shaxsning ijtimoiy ishlab chiqarishda ishlash yoki ishlamaslikni haqiqiy tanlashini anglatadi. Bunda mehnat qilishning huquqiy amalga oshirilishi, shubhasiz, xodimlarni mehnat bozori orqali yollanishlarini, va eng yaxshi mezonlarga ko'ra xodimlar rasmiy erkin bo'lishlari yetarli emas. Yollanma mehnat samarali bo'lishi uchun iqtisodiy sharoitlar va ijtimoiy kafolatlar zarur. Bular ichida eng kam ish haqining aholi jon boshiga kun kechirishi uchun zarur bo'lgan eng kam miqdori qonun asosida belgilanishi va ishchilar daromadlarining cheklanishini bekor qilish - asosiy hisoblanadi. O'shandagina xodim iqtisodiy faol bo'ladi. Vaholanki, iqtisodiy nuqtai nazardan oqilona bandlik ishchi kuchidan shunday foydalanishni aks ettiradiki, u yalpi ichki mahsulot (YaIM) va mehnat unumdorligining o'sishini ta'minlaydi va mulkchilikning turli shakllari, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil qilishning samarali turlari harakati sohalarini kengayishiga ko'maklashadi. Bu joylardagi ortiqcha ishchi kuchining ozod bo'lishiga olib keladiki, va ish bilan band bo'lganlarni qaytadan taqsimlash va mehnat migratsiyasi kengayishi jarayonining kuchayishiga yordam beradi. Mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan oqilona bandligini shakllantirishning asosiy demografik manbalaridan biri - uning iqtisodiy faol qismini kengayishidan iborat. Shuningdek, tabiiy ishsizlik darajasiga erishishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri - bu mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va uning taklifi o'rtasida bozor muvozanatiga erishish hisoblanadi. Ishchi kuchi narxi va qiymati unga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga erishishda

vosita sifatida ishtirok etadi. Ammo boshqa tovarlarga nisbatan, ishchi kuchining narxi va qiymati shakllanishida o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Ishchi kuchi qiymati - uning narxi shakllanishini asosi va u amaliy iqtisodiyotda ish haqi shaklida namoyon bo'ladi. Ishchi kuchi qiymati boshqa tovarlar kabi ushbu o'ziga xos bo'lgan tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqti bilan belgilanadi. Demak, ishchi kuchi jonli individning qobiliyati sifatida mavjud ekan, ishchi kuchini ishlab chiqarish uchun uning hayotiy mavjudligini qo'llab quvvatlash Respublikamizda tabiiy ishsizlik darajasini ta'minlanishi, bosqichma bosqich amalga oshirilayotgan isloxotlar miqyosida quyidagi masalalarni xal qilinishini taqozo etadi:

mexnat bozorida talab va taklif o'rtasidagi zaruriy muvozanatiga erishilishi; aholining oqilona bandligi shakllanishi, davriy ishsizlik darajasi nolga tushirishi; mulkchilikning turli shakllari rivojlanib voyaga yetishi; mamlakat Markaziy banki tomonidan oqilona pul-kredit siyosati yuritilishi; iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar keskin tarmoz davrini bosib o'tishi; mehnat daromadlariga solinadigan soliqlar va to'lovlar ilmiy asoslangan miqdorda o'rnatilishi; O'zbek modelining eng muhim tamoillaridan - qonun ustivorligini taminlagan xolda, mehnat haqidagi qonunlarga muvofiq ishga joylashish kafolatlari ta'minlanishi va bunda eng kam ish haqi darajasini minimal iste'mol byudjeti bilan muvofiqlashtirib borilishi borasidagi faoliyat davom etishidir. Ishlab chiqarish potensialini oshirish bilan birgalikda, biz ishsizlik darajasini tushirib, to'la bandlikka erishishimiz mumkin.

1.3. Ishlab chiqarishning iqtisodiy mazmuni. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi: moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy ishlab chiqarish

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida inson hayotining asosini moddiy ne'matlar, ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish tashkil etadi. Chunki, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari bo'lmasa, ayirboshlaydigan, taqsimlaydigan va iste'mol qiladigan ne'matlarning o'zi bo'lmaydi. Inson iste'molsiz yasholmaganidek, ishlab chiqarmasdan ham turolmaydi.

Ishlab chiqarish jarayonining mazmunini chuqur anglash uchun, eng avvalo, ishlab chiqarish omillari va ularning tarkibiy qismlari bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonida bevosita qo'llaniluvchi barcha resurslar ishlab chiqarish omillari deyiladi. Iqtisodiyotning tizimi va shaklidan qat'iy nazar uchta omil: ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmetlari bo'lishi shart. Bundan ko'rinadiki, ishlab chiqarish omillari, iqtisodiy resurslardan farqli o'laroq, o'z ichiga faqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi unsurlarni oladi. Misol uchun, iqtisodiy resursning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan pul resurslari ishlab chiqarish jarayonida bevosita qo'llanilmaganligi sababli, ishlab chiqarish omili

bo'la olmaydi. Ishlab chiqarish omillarining mohiyatini yanada kengroq tushunish uchun ularning har birini alohida ko'rib chiqamiz.

Ishchi kuchi deb insonning mehnat qilishga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisiga aytiladi. Ishchi kuchi mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan kishilar uchun xosdir. Lekin ishchi kuchi insonning o'zi emas yoki uning mehnati ham emas, uning qobiliyatidan iboratdir. **Mehnat qurollari** deb, inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta'sir qiladigan vositalarga aytiladi. Bularga mashinalar, stanoklar, traktorlar, qurilmalar, uskunalar va boshqalarni misol keltirish mumkin. **Mehnat predmetlari** esa bevosita mehnat ta'sir qiladigan, ya'ni mahsulot tayyorlanadigan narsalardir. Yer, suv, xomashyo va boshqa turli materiallar mehnat predmetining asosiy turlarini tashkil etadi. Mehnat predmetlari tabiatda tayyor holda uchrashi mumkin yoki oldingi davrdagi mehnat mahsuli, ya'ni xomashyo bo'lishi mumkin. Mehnat qurollari va mehnat predmetlari birgalikda ishlab chiqarish vositalari deb yuritiladi. Bu esa mehnat jarayonining tabiatidan kelib chiqadi; shuning uchun ham ishlab chiqarish vositalari barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun xosdir. Hozirgi bozor iqtisodiyotiga doir ko'pchilik adabiyotlarda esa ishlab chiqarishning to'rt omili: mehnat, kapital, yer, tadbirkorlik qobiliyati tan olinadi. Bu yerda ishchi kuchi bilan mehnat o'rtasidagi farqni anglab olish juda muhimdir. Chunki, mehnat insonning, to'g'rirog'i ishchi kuchining ma'lum maqsadga qaratilgan faoliyati jarayoni bo'lib, ishchi kuchi tushunchasidan tamomila farqlanadi. Ko'pgina adabiyotlarda esa ularga sinonim (bir xil tushuncha) sifatida qaralib, bunday holat ko'plab chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Bizga ma'lumki, ishchi kuchi insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyati, uning bilim, malaka darajasi bilan birgalikda ishlab chiqarishda qatnashishiga tayyor turgan omillardan biri hisoblanadi. Mehnat esa barcha omillarning, shu jumladan, ishchi kuchining ishlab chiqarish vositalari bilan qo'shilishi natijasida sodir bo'ladigan va ma'lum samara olishga qaratilgan faoliyatdir. Shuning uchun biz mehnat degan tushunchani emas, balki ishchi kuchi degan tushunchani ishlab chiqarishning omili deb bilamiz va ishlab chiqarish omillari ishchi kuchi, kapital, yer va tadbirkorlik qobiliyatidan iborat. Ishchi kuchi insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi bo'lganligi uchun bozor iqtisodiyoti davrida inson emas, mehnat jarayoni ham emas, balki ishchi kuchi tovar sifatida sotiladi va sotib olinadi. Ishchi kuchining boshqa tovarlar kabi qiymati va nafliligi mavjuddir va binobarin, uning bozori ham mavjud bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan mehnat bozori tushunchasi o'rniga ishchi kuchi bozori, mehnat resurslari o'rniga ishchi kuchi resurslari deyilsa to'g'ri va tushunarli bo'lar edi. Kapital tushunchasi ham turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Ko'pchilik kapital tushunchasini tarixiy tushuncha deb qarab, uning kapitalizmga xosligini isbotlaydi va kapitalni o'z egasiga qo'shimcha qiymat keltiruvchi qiymat, o'z-o'zidan ko'payuvchi, o'suvchi qiymat deb hisoblaydi. Ayrim g'arb iqtisodchilari ham, masalan, J.Klark, L.Val'ras,

I.Fisherlar kapitalga daromad keltiruvchi, foyda keltiruvchi, foiz keltiruvchi qiymat deb qaraydilar. Qator g'arb iqtisodchilarining, jumladan D.Xayman, P.Xeyne, E.Dolon, J.Robinson, R.Dornbush va boshqalarning fikrini keltirib va ularni umumlashtirib, prof. V.D.Kamaev o'zining rahbarligida yozilgan darsligida

«Haqiqatdan ham — kapital o'zidan o'zi ko'payuvchi qiymat» deb yozadi. Bunday fikr D.D.Moskvin, V.Ya.Ioxin, A.G.Gryaznova, Ye.F.Borisov va boshqalarning rahbarligida nashr etilgan qator iqtisodiyot nazariyasi kitoblarida ham aytiladi. Lekin Amerika va Yevropa mamlakatlaridan kirib kelgan «Ekonomiks» darsliklari va boshqa ayrim adabiyotlarda kapitalni barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llaniladigan moddiy vositalardan, ya'ni hamma turdagi mashinalar, asbob-uskunalar, inshootlar, zavod-fabrikalar, omborlar, transport vositalari va boshqa shu kabilardan iborat deb ko'rsatadi, unga pul va tovarni kiritmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, ayrim iqtisodchilar kapitalistik iqtisodiy tuzumning social mohiyatini ochish uchun masalaga bir tomonlama qarab, ishlab chiqarish omillarining qiymatiga e'tiborni kuchaytirgan. G'arb iqtisodchilarining ayrimlari ham kapitalni bir tomonlama, ya'ni uning qiymat tarafini e'tiborga olgan bo'lsa, boshqalari esa iqtisodiy tushunchalarning tarixiyiligini e'tibordan chetda qoldirib, uning moddiy ob'ektini, narsa va hodisalarning ashyoviy tomonini ko'rsatadilar. Shuning uchun ular kapitalni doimiy, o'zgarmas tushuncha deb, ishlab chiqarish vositalarini kapital deb ataydilar. Biz bu ikki xil tushunchani bir tanganing ikki tomoni, bir tushunchaning, ya'ni kapital tushunchasining ikki tomoni: uning bir tomoni moddiy va ashyoviy ko'rinishi, ikkinchi tomoni esa uning qiymat ko'rinishi ekanligini e'tiborga olamiz va uni bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital deb ishlatamiz. Biz kapital deganda o'z egalariga daromad keltiradigan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning hamma sohalarida qo'llaniladigan ishlab chiqarish vositalarini, sotishga tayyor turgan tovarlarni, yangi vositalar va ishchi kuchini sotib olishga mo'ljallangan pul mablag'larini, ularning ashyoviy tomoni va qiymatining birligini tushunamiz. Boshqacha qilib aytganda, «kapital» ham qiymatga, ham nafsilikka ega bo'lgan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida foydalaniladigan, yollanma mehnat (ishchi kuchi) tomonidan harakatga keltiriladigan vositalardir. Hamma adabiyotlarda yerga deyarli bir xil tushuncha beriladi, ya'ni yer deganda tuproqning unumli qatlami, o'tloqlar, yaylovlar, suv, havo, o'rmon, qazilma boyliklar, umuman tabiiy resurslar tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida katta e'tibor beriladigan omillardan biri tadbirkorlik qobiliyatidir. Tadbirkor deb iqtisodiy resurslar, ya'ni ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi resurslarining, tabiiy resurslarning bir-biriga qo'shilishini ta'minlaydigan, tashkilotchi, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, iqtisodiy va boshqa xavfdan, javobgarlikdan qo'rqmaydigan kishilarga aytiladi; bu xislatlar majmui esa tadbirkorlik qobiliyati deb yuritiladi. Hozirgi davrda ayrim adabiyotlarda axborot va uning vositalarini, ekologiyani ham alohida omil deb


ko'rsatadilar. Bizning fikrimizcha, ular yer va kapitalda o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ularni alohida omil deb qarashga hojat yo'q.

Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni. Jamiyatning iqtisodiy asosini, inson hayotiy faoliyatining manbaini tushunish uchun ishlab chiqarish jarayonining mazmunini ko'rib chiqish zarur. Ishlab chiqarish jarayoni – bu kishilik jamiyatining amal qilishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyatdir. Moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish, turli xizmatlar ko'rsatish jarayoni kishilar iqtisodiy faoliyatining asosiy tomonidir. Ma'lumki, har qanday ishlab chiqarish, birinchi navbatda, mehnat jarayonidir yoki boshqacha qilib aytganda, tabiatdagi bor narsalarning ko'rinishini o'zining iste'moli uchun muvofiq holga keltirish uchun qilingan mehnat faoliyatidan iboratdir. Masalan, kishilar tabiatda mavjud bo'lgan yerdan foydalanib, turli hil dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlarini yetishtiradilar. O'rmonlardagi daraxtlardan foydalanib, ularning shaklini o'zgartirib, turli xil yog'och buyumlar yasaydilar, uylar quradilar. Yer bag'rida (konlarda) mavjud bo'lgan turli rudalar (temir, mis, ruh, qo'rg'oshin va h.k.), mineral xomashyolardan foydalanib, o'zlari uchun zarur iste'mol buyumlari, ishlab chiqarish vositalari yaratadilar. Ana shu mehnat jarayonida kishilar, eng avvalo, tabiat bilan, uning kuchlari va ashyolari bilan hamda bir-birlari bilan o'zaro ma'lum munosabatda bo'ladilar. Kishilar o'zlarining ongli maqsadga muvofiq unumli mehnati bilan tabiat moddalarining shakllarini o'zgartiradilar va iste'mol uchun zarur bo'lgan mahsulotni vujudga keltiradilar. Mehnat jarayonida kishilar hamda tabiat o'rtasidagi moddalar almashinuvi bilan birga insonning o'zi ham har tomonlama kamol topib boradi, ya'ni kishilar o'zining mehnatga bo'lgan qobiliyatini, bilimini oshiradi va ularni amalda qo'llashni kengaytirib boradi. Shunday qilib, ishlab chiqarish jarayoni iste'mol qiymatlarni vujudga keltirish uchun maqsadga muvofiq qilinadigan harakatdir, tabiat yaratgan narsalarni inson iste'moli uchun o'zlashtirib olishdir, inson bilan tabiat o'rtasidagi modda almashuvining umumiy shartidir, inson hayotining abadiy tabiiy sharoitidir. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi muhim ahamiyat kasb etib, u turli sohalar, bo'linmalar, yaratilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini ifodalaydi. Eng avvalo, ishlab chiqarishni moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy ishlab chiqarish sohalariga ajratish lozim.

O'z navbatida moddiy ishlab chiqarish sohasi moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish (masalan, avtomobil', oziq-ovqat mahsulotlari, kiyimkechaklar va h.k.) va moddiy xizmatlar ko'rsatish (transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar)dan iborat bo'ladi. Nomoddiy ishlab chiqarish sohasi ham nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish (masalan, musiqa asarlari, badiiy va ilmiy asarlar, ixtiro va kashfiyotlar) va nomoddiy xizmatlar ko'rsatish (huquqiy maslahatlar berish, o'qitish, malaka oshirish va boshqalar)ga ajraladi.

Insoniyat zarur ne'matlar iste'molisiz yashay olmaydi. Shunga ko'ra, bu ne'matlarni muntazam ravishda ishlab chiqarish muhim hisoblanadi.

1.1-rasm Ishlab chiqarish turlari



Nazorat uchun savollar:

1. Iqtisodiyot tushunchasi haqida ma'lumot bering.
2. Ehtiyoj nima? Resurslarning turlarini aytib bering.
3. Ishlab chiqarishning iqtisodiy mazmuni.
4. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi haqida ma'lumot bering.

2-Mavzu. Mulkchilik munosabatlari.

2.1. Mulkchilik turlari va shakllari. Mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar.

Mulkchilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni. Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida mulkchilik munosabatlari o'z ichiga davlat mulkini, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va matlubot sohaslaridagi jamoa mulkining xilma-xil turlarini, ijtimoiy tashkilotlar mulkini, uy xo'jaligi va shaxsiy tomorqa xo'jaligi hamda yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mehnatkashlarning shaxsiy mulkini, tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasidagi aralash mulk shakllarini va xususiy mulklarni oladi. Shu sababli «O'zbekiston Respublikasining mulkchilik to'g'risida»gi qonunida turli-tuman mulklar quyidagi mulk shakllariga kiritiladi: davlat mulki, jamoa mulki, xususiy mulk, shaxsiy mulk, aralash mulk. Mulkchilik turli shakllarining mavjud bo'lishi va ularning iqtisodiy mezonini, avvalo, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va ishlab chiqarishning umumlashuvi darajasi bilan bog'liq.

Mulkchilik shakllari. Shaxsiy mulk – fuqarolarning shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mulk taqsimoti va tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarining yetuklik darajasi bilan mos kelishi zarur.. Bu mulk shakli asosan shaxsning yoki uning oila a'zolarining mehnati asosida ko'payadi va rivoj topadi. Fuqaroning shaxsiy mulki asosan ularning ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirokidan, o'z xo'jaligini yuritishdan tushgan mehnat daromadlari hisobiga vujudga keladi va ko'payadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsiy mulk aksiyadan olinadigan dividend, bank foizlari, xususiy sohibkorlik daromadi kabi yangi manbalarga asoslanadi.

Shaxsiy mulk ob'ektlari – bu turar joylar, bog'-hovli va uylar, transport vositalari, pul jamg'armalari, uy-ro'zg'or va shaxsiy iste'mol buyumlari, yakka tartibda va boshqa xo'jalik faoliyati uchun kerakli ishlab chiqarish vositalari, ularda hosil qilingan mahsulot va boshqalar bo'lishi mumkin. «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida»gi qonunda ko'rsatilganidek, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat sohasidagi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi kichik korxonalar fuqaro va uning oila a'zolarining mulki bo'lishi mumkin. Shaxsiy mulk ob'ektlari ehtiyojlarini qondirish doirasidan chiqib, daromad topish yo'lida ishlatilishi mumkin.

Davlat mulki – egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish davlat ixtiyorida bo'lgan mulk ob'ektlaridan iborat. Davlat mulki asosan ikki yo'l bilan hosil bo'ladi: 1) xususiy mol-mulkning milliyashtirilib, davlatning ixtiyoriga o'tkazilishi; 2) davlat mablag'lari hisobidan korxonalar qurish, davlatga qarashli korxonalar va tashkilotlarda investisiyalarni amalga oshirish. Davlat mulki haqiqatda ham xalqqa

qarashli bo'lgan, bo'linmaydigan yoki umumiy resurslardan foydalanish uchun juda mosdir.


Jamoa mulki – muayyan maqsad yo'lida jamoaga birlashgan kishilar tomonidan moddiy va ma'naviy boyliklarni hamjihatlik bilan o'zlashtirishni bildiradi. Jamoa mulki davlat mulkini korxonalar jamoasi sotib olishi, badal to'lab korxonalar qurishi, aksiyalar chiqarib, ularni sotish kabi yo'llar orqali paydo bo'ldi. Jamoa mulkining muhim xususiyati shundaki, ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsuliga ayrim shaxslar emas, balki ma'lum guruh, kishilar egalik qiladi. Jamoa mulkiga kooperativlarning, ijara va jamoa korxonalarining, aksiyadorlar jamiyatlari, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, jamoa tashkilotlari va diniy tashkilotlarning mulki kiradi.

Xususiy mulk – ayrim sohibkorlarga qarashli bo'lib, yollanma mehnatga asoslangan holda foydalanadigan mulkdir. O'zbekiston Respublikasining mulkchilik to'g'risidagi qonunida (7- modda), xususiy mulk o'z mol-mulkiga xususiy egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iboratdir deb ko'rsatilgan. Shu bilan birga xususiy mulk bo'lgan mol- mulkning miqdori va qiymati cheklanmasligi ta'kidlanadi. Xususiy mulk ham, boshqa har qanday mulk shakllari kabi, o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. U, so'zsiz, tashabbuskorlik va tadbirkorlikni, mehnatga mas'uliyatlilik munosabatlarini rag'batlantiradi. Shu bilan birga, tovar ishlab chiqarish sharoitida u xufyona daromad o'rttirishga intilish hissini tug'diradi. Mulchilikning bu shaklini tan olish iqtisodiyotda uni qo'llash foydali bo'lgan bo'g'inlarni aniqlash, uni tartibga solishning moliyaviy va huquqiy mexanizmlarini shakllantirishni taqozo qiladi. Lekin xususiy mulchilikni bunday tan olish uni mutlaqlashtirish bilan umuman bog'liq emas. Bu mulk sotib olingan ishlab chiqarish vositalari asosida mustaqil xo'jalik yuritish yoki davlat korxonalari, kooperativ firmalar, magazin, oshxona va shu kabilarni sotib olish orqali vujudga kelishi mumkin. Turli shakldagi mulklarining birikib ketishi natijasida aralash mulk paydo bo'ladi. Bu mulk alohida olingan ob'ektning turli mulkdorlar ishtirokida o'zlashtirilishini bildiradi.

Davlat tasarrufidan chiqarish – davlat korxonalarini va tashkilotlarini jamoa, ijara korxonalariga, aksiyali jamiyatlarga, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga, davlatga qarashli mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir. Xususiylashtirish – fuqarolarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki ob'ektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir. Bundan ko'rinadiki, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirishga qaraganda ancha keng tushuncha. Xususiylashtirish - davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan xususiy shaxslarga o'tishidir. Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirishdan tashqari, bu mulk hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirishni ham ko'zda tutadi. U bir qator yo'llar bilan amalga oshiriladi:

2.1- rasm. Davlat mulkini xususiylashtirishdan chiqarish

Mulkn davlat tasarrufidan chiqarish yo'llari



davlat korxonalarini aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish, davlat korxonasini sotib, uni jamoa mulkiga aylantirish;

mulkn qiymatga qarab chiqarilgan cheklar (vaucher) bo'yicha fuqarolarga bepul berish; mulkn ayrim tadbirkor va ish boshqaruvchilarga sotish; ayrim davlat korxonalarini chet el firma va fuqarolariga sotish yoki qarz hisobiga berish; davlat mol-mulknini auksionlarda kim oshdi savdosi orqali sotish va h.k.

Xususiylashtirishning usullari ham turli-tuman bo'lib, ularni 3 guruhga ajratish mumkin: 1) davlat mulknini bepul bo'lib berish orqali xususiylashtirish; 2) davlat mulknini sotish orqali xususiylashtirish; 3) davlat mulknini bepul bo'lib berish hamda sotishni uyg'unlashtirish orqali xususiylashtirish. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning dastlabki pallasidayoq mulkchilikning hamma shakllari teng huquqli ekanligi konstitusion tarzda e'tirof etildi va davlat mulki monopolizmini tugatish hamda bu mulkn xususiylashtirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirish vazifasi qo'yildi. Avvalo mulkchilikning turli xil shakllari qaror topishi uchun teng huquqiy me'yorlar va amal qilish mexanizmlari yaratildi. O'zbekistonda mulkn davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga yondashuvning muhim xususiyati – uni maxsus dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat.

1992-1993 yillar xususiylashtirishning birinchi bosqichini o'z ichiga olib, bu bosqichda xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash tizimini qamrab oldi.

Davlat mulkini xususiylashtirish usullari. Aholining ayrim ijtimoiy qatlamlariga bepul berish Barcha jamiyat a'zolariga bepul Barcha jamiyat a'zolariga sotish bo'lib berish Mehnat jamoalariga bepul Mehnat jamoalariga sotish topshirish Kim oshdi savdosida fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga sotish Har bir jamiyat a'zosining davlat mulkini hosil qilishdagi ishtiroki, ya'ni qo'shgan hissasiga qarab bo'lib berish Korxonalarni keyinchalik mehnat jamoalari tomonidan sotib olinishi sharti bilan ijara berish Mulkn bepul bo'lib berish orqali xususiylashtirish Mulkn sotish orqali xususiylashtirish Yengil, mahalliy sanoatga, transport va qurilishga, boshqa tarmoqlarga qarashli ayrim o'rta va yirik korxonalar keyinchalik sotib olinish huquqi bilan ko'proq ijara korxonalariga, jamoa korxonalariga, yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Aksiyalarning nazorat paketi davlat ixtiyorida saqlab qolindi.

Xususiylashtirishning birinchi bosqichida davlat iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lgan, biroq butun mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydigan ayrim sektorlarni, ayrim korxonalarni saqlab turishni va mablag' bilan ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oldi. 2.1-chizma O'zbekistonda mulkn davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari Umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash tizimi

korxonalarini xususiylashtirish Ko'plab o'rta va yirik korxonalar hissadorlik jamiyatlariga aylantirish hamda ularning aksiyalarini respublika qimmatli qog'ozlar bozorida sotish Aksiyalarining nazorat paketi davlat mulkida bo'lgan yirik korxonalar va tarmoqlarni xususiylashtirish:

I- bosqich (1992-1993 yillar);

II- bosqich (1994-1995 yillar);

III- bosqich (1996-1998 yillar);

IV- bosqich (1998-2002 yillar);

Xususiylashtirilgan korxonalariga xorijiy investisiyalarni jalb etish, boshqaruv samaradorligini oshirish va mulkchilik yangi munosabatlarini to'laqonli amal qilishi uchun sharoitlar yaratish.

V-bosqich (2003 yildan boshlab) Xususiylashtirish jarayonlari samaradorligini oshirish va jadallashtirish, iqtisodiyotda xususiylashtirish sektorining ishtirokini kuchaytirish va salmog'ini oshirish Foyda keltirmayotgan korxonani mehnat jamoasiga bo'lib berish Chet el firmalari va fuqarolariga tashqi qarzni uzish evaziga berish yoki sotish Mulkn bepul bo'lib berish hamda sotish usullarini uyg'unlashtirish orqali xususiylashtirish. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichi natijasida kichik xususiylashtirish amalda tugallandi, davlat mulkini boshqarish va uni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish uchun kerak bo'lgan muassasalar tizimi vujudga keltirildi. Savdo, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, mahalliy sanoat korxonalarini xususiylashtirish va jamoa mulki qilib berildi. Bu bosqichda ko'plab o'rta va yirik korxonalar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi

hamda ularning aksiyalari respublika qimmatli qog'ozlar bozorining asosini tashkil etdi. Davlat mulki aksiyadorlikka aylantirilishi bilan bir qatorda kichik xususiy biznes korxonalarini tashkil qilish jadallashtirildi. Mulkn davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning bu bosqichida ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarini vujudga keltirish, davlat mulkini tanlov asosida hamda kim oshdi savdosida sotish amaliyotga joriy qilindi. Ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bozorining yangi muassasalari barpo etildi. Mulkn davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan keladigan samara ikki yoqlama tavsifga ega. Bir tomondan, u aholining bo'sh turgan mablag'larini o'ziga jalb qilib, ularning bozorga tazyiqini pasaytiradi. Ikkinchi tomondan, yangi mablag'larni ishlab chiqarishga jalb etish va tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatni yuzaga keltirish uchun sharoit yaratadi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, xususiylashtirish iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmagan sektorini shakllantirishning yagona yo'li emas. Tashabbuskorlik asosida yakka tartibdagi xususiy mulkchilikka asoslangan, shuningdek, turli xil kooperativlar, shirkatlar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ko'rinishidagi kichik va o'rta korxonalarni tashkil qilish – ikkinchi qudratli jarayon hisoblanadi. Respublika iqtisodiyoti 1996 yildan boshlab mulkn davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning uchinchi bosqichiga kirdi. Bu bosqich davrida (1996-1998 yillar) xususiylashtirilmaydigan ob'ektlar ro'yxatiga kirmagan barcha ob'ekt va korxonalar (jami 3146 ta) davlat tasarrufidan chiqarildi.

Xususiylashtirish jarayonlarining to'rtinchi bosqichi (1998-2003 yillar)ning asosiy vazifalari sifatida davlat byudjetiga xususiylashtirishdan tushgan mablag'larni yo'naltirish, xususiylashtirilgan korxonalariga xorijiy investisiyalarni jalb etish, boshqaruv samaradorligini oshirish va mulkchilik yangi munosabatlarini to'laqonli amal qilishi uchun sharoitlar yaratish tadbirlarini amalga oshirish belgilandi. Xususan, ususiylashtirilgan korxonalar davlat aktivlarining boshlang'ich narxlarini sekin-asta pasaytirib borish hamda davlat, iqtisodiy nochor korxonalarni va past likvidli ob'ektlarni nol' darajadagi xarid qiymati bo'yicha tanlov asosida investisiya majburiyatlarini qabul qilish sharti bilan investorlarga sotish tartiblari tasdiqlandi. O'zbekistonda xususiylashtirishning to'lovliigi uning navbatdagi muhim xususiyatidir. Pulni to'lash orqali davlat tasarrufidagi korxonalar va ob'ektlarni xususiylashtirishda mulkn bepul taqsimlash bilan bog'liq salbiy holatlar bartaraf etilishi bilan birga qator muammolarni hal qilish imkoniyati yaratiladi. Bulardan asosiysi avvalo tadbirkorlikni, xususiylashtirilgan korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning moliyaviy manbalari paydo bo'ladi, bozor infratuzilmasini barpo etish uchun resurslar vujudga keladi va aholini ijtimoiy muhofazalash dasturini ro'yobga chiqarish uchun mablag'lar jamlanadi. Davlat mol-mulknini yangi mulkdorlarga sotish yo'li orqali ularni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirilishi bilan birga xususiylashtirishdan olinadigan mablag'lar shu korxonaning o'zini qo'llabquvvatlashga, yangi raqobatlashuvchi korxonalar barpo etishga ham sarflanadi. Navbatdagi muhim xususiyat – respublikada mulkn davlat

tasarrufidan chiqarish chog'ida aholi uchun kuchli ijtimoiy kafolatlar yaratildi va ta'minlandi. Ijtimoiy kafolatlar bir butun imtiyozlar tizimi orqali yaratildi. Bular xususiylashtirilayotgan korxonalar mehnat jamoasiga aksiyalarni imtiyozli shartlar bilan sotish, yangi mulkdorga eskirgan asosiy fondlar hamda ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini bepul topshirish, davlat korxonalarining mol-mulki, fermalar, bog'lar va shu kabilarni imtiyozli shartlar asosida xususiylashtirish hamda soliq to'lashda ayrim imtiyozlar berish kabilardir.

2.2. Mulknii davlat tasarrufdan chiqarish va xususiylashtirish

Mulknii davlat tasarrufdan chiqarish va xususiylashtirish – korxonalar ustav fondida davlat ulushining qisqarishi, ularning investision jozibadorligini oshirish va xorijiy investorlarni xususiylashtirish jarayoniga jalb etishni kengaytirishga qaratilgan kompleks dasturdan iborat jarayondir.

Xususiylashtirish – muhim iqtisodiy tadbirlardan biri. Bu nafaqat byudjetga tushumni ta'minlaydi, balki yangi investisiya loyihalari, ish o'rinlari va qo'shilgan qiymat uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Chunki tadbirkorlik rivoji uchun eng zarur sharoit, avvalo, yer, bino va infratuzilmadir. Shu bois xususiylashtirish masalasi iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Joriy va kelgusi yilda davlat ulushi bo'lgan korxonalar sonini kamida 3 barobar qisqartirish bo'yicha ish olib borilmoqda. Bu islohotlar dunyodagi nufuzli ekspertlar va ommaviy axborot vositalari tomonidan ham e'tirof etilmoqda. 2020 yil 27 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan edi. Bu boradagi ishlar o'z samarasini berib, joriy yilning birinchi yarmida 478 ta davlat mulki 1 trillion 100 milliard so'mga sotildi. Lekin, bu borada qilinadigan ishlar hali ko'p. Xususan, sotilishi belgilangan 556 ta mulkdan 288 tasi savdolarga chiqarilmagan. Shuningdek, davlat korxonalari va banklar ixtiyorida ularning asosiy faoliyatiga xos bo'lmagan 511 ta ob'ekt haligacha sotilmasdan turibdi. Yig'ilishda xususiylashtirish jarayonini samarali tashkil etish, auksionda qatnashish tartiblarini soddalashtirish va ishtirokchilar sonini ko'paytirishga qaratilgan vazifalar muhokama qilindi. Qayd etilganidek, joriy yilda 900 dan ortiq davlat mulki sotuvga qo'yiladi. Endi davlat mulklarini "1 so'm" qiymatda savdoga chiqarish, yer uchastkalarini investisiya majburiyati bilan sotish amaliyoti bekor qilinadi va ular bozor bahosida elektron savdolarga chiqariladi. Bundan tashqari, onlayn auksionda qatnashish uchun to'lovlar bekor qilinadi va tadbirkorlarga elektron ro'yxatdan o'tish xarajatlari Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan qoplab beriladi. Auksionda mulkni sotib olganda, to'lov muddati hozirgi 5 kundan 15 kungacha uzaytiriladi. Bundan buyon, davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlarning bino-inoqatlarini, transport vositalarini sotish va ijaraga berishni faqat elektron auksion orqali amalga oshirish tartibi joriy etiladi. Mutasaddilarga ushbu yangi

tartiblarni nazarda tutuvchi qaror loyihasi ishlab chiqish topshirildi. Toshkent shahridagi 13 ta yirik ko'chmas mulk ob'ekti hamda 11 ta tarmoq korxonalaridagi davlat ulushlarini xorijiy konsul'tantlarni jalb qilgan holda, sotuvga chiqarildi. Viloyat, tuman va shahar hokimlariga o'z vakolatidagi 154 ta bo'sh turgan ob'ektni bir oy muddatda savdoga chiqarish vazifasi qo'yildi.

Hokimliklar tomonidan sotuvga chiqarilgan mulklar sotilganda, hududlar ixtiyorida qoladigan mablag'lar ulushi 73 foizdan 87 foizga oshiriladigan bo'ldi. Bu mablag'lar viloyat va tumanlar (shahar) byudjetlari o'rtasida teng taqsimlanadi. Faoliyat yuritmayotgan yoki zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va modernizatsiya qilish bo'yicha takliflar muhokama qilindi. "Iqtisodiyotda davlat ishtiroki kamaytirilib, xususiy tadbirkorlik rivojiga keng o'rin berilmoqda. 2021-2022 yillarda davlat ulushi bo'lgan korxonalar sonini kamida 3 barobar qisqartirish rejalashtirilgan. Joriy yilda 4 trillion 500 milliard so'mlik 619 ta davlat aktivi sotilgan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti lavozimiga kirishish marosimida Shavkat Mirziyoev davlat korxonalarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini tezlashtirish iqtisodiyotni isloh etishning ustuvor vazifalaridan biri bo'lishini aytgan edi. Davlat rahbari xususiylashtirishning yangi usullarini joriy etish va uning barcha bosqichlarida ochiq-oshkoralikni ta'minlash eng asosiy masala ekanini ta'kidladi. Xususiylashtirilayotgan korxonalarining moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligini oshirish muhimligi qayd etildi. Shu maqsadda, nufuzli xorijiy konsul'tantlarni jalb qilgan holda, yirik tarmoq korxonalarini xususiylashtirish strategiyasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, strategik korxonalar boshqaruviga xalqaro malakaga ega menejerlarni jalb qilish zarurligi aytiladi. Qiymati 10 million dollardan yuqori bo'lgan aktivlarni sotish jarayonida takliflarni qabul qilish va ularni baholash mustaqil xorijiy konsul'tant tomonidan amalga oshirilishi belgilandi.

Sohada kelgusi yilga mo'ljallangan vazifalar ham ko'p. Jumladan, 32 ta yirik davlat aktivini sotish, "O'zsanoatqurilishbank"ni xususiylashtirish, davlat korxonalarining 368 ta nosohaviy va samarasiz aktivlarini savdoga chiqarish rejalashtirilgan. Hududlarda 770 ta aktiv sotishga tayyorlangan. Bular orqali byudjetga qariyb 10 trillion so'm tushum ta'minlanishi ko'zda tutilgan.

Prezident davlat korxonalariga strategik investorlarni jalb qilish, faqat mavjud quvvatlarni ishlatish bilan cheklanmasdan, korxonalar faoliyatini kengaytirish zarurligini ta'kidladi. Misol uchun, "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyati negizida uchta alohida korxonalar tashkil etgan holda, "kimyo sanoati klasteri" faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Bu klaster infratuzilmasini boshqarish uchun tajribali xususiy operator jalb qilinadi. Davlat rahbari investorlar sarmoya kiritish bilan birga yangi loyihalar taklif qilishi, zamonaviy bilim va texnologiyalarni olib kelishi muhimligini ta'kidladi. Shuni inobatga olgan holda, 2022 yil uchun xususiylashtirish dasturini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Nazorat uchun savollar:

1. Mulkchilik turlari va shakllari.
2. Mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar.
3. Xususiylashtirish va uning bosqichlari.
4. O'zbekistonda xususiylashtirish jarayoni qanday olib borilayotganligi haqida ma'lumot bering.

3-Mavzu. Bozor va raqobat.

3.1. Davlatning bozor tizimidagi tutgan o'rnini va iqtisodiyotga aralashuvining zaruriyati.

Bozor iqtisodiyoti – bu tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir. Bozor xo'jaligining barcha asosiy sub'ektlari uchta guruhga bo'linadi: uy xo'jaliklari, korxonalar (tadbirkorlik sektori) va davlat.

Uy xo'jaliklari – iqtisodiyotning iste'mol sohasida faoliyat qiluvchi asosiy tarkibiy birlik. Uy xo'jaliklari doirasida moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yaratilgan tovar va xizmatlar iste'mol qilinadi. Bozor iqtisodiyotida uy xo'jaliklari mulk egasi hamda ishlab chiqarish omillarini etkazib beruvchilar hisoblanadi. Iqtisodiy resurslarni sotishdan olingan pul daromadlari shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun sarflanadi.

Tadbirkorlik sektori – bu daromad (foyda) olish maqsadida amal qiluvchi iqtisodiyotning birlamchi bo'g'inlaridir. U ish yuritish uchun o'z kapitalini yoki qarz olingan kapitalni ishga solishni taqozo etadi, bu kapitaldan olingan daromad ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun sarflanadi. Tadbirkorlar tovar xo'jaligida tovar va xizmatlarni etkazib beradi.

Davlat – foyda olishni maqsad qilib qo'ymagan, asosan iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan, har xil byudjet tashkilotlari va muassasalari sifatida namoyon bo'ladi.

Bank – iqtisodiyotning me'yorda amal qilishi uchun zarur bo'lgan pul massasi harakatini tartibga soluvchi moliya-kredit muassasasi. Har qanday bozor iqtisodiyotini tartibga solish mexanizmi asosan to'rtta tarkibiy qismdan iborat bo'ladi: narx, talab va taklif hamda raqobat.

Bozor iqtisodiyotining muhim va umumiy belgilari quyidagilardan iborat:

- turli shakllardagi mulkchilikning mavjud bo'lishi va unda xususiy mulkchilikning ustun turishi;
- tadbirkorlik va tanlov erkinligi;
- raqobat kurashning mavjudligi;
- davlatning iqtisodiyotga cheklangan holda aralashuvi;
- korxonalar va firmalarning ichki va tashqi shart-sharoitlar o'zgarishlariga moslashuvchanligi.

Har qanday iqtisodiy tizim singari bozor iqtisodiyoti ham iqtisodiyotning umumiy muammolarini ifoda etuvchi quyidagi savollarga javob topishi zarur: nima va qancha miqdorda ishlab chiqarish zarur? qanday texnika va texnologiya bilan ishlab chiqarish zarur? kim uchun ishlab chiqarish zarur?

Bozor iqtisodiyotining afzalliklari quyidagi jihatlar orqali ifodalash mumkin:

1) **resurslarni taqsimlashning samaradorligi.** Bozor tizimi resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. Bozor tizimi shaxsiy manfaatni shunday tartibda boshqaradiki, u jamiyat uchun mavjud resurslardan zarur tovarlarni talab darajasidagi miqdorda ishlab chiqarishni ta'minlaydi;

2) **erkinlik.** Bozor iqtisodiyoti tizimining muhim afzalliklaridan biri shundaki, u shaxsiy erkinlik roliga ustivorlik beradi. Ko'plab ayrim shaxslar va korxonalar iqtisodiy faoliyatini uyg'unlashtirish tashkil qilishning asosiy muammolaridan biridir. Bunday uyg'unlashtirishni amalga oshirishning ikki usuli mavjud. Biri – markazdan boshqarish va majbur qilish tadbirlarini qo'llash; ikkinchisi – bozor tizimi vositasi orqali ixtiyoriy hamkorlik. Faqat bozor tizimigina iqtisodiy faoliyatni majbur qilmasdan uyg'unlashtirishga layoqatlidir. Bozor iqtisodiyoti tadbirkorlik va tanlash erkinligini namoyish qiladi, xususan shu asosda u muvaffaqiyatga erishadi.

3) **harakatchanlik.** Bozor iqtisodiyotining yana bir afzalligi shundaki, bunda har bir shaxs, korxonalar, firma va korporatsiyalar tinimsiz harakatda va izlanishda bo'lishadi. Shunki xo'jasizlik, sustkashlik, beg'amlik har qanday xo'jalik tizimini xonavayron qilishga olib keladi. Jismoniy va yuridik shaxslar raqobatga bardosh berish, doimiy ravishda foyda olishni ta'minlash uchun kurashadi. Natijada bozor iqtisodiyoti million-million kishilarni harakatga soladi, ularni boqimandalik kayfiyatidan qutqaradi.

Bozor iqtisodiyotning yuqorida ko'rib chiqilgan asosiy afzalliklari bilan bir qatorda boshqa ko'plab **ijobiy jihatlari** ham sanab o'tish mumkin. Jumladan:

- uning ishlab chiqarishning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashuvi va ko'nikishining yuqori darajasi;
- fan va texnika yutuqlaridan foydalanish, ularni ishlab chiqarishga joriy etishning juda sur'ati;
- turli-tuman ehtiyojlarni qondirish, mahsulot sifatini oshirish qobiliyati;
- buzilgan muvozanatni nisbatan tezlik bilan qayta tiklash;
- cheklangan axborot – turli resurslarning narx darajasi va ularning sarflanish darajasiga yo'nalgan holda bozor iqtisodiyotining muvaf-faqiyatli amal qila olish imkoniyati.

Bozor iqtisodiyotining asosiy ziddiyati – raqobatning kuchsizlanishiga yo'l qo'yish va uni rag'batlantirish. aksariyat hollarda ko'p miqdordagi mayda firmalar emas, uncha ko'p bo'lmagan yirik ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lishini taqozo qiladi

Bozor iqtisodiyotning navbatdagi ziddiyati – jamiyat a'zolari daromadlaridagi tengsizlikning kuchayib borishi va aholining tabaqalanishidir. Bunday iqtisodiyot

har qanday yuksak darajada rivojlanmasin daromadlar tengsizligini bartaraf qila olmaydi, faqat uni ma'lum darajada yumshatish mumkin.

Bozor iqtisodiyotining umumiy e'tirof qilingan ziddiyatlaridan biri – ijtimoiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarib, bozorga taklif qilishga qodir emaslikdir. Shu sababli jamiyat a'zolarini bunday ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlash davlat zimmasida bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotining ziddiyatli tomonlaridan yana biri – tovarlar hajmi bilan pul massasi o'rtasidagi ro'y berib turadigan nomuvofiqlikni bartaraf eta olmasligidir. Bozor tushunchasi bozor iqtisodiyotining markaziy kategoriyasi bo'lib, iqtisodiyot nazariyasida ham, xo'jalik yuritish amaliyotida ham, barcha mamlakatlar tajribasida ham qo'llaniladigan ilmiy-amaliy tushunchadir.

Bozor ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida pul orqali ayirboshlash (oldi-sotdi) jarayonida bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Bozor sub'ektlari ikki guruhga – sotuvchi va xaridorlarga bo'linib, ular bozor munosabatlarining turli vazifalarini bajaradi. Sotuvchilar bozorga tovar va xizmatlarni taklif etadi, xaridorlar esa ularga talab bildiradi. Bozor o'z sub'ektlari manfaatini bir-biriga bog'lab, ularni muvofiqlashtiradi.

- Bozorning asosiy vazifasi ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlarni, iqtisodiy resurslarni **iste'molchilarga etkazib berishdan** iboratdir. Bu yerda bozor ishlab chiqarish bilan iste'molni bir-biriga bog'laydi, ishlab chiqarilgan tovar yoki xizmat o'z iste'molchisini topadi.
- Bozor ayirboshlash kategoriyasi bo'lib, **ishlab chiqarishning uzluksiz takrorlanib turishiga yordam beradi**. Ishlab chiqarish, yangidan boshlanishi uchun yaratilgan tovarlar sotilishi va ularning pulga aylanishi, puldan esa kerakli iqtisodiy resurslar xarid qilinishi zarur. Bozor vositasida tovarni sotishdan tushgan mablag'lar hisobiga, ishlab chiqaruvchilar resurslar sotib olish yo'li bilan sarflangan ishlab chiqarish vositalari o'rmini qoplaydigan va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun kerakli moddiy va mehnat resurslariga ega bo'ladilar. Bozor orqali resurslarning erkin harakati ta'minlanadi va ularning tarmoqlar o'rtasida taqsimlanishi ro'y beradi.

Bozor **iqtisodiyotni tartibga solib turish vazifasini** talab, taklif, raqobat va narxlar yordamida bajaradi. U o'zida talab va taklifni jamlab, bu bilan nimani, qancha miqdorda va qaysi vaqtda ishlab chiqarish kerakligini aniqlab beradi. Bozor narx vositasida iqtisodiy resurslarni tovarlarga talab kamaygan tarmoqlardan talab ortgan tarmoqlarga oqib kelishini ta'minlaydi.

Bozorning ichki tuzilishi murakkab bo'lganligi sababli uni turkumlashda quyidagi asosiy mezonlarga asoslaniladi:

- bozorning etuklik darajasi;

- sotiladigan va sotib olinadigan mahsulot turi;
- bozor sub'ektlari xususiyatlari;
- bozor miqyosi,
- iqtisodiy aloqalar tavsifi va boshqalar.

Bozorning **etuklik darajasiga qarab** rivojlanmagan bozor, klassik (erkin) bozor, hozirgi zamon rivojlangan bozorlarga bo'linadi. **Rivojlanmagan, shakllanayotgan bozor** ko'proq, tasodifiy tavsifga ega bo'lib, unda tovarni tovarga ayirboshlash usuli (barter) ko'proq qo'llaniladi. Lekin hozirgi davrda ham ayrim mamlakatlarda pul inqirozga uchrab, ijtimoiy ishonchni yo'qotgan, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davrlarda ham bu bozor amal qilishi mumkin. **Erkin (klassik) bozor** – tovar va xizmatlarning har bir turi bo'yicha juda ko'p ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, ya'ni sotuvchilar va sotib oluvchilardan iborat bo'lib, pul orqali ayirboshlash jarayonida ular o'rtasida erkin raqobat kelib chiqadi, narxlar talab va taklif o'rtasidagi nisbatga qarab erkin shakllanadi, raqobatning turli usullari qo'llaniladi, aholi va ishlab chiqaruvchilar keskin tabaqalanadi. **Hozirgi zamon rivojlangan bozori** – bunda davlat ham bozor ishtirokchisi bo'lib, bozor ancha tartiblashtiriladi va boshqariladi, turli xil birjalar va boshqa oldi-sotdi jarayoniga xizmat qiluvchi sohalar rivojlangan bo'ladi, raqobat kurashlari aholining tabaqalashuvi yumshatilib, ularning daromadlari darajasi o'rtasidagi farqlar kamayadi. Bozor **hududiy jihatdan** quyidagi turlarga bo'linadi: **mahalliy bozorlar** (Toshkent bozori, Samarqand bozori, Urgut bozori, London bozori, Nyu-York bozori, Pekin bozori va boshqalar); **milliy bozorlar** (O'zbekiston bozori, Rossiya bozori, Ukraina bozori, Angliya bozori, Amerika bozori, Xitoy bozori va boshqalar); **hududiy bozorlar** (Markaziy Osiyo yoki Osiyo bozori, G'arbiy Evropa bozori) va **jahon bozori**. **Sotiladigan va sotib olinadigan tovar, xizmat turiga ko'ra** bozorlar quyidagi turlarga bo'linadi: iste'mol tovarlari va xizmatlari bozori, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi (resurslar) bozori, valyuta bozori va fond birjalari, ilmiy texnika kashfiyoti va ishlanmalar bozori.

Muomalaga chiqadigan sub'ektlarning xususiyatiga ko'ra ulgurji va chakana savdo to'g'risida gap yuritiladi. Shakana savdoda asosan sotib oluvchilar fuqarolar hisoblanadi. Turli shakldagi korxonalar, firmalar, xususiy do'konlar va boshqalar esa sotuvchi hisoblanadi. Ulgurji savdoda davlat tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid qilish alohida o'rin tutadi. Bunda asosiy xaridor davlat, sotuvchilar esa dehqon va fermerlar xo'jaliklaridir.

Bozor infratuzilmasi – bu bozor aloqalarini o'rnatish va ularning bir maromda amal qilishga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tizimidir. Unga ombor xo'jaligi, transport, aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar, tovar va xizmatlar muomalasiga xizmat qiluvchi muassasalar (birjalar, auksionlar, savdo uylari, savdo-sotiq idoralari va agentliklari kabilar), moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasalar (bank turidagi muassasalar, kreditlash idoralari, sug'urta va

moliya kompaniyalari, soliq idoralari) va ijtimoiy sohaga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar (uy-joy va kommunal xizmat idoralari, aholini ishga joylashtirish firmalari) kiradi. Axborot xizmati idoralari ham bozor infratuzilmasining alohida bo'g'inini tashkil qilib, ularga ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va sotish bilan shug'ullanuvchi kompaniya va firmalar kiradi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri – ma'muriy-buyruqbozlik tizimini bartaraf etish yoki tubdan o'zgartirish hamda bozor tizimining asoslarini shakllantirish jarayonlari amalga oshiriluvchi tarixiy davrdir.

Jahon tajribasida bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha yo'llari umumlashtirilib, quyidagi uchta asosiy turga bo'linadi:

- 1) rivojlangan mamlakatlar yo'li;
- 2) rivojlanayotgan mamlakatlar yo'li;
- 3) sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'li;
- 4) sotsializm g'oyalarini samarali bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish mexanizmi bilan qo'shib olib borish yo'li (Xitoy, Vetnam).

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, bozor iqtisodiyotiga **revolyusion yo'l** bilan, ya'ni jadal usulda yoki **evolyusion yo'l** bilan, ya'ni bosqichma-bosqich o'tish mumkin. Birinchi holda, tub islohotlarni o'tkazish, avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni birdagina va batamom sindirish talab etilib, «karaxt qilib davolash» usuli («shokovaya terapiya») deb ataladi. Eski iqtisodiy munosabatlarni bosqichma-bosqich yangi bozor munosabatlariga aylantira borib, samarali bozor iqtisodiyotini shikastsiz vujudga keltirish mumkin. Islohotlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, evolyusion yo'l kamroq ijtimoiy larzalarga olib keladi, ancha izchil va muqarrardir. **2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga binoa tasdiqlandi. Unda quyidagilar ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan:

1. **Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari**
 - 1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish;
 - 1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish;
 - 1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish;
2. **Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari**
 - 2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish;

- 2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;
- 2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish;
- 2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish;
- 2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash;
- 2.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish;
3. **Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari**
- 3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish:
 - makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
 - xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat budjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish; soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish;
 - ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul- kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;
 - bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;
 - sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish
 - hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;
- 3.2. xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, etakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan

tashqi qarzar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

- milliy iqtisodiyotning mutanosibli va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;
- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;
- yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;
- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;
- prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;
- ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;
- iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;
- faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;
- xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rnini va ulushini oshirish, ko'rsatayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

- turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;
- eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;
- yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

- tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;
- paxta va boshqali don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan erlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;
- fermer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish;
- sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob'ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish;
- kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy er-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya

navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

- global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora- tadbirlar ko'rish.

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

- xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi» degan tamoyilni amalga oshirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;
- davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob'ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;
- korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish; tadbirkorlik sub'ektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib- taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;
- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo,

sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

- hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;
- yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;
- sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish;
- sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish ob'ektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis- kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

4. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

- 4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:
 - 4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish:
 - 4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik- kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:
 - 4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:
 - 4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:
- 5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar**
- 5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:
 - 5.2. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.

3.2. Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish xaqidagi turli nazariyalardagi yondashishlar: klassik nazariya (A. Smit), Keynes nazariyasi, monetarizm (M. Fridmen). Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi va vazifalari. Iqtisodiy siyosat ta'rifi, uning turlari.

Barcha iqtisodiy tizimlarda davlat va bozor tizimi o'ziga xos ahamiyat kasb etib, har biri mustaqil amal qiladi. Shu bilan birga turli iqtisodiy tizimlar bir- biridan iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlat va bozor rolining nisbati bo'yicha keskin farqlanadi. Masalan, bir iqtisodiy tizim ko'proq davlat tomonidan boshqarishga tayansa, boshqasi bozor mexanizmi orqali tartiblashga ustunlik beradi. Mustaqil taraqqiyot davrida «mamlakatimizning uzoq va davomli manfaatlari taqozo etgan holatlarda va keskin vaziyatlardan chiqish, ular tug'diradigan muammolarni hal etish zarur bo'lganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qo'llandi va bunday yondashuv oxir-oqibatda o'zini to'la oqladi».

Milliy iqtisodiyotning samaradorligiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, uning darajasi ko'p jihatdan iqtisodiyotdagi davlat yoki bozor tizimining tutgan roliga bog'liq. Chunki milliy iqtisodiyotning yuqori samaradorligiga asosan quyidagi yo'llar orqali erishiladi:

- 1) iqtisodiyotni tartibga solishning bozor usullarini qo'llash;
- 2) iqtisodiyotni faqat davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarish;
- 3) takror ishlab chiqarish jarayoniga davlatning aralashuvi va bozor usullarini uyg'unlashtirish. Hozirgi davrda O'zbekistonning milliy iqtisodiyoti rivoji uchun ko'proq uchinchi yo'l xususiyatli hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiyotdagi roli masalasi ilmiy asosda birinchi marta A.Smit tomonidan ko'rib chiqilgan. Uning «Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini tadqiq qilish haqida» (1776) nomli asarida iqtisodiyotning bozor usullari orqali o'zini o'zi tartibga solishining zarurligi ta'kidlab o'tilgan. A.Smitning fikricha, xususiy tovar ishlab chiqaruvchilar bozori davlat nazoratidan to'liq ozod bo'lishi zarur. Ana shundagina iste'molchilar talabiga mos ravishda ishlab chiqarishni tashkil qilish imkoni mavjud bo'ladi. Bunda bozor vositasida tartibga solish, har qanday chetdan aralashuvsiz, ishlab chiqaruvchilarni butun jamiyat manfaatlari uchun harakat qilishga majbur qiladi. A.Smit davlatning iqtisodiy jarayonlarga har qanday aralashuvi oxir oqibatda faqat vaziyatni yomonlashtiradi deb hisoblaydi. Masalan, davlat tomonidan belgilangan tashqi savdo tartib-qoidalari milliy iste'molchilarga faqat zarar keltirishi mumkin. Haqiqatdan ham importga boj to'lovi milliy ishlab chiqaruvchilarga ustunlik berib, ularning chet el sheriklariga nisbatan raqobatlashuv qobiliyatini oshiradi. Ammo bu oxir oqibatda ishlab chiqarishning ancha yuqori xarajatlari va past sifatini saqlanib qolishiga olib keladi. Bundan past sifatli va narxi qimmat tovarlarni sotib olishga majbur bo'lgan milliy iste'molchilar zarar ko'radilar.

A.Smitning «Tinch qo'yish» nazariyasi, 1929-1933 yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz davrida tanqidga uchradi. Iqtisodiy tanazzul va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kuchaytirishni taqozo qildi.

Davlatning iqtisodiyotdagi rolini oshirish masalasi J.M.Keynsning «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936) nomli asarida o'z aksini topdi. Unda muallif davlat fiskal (xazinaviy) va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag'batlantirishni va aholining ish bilan bandligini ta'minlashi zarurligini isbotlaydi.

Monetar maktab namoyandalari (M.Fridmen, E.Felps va boshqalar) bozor iqtisodiyotini o'z-o'zidan tartiblanuvchi tizim sifatida baholab, undagi narx mexanizmining o'zi bandlikning oqilona darajasini belgilab berishini ta'kidlaydilar. Bunday tizimga davlat tomonidan har qanday aralashuv bozorning o'zini-o'zi tartibga solish mexanizmini ishdan chiqaradi. Davlatning pul vositasida yalpi talabni rag'batlantirishi esa pirovardida inflyasiya jarayonlarining kuchayishini keltirib chiqaradi. Amalda gap davlatning uzluksiz ravishda inqirozga qarshi siyosat o'tkazishi, iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini tugatish va sanoat siklining o'zgarishini bartaraf etish haqida ketadi. Keyns nazariyasi ancha tugal shaklda AQShda amalga oshirildi.

Urushdan keyingi davrda Keyns nazariyasidagi ko'rsatmalar u yoki bu darajada bozor iqtisodiyoti amalda ustun bo'lgan barcha mamlakatlarda foydalanildi. Shu bilan birga davlatni iqtisodiyotdagi rolining yanada ko'proq oshib borishi ro'y berdi. Hozirgi davrda davlat tomonidan tartibga solishning muhim maqsadi sifatida nafaqat siklga qarshi tartibga solish va ish bilan bandlikni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishning yuqori darajasini va yaxlit takror ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishni rag'batlantirish tan olinadi.

Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan tizimdan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvi quyidagi holatlar orqali izohlanadi.

Birinchidan, davlat milliy iqtisodiyotda o'zini o'zi bozor vositasida tartibga solish orqali bajarish mumkin bo'lmagan yoki samarali ravishda amalga oshirib bo'lmaydigan vazifalarni o'ziga oladi. Bular qatoriga mudofaani ta'minlash, mamlakatda ichki tartibni saqlash va aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoyalash kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va iste'molning xususiy tavsifi bir qator ijobiy va salbiy oqibatlarni tug'diradi. Bu oqibatlar bevosita uchinchi tomon manfaatida aks etib, kishilarning alohida guruhi va umuman jamiyat manfaatiga ta'sir qiladi. Masalan, chiqitli texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishlarda tozalash qurilmalariga xarajatlarni tejash, xususiy ishlab chiqaruvchilar nuqtai nazaridan (u yoki bu kompaniya yoki individual ishlab chiqaruvchi uchun) foydali, atrof-muhitni ifloslanishiga olib kelishi esa jamiyatning

boshqa a'zolari uchun qo'shimcha salbiy oqibatga ega. Davlat yakka tadbirkor yoki iste'molchidan farqli, jamiyat manfaatini ifodalab, qo'shimcha ijobiy samarani rag'batlantirishga va aksincha salbiy samara bilan bog'liq faoliyatni tartibga solish va cheklashga harakat qilishi zarur.

Uchinchidan, davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi shu sababli ro'y beradiki, individual iste'molchilar hamma vaqt u yoki bu tovarni iste'mol qilishning oqibatlarini ob'ektiv baholay olmaydilar. Shu nuqtai nazardan, davlat foydali iste'molni kengaytirish va aksincha sog'liqqa salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tovarlar iste'molini cheklash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Masalan, davlat tamaki mahsulotlari uchun yuqori aksiz (egri) solig'ini o'rnatib, bir tomondan o'zining daromadini oshirsa, boshqa tomondan shu mahsulotga bo'lgan talabni cheklaydi.

To'rtinchidan, davlat bozorning tabiatidan kelib chiqadigan ayrim holatlarni qisman yengillashtirish vazifasini o'z zimmasiga oladi. Bozor hamma uchun to'lovga qobil talabni qondirishga teng imkoniyatni ta'minlaydi. Ammo bu bozor mexanizmining milliy boylikni ijtimoiy- adolatli taqsimlashini anglatmaydi. Bunday sharoitda davlat aholi kam ta'minlangan qatlamining turmush darajasi haqida g'amxo'rlik qilish, bepul (yoki imtiyozli) bilim berish, tibbiy xizmat ko'rsatish va shu kabilarni o'z zimmasiga oladi.

Beshinchidan, hozirgi sharoitda barqaror, izchil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasi ham davlatning zimmasiga tushadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ma'lum chegaralari ham mavjud bo'lib, ular davlatning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siridan kelib chiqadi. Iqtisodiyotga davlatning har qanday aralashuvi ma'lum xarajatlarni taqozo etadi. Ularga eng avvalo tartibga solishni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha xarajatlarni kiritish mumkin. Shuningdek, tartibga solishning u yoki bu shakli bozor muvozanati, ishlab chiqarish hajmi, resurslarning qayta taqsimlanishiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'sirni ham hisobga olish lozim. Bunda tartibga solishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlarning miqdori davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi natijasida olinadigan samaradan kam bo'lishi lozim. Ularning nisbati davlatning iqtisodiyotga aralashuvi chegaralarini belgilab beradi.

XX asrning 80-yillarida rivojlangan mamlakatlarda yangi konservativ konsepsiyalar asosida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishni cheklash jarayonlari boshlandi. Bunda tartibga solishning an'anaviy shakllaridan voz kechildi, davlat mulkini xususiyashtirish yo'li bilan davlat sektori ulushi qisqartirildi, xo'jalik qarorlarini qabul qilishda nomarkazlashuv jarayonlari kuchaytirildi, iqtisodiyotdagi bozor mexanizmlarining ahamiyati oshirildi. Jumladan, AQShda bu tadbirlar «Amerikaning yangi rivojlanish yo'li: iqtisodiy jihatdan yangilanish dasturi» nomli yo'nalish asosida amalga oshirilib, unda daromad solig'i stavkalarining pasaytirilishi, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida yirik korporatsiyalar investisiyalari uchun soliq imtiyozlarini qo'llash, federal hukumat xarajatlarini cheklash, xususiy biznes faoliyatining davlat tomonidan tartibga

solinishini kamaytirish, inflyasiyaga qarshi pul-kredit siyosatini o'tkazish ko'zda tutilgan edi. Biroq, olib borilgan tadbirlar kutilgan natijani bermadi. Masalan, AQShda YaMMdagi davlat sarflari ulushi 1980 yilda 22,6% bo'lsa, 1987 yilga kelib 27%ga qadar o'sdi. Davlat qarzlari kamayish o'rniga o'sib ketdi, inflyasiyaning pasayishi moliya tizimining izdan chiqishdan saqlab qola olmadi. Aksincha, inflyasiyaning cheklanganligi uchun o'sish sur'atlarining pasayishi, ishsizlikning o'sishi, real ish haqining pasayishi kabi holatlar yuzaga keldi. Bunday jarayonlar Angliya, Yaponiya, Avstriya, Italiya va boshqa mamlakatlarda ham ro'y berdi.

90-yillardan boshlab iqtisodiyotni tartibga solishda keynscha tendensiyalar yangidan kuchaya boshladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yangi tipi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarni ro'yobga chiqarish, davlat tomonidan tartibga solishning moslashuvchanligini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri aralashuv shakllari va byurokratik nazoratning kamayishi bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiyotda ko'pgina mamlakatlarda milliy bozorlarning qaror topishi va jahon bozorining vujudga kelishi sharoitida (XVI–XVII asrlar) iqtisodiy bilim va qarashlarning yaxlit tizimi sifatida «siyosiy iqtisod» nomi bilan mustaqil fan sifatida shakllana boshladi. «**Siyosiy iqtisod**» yunoncha so'zdan olingan bo'lib, «politikos» – ijtimoiy, «oykos» – uy, uy xo'jaligi, «nomos» – qonun degan ma'nolarni anglatadi. Fransuz iqtisodchisi Antuan Monkret'en (1575–1621 y.) birinchi marta «Siyosiy iqtisod trakti» (1615 y.) asarida bu fanni ilmiy jihatdan asosladi va u 300 yildan ortiq vaqt davomida shu nom bilan rivojlandi.

Klassik siyosiy iqtisod – boylik faqat qishloq xo'jaligida emas, balki sanoat, transport, qurilish va boshqa sohalarda ham yaratilishini isbotlab berdi. Bozor munosabatlari afzalligi isbotlab berildi, ayniqsa, to'la iqtisodiy erkinlik siyosati ilgari surildi, xususiy mulk qo'llab-quvvatlanib shu g'oyalarga asoslangan holda xo'jalik yuritish eng mukammal ekanligi isbotlandi.

U. Petti (1623–1686 y.) boylikning manbai yer va mehnat ekanligini e'tirof etgan. «Mehnat boylikning otasi, yer uning onasi», degan ibora unga tegishlidir. Uil'yam Petti isbotlab berdiki, agar merkantalistlar hisobi bo'yicha ish yuritilsa, XVII asrda Angliya boyligining bor-yo'g'i 3 foizini javohirlar va pullar tashkil etgan bo'lardi. Vaholanki, o'sha davrda 5,5 million aholining 4,1 millioni qishloqlarda yashagan va dehqonchilik qilib, boylik yaratgan. Savdo-sotiqda 246 ming, sanoatda esa 240 ming kishi band bo'lgan. Bu davrda merkantalizm g'oyalari cheklangan edi.

A. Smit «Odamlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» (1776 y.) asarida talab va taklif asosida shakllanadigan erkin narxlar asosida bozor o'z-o'zini tartibga solishi («ko'rinmas qo'l») g'oyasini ilgari suradi. Insonni faollashtiradigan bozor erkinligi muhim rag'bat shaxsiy manfaatdir, deb ko'rsatadi. D. Rikardo mehnat qiymatning, turli darajadagi daromadlari va foydaning yagona manbai ekanligini ta'kidlagan.

Sismondi (Jon Sharl' Leonard Simon de Sismondi) kapitalistik iqtisodiy mexanizمنى tanqid qilib, siyosiy iqtisod inson baxti yo'lida ijtimoiy mexanizمنى takomillashtirishga qaratilgan fan bo'lmog'i lozim, deb uqtiradi.

Sosial-utopistlar (A.Sen-Simon, Sharl' Fur'e, Robert Ouen) kapitalizmni tanqid qilib, xususiy mulkchilikni yo'q qilish, ishlab chiqarish, taqsimot va iste'molni qayta tashkil etish va adolatli tuzum (industrial jamiyat, garmonik jamiyat, kommunizm) o'rnatish talabi bilan chiqadilar.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsad va vazifalari. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish ob'ektiv tavsif kasb etadi. Ko'plab iqtisodchilar iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishining zarurligini faqat bozorning kamchiliklari, uning ko'plab iqtisodiy muammolarni hal eta olmaslik holati bilan izohlaydilar. Bu ma'lum ma'noda to'g'ri bo'lsada, biroq, iqtisodiyotga davlat ta'sirining ob'ektiv zarurligi eng avvalo ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan belgilanadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ob'ektiv asosi bo'lib ham milliy iqtisodiyot darajasida, ham xalqaro miqyosda ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi negizida ishlab chiqarishning umumlashuvi jarayoni xizmat qiladi.

Bu jarayon quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-chuqurlashib borayotgan ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida ishlab chiqarish ixtisoslashgan tarmoqlarining o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligi yanada kuchayadi;

-ishlab chiqarishning kooperatsiyalashuvi va markazlashuvi natijasida alohida xo'jalik birliklarining mayda bo'laklarga ajralib ketish holatlari barham topadi;

-ishlab chiqarishning yirik korxonalarda to'planuvi jarayoni o'sadi;

-turli iqtisodiy mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar va faoliyat almashuvi jadallashadi.

Ishlab chiqarishning umumlashuvi darajasining oshishi bilan o'zaro muvofiqlashtirilgan holda xo'jalik yuritish, takror ishlab chiqarish nisbatlarini ongli ravishda tartibga solish, yirik ishlab chiqarish majmualari, yaxlit iqtisodiyotni markazlashtirilgan holda boshqarishga ob'ektiv ehtiyoj paydo bo'ladi. Shunga ko'ra, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish ishlab chiqarish munosabatlarining har qanday tizimida ishlab chiqarish umumlashuvining ma'lum darajasida ob'ektiv zaruriyatga aylanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish deganda davlatning jamiyat a'zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan iqtisodiy resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta'minlovchi, umumiy iqtisodiy muvozanatga erishishga yo'naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha faoliyati tushuniladi.

3.3. Mukammal va nomukammal raqobat. Talab tushunchasi va qonuni, uning omillari. Talab egri chizig'ining siljishlari. Taklif tushunchasi va qonuni, uning omillari. Taklif egri chizig'ining siljishlari. Bozor muvozanati.

Raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha sub'ektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. **Raqobat** – bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi.

Resurslarni etkazib beruvchilar o'zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, tabiiy resurslar, ishchi kuchi) yuqori narxlarda sotish uchun raqobatlashadilar. Raqobat **iste'molchilar o'rtasida** ham yuz beradi: ular tovarlarni qulay va arzon narxlarda sotib olishga harakat qiladilar, ya'ni xaridorlar har bir sarflangan pul birligi evaziga ko'proq nafilikka ega bo'lishga harakat qiladilar. Raqobatning mazmuni uning vazifalarini ko'rib chiqish orqali yanada kengroq namoyon bo'ladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Raqobatning **tartibga solish vazifasi** ishlab chiqarishni talab (iste'mol)ga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta'sir o'tkazishdan iborat. Aynan shu vazifa yordamida iqtisodiyotda taklifning talab orqali, ishlab chiqarish tarkibi va hajmining yakka tartibdagi va ijtimoiy ehtiyojlar orqali belgilanishiga erishiladi, ya'ni iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi.

Raqobatning **resurslarni joylashtirish vazifasi** ishlab chiqarish omillarini ular eng ko'p samara beradigan korxonaga, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi.

Raqobatning **innovatsion vazifasi** fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti sub'ektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli ko'rinishdagi yangiliklarning joriy etilishini anglatadi.

Raqobatning **moslashtirish vazifasi** korxonaga (firma)larning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yo'naltirilgan bo'lib, ularning shunchaki o'zini-o'zi saqlab, iqtisodiy jihatdan yashab qolishidan xo'jalik faoliyati sohalarining ekspansiyasi (kengayishi)ga o'tishini bildiradi.

Raqobatning **taqsimlash vazifasi** ishlab chiqarilgan ne'matlar Yalpi hajmi (Yalpi ichki mahsulot)ning iste'molchilar o'rtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadi.

Nihoyat, raqobatning **nazorat qilish vazifasi** bozordagi ba'zi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistik hukmronlik o'rnatishiga yo'l qo'ymaslikka yo'naltiriladi.

Raqobat kurashining mazmuni to'g'risida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko'rib chiqish zarur.

Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning 2 shakli alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular mukammal va nomukammal raqobat (monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliyadir).

Mukammal raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. YUqori darajada tashkil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar.

Mukammal raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan sezilarsiz nazoratni amalga oshiradi. Shunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo'lmaydi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko'payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak mahsulot narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Mukammal raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo'lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan yangi korxonalarning paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga huquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi.

Sof monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat bo'lishi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakkahukmronlik shakllanadi.

Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy. U mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi.

Monopolistik raqobat o'z ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdagi mahsulotning o'nlab ishlab chiqaruvchilari birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotini tabaqalashtirish, ya'ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihati (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bo'yicha farqlantirish orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

Oligopoliya – tarmoqda u qadar ko'p bo'lmagan korxonalarning mavjud bo'lishi va hukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisidir. Qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Oligopolistik tarmoq bir xil yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ko'pchilik sanoat mahsulotlari: po'lat, mis, alyuminiy, qo'rg'oshin, temir va shu kabilar – fizik ma'noda bir turdagi mahsulotlar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Iste'molchilik tovarlari: avtomobillar, yuvish vositalari, sigaretlar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqalashgan oligopoliya hisoblanadi.

Oligopoliya sharoitida korxonalar o'rtasidagi raqobat o'zaro bog'liq bo'ladi. Oligopolistik tarmoqda hech qaysi firma o'zining narx siyosatini mustaqil o'zgartirishga botina olmaydi.

Hozirda turli darajadagi monopolistik tuzilmalar rivojlanib borishi bilan ular o'rtasidagi raqobatning shakllari ham turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib bormoqda. Jumladan, turli monopollashuv darajasidagi tuzilmalar o'rtasida mavjud bo'lishiga ko'ra quyidagi raqobat turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) monopollashmagan korxonalar o'rtasidagi raqobat;
- 2) monopoliyalar hamda monopolistik birlashmalarga kirmagan ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat;
- 3) turli monopoliyalar o'rtasidagi raqobat;
- 4) monopolistik birlashmalar o'zining ichidagi raqobat.

O'z miqyosiga ko'ra raqobat ikki turga - tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi.

Tarmoqlar ichidagi raqobat ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boradi. Har bir tarmoqda texnika bilan ta'minlanish darajasi va mehnat unumdorligi darajasi turlicha bo'lgan korxonalar borligi sababli shu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi.

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat foyda normasi kam bo'lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga kapitallarning oqib o'tishiga sabab bo'ladi. YAngi kapitallar ko'proq foyda keltiruvchi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko'payishiga olib keladi. Shu asosda, narxlar pasaya boshlaydi.

Ehtiyoj kishilarning hayotiy vositalariga bo'lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir. Ehtiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, **talab** – bu pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir. Ehtiyoj zarur miqdordagi pul bilan ta'minlanmasa, u «xohish», «istak» bo'lib qolaveradi. Ma'lum vaqt oralig'ida, narxlarning mavjud darajasida iste'molchilarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini sotib olishga qodir bo'lgan ehtiyoji **talab** deyiladi.

Talablar turlicha bo'lib, odatda bir xil tovar yoki xizmatlarga bo'lgan talabning ikki turi farq qilinadi: yakka talab va bozor talabi. Har bir iste'molchining, ya'ni alohida shaxs, oila, korxonalar, firmaning tovarning shu turiga bo'lgan talabi yakka talab deyiladi. Bir qancha (ko'pchilik) iste'molchilarning shu turdagi tovar yoki xizmatga bo'lgan talablari yig'indisi **bozor talabi** deyiladi.

Yakka talab ham, bozor talabi ham miqdor jihatdan aniqlanadi. Lekin bu miqdor har doim ham bir xil bo'lib turmaydi, balki o'zgaruvchan bo'ladi. Talab

miqdorining o'zgarishiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Ularning ichida eng ko'p ta'sir qiladigan omil narx omilidir.

Narx va sotib olinadigan tovarlar miqdori o'rtasidagi bo'ladigan bog'liqlikni quyidagi 1-jadval ma'lumotlari asosida qarab chiqamiz.

Jadval ma'lumotlari tovar narxining pasayishi sotib olinadigan tovar miqdorining o'sishiga va aksincha, narxning o'sishi talab miqdorining kamayishiga olib kelishini ko'rsatadi. Mahsulot narxi va sotib olinadigan tovar miqdori o'zgarishi o'rtasida bo'ladigan teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik talab qonuni deyiladi.


3.1-jadval.

Narx va sotib olinadigan tovar miqdori o'rtasidagi bog'liqlik

Bir kilogramm kartoshka narxi (so'm)	Kartoshkaga bo'lgan yakka talab miqdori (bir oyda kilogramm)	Kartoshkaga bo'lgan bozor talabi miqdori (bir oyda tonna)
700	10	10
600	20	20
500	30	30
400	50	50
300	60	60

Tovar narxi va uning xarid qilinadigan miqdori (talabning) o'rtasidagi teskari bog'liqlikni oddiy ikki o'lchamli grafikda ham tasvirlash mumkin: yotiq chiziq talab miqdorini, tik chiziq narxni ko'rsatadi (3.1-chizma)

3.1-chizma. Talab egri chizig'i.



Grafikdagi DD chiziq narx va talab hajmi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni tasviriy aks ettiradi.

Grafikdagi har bir nuqta tovarning aniq narxi va iste'molchi shu narxda sotib olishi mumkin bo'lgan tovar miqdorini ko'rsatadi.

Narx va talab hajmining o'zgarishi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatuvchi bu chiziq **talab egri chizig'i** deyiladi.

Talab hajmining o'zgarishi faqat tovar narxiga emas, balki boshqa bir qator omillarga ham bog'liq bo'ladi. Bu omillar **talabning narxdan tashqari omillari** deyiladi. Talabga narxdan tashqari quyidagi asosiy omillar ta'sir ko'rsatadi:

- 1) iste'molchining didi;
- 2) bozordagi iste'molchilar soni;
- 3) iste'molchining daromadlari;
- 4) bir-biriga bog'liq tovarlarning narxi;
- 5) kelajakda narx va daromadlarning o'zgarishi ehtimoli.

Bu omillarning o'zgarishi talab hajmining o'zgarishiga qanday ta'sir ko'rsatishini qarab chiqamiz. Daromadning o'zgarishi bilan talab miqdori to'g'ri bog'liqlikda o'zgaradigan tovarlar oliy toifali tovarlar deyiladi.

Ma'lum vaqt oralig'idagi narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar tomonidan ma'lum turdagi tovar va xizmatlarning bozorga chiqarilgan miqdori **taklif** deyiladi. Alohida ishlab chiqaruvchi hamda bozor taklifini ifodalovchi misol 3.2-jadvalda ko'rsatilgan.

Narxning oshishi bilan shunga mos ravishda sotishga chiqariladigan tovarlar taklifi miqdori ham ortadi, narxning tushishi bilan taklif hajmi qisqaradi. Narxning o'zgarishi bilan taklif etilayotgan tovar miqdorining to'g'ri bog'liqlikdagi o'zgarishi **taklif qonuni** deyiladi. Iste'molchi uchun narxning oshishi to'siq rolini o'ynasa, ishlab chiqaruvchi uchun rag'batlantirish vazifasini bajaradi.

Bozorda taklif qilinadigan tovar hajmiga **narxdan tashqari bir qator omillar** ham ta'sir qiladi. Bu omillarning asosiylari quyidagilar:

- 1) resurslarning narxi;
- 2) ishlab chiqarish texnologiyasi;
- 3) soliq va subsidiyalar;
- 4) boshqa tovarlarning narxi;
- 5) narx o'zgarishining kutilishi;
- 6) bozordagi sotuvchilar soni.


Mazkur omillardan bir yoki bir nechtasining o'zgarishi taklif hajmining o'zgarishini taqozo qiladi.

Narx va taklif miqdori o'rtasidagi bog'liqlik

Bir kilogramm kartoshka narxi (so'm)	Kartoshkaning yakka taklifi miqdori (bir oyda kilogramm)	Kartoshkaning bozor taklifi miqdori (bir oyda tonna)
700	60	60
600	50	50
500	30	30
400	20	20
300	10	10

Narx darajasi va taklif miqdori o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni ko'rsatuvchi ma'lumotlarni grafikda ifodalab, taklif egri chizig'ini tasvirlash mumkin (3.2-chizma).

3.2-chizma. Taklif egri chizig'i.



Taklifga ta'sir qiluvchi omillarni alohida-alohida qarab chiqamiz.

- Resurslarning narxi.** Ishlab chiqarish xarajatlari va taklif o'rtasida mustahkam o'zaro bog'liqlik mavjud. Resurs narxlarining pasayishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va taklifni oshiradi. Aksincha, resurslarga narxning oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va taklifni qisqartiradi. Masalan, mineral o'g'itlar narxining pasayishi bug'doy taklifini oshiradi, yomg'irlatib sug'orish xarajatlarining oshishi makkajo'xori doni taklifini qisqartiradi.
- Ishlab chiqarish texnologiyasi.** Texnologiyalarning takomil-lashuvi mahsulot birligini ancha samarali ishlab chiqarishga imkon beradi. Resurslarning mavjud narxida ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va taklif ko'payadi. Masalan, paxta zararkunandalariga qarshi ancha samarali biologik usullarning yaratilishi paxta tolasining miqdorini va sifatini, binobarin taklifini oshiradi.

3. **Soliqlar va subsidiyalar darajasi.** Ko'pchilik soliqlar ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiradi. Shu sababli soliqlarning oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va taklifni qisqartiradi. Masalan, import tovarlarga boj to'lovlarining oshishi uning taklifini qisqartiradi. Aksincha, davlat qandaydir tovar ishlab chiqarish yoki biror sohaga subsidiya bersa, bu amalda xarajatlarni kamaytiradi va uning taklifini oshiradi.
4. **Boshqa tovar narxi.** Boshqa tovarlar narxlarining o'zgarishi ham mazkur tovar taklifini o'zgartiradi. Masalan, qo'y go'shti narxining pasayishi mol go'shti taklifini oshiradi. Aksincha, mol go'shti narxining tushishi qo'y go'shti taklifini oshiradi.
5. **Narx o'zgarishining kutilishi.** Kelgusida mahsulot narxining o'zgarishining kutilishi ham ishlab chiqaruvchining bugungi kundagi bozorga mahsulot etkazib berish xohishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, kelajakda neft narxining keskin pasayishining kutilishi neftning taklifini pasaytiradi.
6. **Ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) soni.** Tovar ishlab chiqaruvchilar qanchalik ko'p bo'lsa, taklif qilinadigan mahsulot miqdori shunchalik ko'p bo'ladi. Tarmoqdagi ishlab chiqaruvchilar soni ortib borishi taklifni ko'paytiradi, chunki tovar ishlab chiqarish ko'payadi.

Talab miqdori bilan taklif miqdori o'rtasidagi nisbat bir-biriga teng bo'lgan holat bozor muvozanati deyiladi. Bozor muvozanati vujudga kelgan holda shakllangan narx bozor narxi deyiladi. Ba'zan uni muvozanatlashgan narx ham deb yuritiladi. Bozor muvozanati va muvozanatli narx har doim mavjud bo'lib turmaydi, ularga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar muvozanatlikning buzilishiga sabab bo'ladi. Ammo iqtisodiyotda ushbu muvozanatga doimo intilish mavjud bo'ladi.


Oldingi bandlarda ko'rib chiqilgan talab va taklif egri chiziqlarini bitta grafikka joylashtirib bozor muvozanatli nuqtasini hosil qilamiz (3.3-chizma):

$T_b = T_f = N_m = M_m$, bu yerda: T_b - talab, T_f - taklif, N_m - muvozanatli narx, M_m - tovarning muvozanatli miqdori.

D ortiqcha ishlab chiqarish

so'm P

D ortiqcha ishlab chiqarish S



3.3-chizma. Muvozanatli narx.

Grafikda E nuqtaga muvozanatlashgan narx (N_m) va mahsulotning muvozanatlashgan miqdori (M_m) mos keladi. Ya'ni, kartoshka narxi 500 so'm bo'lganda, xaridorlar 30 tonna kartoshkani sotib olishga, sotuvchilar esa 30 tonna kartoshkani bozorga chiqarishga tayyor va bunday imkoniyatga egadirlar. Narxning 400 so'm darajasida sotuvchilar va xaridorlar ahvoli butunlay o'zgaradi: sotuvchilar faqat 20 tonna kartoshkani sotishga, xaridorlar esa 50 tonna sotib olishga tayyor bo'ladilar va hokazo.

Grafikda narxning 700 so'm darajasidagi bozor holati tovarlar ortiqcha ishlab chiqarilishini ko'rsatadi va to'yingan bozorni ifodalaydi. Aksincha, 300 so'm darajasidagi bozor holatida tovar taqchilligi (defitsit) vujudga keladi va taqchil tovar bozorini tavsiflaydi.

Muvozanatli narxni tushunib olish uchun vaqt omili katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shu sababli bozordagi bir zumlik, qisqa davrli va uzoq davrli muvozanatlik holatni farqlash zarur.

Talab hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgarib qolgan sharoitda narxning 1% ga o'zgarishi talabning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich **talabning narx bo'yicha egiluvchanligi** ko'rsatkichi deyiladi. Bu ko'rsatkich ko'pincha oddiy qilib **talabning egiluvchanligi** deb ataladi.

Talabning narx bo'yicha egiluvchanligi (E_t) darajasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$E_t = \frac{\Delta Q}{\Delta P}$$

Bu yerda: ΔQ – talab miqdorining foizli o'zgarishi;

ΔP – narxlarning foizli o'zgarishi.

Talab egiluvchanligini belgilab beruvchi bir qator omillar mavjud bo'ladi.

Ularning asosiylari quyidagilar:

- 1. Mahsulotlarning o'rnini bosuvchanligi.** Iste'molchiga biror mahsulotning o'rnini bosuvchi boshqa mahsulotlar ko'proq tavsiya qilinsa, unga talab shuncha egiluvchan bo'ladi. Masalan, sof raqobatli bozorda taklif qilinadigan mahsulotlarning juda ko'p o'rnini bosuvchilari mavjud bo'ladi, shu sababli har bir alohida sotuvchi mahsulotlariga talab butunlay egiluvchan bo'ladi.
- 2. Mahsulot qiymati (narxi)ning iste'molchi daromadidagi salmog'i.** Iste'molchi daromadida mahsulotlar narxi qanchalik kata o'rinni egallasa, unga talab shuncha yuqori egiluvchan bo'ladi. Masalan, daftar yoki qalam narxining 10 foizga o'sishi bir necha so'mni tashkil qiladi va bu talab bildirgan mahsulot miqdorida juda kam o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga, avtomobil yoki uy narxining 10 foizga o'sishi mos ravishda 0,5 yoki 1,5 mln. so'mni tashkil qiladi. Narxlarning bunday oshishi juda ko'p oilalar bir necha yillik daromadining kata qismini tashkil qiladi va, aytish mumkinki, bu sotib olinadigan mahsulot miqdorini sezilarli ravishda kamaytiradi.
- 3. Mahsulotlarning iste'mol xususiyatlari.** Zeb-ziynat buyumlariga talab odatda egiluvchan, hayotiy zarur buyumlarga esa talab noegiluvchan hisoblanadi. Masalan, non va elektr energiyasi zaruriy iste'mol buyumlari hisoblanadi, shu sababli ular narxining oshishi non yoki elektr energiyasini iste'mol qilishning keskin kamayishiga olib kelmaydi. Boshqa tomondan zeb-ziynat buyumlariga narxlar oshganda ularni osonlik bilan iste'moldan chiqarib tashlash mumkin.
- 4. Vaqt omili.** Qaror qabul qilish uchun vaqt oralig'i qancha uzoq bo'lsa, mahsulotga talab shuncha egiluvchan bo'ladi. Masalan, agar mol go'shtining narxi 10%ga ko'tarilsa, iste'molchi uni xarid qilishni birdaniga qisqartirmasligi mumkin. Lekin bir qancha vaqt o'tishi bilan u o'zining moyilligini tovuq go'shti yoki baliqqa o'tkazishi mumkin.

Iste'molchi daromadining 1% ga o'zgarishi talabning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich talabning daromad bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi deyiladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Et = \frac{\Delta Q}{\Delta D},$$

Bu yerda: ΔQ – talab miqdorining foizli o'zgarishi;

ΔD – daromadning foizli o'zgarishi.

Taklif hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgartmay qolgan sharoitda, narxning 1%ga o'zgarishi taklifning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi

ko'rsatkich **taklifning narx bo'yicha egiluvchanligi** ko'rsatkichi deyiladi. Bu ko'rsatkich ko'pincha oddiy qilib **taklifning egiluvchanligi** deb ham ataladi. Taklifning narx bo'yicha egiluvchanligi (E_{tf}) darajasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$E_{tf} = \frac{\Delta Q}{\Delta P}$$

Bu yerda: ΔQ – taklif miqdorining foizli o'zgarishi;
 ΔP – narxlarning foizli o'zgarishi.

Taklif egiluvchanligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil, mahsulotga narxning mavjud o'zgarishini hisobga olish uchun zarur bo'lgan vaqt oralig'i hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi narxning mavjud o'zgarishiga moslashish uchun qanchalik uzoqroq vaqtga ega bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi shunchalik katta o'zgaradi va shunga mos ravishda taklifning egiluvchanligi ham yuqori bo'ladi. Biz yuqorida vaqt omilining juda qisqa, qisqaroq va uzoq muddatli davrlaridagi taklifning o'zgarishiga ta'sirini tahlil qilib bergan edik. Bu ta'sir taklifning egiluvchanligida ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Nazorat savollari

1. Davlatning bozor tizimidagi tutgan o'rni va iqtisodiyotga aralashuvining zaruriyati
2. Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish xaqidagi turli nazariyalardagi yondashishlar: klassik nazariya (A. Smit), Keyns nazariyasi, monetarizm (M. Fridmen).
3. Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi va vazifalari.
4. Iqtisodiy siyosat ta'rifi, uning turlari.

2-MODUL. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

4. mavzu. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosati, uning maqsadi, vazifalari va vositalari.

4.1. Iqtisodiy tizimning makroiqtisodiyot darajasi. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning ahamiyati. Yalpi ichki mahsulotni (YaIM) hisoblash usullari.

Milliy iqtisodiyot – barcha tarmoqlar va sohalarni, mikro va makrodarajadagi iqtisodiyotlarni, funksional iqtisodiyotni, ko'plab infratuzilmalarni o'z ichiga olgan yaxlit iqtisodiyotdir. Milliy xo'jalikning tarkib topgan tuzilishi ijtimoiy mehnat taqsimoti rivojining natijasi hisoblanadi.

Makroiqtisodiyot – bu mamlakat miqyosida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohalarni bir butun qilib birlashtirgan milliy va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir. Makroiqtisodiyot o'z ichiga iqtisodiyotning moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohalarni oladi.

Makroiqtisodiy tahlilning maqsadi – takror ishlab chiqarish jarayonini ob'ektiv ravishda aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan foydalanish asosida mamlakat ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishida vujudga kelgan holatlarni ochib berishdan iborat.

Butun milliy iqtisodiyotning holatini tavsiflovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – Yalpi milliy mahsulot (YAMM), Yalpi ichki mahsulot (YAIM), sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad (MD), ishchi kuchi bandligi, ishsizlik, inflyasiya va boshqa shu kabilar hisoblanadi.

Bu ko'rsatkichlar moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy xizmat ko'rsatish sohalaridagi barcha xo'jaliklar iqtisodiy faoliyatining umumiy va pirovard natijalarini qamrab oladi. Jamiyat miqyosidagi ishlab chiqarish jarayonlarining muntazam ravishda yangilanib va takroran amalga oshirilib turilishi ijtimoiy takror ishlab chiqarish deyiladi.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish ikki ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin: oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish.

Oddiy takror ishlab chiqarish – bu ishlab chiqarish miqyoslarining o'zgarmagan holda takrorlanishini ifodalaydi.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish – bu ishlab chiqarish miqyoslarini muntazam ravishda oshirib borishga asoslangan holdagi takrorlanishidir.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish natijasida mamlakat miqyosida **milliy mahsulot** yaratiladi. U barcha moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlarni o'z ichiga olib, milliy hisobchilikda Yalpi milliy mahsulot (YAMM) deb yuritiladi. **Yalpi milliy mahsulot** – bu o'z mamlakati yoki xorijda joylashuvidan qat'iy nazar, milliy korxonalar tomonidan yaratilgan mahsulot va xizmatlar umumiy hajmining jami qiymati.


Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, YAMM ko'rsatkichiga sof eksport (eksport va import o'rtasidagi farq) kiradi. Ammo turli mamlakatlarda tashqi savdo faoliyatining salmog'i keskin farqlanadi. Shu sababli milliy iqtisodiyot rivojlanish darajasini taqqoslash uchun **Yalpi ichki mahsulot (YAIM)** ko'rsatkichidan foydalaniladi. **Yalpi ichki mahsulot** – bu ma'lum vaqt davomida, masalan, bir yilda yaratilgan va bevosita iste'molchilarga borib etadigan barcha tayyor mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor narxidagi qiymati.

Yalpi ichki mahsulot umumlashtiruvchi iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, u faqat mazkur mamlakat ishlab chiqarish omillaridan foydalangan holda mamlakat ichida yaratilgan tovar va xizmatlar jami qiymatining bozor narxlaridagi ifodasini namoyon etadi. U barcha ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi.

YAMM va YAIMning o'zaro farqini quyidagi chizma orqali yaqqolroq ifodalash mumkin YAMM va YAIM o'rtasidagi farq u qadar ahamiyatli emas. Bu farq rivojlangan mamlakatlarda YAIMning yo1%ni tashkil etadi. BMT statistika xizmati asosiy ko'rsatkich sifatida YAIMdan foydalanishni tavsiya etadi. Yaqin vaqtlarga qadar AQSh va Yaponiyada YAMM ko'rsatkichi qo'llanilar edi, endilikda bu mamlakatlar ham YAIM ko'rsatkichini qo'llay boshladilar.

Hozirgi paytda O'zbekistonda Yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi hisobga olinmoqda.

4.1 rasm. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.



Narx dapajaci indeks shaklida ifodalanadi. **Narx indeksi** joriy yildagi ma'lum guruh tovarlar va xizmatlar to'plami narxlari summasini, xuddi shunday tovarlar va xizmatlar miqdorining bazis davrdagi narxlari summasiga taqqoslash orqali hisoblanadi. Taqqoslashning boshlang'ich davri «bazis yil» deyiladi. Agar aytilganlarni formula shakliga keltirsak, u quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\text{Narxindexi} = \frac{\text{joriy yildagi iste'mol tovar lari narxi}}{\text{bazis yilidagi iste'mol tovar lari narxi}}$$

Amaliyotda qator har xil tovar va xizmatlar to'plami yoki iste'mol savatining narx indeksi hisoblanadi. Joriy yildagi nominal YAIMni real YAIMga aylantirishning ancha oddiy va to'g'ridan-to'g'ri usuli nominal YAIMni narx indeksi (NI)ga bo'lishdir, ya'ni:

$$\text{ReaYaIM} = \frac{\text{Nominal YaIM}}{\text{NI}}$$

Iqtisodiyotda yillik ishlab chiqarish hajmining ko'rsatkichi YAIM bilan birga, uning tarkibiy qismlari sifatida hisoblanish mumkin bo'lgan bir qator o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar mavjud bo'ladi, ular milliy iqtisodiyotning turli tomonlarini tavsiflab beradi.

YAMM va YAIM ishlab chiqarish Yalpi hajmining ko'rsatkichi sifatida bitta muhim kamchilikka ega. Ular mazkur yilda ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan asosiy kapitalning o'rnini qoplash uchun zarur bo'lgan qiymatni ham o'z ichiga oladi.

YAIMdan joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati yoki yillik amortizatsiya summasi ayirib tashlansa sof milliy mahsulot (SMM) ko'rsatkichi hosil bo'ladi:

$$\text{YaIM} - \text{amortizatsiya yillik summasi} = \text{SMM}$$

SMM qiymatiga davlat tomonidan o'rnatiladigan egri soliqlar summasi kiradi. Egri soliqlar korxonada tomonidan o'rnatiladigan narxga qo'shimcha hisoblanadi. Bunday soliqlar og'irligi iste'molchi zimmasiga tushadi va uning hisobiga o'zlarining daromadining bir qismini yo'qotadi. Shuning uchun, SMMdan egri soliqlar chiqarib tashlansa milliy daromad (**MD**) ko'rsatkichi hosil bo'ladi:

$$\text{SMM} - \text{biznesga egri soliq} = \text{milliy daromad}$$

Amaliyotda ishlab chiqarilgan va foydalanilgan milliy daromad farqlanadi. **Ishlab chiqarilgan milliy daromad** – bu yangidan yaratilgan qiymatning butun hajmi. Foydalanilgan milliy daromad – bu ishlab chiqarilgan milliy daromaddan yo'qotishlar (tabiiy ofatlar, mahsulotlarni zahirada saqlashdagi yo'qotishlar va h.k.) va tashqi savdo qoldig'i chiqarib tashlangan miqdorga teng.

Milliy daromadni, daromadlar barcha turlarini (amortizatsiya ajratmasi va biznesga egri soliqlardan tashqari) qo'shib chiqish yo'li bilan ham aniqlash mumkin. Milliy daromadning bir qismi, jumladan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, korxonada foydasidan to'lanuvchi soliqlar va korxonaning taqsimlanmaydigan foydasi amalda uy xo'jaliklari qo'lga kelib tushmaydi. Aksincha, uy xo'jaliklari oladigan daromadning bir qismi, masalan, ijtimoiy to'lovlar – ular mehnatining natijasi hisoblanmaydi.

Shaxsiy daromad ko'psatkichini topish uchun milliy daromaddan uy xo'jaliklari qo'lga kelib tushmaydigan daromadlarning yuqoridagi uchta turini chiqarib tashlashimiz hamda joriy mehnat faoliyatining natijasi hisoblanmagan daromadlarni unga qo'shishimiz zarur.

Milliy daromad – Ijtimoiy sug'urta ajratmasi – Korxonada foydastga soliqlar –

Korxonaning taqsimlanmaydigan foydasi + Ijtimoiy to'lovlar = Shaxsiy daromad

Shaxsiy daromaddan soliqlari to'langandan keyin, uy xo'jaliklarining to'liq tasarrufida qoladigan daromad shakllanadi.

Soliqlar to'langandan keyingi daromad shaxsiy daromaddan shu daromad hisobidan to'lanadigan soliqlar miqdorini chiqarib tashlash yo'li bilan hisoblanadi.

Soliqlar to'langandan keyingi daromad uy xo'jaliklari eng oxirida ega bo'ladigan daromad hisoblanib, alohida shaxs va oilalar o'z tasarrufida bu daromadlarning bir qismini iste'mol uchun sarflaydi va boshqa qismini jamg'armaga yo'naltiradi.

Milliy mahsulot hajmining aniq baholanishiga hufyona iqtisodiyot ta'sir ko'rsatadi. **Xufyona iqtisodiyot** - bu tovar-moddiy boyliklar va xizmatlarning jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan harakati, ya'ni davlat boshqaruv organlaridan yashirin holda alohida fuqarolar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardir. Bu munosabatlar o'z ichiga iqtisodiy faoliyatning barcha hisobga olinmagan, tartibga solinmagan turlarini oladi. Xufyona iqtisodiyot tarkibiga qo'yidagilar kiradi:

- 1) jinoyatga aloqador iqtisodiyot** – rasmiy iqtisodiyot tarkibiga iqtisodiy jinoyatning kiritilishi (boyliklarning talon-taroj qilinishi; nazoratning har qanday shaklidan yashiringan holdagi hufyona iqtisodiy faoliyat – narkobiznes, qimor o'yinlari, fohishabozlik; daromadlarni noiqtisodiy qayta taqsimlash shakli sifatidagi fuqarolarning shaxsiy mulkiga qarshi umumjinoiy harakatlar – bosqinchilik, shaxsiy mulkni zo'rlik bilan tortib olish, o'g'irlash, reket);
- 2) soxta iqtisodiyot** – hisobga olish va hisobotlarning amaldagi tizimiga soxta natijalarni haqiqiy natija sifatida kirituvchi rasmiy iqtisodiyot (qo'shib yozishlar);
- 3) norasmiy iqtisodiyot** – iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi norasmiy o'zaro aloqalar tizimi bo'lib, u mazkur sub'ektlar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlar va bevosita aloqalarga asoslanadi;

4) yushirin ikkalamchi iqtisodiyot – yakka tartibdagi va kooperativ faoliyatning nazoratdan yashiringan, ya'ni qonun tomonidan taqiqlangan yoki belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan turi.

Milliy mahsulotni hisoblashda milliy hisoblar tizimidan foydalaniladi. **Milliy hisoblar tizimi (MHT)** – bu barcha asosiy iqtisodiy jarayonlarni, takror ishlab chiqarish sharoitlari, jarayonlari va natijalarini tavsiflovchi o'zaro bog'liq makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, tasniflar va guruhlar tizimi.

MHT BMT tomonidan e'lon qilingan «Milliy hisoblar va yordamchi jadvallar tizimi» nomli hujjat asosida xalqaro statistikada standart tizim sifatida 1953 yildan boshlab qo'llanila boshladi. Hozirgi davrda dunyoning 100 dan oshiq mamlakatlarida, shu jumladan O'zbekistonda mazkur tizim keng qo'llaniladi.

Milliy hisoblar tizimi asosini yig'ma balanslar tashkil qiladi. Bunga daromad va xarajatlar balansi misol bo'lishi mumkin. Daromadlar xo'jalik birliklari va aholi umumiy daromadlari (ish haqi, foyda, daromadlarning boshqa turlari, amortizatsiya) summasini aks ettiradi. Xarajatlar to'rtta guruhdan iborat bo'ladi: iste'mol, investitsiyalar, davlat xaridi, sof eksport. Milliy hisoblar makroiqtisodiyotning me'yordagi – muvozanatli holatga erishish darajasini aniqlashga yordam beradi.

Ushbu milliy hisoblar tizimi asosida YAIM uch xil usul bilan hisoblanishi mumkin:

Birinchi usul – bu YAIMni hisoblashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv. Bunda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bo'yicha yaratilgan qo'shilgan qiymatlar qo'shib chiqiladi (YAIM tarmoq va ishlab chiqarishlar bo'yicha). Bu usul bilan hisoblangan YAIM alohida tarmoqlarning shu mahsulotini yaratishdagi o'rmini va hissasini aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi usul – bu YAIMni hisoblashga sarf-xarajatlar bo'yicha yondashuv. Bunda mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot (xizmat)lar hajmini sotib olishga qilingan butun sarflar qo'shib chiqiladi. Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan pirovard mahsulotlarni mamlakat ichida xo'jalikning uchta sub'ekti – uy xo'jaliklari, davlat, tadbirkorlar hamda tashqaridan chet ellik iste'molchilar sotib olishi mumkin.

Uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari - bu kundalik ehtiyojdagi tovarlarga, xizmatlarga, uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlariga va boshqalarga qilinadigan sarflardir.

Investitsion sarflar – tadbirkorlik sektorining asosiy kapitalni Yalpi jamg'arishga qiladigan sarflaridir. Investitsion sarflar asosan uchta qismdan iborat:

a) tadbirkorlar tomonidan mashina, uskuna va stanoklarning barcha xaridi; b) barcha qurilishlar; v) zahiralarning o'zgarishi.

Milliy hisoblar tizimida YAIMni hisoblashda Yalpi, xususiy va ichki investitsiyalar tushunchasidan foydalaniladi. **Xususiy va ichki investitsiyalar** mos ravishda xususiy va milliy kompaniyalar amalga oshiradigan investitsion sarflarni bildiradi. **Yalpi investitsiyalar** o'z ichiga joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida

iste'mol qilingan mashina, uckuna va qurilmalarning o'rnini qorlash uchun mo'ljallangan barcha investitsion tovarlar ishlab chiqarishni, hamda iqtisodiyotda kapital qo'yilmalar hajmiga har qanday sof qo'shimchalarni oladi. Yalpi investitsiyalar mohiyatiga ko'ra iste'mol qilingan asosiy kapitalni qoplash summasini va investitsiyalarning o'sgan qismidan iborat bo'ladi. Boshqa tomondan **sof xususiy ichki investitsiyalar** tushunchasi joriy yil davomida qo'shilgan investitsion tovarlar summasini tavsiflash uchun ishlatiladi.

Davlat sarflari – bu mahsulotlarni va iqtisodiy resurslarni, xususan ishchi kuchini sotib olishga davlatning (boshqaruvning quyi va mahalliy organlari bilan birga) qilgan barcha sarflarini o'z ichiga oladi.

Chet elliklarning milliy iqtisodiyot tovarlariga sarflari xuddi mamlakat ichidagi iste'molchilik sarflari kabi milliy ishlab chiqarish darajasiga bog'liq. Shu sababli YAIMni sarflar bo'yicha hisoblashda tovar va xizmatlarga chet elliklarning sarflari, ya'ni eksport qiymati ham qo'shiladi. Boshqa tomondan, iste'mol va investitsion sarflar hamda davlat mablag'larining bir qismi import qilingan, ya'ni chet elda ishlab chiqarilgan tovarlarga sarflanadi. Milliy ishlab chiqarish umumiy hajmi asossiz oshib ketmasligi uchun import hajmi YAIM tarkibidan chiqariladi. Eksport va import miqdorlari o'rtasidagi farq tovar va xizmatlarning sof eksporti yoki oddiy qilib **sof eksport** deyiladi. Sof eksport ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Agar eksport importdan ortiq bo'lsa ijobiy, import eksportdan ortiq bo'lsa salbiy bo'ladi.

Qarab chiqilgan sarflarning to'rt toifasiga notijorat muassasalar (kasaba uyushmalar, siyosiy partiyalar, diniy tashkilotlar va ijtimoiy tashkilotlar) sarflari va moddiy aylanma vositalari zahirasiidagi o'zgarishlarni qo'shib chiqish yo'li bilan YAIM hajmi aniqlanadi.

Uchinchi usul – bu YAIMni hisoblashga daromadlar bo'yicha yondashuv.

Mazkur yilda ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot hajmidan olingan barcha daromadlar uy xo'jaliklari ixtiyoriga ish haqi, renta to'lovlari, foiz va foyda shaklida kelib tushadi. Shu sababli bu usulda YAIM pirovard mahsulot hisobidan olingan ana shu barcha daromadlarni qo'shib chiqish orqali aniqlanadi.

YAIMni daromadlar bo'yicha hisoblashda uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat muassasalarining dastlabki, ya'ni taqsimlangan daromadlarini mehnat haqi va Yalpi foydaga (renta, ssuda foizi va tadbirkorlik foydasi va h.k.) ajratish mumkin. YAIMni mazkur usul bo'yicha hisoblashda daromadlarning barcha summasiga iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati (amortizatsiya ajratmasi) va biznesga egri soliqlar summasi ham qo'shiladi.

YAIMni hisoblashga sarflar va daromadlar bo'yicha yondashuv

Milliy mahsulot hajmini sarflar summasi bo'yicha hisoblash	Milliy mahsulot hajmini daromadlar summasi bo'yicha hisoblash
1. Uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari+	1. Daromad bilan bog'liq bo'lmagan sarf va to'lovlar a) amortizatsiya, b) egri soliqlar +
2. Tadbirkorlarning investitsion sarflari +	2. Ish haqi +
3. Tovar va xizmatlarning davlat xaridi +	3. Renta to'lovlari +
4. Chet elliklar sarfi +	4. Foiz +
5. Notijorat muassasalari sarfi +	5. Foyda
6. Moddiy aylanma vositalar zahirasidagi o'zgarishlar	
YAIM	YAIM

YAIMni hisoblashda uning tarkibiga kirgan daromadlar va daromad bilan bog'liq bo'lmagan sarflar (amortizatsiya va egri soliqlar) ning alohida turlarini to'laroq qarab chiqamiz.

Amortizatsiya ajratmasi shu yil ishlab chiqarilgan mahsulot (YAIM) qiymati tarkibiga ishlab chiqarish xarajatlari sifatida kirib, mahsulot sotilishi natijasida pul shaklida qaytib keladi va **amortizatsiya fondi** hisobida to'planib boradi.

Egri soliqlar korxonalar uchun ishlab chiqarish xarajatlari sifatida chiqadi va shu sababli mahsulot narxiga qo'shiladi. Bunday soliqlar o'z ichiga aksiz to'lovlari, sotishdan olinadigan soliqlar, mulk solig'i, litsenziya va bojxona to'lovlarini oladi.

Daromadlarning eng muhim turi ish haqi tadbirkorlar va davlat tomonidan ishchi kuchini taqdim qilganlarga to'lanadi. U ish haqiga ko'plab qo'shimchalar, ijtimoiy sug'urta to'lovlari va nafaqa ta'minotining har xil xususiy fondlari, ishchilik nafaqalari va boshqa har xil mukofot hamda imtiyozlarni o'z ichiga oladi. Ish haqiga bu qo'shimchalar ish kuchini yollash bilan bog'liq bo'lgan xarajatining bir qismi sifatida chiqadi va shu sababli korxonaning ish haqi to'lashga umumiy sarflarining tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Renta to'lovlari iqtisodiyotni resurslar (kapital, yer) bilan ta'minlovchi uy xo'jaliklarining oladigan daromadi hisoblanib, korxonalar xarajatlari tarkibiga kiradi. Foiz pul kapitali egalariga pul daromadi to'lovlaridan iborat. Bunda davlat

tomonidan amalga oshiriladigan foizli to'lovlar, foizli daromadlar tarkibidan chiqariladi.

Mulkdan olinadigan daromadlar ikki turga bo'linadi: bir qismi mulkga daromad va boshqa qismi esa korporasiyalar foydasi deyiladi.

4.2. Milliy hisoblar tizimining boshqa ko'rsatkichlari: sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad, shaxsiy daromad, soliqlar to'langandan keyingi daromad (ixtiyordagi daromad).

Mamlakat iqtisodiyotining qanchalik rivojlanganligi va samarali ekanligini aniq bilish uchun aynan shu yilda jonli mehnatning unumli harakati natijasida vujudga keltirilgan sof milliy mahsulot (SMM) ko'rsatkichidan foydalaniladi.

YaIMdan joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati yoki yillik amortizasiya summasi ayirib tashlansa sof milliy mahsulot (SMM) ko'rsatkichi hosil bo'ladi:

YaIM -amortizasiya yillik summasi =SMM

SMM qiymatiga davlat tomonidan o'rnatiladigan egri soliqlar summasi kiradi. Egri soliqlar korxonalar tomonidan o'rnatiladigan narxga qo'shimcha hisoblanadi. Bunday soliqlar og'irligi iste'molchi zimmasiga tushib, natijada ular daromadning bir qismini yo'qotadi. Hozirgi davrda qo'llanilayotgan milliy hisoblar tizimida SMMdan egri soliqlar chiqarib tashlanib, milliy daromad (MD) ko'rsatkichi aniqlanadi:

SMM -biznesga egri solik =milliy daromad

Shunday qilib, hozirgi hisoblar tizimida SMM miqdori bilan MD miqdori bir-biridan farq qilib qolgan. Aslida mamlakat miqyosida ularning miqdori farq qilmasligi lozim. Chunki milliy daromad sof milliy mahsulotning sotilgandan keyingi puldagi ko'rinishidir. Shuning uchun ba'zi adabiyotlarda milliy daromadni sof mahsulotning o'zgargan shakli deb ham yuritiladi. Bu holat milliy hisoblar tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Amaliyotda ishlab chiqarilgan va foydalanilgan milliy daromad farqlanadi.

Ishlab chiqarilgan milliy daromad – bu yangidan yaratilgan mahsulotning butun hajmi. Foydalanilgan milliy daromad – bu ishlab chiqarilgan milliy daromaddan har xil yo'qotishlar (tabiiy ofatlar, mahsulotlarni zaxirada saqlashdagi yo'qotishlar va h.k.) va tashqi savdo qoldig'i chiqarib tashlangan miqdorga teng. Milliy daromadni barcha turdagi daromadlarni (amortizasiya ajratmasi va biznesga egri soliqlardan tashqari) qo'shib chiqish yo'li bilan ham aniqlash mumkin.

Milliy daromadning bip qismi, jumladan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, kopxona foydasidan to'lanuvchi soliqlar va kopxonaning taqsimlanmaydigan foydasi amalda uy xo'jaliklari ixtiyoriga kelib tushmaydi. Ikkinchi tomondan esa, uy xo'jaliklari oladigan daromadning bir qismi, masalan, ijtimoiy to'lovlar – ular mehnatining natijasi hisoblanmaydi.

Shaxsiy dapomad ko'rsatkichini topish uchun milliy dapomaddan uy xo'jaliklari qo'liga kelib tushmaydigan dapomadlarning yuqoridagi uchta turini chiqarib tashlashimiz hamda joriy mehnat faoliyatining natijasi hisoblanmagan dapomadlarni unga qo'shishimiz zarur. Shaxsiy dapomaddan soliqlar to'langandan keyin uy xo'jaliklarining to'liq tasarrufida qoladigan dapomad shakllanadi.

Soliqlar to'langandan keyingi dapomad shaxsiy dapomaddan shu dapomad hisobidan to'lanadigan soliqlap miqdorini chiqarib tashlash yo'li bilan hisoblanadi.

Soliqlar to'langandan keyingi dapomad uy xo'jaliklari eng oxirida ega bo'ladigan dapomad hisoblanib, alohida shaxs va oilalar o'z tacarrufida bu dapomadlarning bip qismini iste'mol uchun sapflaydi va boshqa qismini jamg'apmaga yo'naltiradi.

Milliy mahsulot hajmining aniq baholanishiga hufyona iqtisodiyot ta'sir ko'rsatadi. Xufyona iqtisodiyot – bu tovar-moddiy boyliklar va xizmatlarning jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan harakati, ya'ni davlat boshqaruv organlaridan yashirin holda alohida fuqarolar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardir. Bu munosabatlar o'z ichiga iqtisodiy faoliyatning barcha hisobga olinmagan, tartibga solinmagan turlarini oladi. Xufyona iqtisodiyot tarkibiga qo'yidagilar kiradi:

- 1) jinoyatga aloqador iqtisodiyot – rasmiy iqtisodiyot tarkibiga iqtisodiy jinoyatning kiritilishi (boyliklarning talon-taroj qilinishi; nazoratning har qanday shaklidan yashiringan holdagi hufyona iqtisodiy faoliyat – narkobiznes, qimor o'yinlari, fohishabozlik; daromadlarni noiqtisodiy qayta taqsimlash shakli sifatidagi fuqarolarning shaxsiy mulkiga qarshi umumjinoiy harakatlar – bosqinchilik, shaxsiy mulkni zo'rlik bilan tortib olish, o'g'irlash, reket);
- 2) soxta iqtisodiyot – hisobga olish va hisobotlarning amaldagi tizimiga soxta natijalarni haqiqiy natija sifatida kirituvchi rasmiy iqtisodiyot (qo'shib yozishlar);
- 3) norasmiy iqtisodiyot – tovar va xizmatlarning ayriboshlash va taqsimlash bo'yicha iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi norasmiy o'zaro aloqalar tizimi bo'lib, u mazkur sub'ektlar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlar va bevosita aloqalarga asoslanadi;
- 4) yashirin ikkalamchi iqtisodiyot – yakka tartibdagi va kooperativ faoliyatning nazoratdan yashiringan, ya'ni qonun tomonidan taqiqlangan yoki belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan turi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilning birinchi yarmida kichik bo'lsada iqtisodiy o'sish sur'atlari saqlanib qolindi. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi 255,3 trillion so'mni tashkil etib, o'sish ko'rsatkichi 0,2 %ni tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu ko'rsatkich 6 %ni tashkil etgandi. Sohalarda yalpi qo'shilgan qiymat o'sishi 0,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyotning aksariyat tarmoqlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish dinamikasi sekinlashgan bo'lsa-da, o'sish davom etmoqda. Ushbu ko'rsatkich xizmat ko'rsatish sohasida 2,6 %, qurilish xizmatlarida 7,3 %, iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish tarmog'ida 1,2 %ga oshdi. Hududlar kesimida YaHM o'sish tendensiyalari bo'yicha Andijon (5%), Navoiy (4,3%) va Namangan (3,1%) viloyatlarida yuqori rivojlanish ko'rsatkichlriga ega. YaIM strukturasi qaraydigan bo'lsak yaratilgan qo'shilgan qiymatning 24,0 %i qishloq xo'jaligida, 37,7 %i sanoatda va 38,8 %i xizmatlar sohasida yaratildi.

Taqqoslash uchun, qo'shni davlatlar iqtisodiyotlarida resessiya boshlanganligi qayd etilmoqda. Xususan, Qozog'istonda birinchi yarim yillikda YaIM hajmi 1,8%ga, Qirg'izistonda esa 5,3 %ga pasaygan. Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki hisob-kitoblariga ko'ra, YaIMning yillik pasayishi 9,5-10 %ni tashkil qiladi. Xitoy iqtisodiyoti ikkinchi chorakda 3,2% o'sganiga qaramay, birinchi yarim yillikda jami 1,6 %ga qisqargan.

O'zbekistonda iste'mol narxlari indeksi iyun' oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan 104,6% ni tashkil etdi, 2019 yilning 6 oyi davomida iste'mol narxlari indeksleri 105,6% ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yillik hisobda iyun' oyida o'tgan yilning iyuniga nisbatan tovarlar va xizmatlar narxlari 14,2 %ga, 2018 yil iyunidan 2019 yilning iyunigacha esa 13,6% ga o'sishi kuzatildi. Investisiyalarda pasayish kuzatildi. O'tgan yarim yil mobaynida asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar 12,8 %ga kamaygan. Investisiyalar strukturasi asosan markazlashgan investisiyalar 35,4%ga kamaygan. Markazlashmagan investisiyalarda kamayish atigi 2,5 %ni tashkil etgan. Shu bilan birga, korxonalar mablag'lari hisobiga investisiyalarning 15,8 %ga o'sganligi qayd etildi. To'g'ridan to'g'ri investisiyalar va kreditlar o'tgan yilga nisbatan 18,2% ga oshgan. Inqirozga qarshi kurash jamg'armasidan yangi ish o'rinlarini yaratish masadida 3,6 trillion so'mdan ortiq mablag'lar investisiya loyihalariga qo'shimcha yo'naltirildi. Sohalari kesimida qishloq xo'jaligida o'sish suratlari 2,8 %ni tashkil etib, bu o'tgan yilgi (2,4%) ko'rsatkichdan yuqoridir. Qishloq xo'jaligi sohalari ichida baliqchilik (16,7%) keskin rivojlanish ko'rsatkichlarini ko'rsatdi. Hududlar kesimida Qashqadaryo va Sirdaryo va Samarqand viloyatlaridan boshqa barcha viloyatlarda dinamik o'sish tendensiyalari kuzatildi. Sanoat tarmoqlarida ham olib borilgan samarali choralar natijasida mahsulot ishlab chiqarishni keskin pasayib ketishi oldi olindi. Xususan, keskin karantin choralari kiritilgan aprel' oyida ham sanoat mahsulotlari hajmi pasayishi - 5,4% ni tashkil etgan edi. May va iyun oylarida esa qabul qilingan chora tadbirlar natijasida mazkur sohadagi yo'qotishlar - 1,9%gacha kamaydi, Ushbu kamayish asosan tog'-kon sanoatida yuz bergan pasayish hisobiga ro'y berdi. Shu bilan birga, elektr ishlab chiqarish (12,9%) sanoatida o'tgan yilgi ko'rsatkichlarimizga qaraganda keskin o'sish kuzatildi. Ayni vaqtda sanoat ishlab chiqarishning 81 foizini tashkil etuvchi qayta ishlash sanoatida ham 2,2 foizlik o'sish qayd etildi.

Xizmatlar sohasida ham (2,6 %) o'sish tendensiyalari kuzatildi. Xizmatlar sohasining muhim qismi bo'lgan yuk va passajirlar tashuv xizmatlarida (-9,1%), ovqatlanish va yashash xizmatlari (-17,1 %) sohalarida keskin pasayish kuzatilgan bo'lsa, aloqa (15,1 %), moliya (35,9%), ta'lim (11,5%) va savdo (0,8%) xizmatlarida o'tgan yilga nisbatan o'sish tendensiyalari saqlanib qoldi.

Transport sohasidagi ko'rsatkichlarning pasayishi ikkinchi chorakning birinchi oylarida transport vositalarining harakatlanishiga qo'yilgan cheklolarning ta'siri va hududlararo transport aloqalarining to'xtatilishi tufayli yuzaga keldi. Yuk aylanmasi ko'rsatkichi 6,6 %ga, yo'lovchi tashish aylanmasi 13,8 %ga pasaydi. Chakana savdo sohasida bozorlar va yirik savdo maydonchalarining vaqtinchalik yopilishiga qaramay, ijobiy dinamika saqlanib qoldi – chakana savdo hajmi 0,7% ga oshdi. Pandemiya mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatiga ham ancha jiddiy ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda. Xususan, 2020 yilning 1-yarim yilligida yalpi tashqi savdo aylanmasi 15,9 mlrd. AQSh dollari tashkil etib o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,2 %ga pasaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, 2014-2016 yillarda ham tashqi savdoda ham shunga o'xshash pasayishlar kuzatilgan.

Tashqi va ichki talabning o'zgarishi natijasida eksport va import operatsiyalarida ham o'zgarishlar kuzatildi. Yarim yil mobaynida eksport operatsiyalari 22,6 %ga, import operatsiyalari esa 15 %ga kamayib tashqi savdo balansi 3,3 milliard AQSh dollari miqdoridagi defisitga ega bo'ldi. Pandemiya MDH davlatlariga amalga oshirilayotgan eksport ko'rsatkichlariga jiddiy ta'sir o'tkazdi – eksport hajmi 34,7%ga tushib ketdi. Boshqa davlatlarga qilingan eksport hajmi esa nisbatan kamroq 15,7 %ga pasaydi. Import hajmida esa aksincha, MDH davlatlaridan import hajmi 9%ga, boshqa davlatlardan esa 18,2 %ga kamaydi. Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston iqtisodiyoti pandemiya sharoitida hamkor davlatlar iqtisodiyotida yuzaga kelgan resessiya sharoitida iqtisodiy o'sishning ijobiy dinamikasini saqlab qola oldi. Epidemiologik vaziyatdan kelib chiqqan holda maqsadli cheklov choralarini qo'llash, aksariyat korxonalarining to'liq yopilishiga yo'l qo'ymaslik karantin cheklolriga qaramay may-iyun oylarida tadbirkorlik sohalarida faollikni tiklash imkonini berdi. Qishloq xo'jaligi va qurilishda yaratilgan qo'shimcha qiymat hajmining o'sishi sanoat va qurilishdagi yo'qotishlarni qoplash imkonini berdi.

Nazorat uchun savollar:

1. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning ahamiyati.
2. Yalpi ichki mahsulotni (YaIM) hisoblash usullari.
3. Milliy hisoblar tizimining boshqa ko'rsatkichlari: sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad, shaxsiy daromad, soliqlar to'langandan keyingi daromad (ixtiyordagi daromad).
4. Joriy yildagi YaIM o'zgarishi haqida ma'lumot bering.

5-Mavzu. Inflyasiya va ishsizlik.

5.1. Ishsizlik tushunchasi, turlari, o'lchanishi. Ouken qonuni. Ishsizlikni bartaraf etish yo'llari.

Jabon tajribasiga ko'ra, bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash masalasi dolzarb hisoblanadi. Ishsizlikni bartaraf etish aholi bandligini oshirish muammosini makroiqtisodiy tartibga solish tizimida hamda iqtisodiy taraqqiy etgan bozor tuzilmasi shakllangan mamlakatlarning butun iqtisodiy siyosatida eng asosiy masasalaridan biridir.

Ishchi kuchi – bu insonning aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi bo'lib, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi hisoblanadi. Jamiyatning milliy mahsuloti hisobiga ishlab chiqarishning moddiy-ashyoviy omillarigina emas, balki shaxsiy omili, ya'ni ishchi kuchi ham takror ishlab chiqariladi.

Ishchi kuchini takror hosil qilish yoki uni takror ishlab chiqarish deganda eng avvalo o'zining aqliy va jismoniy kuch-quvvatini ishlatib, charchagan ishchining qobiliyatini qayta tiklashi, ya'ni uning ovqatlanishi, kiyinishi, dam olishi va madaniy hordiq chiqarishi tushuniladi. Bu esa ishchi uchun oila, uy-joy va boshqa shart-sharoitlar yaratilishi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari ishchi va xizmatchilarning hozirgi avlodi ma'lum vaqt o'tishi bilan qariydi. Ularning o'rinlarini bosadigan o'rinbosarlar ham tayyorlanishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa ishchining oilasi, bola-chaqasi bo'lishi lozim, ularning o'sib-ulg'ayishi, o'qishi, zamon talabiga javob beradigan ishchi kuchi sifatida kamol topishi uchun ham shart-sharoit bo'lishi zarur. Ishchi kuchini takror hosil qilish jarayonini tadqiq etish uning miqdoriy va sifat jihatlarini ajratishni taqozo etadi. Ishchi kuchining miqdori mamlakat aholisining mehnat faoliyatiga layoqatli bo'lgan qismi orqali ifodalanib, u ishchi kuchi resurslari deb ham ataladi. Insonning ishchi kuchi resurslari tarkibiga kiritilishining asosiy mezoni bo'lib uning yoshi va mehnatga bo'lgan qobiliyati hisoblanadi. Odatda ishchi kuchi resurslari tarkibiga 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar kiritiladi. Lekin ijtimoiy ishlab chiqarish va boshqa cohalarda band bo'lgan pensionerlar ham ishlashi mumkin.

Ishchi kuchi resurslarining faol va potensial qismi farqlanadi. Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan shaxslar ishchi kuchi resurslarining faol qismi hisoblansa, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotganlar va vaqtinchalik uy xo'jaligida band bo'lganlar potensial qismi hisoblanadi.

Ishchi kuchi resurslarining soni va sifati mamlakat aholisining soni hamda jinsi va yoshi jihatidan tarkibi bilan belgilanadi. Bular esa o'z navbatida aholining tabiiy harakatlanishiga bog'liq bo'ladi.

Aholining tabiiy harakatlanishi, uni takror ishlab chiqarish xususiyati ko'pgina holatlar bilan mamlakatning industrial taraqqiyoti va urbanizatsiya darajasi, ijtimoiy shart-sharoitlar, madaniyat va maishiy turmush an'analari, aniq tarixiy omillar bilan belgilanadi. Ular jumlasiga demografiya omilini hisobga olgan

holda uy-joy sharoitlarini yaxshilash, bolalarga nafaqalar berish, ularni bolalar muassasalari bilan ta'minlash, homiladorlik va bola tug'ilgandan keyingi ta'tillarni uzaytirish, oilani mustahkamlash, shuningdek, jamoada ma'naviy muhitni yaxshilash kiradi.

Mamlakatdagi ishchi kuchi resurslari miqdoriga aholining tabiiy o'sishidan tashqari ishchi kuchi migratsiyasi ham ta'sir qiladi. Ishchi kuchi migratsiyasi murakkab jarayon bo'lib, turli omillar ta'siri ostida (masalan, ish haqi darajasidagi o'zgarishlar, ishsizlik va h.k.) ishchi kuchining bir hududdan boshqa bir hududga ko'chib o'tishini bildiradi. Migratsiya ikki darajada, ya'ni mamlakat ichida va xalqaro darajada ro'y berishi mumkin. Bir mamlakat ichida ro'y bergan migratsiya **ichki migratsiya** deb atalib, u quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- 1) **tugal migratsiya** – aholining doimiy yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq migratsiya;
- 2) **tebranuvchi migratsiya** – ishchi kuchining bir hududdan boshqa hududga muntazam davriy ravishda qatnab ishlashi bilan bog'lik migratsiya;
- 3) **mavsumiy migratsiya** – mavsumiy ish faoliyati bilan bog'liq migratsiya;
- 4) **tasodifiy migratsiya** – ishchi kuchining ba'zi hollarda boshqa hududlarga borib kelishi bilan bog'liq migratsiya.

Ishchi kuchi migratsiyasi shunchaki ro'y bermay, uning negizida ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy sabablar yotadi. Ishchi kuchi migratsiyasining iqtisodiy vazifasi sifatida mamlakat bo'ylab mehnat resurslari samarali taqsimlanishini ta'minlash, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif nisbatini muvofiqlashtirish hisoblanadi. Bu vazifaning amalga oshishi natijasida ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi oshadi.

Ishchi kuchi migratsiyasining ijtimoiy vazifasi aholi turmush darajasini oshirish, inson omilining ijtimoiy hayotdagi roli va mavqegini yanada yuksaltirishdan iborat.

Ishchi kuchini takror hosil qilish, ularning to'la va samarali ish bilan band bo'lish muammosini ham o'z ichiga oladi. Ish bilan to'la band bo'lishni mutlaq ma'noda tushunmaslik kerak. Birinchidan, ishsizlikning ma'lum darajasi iqtisodiyot uchun me'yordagi hol hisoblanadi. Ikkinchidan, ish bilan to'la band bo'lish mehnatga layoqatli barcha kishilar albatta umumlashgan (davlat va jamoa korxonalarida) ishlab chiqarishga jalb etilishi zarurligini anglatmaydi. Ularning bir qismi o'zini oilada xizmat ko'rsatishga, bolalar tarbiyasiga, shuningdek, xususiy korxonalar va shaxsiy yordamchi xo'jalikda mehnat qilishga, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga bag'ishlashi mumkin. Uchinchidan, ish bilan to'la band bo'lish uning samaradorligi bilan, mehnat resurslaridan g'oyat oqilona foydalanish bilan qo'shib olib borilishi kerak.

Ishchi kuchi bozori – bu xo‘jalik faoliyati jarayonida “ishchi kuchi” tovari egalari va uning asosiy iste‘molchilari – davlat va tadbirkorlar o‘rtasida mehnat sharoitlari va unga haq to‘lash miqdorlari, ishchilarning malaka darajasi, ular tomonidan bajarilayotgan ishlarning hajmi, intensivligi va mas‘uliyat darajasi bo‘yicha tarkib topuvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkab tizimi.

Ishchi kuchining qiymati nafaqat ishchining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, balki ishchi kuchini takror ishlab chiqarish hamda uning sifatini oshirish jarayonlarini etarli darajada ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan barcha hayotiy ne‘matlarning jami qiymatini o‘z ichiga oladi. Ishchi kuchi tovarining nafliligi uning kapital egasining foyda olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish layoqati orqali namoyon bo‘ladi.

Ishchi kuchi bozori o‘zining maxsus tovari – ishchi kuchi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ishchi kuchining bu bozordagi harakati esa bir qator ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Birinchiidan, ishchi kuchi bozori ikki mustaqil sub‘ekt – kapital egasi va ishchi kuchi egasi manfaatlarining o‘zaro to‘qnashish munosabatlari hisoblanadi. Ularni bozorga o‘zaro qarama-qarshi istak va maqsadlar etaklaydi, ya‘ni ularning biri ishchi kuchini sotishni istasa, boshqa biri uni xarid qilishni istaydi. Ular o‘rtasidagi savdo bitimi ishchi kuchi egasining o‘zi bo‘yicha emas, balki u mehnat qilish layoqati, undan foydalanish shartlari va davomiyligi bo‘yicha boradi. Bitim natijasi bo‘lib kapital egasi tomonidan sotib olingan ishchi kuchi evaziga to‘lanadigan ish haqi miqdori hisoblanadi.

Ikkinchiidan, boshqa har qanday tovar bozorlarida bo‘lgani singari, ishchi kuchi bozorida ham ishchilar o‘rtasida bo‘sh ishchi o‘rnini egallash borasida raqobat kurashi vujudga keladi.

Uchinchiidan, ishchi kuchi bozori ishchi kuchi Yalpi taklifining unga bo‘lgan Yalpi talabdan doimiy ravishda ko‘proq bo‘lishi tendensiyasi bilan tavsiflanadi. Bu esa bozorda ishchilar band bo‘lmagan qismi (ishsizlar)ning paydo bo‘lishiga olib keladi.

To‘rtinchiidan, bozor iqtisodiyotining siklli rivojlanishi odatda inflyasiya va ishsizlik bilan birga boradi. Bu ikkala jarayon o‘rtasida ma‘lum o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lib, u pirovardida ishchilar ommasi hayot darajasining ahamiyatli darajada pasayib ketishi (narxlarning oshishi, ish haqining qisqarishi, to‘lovga qodir talabning pasayishi va h.k.) orqali namoyon bo‘ladi. Muayyan iqtisodiy sharoitlarda ishchi kuchi bozorida umumiy holat inflyasiyaning o‘shishi uchun asosiy sabab bo‘lishi ham, yoki, aksincha, uning o‘shishiga to‘sqinlik qilishi ham mumkin. Mehnatga layoqatli aholi umumiy sonida ishsizlarning ulushi qanchalik oz bo‘lsa, narxlarning inflyasiya ta‘siri ostidagi o‘shish sur‘atlari shunchalik yuqori bo‘ladi. Ingliz iqtisodchisi A.Fillips ishsizlik va inflyasiyaning o‘shishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatib berib, bu bog‘liqlikni ifodalovchi egri chiziq Filips egri


chizig'i deb nom oldi (5.1-chizma). Unga ko'ra, inflyasiya darajasini 1%ga pasaytirish uchun ishsizlikni 2%ga o'stirish lozim bo'ladi.

Ishsizlik va inflyasiya darajasidagi nisbatni tartibga solishda davlatning iqtisodiy siyosati asosiy rol o'ynaydi. Davlat ish bilan bandlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi va ish haqi darajasi o'rtasidagi oqilona nisbatni ta'minlash orqali nafaqat ishsizlik va inflyasiya darajasini nazorat qilishi, balki ularning iqtisodiyot rivojlanishi va aholi turmush darajasiga salbiy ta'sirining oldini olishi ham lozim. Shunday qilib, ishchi kuchi bozori bozor xo'jaligi tizimida etakchi o'rin tutib, uni yuqori darajada tashkil etmasdan turib iqtisodiyotning samarali amal qilishiga erishib bo'lmaydi.

Mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmaganlar ishsizlar deyiladi. Namoyon bo'lish xususiyati va vujudga kelish sabablariga ko'ra ishsizlik friksion, tarkibiy, siklik, institutsional, texnologik, regional, yashirin va turg'un ishsizlik turlariga bo'linadi.

5.1-chizma. Fillips egri chizig'i.

W, P, %



Bir ishdan bo'shab yangi ishga joylashgunga qadar bo'lgan davrdagi ishsizlik **friksion (oraliq) ishsizlik** deyiladi. Yangi kasb va mutaxassislikni o'zlashtirib yoki boshqa joyga ko'chib o'tib, yangi ishga joylashgunga qadar bo'lgan ishsizlik tarkibiy ishsizlik deb ataladi. Friksion va tarkibiy ishsizlik birgalikda ishsizlikning tabiiy darajasini tashkil qiladi.

Siklik ishsizlik – iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog'liq bo'lib, u ishlab chiqarishning pasayishi va Yalpi talabning qisqarishi natijasida vujudga keladi.

Institutsional ishsizlik ishchi kuchi bozori infratuzilmasi, ya'ni ishchi kuchini ish bilan ta'minlashga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning etarli darajada rivojlanmaganligi yoki samarali faoliyat ko'rsatmasligi natijasida paydo bo'ladi. Uni ham tabiiy ishsizlik tarkibiga kiritish mumkin.


Texnologik ishsizlik ishlab chiqarish jarayoniga texnologik usullarning kirib kelishi bilan bog'liq bo'ladi.

Hududiy ishsizlik muayyan hududdagi tarixiy, demografik, madaniy, milliy va ijtimoiy-ruhiy xususiyatdagi bir qator kompleks omillar ta'siri ostida ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi nomutanosiblik natijasi hisoblanadi.

Yashirin ishsizlik uchun ish kuni yoki ish haftasi davomida to'liq band bo'lmaslik xos.

Turg'un ishsizlik mehnatga layoqatli aholining ish joyini yo'qotgan, ishsizlik bo'yicha nafaqa olish huquqidan mahrum bo'lgan va faol mehnat faoliyatiga hech qanday qiziqishi bo'lmagan qismini qamrab oladi.

«**To'liq bandlilik**» sharoitidagi ishsizlik darajasi ishsizlikning tabiiy darajasi deb ham ataladi. Ishsizlikning tabiiy darajasi bilan bog'liq bo'lgan milliy ishlab chiqarishning real hajmi, iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini ko'rsatadi.«Ishsizlikning tabiiy darajasi» tushunchasi ma'lum bir aniqliklar kiritishni talab qiladi.(5.1.rasm)



Birinchidan, bu tushuncha iqtisodiyot har doim ishsizlikni tabiiy darajasida amal qilishi va shu orqali o'zining ishlab chiqarish imkoniyatini ro'yobga chiqarishini bildirmaydi. Shunki, ko'pincha ishsizlik darajasi tabiiy darajadan ortiq, ayrim hollarda, masalan, ish vaqtdan ortiqcha ishlash va o'rindoshlik ishlarida band bo'lish natijasida tabiiy darajadan past ham bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, ishsizlikning tabiiy darajasi o'z-o'zicha doimiy miqdor hisoblanishi shart emas, u tarkibiy o'zgarishlar (qonunlar va jamiyat urf-odatlaridagi o'zgarishlar) oqibatida o'zgarib turishi mumkin. Masalan, AQShda ishsizlikning tabiiy darajasi dastlab XX asr 60-yillarining o'rtalarida 4,5% deb belgilangan bo'lsa, 70-yillarning boshiga kelib 5,5%, 80-yillarning boshida esa 6% gacha o'sdi.

Ishsizlik darajasi ishsizlar sonining ishchi kuchi tarkibidagi foizi sifatida hisoblanadi.

$$\text{Ishsizlik darajasi} = \frac{\text{Ishsizlar soni}}{\text{Ishchi kuchi soni}} \times 100$$

Ishsizlik darajasini baholash bilan birga uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ham hisobga olish zarur bo'ladi. Shunki ishsizlikning o'zi haddan tashqari yuqori darajasi bilan katta iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari ishlab chiqarilmagan mahsulot bilan taqqoslanib baholanadi. Iqtisodiyot ishlashni xohlagan va ishlay oladigan barcha uchun etarli miqdorda ish joylarini yaratish holatiga ega bo'lmasa mahsulot ishlab chiqarish potensial imkoniyatining bir qismi yo'qotiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bu yo'qotish Yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmining orqada qolishi sifatida aniqlanadi hamda u haqiqiy YAIMning potensial YAIMdan kam bo'lgan hajmi sifatida ko'rinadi. Ishsizlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, YAIM hajmining orqada qolishi shunchalik katta bo'ladi. Makroiqtisodiyot sohasidagi taniqli tadqiqotchi A.Ouken ishsizlik darajasi va YAIM hajmining orqada qolishi o'rtasidagi nisbatini matematik ifodalab beradi. **Bu nisbat iqtisodchilar orasida Ouken qonuni sifatida tanilgan bo'lib, agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foizga ortiq bo'lsa, YAIM hajmining orqada qolishi 2,5% ni tashkil qilishini ko'rsatadi.** Ayrim hollarda milliy mahsulotning haqiqiy hajmi potensial hajmidan ortib ketishi ham mumkin. Bunday hol ishsizlik darajasi tabiiy darajadan ham past bo'lgan davrlarda ro'y beradi. Ishlab chiqarishga ishchilarning qo'shimcha smenalarini jalb qilish, kapital uskunalardan o'rnatilgan normativdan yuqori darajada foydalanish, ish vaqtidan ortiqcha ishlash va o'rindosh ishlarda band bo'lish kabilar buning asosiy sabablaridir. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligima'lumotiga ko'ra, 2020 yil O'zbekistonning iqtisodiy faol aholisi orasida ishsizlik darajasi 13,2% ni tashkil etdi, 2019 yilning 9,1% ni tashkil etgan edi.

Ushbu ma'lumotlar Mehnat vazirligining Bandlik va mehnatni muhofaza qilish respublika ilmiy markazi tomonidan mamlakatning 101 ta shahar va tumanlarida o'tkazilgan sosiologik so'rov natijalari asosida e'lon qilindi. Unda 490 fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, 4900 ta uy xo'jaliklari va 25,9 ming fuqaro qamrab olingan.

COVID-19 pandemiyasi davrida koronavirus infeksiyasi tarqalishini oldini olishga qaratilgan karantin chora-tadbirlari mehnat bozoriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi».

Ishga muhtoj bo'lganlar soni 1,94 mln kishini tashkil etdi. 16–30 yoshdagi ishsizlik darajasi 20,1 foizga, ayollar orasida 17,4 foizga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, mehnat resurslari soni 2019 yilning shu davriga nisbatan 0,6 foizga ko'paydi va 19 mln kishini tashkil etdi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga COVID-19 ning salbiy ta'siri sababli ish bilan band bo'lganlar soni 5 foizga kamayib, 12,7 mln kishiga yetdi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 167,5 ming kishiga (46,4%) kamaydi. Bu holat koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olishga qaratilgan cheklovchi choralar natijasida yuzaga keldi, deb ta'kidladi

Mehnat vazirligi. Shu bilan birga, 131,2 ming kishi pullik jamoat ishlariga jalb qilinganligi sababli rasmiy sektorda ishchilar sonining keskin kamayishiga yo'q' yilmadi, deya qo'shimcha qildi vazirlik.

Chet elga ishlashga ketgan fuqarolar soni 2 million kishini tashkil etdi. Bu o'tgan yilning birinchi yarmiga nisbatan 553,2 ming kishiga va 2020 yilning birinchi choragiga nisbatan 232 ming kishiga kam.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlar soni (chet elda ishlayotgan mehnat muhojirlaridan tashqari) 2019 yil oxiriga nisbatan 2,1% ga yoki 105,3 ming kishiga kamaydi va 5,1 million kishini tashkil etdi. Bu bir martalik va mavsumiy ishlarda vaqtincha ish bilan band bo'lganlar sonining kamayishi (108,4 ming kishiga), oilaviy korxonalarda va ishbilarmonlar o'rtasida mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmasdan (87,4 ming kishiga), shuningdek ro'yxatdan o'tmasdan ishlayotgan tadbirkorlar sonining qisqarishi (110,6 ming kishi) hisobiga yuz berdi, izohladi Mehnat vazirligi.

Karantin chora-tadbirlari davrida uyda o'tirgan fuqarolar soni oshganligi hamda fuqarolarning shaxsiy tomorqalarni rivojlantirish uchun Bandlikka ko'maklashish jamg'armasidan subsidiyalar berish dasturi hajmi keskin ortganligi uchun dehqon va shaxsiy tomorqalarda band bo'lganlar soni 201,1 mingga ortdi. Yanvar'-iyun' oylarida, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasining mehnat bozoriga salbiy ta'sirini yumshatish uchun, mehnat organlari 588,2 ming ishsiz va ishsiz fuqarolarga (shulardan 159,9 ming nafari 30 yoshdan oshmagan, shuningdek, 229,4 ming nafari ayollar) ish bilan ta'minlash xizmatlarini ko'rsatdilar.

Xususan, doimiy ish joylariga ishga joylashish va pullik jamoat ishlariga jalb qilish hisobiga 501,1 ming kishi ish bilan ta'minlandi. 15 ming ishsiz kasbiy ta'limga yuborildi, 27,1 ming ishsizga 10,1 mlrd so'm miqdorida ishsizlik nafaqalari to'landi.

5.2. Inflyasiya tushunchasi, turlari, o'lchanishi. Inflyasiyaning iqtisodiy- ijtimoiy oqibatlarini. Ishsizlikni bartaraf etish yo'llari.

Inflyasiya bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy beqarorlikning ko'rinishlaridan biri bo'lib, hozirgi davrda barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan holat hisoblanadi.

«Inflyasiya» atamasi (lotincha inflation – shishmoq, kengaymoq) ilk bora Shimoliy Amerikada 1861-1865 yillardagi fuqarolar urushi davrida qo'llanilib, muomalada qog'oz pullarning haddan ortiq ko'payib ketishini ifodalagan edi. Iqtisodiy adabiyotlarda esa bu atama XX asrda, birinchi jahon urushidan keyin keng tarqaldi.

Inflyasiya tushunchasi juda serqirra bo'lib, iqtisodiy adabiyotlarda uning ko'plab izohlari mavjud. Jumladan:

Inflyasiya – bu pul massasining tovar aylanmasi ehtiyojlariga nisbatan ortib ketishi natijasida pul birligining qadrsizlanishi va shunga mos ravishda tovar narxlarining o'sishidir.

Inflyasiya – bu muomala sohasining pul belgilari bilan milliy xo'jalik haqiqiy ehtiyojlaridan ortiqcha miqdorda to'lib ketishi.

Inflyasiya – bu iqtisodiy tizimda narx o'sishining barqaror tendensiyasi orqali ifodalanuvchi makroiqtisodiy hodisa.

Inflyasiya – bu muomalada mavjud bo'lgan naqd qog'oz pullar yoki naqd bo'lmagan qog'oz pul hajmining tovarlarning real taklifiga nisbatan haddan tashqari ko'payib ketishi;

- pullarning xarid qobiliyatining pasayishi;
- uzoq davr mobaynida narxlarning umumiy o'sishi.

Bu ta'riflardan ko'rinib turibdiki, inflyasiya tushunchasini yoritishda bir tomonlama yondashishga yo'l qo'yilib, uning mazmunini to'la va yetarli darajada ochib bera olinmagan. Inflyasiyani to'g'ri tushunish uchun pulning qadrsizlanishini va uning sabablarini bilish muhim ahamiyatga egadir. Pulning qadrsizlanishi faqatgina qog'oz pullargagina xos bo'lgan hodisa emas, u hamma pullarga, jumladan metall (oltin) pullarga ham xosdir. Oltin pul quyidagi ikki holatda qadrsizlanadi:

- 1) oltin qazib olish texnologiyasi takomillashib, yangi texnikalarni qo'llagan holda mehnat unumdorligining oshishi va, binobarin, oltin qiymatining pasayishi natijasida. Agar boshqa tovarlar qiymati o'zgarmagan holda oltin qiymati ikki barobar pasaygan, deb faraz qilsak, u holda tovarlar odatdagi hajmlarining muomalasi uchun ikki barobar ko'proq oltin pul kerak bo'ladi. Demak, bu holatda tovarlar narxi oshib, oltin pulning qadrsizlanishi ro'y beradi;
- 2) ba'zi iqtisodchilar metall pullarning qadrsizlanishini qadimdan ma'lum bo'lgan metall pullarni soxtalashtirish jarayoni bilan ham bog'laydilar. Qadimgi Gresiya, Rim imperiyasida eramizga qadar va keyinchalik boshqa davlatlarda ham oltin va kumush tangalar tarkibini nisbatan arzon metallar aralashtirish yoki ularning og'irligini o'zgartirish orqali soxtalashtirish holatlari uchrab turgan. Bu esa metall pullarning o'z qadrini yo'qotishini keltirib chiqargan.

Boshqa holatlarda oltin yoki kumush pullar muomalada bo'lgan chog'da ularning qadrsizlanishi, ya'ni inflyasiya jarayoni ro'y bermaydi.

Iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar hajmidan ortiqcha bo'lgan pul massasi – oltin va kumush tangalar xazinaga aylanadi. Aksincha, iqtisodiyotda tovarlar ko'payib, muomala vositasini bajarish uchun pul yetishmagan taqdirda ularni osonlik bilan jamg'arma tarkibidan chiqarib, muomalaga kiritilgan. Bu esa boshqa sharoitlar o'zgarmagan holda oltin va kumush pullar inflyasiyaga uchramasligini anglatadi.

Real qiymatga ega bo'lmagan qog'oz pullarning muomalaga kirib kelishi esa inflyasiyaning kelib chiqishi uchun asosiy manba hisoblanadi. Chunki qog'oz pullarni jamg'arma sifatida muomaladan chiqarish kam samarali va ishonchsiz vosita bo'lib, ular pullarning ortiqchaligi sharoitida ham muomalada qoladilar. Natijada muomalada ortiqcha qog'oz pullarning ko'payishi mavjud yalpi talabni yanada kuchaytirib, narxlarning o'sishini tezlashtiradi.

Inflyasiya bozor xo'jaligining har xil sohalarida takror ishlab chiqarish nomutanosibliklari tug'diradigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Biroq, shuni ham nazarda tutish kerakki, alohida tovar bozorlaridagi talab va taklif nisbatining har qanday buzilishi ham inflyasiyani keltirib chiqaravermaydi. Shuningdek, iqtisodiyotdagi davriy o'zgarishlar, masalan, talabning mavsum bilan bog'liq holda oshishi yoki tabiiy ofatlar natijasida tovarlarga talabning kuchayishi keltirib chiqargan narxlarning o'sishi inflyasiyani anglatmaydi. Bu narxlar ma'lum muddat o'tgach, bozordagi talab va taklif nisbati muvozanatga kelgach, yana pasayishi mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa qilib inflyasiyaga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: inflyasiya deb pul muomalasi qonunlari buzilishi bilan bog'liq holda qog'oz pullarning qadrsizlanishiga aytiladi.

Bu yerda qog'oz pul miqdorining nisbatan ortib ketib, uning qadrsizlanishiga pulning ortiqcha emissiya qilinishi, pul emissiyasi o'zgarmasdan, uning aylanish tezligining oshishi, muomaladagi pul miqdori o'zgarmasa ham tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmining kamayib ketishi, tovarlar va xizmatlar ijtimoiy qiymatining va, binobarin, narxining pasayishi va nihoyat, pul qiymatining pasayishi kabi omillar ta'sir qiladi. Mana shu omillar yana bir bor inflyasiya – tovarlar narxining o'sishidir, degan ta'rifning to'liq va yetarli emasligini ko'rsatadi. Qog'oz pullar inflyasiyaga uchraganda uch xil narsaga nisbatan qadrsizlanadi:

1) oltiniga nisbatan – bu oltinning qog'oz pullarda bozor narxining oshishida o'z ifodasini topadi;

2) tovarlarga nisbatan – bu tovarlar narxining oshishida o'z ifodasini topadi;

3) bardoshli chet el valyutalariga nisbatan – bu chet el valyutalariga nisbatan milliy pul kursining tushib ketishida o'z ifodasini topadi.

Real iqtisodiy hayotda barcha kishilar tomonidan har kuni tovar va xizmatlar sotib olinayotganligi uchun qog'oz pullarning tovar va xizmatlarga nisbatan inflyasiyasiga alohida e'tibor qaratiladi va adabiyotlarda inflyasiya darajasi narxlarning o'zgarishiga qarab o'lchanadi. Inflyasiya narx indeksi yordamida bazis davrga nisbatan o'lchanadi. Narxlar o'zgarishini hisobga olish qamroviga ko'ra narxlar indeksining quyidagi turlarini hisoblash mumkin:

- iste'mol narxlari indeksi;

- ulgurji narxlar indeksi;

- narxlar indeksi – YaIM deflyatori;

- eksport va import narxlar indeksi.


- Narxlar indeksidan foydalangan holda inflyasiya sur'atini (IS) quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$\text{Inflyasiya sur'ati} = \frac{\text{INI1} - \text{INI0}}{\text{INI0}} \times 100\%$$

INI0 – o'tgan yilning INI INI1 – joriy yilning INI

5.2. jadval.

Inflyasiyani kelib chiqish sabablari



Ba'zi bir mamlakatlarda inflyasiya sur'ati juda yuqori bo'lganligi sababli, narxlarning qancha vaqt mobaynida 2 baravar o'sishi mumkinligi «70 miqdori qoidasi» yordamida aniqlanadi. Buning uchun 70 sonini inflyasiyaning o'rtacha yillik darajasiga bo'linadi. Bizning misolimida bu ko'rsatkich deyarli 19 yilni ($70/3,7 = 18,9$) tashkil etadi, ya'ni inflyasiyaning yillik 3,7% darajasida 19 yildan so'ng iqtisodiyotdagi narxlar 2 baravarga o'sadi.

Shuningdek, inflyasiyaning quyidagi sabablarini ham ko'rsatish mumkin:

- monopolistik faoliyatlarining paydo bo'lishi va amal qilishi;
- noto'g'ri soliq siyosati yuritish;
- jahon bozorlaridagi narxlarning o'sishi;
- harbiy sohadagi xarajatlarning o'sishi va hokazo.

Mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi iqtisodiyotda foydani va mahsulot hajmini qisqartiradi. Natijada tovarlar taklifi ham qisqaradi. Bu o'z navbatida narx darajasini oshiradi. Ishlab chiqarish xarajatlari nominal ish haqi, xomashyo va energiya narxlarining o'sishi hisobiga ortib boradi.

Inflyasiyaning o'rmalab boruvchi, jadal va giperinfllyasiya kabi templari ham mavjud.

1. O'rmalab boruvchi inflyasiya holatida narxlar yiliga 10%gacha;
2. Jadal inflyasiyada 20%- 200 %gacha;
3. Giperinfllyasiyada 200% dan yuqori darajada o'sishi kuzatiladi. Bashorat qilish mumkinligiga qarab kutilayotgan va kutilmagan inflyasiya farqlanadi.

Kutilayotgan inflyasiya va uning oqibatlarini oldindan bashorat qilish mumkin, kutilmagan inflyasiyani oldindan aytib bo'lmaydi. Birinchi holda inflyasiyaning kutilayotgan salbiy oqibatlariga tayyorlanib, uni sezilarli darajada yumshatish mumkin.

Ikkinchi holda narxlarning kutilmagan o'sishi natijasida mamlakat iqtisodiy axvolining sezilarli yomonlashuvi ro'y berishi mumkin.

2020 yilda iste'mol sektorida inflyasiya 11,1 foizni tashkil etdi. Oziq-ovqat mahsulotlari 15,3 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari 8,8 foiz va xizmatlar 7,1 foizga qimmatlashdi

2020 yilning dekabr' oyida tovarlar va xizmatlar o'rtacha 1,6 foizga qimmatlashdi. 2019 yilning mos davrida ushbu ko'rsatkich 1,7 foizni tashkil qilgan. 2020 yil davomida iste'mol bozoridagi narxlar va tariflar 11,1 foizga o'sdi. O'tgan yili bu ko'rsatkich 15,2 foizni tashkil etgan edi. (Statistika qo'mitasi)

5.2. расм О'zbekistonda inflyasiyani kutilayotgan templari




Foto: Markaziy Bank

2020 yilda inflyasiya darajasi uchun 12, 5 foizli target oʻrnatilgan edi. Tepadagi rasmda koʻrinib turganidek, oʻtgan yil uchun inflyasiya darajasi 11–11,5 foiz prognoz qilingan.

5.3 Iqtisodiy oʻsishni tushunchasi va oʻlchanishi. Iqtisodiy oʻsishning ikki turi – ekstensiv va intensiv, ularning omillari. Intensiv iqtisodiy oʻsishning afzalliklari. Iqtisodiy oʻsishning ahamiyati.

5.3. jadval.

Iqtisodiy oʻsish turlari.



Iqtisodiy oʻsish bevosita yalpi ichki mahsulot hajmining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari har bir birligi hisobiga oʻsishi, sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi. Iqtisodiy oʻsishni YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali yoki aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali oʻlchash buning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga bogʻliq boʻladi. Odatda biron-bir mamlakat iqtisodiy oʻsishini YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali oʻlchash uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali oʻlchash esa mamlakatdagi turmush darajasini taqqoslashda qoʻllaniladi. Mamlakatning iqtisodiy oʻsish surʼatini tavsiflaydigan mazkur koʻrsatkichlar (real YaIM va aholi jon boshiga real YaIMning oʻsishi) miqdoriy koʻrsatkichlar boʻlib, ular birinchidan, mahsulot sifatining oshishini toʻliq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy oʻsishini toʻliq tavsiflab berolmaydi; ikkinchidan, real YaIM va aholi jon boshiga YaIMning oʻsishi boʻsh vaqtning sezilarli koʻpayishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib koʻrsatilishiga olib keladi; uchinchidan, iqtisodiy oʻsishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof muhitga va insonning hayotiga salbiy taʼsirini hisobga olmaydi.

Shunga koʻra, iqtisodiy oʻsishning barcha tavsifi yillik oʻsish surʼatlarining foizdagi oʻlchovida toʻliq oʻz ifodasini topadi: $O'S = (YaIM \text{ basis davr} / YaIM \text{ joriy davr}) * 100\%$ bu yerda:

OʻS – iqtisodiy oʻsish surʼati, foizda;

YaIMbasis davr – taqqoslanayotgan davr (yil)dagi real YaIM hajmi;

YaIMjoriy davr – joriy davr (yil)dagi real YaIM hajmi. Iqtisodiy o'sish sur'atining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo'llaniluvchi «70 miqdori qoidasi» yordamida ham ochib berish mumkin. Bu qoidaga ko'ra, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan YaIM hajmini 2 baravarga oshirishda qancha vaqt talab etilishini aniqlash uchun 70 sonini yillik o'sish sur'atiga bo'lish kerak bo'ladi. Masalan, mamlakatimizdagi o'sish sur'atining 9% darajasida YaIMni 2 baravar oshirish uchun 7,7 yil talab etiladi (70:9). Xolbuki, iqtisodiy o'sishning 2000 yildagi 4,0% darajasida bu ko'rsatkichga 17,5 yilda (70:4) erishish mumkin edi. Keyingi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atining yanada oshirilishi bu muddatning ahamiyatli ravishda qisqarishiga olib keladi. Ijtimoiy mahsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillarimiqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi.

Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun ishlab chiqarish omillari miqdori ikki barobar ko'paytirilishi lozim, sodda qilib aytganda mavjud korxonalar bilan bir qatorda o'ratilgan uskunalarining quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha xuddi o'shanday yana korxonalar qurilishi lozim. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kongaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, yanada ilg'or ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi.


Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida-alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikda, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda bo'ladi. Shu sababli ko'proq ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish turlari haqida so'z yuritiladi. Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligining o'sishi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- a) ishlab chiqarish vositalarining rivojlanganlik darajasi;
- b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi;
- v) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat;
- g) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

Iqtisodiy o'sishning jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan boshqa ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi hisoblanadi. U tarmoqlar bo'yicha hisoblab chiqilgan YaIM ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi. Bunda iqtisodiyotning yirik sohalari, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi nisbat ham o'rganiladi. Bu omillar har birining yalpi mahsulot hajmiga ta'sirini baholash orqali iqtisodiy o'sishni tavsiflash mumkin.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar taklif omillari deb ham atalib, iqtisodiyotning o'sish layoqatini belgilab beradi:

5.4rasm. Iqtisodiy o'sish omillari



- 1) tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
- 2) ishchi kuchi resurslari miqdori va sifati;
- 3) asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi;
- 4) texnologiya va fan-texnika taraqqiyoti.

Ma'lumki, yalpi ichki mahsulot ishchi kuchi, kapital va tabiiy resurslar sarflarining funksiyasi hisoblanadi, ya'ni:

$$Y = f(L, K, N),$$

bu yerda:

Y – yalpi ichki mahsulot; L – ishchi kuchi sarflari; K – kapital sarflari;

N – tabiiy resurslar sarflari.

Bu funksional bog‘lanishdan kelib chiqqan holda iqtisodiy o‘shishni belgilab beruvchi bir qator xususiy ko‘rsatkichlarni keltirib chiqarish mumkin:

1) mehnat unumdorligi (Y/L) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining jonli mehnat sarflariga nisbati;

2) mehnat sig‘imi (L/Y) – jonli mehnat sarflarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

3) kapital samaradorligi (Y/K) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan kapital xarajatlariga nisbati;

4) kapital sig‘imi (K/Y) – kapital xarajatlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

5) tabiiy resurslar samaradorligi (Y/N) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo‘llanilgan tabiiy resurslar miqdoriga nisbati;

6) mahsulotning resurslar sig‘imi (N/Y) – tabiiy resurslar sarfining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

7) ishchi kuchining kapital bilan qurollanganlik darajasi (K/L) – ishlab chiqarish jarayonida qo‘llanilayotgan kapital hajmining ishchi kuchi miqdoriga nisbati.

Iqtisodiy o‘shishni tahlil qilishda yuqorida ko‘rib chiqilgan ko‘rsatkichlardan tashqari yana keyingi qo‘shilgan ishlab chiqarish omillari unumdorligi ko‘rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko‘rsatkichlar, boshqa omillar sarfi o‘zgarmagani holda, har bir alohida omil sarfining qo‘shimcha o‘shishi ta‘sirida mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo‘shimcha o‘shishi hajmini belgilab beradi:

1) keyingi qo‘shilgan mehnat unumdorligi ($\Delta Y/\Delta L$);

2) keyingi qo‘shilgan kapital unumdorligi ($\Delta Y/\Delta K$);


3) keyingi qo‘shilgan tabiiy resurslar unumdorligi ($\Delta Y/\Delta N$).

Iqtisodiy sikl deganda, odatda iqtisodiyot rivojlanishining bir holatidan boshlanib, birin ketin bir necha fazalarni bosib o‘tib, o‘zining dastlabki holatiga qaytib kelgunga qadar o‘tgan davr tushuniladi. Iqtisodiyotning rivojlanishidagi harakati bir sikl bilan to‘xtab qolmaydi, balki u to‘xtovsiz to‘lqinsimon harakat sifatida davom etadi. Iqtisodiy sikl maxsus fazalar orqali amalga oshadi. Har bir faza iqtisodiy rivojlanishdagi muayyan pallani ifodalab, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Odatda iqtisodiy siklning **inqiroz**, **turg‘unlik**, **jonlanish**, **yuksalish** fazalari ajratib ko‘rsatiladi. Ana shu fazalarning har biri rivojlanishi jaryonida navbatdagi fazaga o‘tish uchun sharoit yuzaga keladi. Iqtisodiy siklning dastlabki fazasi **inqirozdan** boshlanib, u ishlab chiqarishning pasayishida ifodalanadi.

Inqirozdan keyin **turg‘unlik fazasi** boshlanib, u nisbatan uzoqroq davom etadi. Bu fazada ishlab chiqarish darajasining barqarorligi ta‘minlansada, u inqiroz boshlanishidan oldingi darajaga nisbatan ancha past bo‘ladi. Narxlarning pasayishi


to'xtab, ssuda foizlari pasayadi, tovar zahiralari barqarorlashadi. Biroq ishsizlikning yuqori darajasi saqlanib qoladi. Turg'unlik fazasi davomida iqtisodiy faollik jonlanishi uchun sharoitlar vujudga kelishi nihoyasiga etadi.

5.4 jadval. Iqtisodiy o'sish natijalari



Jonlanish fazasida ishsizlik darajasi bir oz qisqarib, ishlab chiqarish darajasi sekin- asta o'sib boradi. Narxlar ham asta ko'tarilib, ssuda foizi o'sa boshlay. Iqtisodiyotning bandlik darajasining ortishi va foyda hajmining tezlik bilan o'sishi jonlanish fazasining yuksalish bosqichiga o'sib o'tishiga imkoniyat yaratadi. Yangi sikl yuksalishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

5.1-chizma. Iqtisodiy sikl fazalarining klassik jihatdan ifodalanishi.



Yuksalish fazasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kengayishi ishsizlikning birmuncha kamayishiga hamda ish haqining o'sishiga olib keladiki, buning oqibatida iste'mol tovarlariga to'lovga qodir talab kengayadi. Pirovard talabning

oshishi, o'z navbatida, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga, bozorni kengaytirishga jadal turtki beradi. Raqobat va foyda ketidan quvish oqibatida nomutanosibliklarning to'planib borishidan iborat zanjirli reaksiya tezlashadi. Bu bilan yangi inqiroz muqarrar bo'lib qoladi.

Alohida iqtisodiy sikllar bir-biridan davomiyligi va intensivligi bo'yicha keskin farqlanadi. Shunga qaramay, ularning hammasi bir xil fazalarga ega bo'ladi. Biroq bu fazalar turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha nomlanadi. Masalan, yuqorida ko'rib chiqilgan iqtisodiy siklning fazalari klassik tavsifga ega bo'lib, ularni quyidagi 5.1-chizma orqali ifodalash mumkin.

Sikllarning asosiy turlari quyidagilar:

Kitchin sikli-2-4 yil, Zahiralarni miqdori → YAMM, inflyasiya, bandlikning tebranishi, tijorat sikllari;

Juglar sikli-7-12 yil, Investitsion sikl → YAMM, inflyasiya va bandlikning tebranishi;

Kuznets sikli-16-25 yil, Daromad → immigratsiya → uy-joy qurilishi → Yalpi talab → daromad;

Kondratev sikli-40-60 yil, Texnika taraqqiyoti, tarkibiy o'zgarishlar;

Forrester sikli-200 yil, Energiya va materiallar;

Toffler sikli-1000-2000 yil, Sivilizatsiyalarning rivojlanishi.

Iqtisodiy sikl barcha tomonlari bilan namoyon bo'lib, amalda iqtisodiyotning hamma sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyot tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligi sababli uning hech bir sohasiga inflyasiya to'liqini yoki turg'unlikning nohush oqibatlaridan chetda qolmaydi. Ammo shuni e'tiborga olish zarurki, iqtisodiy sikl alohida shaxslar turmush darajasi va korxonalar iqtisodiy faolligiga turli darajada ta'sir ko'rsatadi.

5.4. Mehnat unumdorligi va sarmoya xarajatlari. Texnika taraqqiyoti iqtisodiy o'sishning asosiy kuchi. Inson kapitaliga investisiyalar.

Mehnat unumdorligi deb ishchi kuchining vaqt birligi mobaynida mahsulot yaratish qobiliyatiga aytiladi va ishlab chiqarilgan mahsulotning (iste'mol qiymatining) sarflangan mehnat miqdoriga nisbati bilan belgilanadi. Sarflangan mehnat miqdori esa ishlangan vaqt bilan, kishi kuni, kishi soati va h.k. bilan belgilanadi. Agar mehnat unumdorligini

MU, mahsulotni M bilan, sarflangan ish vaqtini V bilan belgilasak, mehnat unumdorligi quyidagicha aniqlanadi:

$$MU = M / V$$

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bir qancha omillar ta'sir qiladi:

1. Ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtirish va uning natijalarini tezlik bilan ishlab chiqarishda qo'llash.

2. Ishlab chiqarishni ratsional joylashtirish, ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash.
3. Iqtisodiyotning tarkibiy qismlarini va uning tashkiliy bo'g'inlarini o'zgartirish.
4. Ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish va ularning faolligini oshirish.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, inson kapitali avvalo iqtisod ta'limi va mehnatning asosiy yutug'iga aylandi. Iqtisodiy adabiyotlarda inson kapitali tushunchasining keng va tor ma'nolarda berilganini ko'rish mumkin. Shuni hisobga olgan holda, tor ma'noda «Inson kapitali, shubhasiz, zamonaviy iqtisodiy o'sishning muhim omili va ijtimoiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi» Keng ma'noda esa inson kapitali investisiya qilish – ishchi kuchini tashkil etib, ishlab chiqarishga tayyorlash, sog'liqni saqlash, migratsiya hamda narxlar va daromadlarga oid ma'lumotlarqidirishga bo'lgan xarajatlar ko'rinishida shakllanadi. «Iqtisodiy ensiklopediya» («Экономическая энциклопедия»)da inson kapitaliga «mablag' ajratishning alohida turi, insonning qayta ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirishga sarflanadigan xarajatlar yig'indisi, sifatni oshirish va ishchi kuchi xizmatlarini yaxshilash» deb ta'rif beriladi, umumiy ma'lumot va maxsus xarakterdagi bilimlar, ko'nikmalar va to'plangan tajriba inson kapitali ob'ektining tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson kapitalini yanada to'liq ta'riflash uchun funksional yondashuv talab etiladi. Funksional aniqlashning negizi nafaqat ichki tuzilish ko'rinishlarini ta'riflaydi, balki funksional belgilanishi va so'nggi maqsadlashgan foydalanishni ta'riflaydi. Shuning uchun ham inson kapitali inson ega bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarning yig'indisigina emas.

Chunki, birinchidan, bu to'plangan bilim, malaka va qobiliyat zahirasi hisoblanadi.

Ikkinchi navbatda, bu shunday zahiraki, u yoki boshqa bir muhitda inson tomonidan ijtimoiy qayta ishlashga sarflanadi va mehnat unumdorligi hamda ishlab chiqarishning o'sishiga imkon beradi.

Uchinchidan, to'plangan bilim, ko'nikma va qobiliyat zahirasi maqsadga muvofiq ishlatilishi faoliyatning yuqori unumdorligida ishchi ish haqi (daromadi)ning o'sishiga olib keladi.

To'rtinchidan esa daromadning oshishi insonni rag'batlantiradi va qiziqtiradi hamda yangi bilim va ko'nikmalar zahirasini to'plab, kelajakda unumli qo'llashga sabab bo'ladi.

Inson kapitaliga investisiyalar mehnat unumdorligini oshirish uchun qo'llanilgan ixtiyoriy chora, yo'l va qarorlar yig'indisidir. Umumiy mezonlarni hisobga olganda, inson kapitaliga investisiyalar deganda quyidagi xarajatlar majmui nazarda tutiladi: sog'liqni saqlash, umumiy va maxsus ta'lim, ish qidirish bilan bog'liq xarajatlar, ishlab chiqarishga professional tayyorgarlik, migratsiya, bolalarning dunyoga kelishi va tarbiyasi, narxlar va daromadlarga oid iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar qidirish. Iqtisodchi olimlar inson kapitaliga investisiyalarning uch turini ajratib ko'rsatadilar:

- ta'limga xarajatlar. U umumiy va maxsus, rasmiy va norasmiy ta'lim hamda ish joylariga ko'ra tayyorgarlikni o'z ichiga oladi;
- sog'liqni saqlashga xarajatlar. U kasallik profilaktikasi, tibbiy xizmat ko'rsatish, parhez ovqatlanish, sog'lom turmush tarzi, yashash sharoitini yaxshilash kabilarni o'z ichiga oladi;
- harakatchanlik xarajatlari, nisbatan past unumdorlik bo'lgan joylardan ishchilarning ko'chishi bilan bog'liq xarajatlar. Shu bilan birga, inson kapitaliga investisiyalar moddiy va nomoddiy turlarga ham bo'lib o'rganiladi. Moddiy turga insonning jismoniy shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha xarajatlar (bolaning tug'ilishi va tarbiyasi uchun chiqimlar) kiradi. Nomoddiy turga umumiy ta'lim va maxsus tayyorgarlik uchun yig'ilgan xarajatlar, sog'liqni saqlash va ishchi kuchini taqsimlash uchun yig'ilgan xarajatlarning ma'lum qismi kiradi. Sog'liq va ta'limga mablag' ajratish inson kapitaliga investisiyalarning muhim turidan hisoblanadi. Umumiy va maxsus ta'lim sifatini yaxshilaydi, insonning bilimlari zahirasini va darajasini oshiradi, shu bilan birga inson kapitalining hajmi va sifatini oshiradi.

Ma'lumki, XXI asr intellektual boylik, yuksak bilim va salohiyat talab etiladigan asr hisoblanmoqda. Darhaqiqat, taraqqiyot yo'lidan izchil rivojlanishda hal qiluvchi muhim mezon – bu, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan mutaxassislar hisoblanadi. O'zbekistonda aholi intellektual salohiyatining milliy iqtisodiyot doirasidagi ahamiyati xususida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- ta'lim tizimi uy xo'jaligiga ta'sir etib, undagi mehnat resurslarining kasbiy salohiyatini shakllantiradi;
- shakllangan mehnat resurslari bozor orqali milliy iqtisodiyotning barcha sohalariga yo'naltiriladi, ular band bo'lganlarning kasbiy tarkibini shakllantiradi, sanoat, qishlok xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat ko'rsatadi.

Ta'lim qay darajada rivojlangan bo'lsa, milliy iqtisodiyotda shunga mos kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimlar faoliyat ko'rsatadi va shunga mos iqtisodiy o'sishga erishiladi. Ta'lim sohasi iqtisodiy o'sishga erishishning imkoniyati bo'lib hisoblanadi. Ta'lim va ishlab chiqarishga qaratilgan xarajatlar bugungi kunda barcha mamlakatlarda inson kapitaliga mablag' ajratishning eng muhim qismi hisoblanadi. Istalgan o'quv rejasining 80 foizgacha bo'lgan qismi mustaqil o'qishga to'g'ri keladi. Bu, ayniqsa, tadqiqotchi, o'qituvchi, muhandis, komp'yuter ekspertlari va boshqa kasblarni egallagan mutaxassislarga tegishlidir. Ularning adabiyotlarni mustaqil o'rganish, o'qish yo'li bilan uzluksiz ravishdamalakalarini yangilashlari, erkin o'quv dasturlarini qo'llashlari, faoliyat, tajriba hamda boshqa insonlarning baholashlari (fikrlari) misolida o'qishlari talab etiladi.

Ta'limga investisiyalar ma'nodor belgisiga ko'ra, odatda, rasmiy va norasmiy turlarga bo'linadi .

Rasmiy investisiyalar – bu, o'rta, maxsus va oliy ta'limni qamrab olish, shuningdek, boshqa ta'lim, yangi ishlab chiqarishda professional tayyorgarlik, turli kurslar, magistratura, doktoranturada o'qish va hokazolarga investisiyalardir. **Norasmiy investisiyalar** – bu, shaxsning mustaqil o'qishi bo'lib, bu turga rivojlantiruvchi adabiyotlarni o'qish, san'atning turli ko'rinishlarida kamol topish, sport bilan professional shug'ullanish va boshqalar bilan bog'liq investisiyalar kiradi. Ta'lim bilan bir qatorda, sog'liqni saqlashga mablag' ajratish ham muhim hisoblanadi. Bu kasalliklar va o'lim darajasining qisqarishiga, inson umrining mehnatga layoqatli qismining uzayishiga, shu bilan bir qatorda, inson kapitalining faoliyat ko'rsatish vaqtining uzayishiga olib keladi. Inson salomatligining holati – bu, tabiiy kapital bo'lib, bir qismi meros, boshqa qismi esa insonning o'zi va jamiyatning xarajatlari natijasida olinadi. Insonning hayoti davomida inson kapitalining yemirilishi kuzatiladi. Sog'liqni saqlash bilan bog'liq bo'lgan investisiyalar bu jarayonni sekinlashtiradi. Inson kapitaliga investisiyalar investisiyalarning boshqa turlaridan o'zining qator xususiyatlari bilan ajralib turadi.

1. Inson kapitaliga investisiya ajratish uning egasining hayot muddati bilan bevosita bog'liq bo'lib (mehnatga layoqatlilik davrining davomiyligi), qanchalik erta insonga mablag' ajratilsa, u shunchalik tez qaytishni boshlaydi.
2. Inson kapitali nafaqat jismoniy va ma'naviy yemiriladi, balki yig'ilishi va ko'payishi ham mumkin.
3. Inson kapitali yig'ilishiga ko'ra yuqori chegara bilan cheklangan faol mehnat jarayonida uning daromad berishi oshadi, keyin esa keskin pasayadi.
4. Insonga qilingan investisiyalarning hammasi ham inson kapitaliga mablag' ajratishga qaratilgan bo'lavermaydi. Masalan, kriminal faoliyat bilan bog'liq xarajatlari inson kapitaliga investisiya hisoblanmaydi, chunki u jamiyat uchun zararli.
5. Insonga mablag' ajratishning tabiati va turlari tarixiy, milliy, madaniy xususiyat va an'analar bilan shartlangan.
6. Boshqa turli shakllardagi kapitalga investisiya qilishga nisbatan inson kapitaliga investisiyalar alohida inson nuqtai nazaridan ham, jamiyat nuqtai nazaridan ham foydaliroq hisoblanadi. Davlat, nodavlat ijtimoiy fondlar va tashkilotlar, regionlar, alohida firmalar, xalqaro fond va tashkilotlar, shuningdek, ta'lim muassasalari inson kapitaliga mablag' ajratish manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Albatta, hozirgi vaqtda bu sohada davlatning roli katta. Davlat bu sohada majburiy (undash) choralarga ham, da'vat etish choralari ham murojaat etmoqda. Majburiy choralarga hamma uchun shartli bo'lgan o'rta maktab rasmiy ta'limi, shartli bo'lgan tibbiy profilaktik tadbirlar (emlash) va boshqalar kiradi. Biroq da'vat etish (undash)

choralari asosiy chora hisoblanadi. Davlat bu borada ikkita amaliy usulga ega bo'lib, bu usullar bozor iqtisodiyoti orqali avtomatik boshqariladigan xususiy investisiyaning ko'lamini o'zgartirish maqsadida qo'llaniladi. Inson kapitalining muhim sohalari bo'lmish ta'lim va sog'liqni saqlashning shakllanishida davlatning o'rnini beqiyosdir.

Respublikamizda 2018 yilda ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar davlat byudjeti xarajatlari tarkibining 59,2 foizini tashkil etdi. Shu mablag'lardan 34 foizdan ortig'i aynan ta'lim sohasiga yo'naltirilganligi davlat ta'lim siyosatining o'ziga xosligidan darak beradi. Inson kapitali aktivlarini yaratishda alohida kompaniyalar, firmalar ahamiyatli hisoblanadi. Ular ko'pincha shu kapitalning eng ta'sirli ishlab chiqaruvchilari sifatidanamoyon bo'ladi, chunki ular shaxsni tayyorlashdagi ehtiyojlarga mos sharoitga hamda ta'lim va tayyorgarlikka mablag' ajratishning ilg'or yo'nalishlari haqida axborotga ega. Biroq firmalar investisiyalar sof daromad keltirguniga qadar investisiya qilishadi. O'z xodimlari va bo'lg'usi xodimlari doirasida investisiyani amalga oshirib, firmalar mehnatini faollashtirishga, uning unumdorligini oshirishga, ish vaqti yo'qotilishini qisqartirishga, shu bilan birga, o'zlarining raqobatbardoshligini mustahkamlashga intiladilar. Mablag'lar maxsus va qayta tayyorlov kurslari tashkilot va muassasalariga, ishchilarning davolanish va profilaktik tadbirlarga xarajatlarini to'lashga, jismoniy va sog'lomlashtirish markazlarining qurilishiga, bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalari va boshqalarga qaratilgan bo'ladi.

Xarajatlarning ko'lami bo'yicha firmada ichki o'qitish rivojlangan mamlakatlarda kadrlar tayyorlashning boshqa sektorlari bilan taqqoslanadi. Inson kapitaliga investisiyalar oila doirasida ham juda muhim, chunki inson kapitalining hosil bo'lishi va ko'payishi oilaning o'z farzandiga mablag' ajratishiga bevosita bog'liqligi yaqqoldir. Bir tomondan, farzand ota-ona uchun (qoniqish) mamnuniyat manbai bo'lsa, ikkinchi tomondan esa farzand tarbiyasi aniq va noaniq xarajatlar manbai hisoblanadi. Oilada insonning intellektual va psixofiziologik qobiliyatlarining yig'ilishi inson kapitalining kelgusida rivojlanib mukammallashuvida poydevor (asos) bo'lib xizmat qiladi. Bolalar inson kapitali rivojlanishi uchun qilinadigan investisiyalar nafaqat o'z rivojida, balki kelajak avlod inson kapitali majmuasining rivojlanishida asos hisoblanadi. Oilalardagi ta'lim va tarbiya natijasida inson kapitalining turli tiplari shakllanadi. Asosiy psixofiziologik aqliy qobiliyatlar paydo bo'lib, shaxs shakllanadi.

Nazorat savollari:

1. Ishsizlik tushunchasi, turlari, o'lchanishi.
2. Ouken qonuni.
3. Ishsizlikni bartaraf etish yo'llari.
4. Inflyasiya tushunchasi, turlari, o'lchanishi.
5. Inflyasiyaning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari.
6. Ishsizlikni bartaraf etish yo'llari.
7. Inson kapitali haqida ma'lumot bering.

6 – Mavzu. Tarkibiy-investision siyosat, uning maqsadi, vazifalari va vositalari.

6.1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari va rivojlanish shart-sharoitlari. Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllari. Kichik biznes sub'ektlari: yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar.

Hozirgi paytda turli ilmiy-nazariy adabiyotlarda tadbirkorlik faoliyati va biznes xususida, uning yo'nalishlari, tamoyillari, huquqiy-iqtisodiy jihatlari to'g'risida ko'plab olimlarning fikrlari, mulohazalari keng o'rin egallamoqda. Ularda ko'pincha tadbirkorlik faoliyati va biznesni bir xil tushuncha sifatida talqin qilinmoqda. Fikrimizcha, tadbirkorlik biznesdan farq qilib, tadbirkorlik – bu mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga ijodkorlik, yangilik yaratish ruhi asosida yondashish bilan bog'liq faoliyatdir. Biznes esa unga nisbatan keng tushuncha bo'lib, umuman foyda olish nuqtai-nazaridan yuritiluvchi faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyati – shakli va sohasidan qat'iy nazar foyda olish va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir.

Tadbirkorlikning rivojlanishi, o'z navbatida, bir qator sharoitlarning mavjud bo'lishini taqozo etib, ular asosida umuman tovar ishlab chiqarishning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari yotadi.

Birinchidan, tadbirkor xo'jalik yuritishda uning biron turini tanlash, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish, uni o'zgarishlarga moslashtirish, manbalarni tanlash, resurs topish, mahsulot sotish, ularga baho belgilash, foydani tasarruf qilish va shu kabilar bo'yicha ma'lum xuquq va erkinliklar mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Ikkinchidan, tadbirkor ishlab chiqarish vositalariga, ishlab chiqarilgan mahsulot va olingan daromadga mulkchilik xuquqiga ega bo'lishi kerak. Tadbirkorlik faoliyati mulkdorning o'zi tomonidan ham, uning mol-mulki asosida ish yurituvchi sub'ekt tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Uchinchidan, xo'jalik yuritish yo'lini erkin tanlash, daromadni investitsiyalash imkoniyati va shu kabilarni real ta'minlaydigan ma'lum iqtisodiy muhit va ijtimoiy siyosiy sharoit yaratishi zarur.

To'rtinchidan, tadbirkorlik mulkchilik va o'zlashtirish turli-tuman shakllari va turlarining mavjudligini taqozo qiladi. O'z navbatida mulkchilik va o'zlashtirish sohalaridagi turli-tumanlilikning o'zi ob'ektiv hodisa bo'lib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi oqibati sifatida maydonga chiqadi.

Beshinchidan, etarli moliyaviy manbalarga, yaxshi ma'lumot va malakali tayyorgarlikka ega bo'lish, umumiy tijorat qonunchiligi, soliq bo'yicha imtiyozlar, tadbirkorlik muhiti va uni rivojlantirishda jamiyat manfaatdorligining mavjud bo'lishi tadbirkorlikni rivojlantirishning navbatdagi shart-sharoitlari hisoblanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lgan davlatlarda tadbirkorlik yaxshi rivojlanadi, aks holda faoliyatning bu turi xufyona iqtisodiyot sohasiga o'tib ketishi ehtimoli ham yuqori bo'ladi.

Davlat korxonalarini uchta guruhga bo'lish mumkin:

- byudjet korxonolari;
- davlat ishlab chiqarish korxonolari;
- aralash kompaniyalar.

Huquqiy va xo'jalik mustaqilligiga ega bo'lmagan korxonalar **byudjet korxonalariga** kiradi. O'zlarining holati bo'yicha ular davlatning ma'muriy-boshqarish tizimiga kiradi va biron-bir vazirlik, mahkama yoki mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga bevosita bo'ysunadi yoki ularning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular olgan foydasidan soliq to'lamaydi. Barcha daromad va xarajatlar davlat byudjeti orqali o'tadi.

Davlat ishlab chiqarish korxonolari – bu korxonalarining ancha keng tarqalgan tashkiliy, huquqiy shaklidir. Ular alohidalashgan mol-mulkka ega bo'lib, xo'jalik faoliyati bilan birga davlat tomonidan belgilangan doirada boshqarish va tartibga solish vazifalarini ham bajaradi, ya'ni davlat korporatsiyalari o'zida tijorat korxonolari va davlat organlari belgilarini mujassamlashtiradi.

Aralash kompaniyalar – hissadorlik jamiyatlari va majburiyatlari cheklangan shirkatlar shaklida tashkil qilinib, aksiyalari davlatga va xususiy omonatchilarga taalluqli bo'ladi. Aralash kompaniyalar hissadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun asosida ish yuritadi va yuridik shaxs hisoblanadi, xo'jalik faoliyatida xususiy firmalar bilan barobar tijorat asosida qatnashadi. Shu bilan birga, ular xususiy firmalarga nisbatan ma'lum imtiyozlardan foydalanadi. Bu imtiyozlarga davlat tomonidan moliyaviy yordam va dotatsiyalar berish, chet el litsenziyalarini engil shartlar bilan olish, boshqa davlat korxonalaridan xom ashyo va yarim fabrikatlarni qat'iy belgilangan narxlarda olish, ishlab chiqargan mahsulotni sotish uchun bozor bilan ta'minlanganlik va shu kabilar.

Korxonalarining mulkchilik mavqeidan tashqari xilma-xil tashkiliy-huquqiy shakllari ham mavjud bo'ladi. Korxonalar xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari, ishlab chiqarish kooperativlari, jamoa korxonolari, ijara korxonolari, xo'jalik birlashmalari shaklida tuzilishi mumkin.

Kooperativ tadbirkorlik – jamoa tadbirkorligining alohida shakli bo'lib, jamoa mulkiga asoslanadi va kooperatsiya a'zolarining uning faoliyatida o'z mehnati bilan ishtirok etishini taqozo qiladi. Kooperativ mulkchilikka asoslangan tadbirkorlikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: ishlovchilarning ishlab chiqarish vositalari bilan bevosita qo'shilishi (xususiy mulkchilikda bunday qo'shilishda mulkdor, davlat mulkchiligida esa davlat vositachi hisoblanadi); kooperatsiya a'zolarining ishlab chiqarish vositalaridan keng foydalana olishi;

ularning iqtisodiy jihatdan teng huquqliligi; jamoaning o'z-o'zini boshqarishni amalga oshirishi; jamoa va shaxsiy manfaatlar uyg'unligi yuzaga kelishi va h.k.

Xususiy tadbirkorlik alohida shaxs yoki korxonadan xususiy tashabbus asosida tashkil qilinadi. Tadbirkorlikning bu shaklida mulk va ishlab chiqarish natijalari xususiy shaxslarga tegishli bo'lib, ishlab chiqarishni tashkil qilish yollanma mehnatga asoslanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik shaxsiy mulkka asoslanadi, ishlab chiqarishni tashkil qilish o'zi yoki oila a'zolari mehnati asosida amalga oshiriladi. Shaxsiy korxonaga egasi uning menejeri ham hisoblanib, korxonaning barcha majburiyatlari uchun shaxsiy javobgar bo'ladi. Xo'jalik xuquqi nuqtai-nazaridan yakka tartibdagi tadbirkorlik huquqiy shaxs hisoblanmaydi, shu sababli uning egasi cheklanmagan mas'uliyatga ega bo'lib, faqat fuqarolardan olinadigan daromad solig'ini to'laydi. Bu odatda kichik magazin, xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar, dehqon xo'jaliklari, shuningdek, huquqshunos, vrach, advokat kabi turli malakali mutaxassislar xizmati ko'rinishida tashkil qilingan tadbirkorlikdir.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning muhim shakllaridan biri hissadorlik (aksionerlik) jamiyatlaridir.

Aksiyadorlik jamiyati – kapitali qimmatli qog'oz shaklida rasmiylashtirilgan turli omonatchilarning pul mablag'laridan tarkib topuvchi korxonaga.

Yirik ishlarni amalga oshirib, katta foyda olish maqsadida bir necha tadbirkorlar o'zlarining moddiy (ishlab chiqarish vositalari) va pul mablag'larini birlashtirib ittifoq (jamiyat) tuzadilar. Ular iqtisodiy adabiyotlarda aksiyadorlik jamiyati deb yuritiladi. Aksiyadorlik jamiyatining dastlabki kapitali ichki manba – ta'sischilar kapitali hamda tashqi manba – aksiyalarni sotish orqali jalb etilgan kapitaldan iborat bo'ladi. Shunga ko'ra, aksiya chiqarish va uni erkin joylashtirish aksiyadorlik munosabatlarning muhim tomonlaridan birini tashkil qiladi.

Aksiyadorlik jamiyati **ochiq** va **yopiq** ko'rinishda bo'ladi.

Ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati – ishtirokchilari o'zlariga tegishli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning roziligisiz sotib olishi va ularni erkin sotishi huquqiga ega bo'lgan jamiyat.

Yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati – aksiyalari faqat uning ta'sischilari yoki oldindan belgilangan boshqa shaxslar doirasida taqsimlanuvchi jamiyat.

Aksiya – bu uning egasi aksiyadorlik jamiyati kapitaliga o'zining ma'lum hissasini qo'shganligiga va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog'oz. Bundan tashqari, aksiya korxonani boshqarishda qatnashish huquqini ham beradi.

Aksiyaning egasi yozilgan va egasi yozilmagan, oddiy va imtiyozli turlarini farqlash mumkin.

Egasi yozilgan aksiya – aksiyadorlik jamiyati reestrada aksiya egasining nomiga qayd qilinib, faqatgina uning yozma ruxsati bilan oldi-sotdi qilinishi

mumkin bo'lgan aksiya. Yopiq aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari faqat egasi yozilgan aksiyalardan iborat bo'lishi mumkin.

Egasi yozilmagan aksiya – jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilmagan holda boshqa shaxslarga mulk qilib beriluvchi hamda erkin tarzda oldi-sotdi qilinuvchi aksiya.

Oddiy aksiya – dividendni qo'yilgan mablag'ga mutanosib ravishda taqsimlash imkonini beruvchi aksiya. Oddiy aksiya imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanib, aksiyadorlik jamiyati zaxiralar to'ldirilib bo'lgandan so'ng qolgan sof foydani dividend shaklida taqsimlashda ishtirok etadi. Uning egasi aksiyadorlar umumiy yig'ilishida masalalarni hal etishda ovoz berish huquqiga ega bo'ladi.

Imtiyozli aksiya – aksiyadorlik jamiyati dividendi va mol-mulkini taqsimlashda oddiy aksiya egasiga nisbatan ustunlik beruvchi aksiya. U, agar aksiyadorlik jamiyati nizomida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, ovoz berish huquqini bermaydi, lekin qat'iy belgilangan dividendni keltiradi.

Aksiyalar maxsus tovar sifatida sotiladi va sotib olinadi, shu sababli o'zining narxiga ega. Aksiyada ifodalangan pul summasi uning nominal qiymati deyiladi. Aksiyaning fond bozorida sotiladigan narxi aksiya kursi deb atalib, u olinadigan dividend miqdoriga to'g'ri mutanosib, bankka qo'yilgan pul foizi miqdoriga esa teskari mutanosiblikda bo'ladi. Xaridor aksiyani undan olinadigan daromadi bankka qo'yilgan puldan keladigan foizdan kam bo'lmagan taqdiridagina sotib oladi.

6.2. Tadbirkorlik faoliyatida tashkil etiluvchi monopolistik birlashmalar: kartel, trest, konsorsium, konsern.

Iqtisodiyotda bozor mexanizmining samarali amal qilishi va raqobat muhitining ta'minlanishi monopoliyalar, ularning kelib chiqish sabablari va amaliyotidagi xususiyatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Monopoliya tushunchasiga turli o'quv adabiyotlarida turlicha ta'rif beriladi. Jumladan, ba'zi o'rinlarda unga «davlat, korxonalar, tashkilotlar, sotuvchilarning qandaydir xo'jalik faoliyatini amalga oshirishdagi mutlaq huquqi sifatida qaralsa, boshqa holatlarda, «faoliyatning u yoki bu sohasida shaxs yoki kishilar guruhining har qanday (ba'zi adabiyotlarda yakka) hukmronlik holati», deb ta'riflanadi. Bu ta'riflardagi monopoliyaning «mutlaq huquq» yoki har qanday yoki yakka hukmronlik holati» kabi tavsiflari uning mohiyatini aniq yoritib berolmasligi sababli, uni quyidagicha ta'riflash o'rinli deb hisoblaymiz:

monopoliya — monopol yuqori narxlarni o'rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari.

«**Monopoliya**» atamasining kelib chiqishi bozorga oid tushunchalardan (ya'ni, grekcha «monoc» - yagona, bitta va «poleo» - sotaman) tarkib topsada, biroq uning iqtisodiy asoslari aslida ishlab chiqarishga borib taqaladi. Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to'planishi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning to'planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to'planishini namoyon etadi. Ishlab chiqarish to'planishining asosiy sababi bo'lib oli- nayotgan foyda hajmining ko'payishi hisoblanadi. Foydani muntazam ravishda ko'paytirib borish maqsadida tadbirkor olingan qo'shimcha mahsulot (foйда)ning bir qismini kapitallashtiradi, ya'ni unga qo'shimcha ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi sotib oladi. Bu esa, ba'zi bir korxonalarning o'sishi hamda ishlab chiqarish miqyoslarining kengayishiga olib keladi. Shu bilan birga raqobat amaldagi kapitalning ixtiyoriy yoki majburiy birlashtirish, markazlashtirish tendensiyasini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, ishlab chiqarish to'planishining moddiy asosi bo'lib kapitalning to'planishi va markazlashuvi hisoblanadi.

Kapitalning to'planishi - bu qo'shimcha qiymatning bir qismini jamg'arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishidir. Bu jarayon quyidagi ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi: korxonadagi ishlovchilar soni.

korxonaning ishlab chiqarish quvvati, qayta ishlanayotgan xom ashyo miqdori, tovar aylanmasi hajmi, foyda hajmi. Kapitalning to'planishi kapitalning markazlashuvi jarayoni bilan yanada to'ldiriladi.

Kapitalning markazlashuvi - bu bir kapital tomonidan boshqa birining qo'shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitalning aksiyadorlik jamiyati shaklida ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o'sishidir.

Ishlab chiqarishning **gorizontal** va **vertikal** to'planishi farqlanadi.

Ishlab chiqarishning gorizontal to'planishi - bu milliy iqtisodiyotning ma'lum tarmog'i doirasidagi korxonalar va firmalarning yiriklashuvidir. U erkin raqobat davri, shuningdek, XX asrning boshlarida ishlab chiqarish to'planishining asosiy shakli sifatida maydonga tushgan edi.

Ishlab chiqarishning vertikal to'planishi - bu milliy iqtisodiyotdagi bir necha o'zaro bog'liq tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarishning to'planishidir. U ilmiy- texnika taraqqiyoti sharoitlarida keng rivojlandi. Ishlab chiqarishning to'planishi o'z rivojining ma'lum darajasida monopoliyalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Ishlab chiqarishning to'planishi hamda monopoliyalarning paydo bo'lishi o'rtasidagi ichki aloqalar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- tarmoqlarda bir necha yirik korxonalarning hukmron mavqeyega ega bo'lishi ularning bir-biri bilan kelishuviga hamda monopolistik birlashmalar tuzishiga imkon yaratadi;

- yirik korxonalar o'rtasidagi raqobat juda qaltis bo'lib, ular uchun katta miqyosdagi yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Shunga ko'ra, raqobatni cheklash, tovarlarga yuqori narxlar belgilash va yuqori foyda olish uchun yirik ishlab chiqaruvchilarning monopolistik ittifoqlarga birlashishlari lozim bo'ladi.

Monopoliyalarning vujudga kelishida ishlab chiqarishning to'planishidan tashqari yana bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

- davlatning proteksionistik bo'xona siyosati. U chet eldagi raqobatchilarning ichki bozorga kirish imkoniyatini yo'qotib, monopoliyalarning paydo bo'lishiga sharoit yaratadi:
- banklarning faoliyati va moliyaviy siyosati. Banklar sanoat monopoliyalarining jadal o'sishiga imkon beradi.

Monopoliya turlari. Monopoliyalarning mohiyatini ochib berishda uning turlarini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Monopoliyalarning turlarini bir necha mezonlarga ko'ra ajratish mumkin: **1. Bozorni qamrab olish darajasiga ko'ra:** sof monopoliya, oligopoliya va monopsoniya.

Sof monopoliya — tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. O'zbekistonda sof monopoliyalar sifatida «O'zbekiston havo yo'llari» DAK, «O'zbekiston temir yo'llari» DAK, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasini misol qilib keltirish mumkin. Darhaqiqat, ular o'z tarmoqlaridagi tegishli faoliyatlarning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadilar. Shuningdek, ba'zi hollarda tarmoqdagi monopolist ishlab chiqaruvchilar sonining ko'payib borishi monopolistik raqobat holatining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Monopolistik raqobat — tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko'p hamda ular o'rtasida ma'lum darajada raqobat mavjud bo'lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o'z tovar yoki xizmat ining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma'lum darajada hukmronlik holati hisoblanadi. Bunga misol tariqasida ko'plab mebel, kiyim-kechak turlari, kir yuvish vositalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarni keltirish mumkin.

Oligopoliya- tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi. Oligopolist-ishlab chiqaruvchilarga O'zbekistonda sement (asosan, Bekobod. Quvasoy, Ohangaron, Navoiy shaharlarida joylashgan). ko'mir (Angren shahri, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (Sharq'un) va Boysun (To'da) tumanlarida joylashgan) ishlab chiqarishni misol keltirish mumkin.


Monopsoniya — tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko'p bo'lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste'molchisi yoki xaridori mavjud bo'lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. Bunga

« UzAvto motors» korxonasi yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur yirik korxonada mamlakatimizdagi vengil avtomobillarni ishlab chiqarishda zarur bo'lgan ko'plab o'htiyot va butlovchi qismlarni ularning nisbatan mayda ishlab chiqaruvchilaridan sotib olishda yakka hukmronlik mavqeiga ega bo'ladi. Monopoliyaning vujudga kelishi sababi va tavsiflga ko'ra: **tabiiy monopoliya, legal monopoliya, sun'iy monopoliya.**

Tabiiy monopoliya tarkibiga kamyob va ishlab chiqarishning erkin tarzda takror hosil qilib bo'lmaydigan unsurlari (masalan, nodir metallar, foydali qazilmalar va h.k.)ga ega boigan mulkdorlar va xo'jalik tashkilotlari kiradi. Shuningdek, mazkur monopoliya tarkibiga o'ziga xos texnologiyaning qo'llanishi sababli raqobatni rivojlantirib bo'lmaydigan ba'zi bir tarmoqlari va ishlab chiqarish turlari ham kiritiladi.


Tabiiy monopoliya — korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo'lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo'lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holatidir. Bunday samaradorlik ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi bilan tovar birligiga to'g'ri keluvchi xo'jalik xarajatlari ning ahamiyatli darajada pasayib ketishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste'molini boshqa turdagi mahsulotlar bilan almashtirib bo'lmaydi

6.1-rasm. Tabiiy monopoliya.



Tabiiy monopoliyada ishlab chiqarish hajmi

6.2-rasm. Tabiiy monopolist tanlaydigan ishlab chiqarish hajmi va jamiyat uchun optimal hajm.



Tabiiy monopoliya xolati quyidagi rasmda berilgan. Unga ko'ra LAC va LMC lar uzoq muddatli davrdagi xarajatlar, D talab, AR, MR meyoriy daromad va MC meyoriy harajatlar. Monopolist narxni P_1 o'rnatib Q_1 hajmda ishlab chiqaradi. Bu holatda LMC va MR teng bo'ladi. Monopolist foydasi esa CP_1AB to'rtburchak yuziga teng bo'ladi. Lekin, Q_1 hajmda chiqarilayotgan maxsulotlar jamiyat uchun kam, P_1 narx esa juda baland. Grafikdan ko'rishimiz mumkinki, Jamiyat uchun eng optimal narx va hajm monopolist ishlab chiqarmaydigan P_3 va Q_3 dir. Shuning uchun boshqaruvchi organ narxni $P_3 = LMC(Q_3) = AR(Q_3)$ da o'rnatish kerak.

Muammo shundaki, bunday narx monopolist ihlab chiqarishini qoplamaydi va o'rtacha xarajatlardan kamroq bo'ladi Q_3 , P_3 ishlab chiqarayotgan monopolist P_3HGF maydonga teng bo'lgan zarar ko'radi.

Legal monopoliya - bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holat. Ular tarkibiga raqobatdan himoya qiluvchi quyidagi monopoliya shakllarini kiritish mumkin: **patent tizimi** — bu ixtirochi va mualliflar tomonidan yaratilgan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalarini tasdiqlovchi hamda ularga mutlaq huquqni taqdim etish tizimi. Bu jarayon maxsus guvohnomalar - patentlar orqali amalga oshiriladi;

mualliflik huquqi — ilmiy, badiiy va san'at asarlari, ijro san'ati fonogrammalari, ko'rsatuvlar, efir to'lqini yoki kabel orqali tasvir uzatish kabilarni yaratish va ulardan foydalanish munosabatlarini qonuniy tarzda tartibga solish shakli. Mualliflik huquqi faqat mualliflar tomonidan o'z mahsulotlarini ma'lum vaqtga yoki butunlay sotish, ulardan nusxa olish va ko'paytirishga ruxsat berish imkonini ta'minlaydi;

tovar belgilari — bu savdo belgilari, nishonlari, maxsus ramzlari, nomi hamda boshqalarni ro'yxatga olish, huquqiy jihatdan himoya qilish va ulardan foydalanish bo'yicha paydo bo'lgan munosabatlarni qonuniy tarzda tartibga solish shakli.

Suniy monopoliya - monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarning shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi. Sun'iy monopoliya o'z manfaatlari yo'lida bozor muhiti tuzilishini ataylab o'zgartiradi, ya'ni:

-bozorga yangi raqiblarning kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun turli to'siqlar hosil qiladi (xom ashyo va energiya manbalarini egallab oladi; banklarning yangi korxonalariga kredit berishini taqiqlashga harakat qiladi va boshqalar); -ishlab chiqarishning eng yuksak darajadagi texnologiyasiga erishib, qolgan raqiblarini bu darajaga chiqishga imkon bermaydi;

-ishlab chiqarish miqyosi samarasidan unumliroq foydalanish imkonini beruvchi nisbatan yirik hajmdagi kapitalni qo'llaydi;

- o'z faoliyatini yuqori darajada reklama qilish orqali boshqa raqobatchilarni bozordan siqib chiqarishga harakat qiladi.

Sun'iy monopoliyalar kartel, sindikat, trest, konsorsium.konsern kabi aniq shakllarda namoyon bo'ladi.

Kartel - bitta sanoat tarmog'idagi bir necha korxonalarining uyushmasi bo'lib, uning ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga o'z mulkiy egaligini saqlab qoladi, yaratilgan mahsulotlarni sotish esa, kvota, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmidagi har bir ishtirokchining ulushi, sotish narxlari, bozorlarning bo'lib olinishi va h.k, bo'yicha kelishuv asosida amalga oshiriladi. Bunday monopoliyani tartibga solish odatda kvotalar va savdo maydonlarini belgilash orqali amalga oshiriladi. Oddiy kartel bu Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK) bo'lib, u neftning 70% ga yaqinini ishlab chiqaradigan 14 mamlakatni o'z ichiga oladi. U nafaqat neftga yagona narxlarni belgilaydi, balki uni ishlab chiqarish uchun kvotalarni ham taqsimlaydi.

Sindikat — bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarining birlashmasidir. Bunda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarining o'zida saqlanib qolgan holda, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot maxsus tashkil etilgan yagona sotish tashkiloti orqali amalga oshiriladi.

Trest - ishlab chiqarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni ta'minlovchi ishlab chiqaruvchilarning yuridik shaxs ko'rinishidagi birlashmasi.

Konsorsium - tadbirkorlarning yirik moliyaviy opera- siyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi (masalan, yirik miqyosli loyihalarga juda kata miqdorda va uzoq muddatli kredit berish yoki investitsiyalar qo'yish).

Konsern— rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan, ko'p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank kabi turli soha korxonalari)ning majmuini o'z

ichiga oluvchi birlashma. Odatda, bunday birlashma ma'lum ishlab chiqarish faoliyatini bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan turli soha korxonasi va tashkilotlaridan tuziladi. Bunda bosh tashkilot qolgan ishtirokchilar faoliyati ustidan moliyaviy nazorat olib boradi. Hozirda sun'iy monopoliyalarning sanab o'tilgan shakllari orasida konsernlar keng tarqalgan.

Konglomerat - bu iqtisodiyotning turli sohalarida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi firmalarning birlashishi. Monopol tashkilotning ushbu shakli boshqaruvni markazsizlashtirishning yuqori darajasi bilan tavsiflanadi, uning doirasida ishlab chiqarish bo'linmalari etarlicha keng avtonomiyaga ega.

Konglomerat - 1960-yillarning boshlarida Qo'shma Shtatlarda paydo bo'lgan monopolistik birlashmalarning zamonaviy shakllaridan biri. Bozorda tadbirkorlik, davlat va tabiiy monopoliyalar ustunlik qiladi.

Korner - 16-asrda nemis savdogarlari tomonidan ixtiro qilingan usul. Bu usulning ma'nosi oddiy: savdogarlar yoki ishlab chiqaruvchilar uning sun'iy ravishda taqchilligini yuzaga keltirish va narxlarning oshishiga sabab bo'lish maqsadida uni sotib olish yoki bozordan vaqtincha olib chiqish to'g'risida yashirin shartnoma tuzadilar. Shundan so'ng, aksiyalardan olingan tovarlar bozorga tashlanadi va fitna ishtirokchilari ko'proq daromad olishadi. Masalan, 1931 yilda. Xalqaro qalay karteli a'zolari qalay kornerini tashkil qilishdi. Ular katta miqdorda qalay sotib olishdi va unga shoshilishdi, bu esa o'z navbatida narxlarning keskin oshishiga olib keldi. Bunga erishib, burchakdagi ishtirokchilar bir yil o'tgach, o'zlarining metall zaxiralarini katta foyda bilan sotishdi.

6.3. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, sanoat diversifikatsiya va modernizatsiya bo'yicha davlatning iqtisodiy siyosati.

Har bir davlatning iqtisodiy taraqqiyoti, uning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida sanoat salohiyati muhim ahamiyatga egadir. Prezidentimiz mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ushbu masalaga alohida to'xtalib, "Biz uchun asosiy vazifa — ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, doimiy ravishda ichki imkoniyat va zaxiralarni izlab topish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirishdan iborat bo'lishi zarur", deya yana bir bor ta'kidladilar. Shu bois yurtimizda mazkur sohani rivojlantirish iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. O'zbekistonda mustaqillik ostonasida iqtisodiyotning mazkur sohasi nihoyatda zaiflashib qolgandi. Sanoat mahsulotlari tarkibida tayyor tovarlar ulushi juda kam, yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlar haqida esa gap bo'lishi mumkin emas edi. Texnologik uskuna va jihozlar, turli xom ashyolar, hatto oziq-

ovqat -mahsulotlari chetdan olib kelinardi. Ustiga-ustak, har yili million- million tonna paxta yetishtiriladigan davlatga paypoq ham import qilinganini qanday izohlash mumkin?!

Takidlash joizki, iqtisodiy islohotlarning har bir bosqichida o'sha davrdagi ijtimoiy- iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib, muayyan taktik o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, istiqlolning ilk yillarida mamlakatimiz oldida sanoat tarkibini tubdan qayta qurish, ishlab chiqarishning texnologik ta'minotini yaxshilash, xom ashyo va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish kabi masalalarni hal etish vazifasi ko'ndalang turardi. Shundan kelib chiqib, sanoatning strategik jihatdan muhim bazaviy tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilab olindi. Natijada bozor munosabatlariga asoslangan ishlab chiqarishning huquqiy asoslarini shakllantirish, sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish, mustaqil investisiya siyosati yuritish uchun dastlabki shart-sharoitlar yaratildi. Bu kabi tizimli o'zgarishlar samarasi esa 1996 — 2003 yillarni o'z ichiga olgan iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichidayoq ko'zga yaqqol tashlana boshladi. Gap shundaki, bu davrda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishi o'rtacha 4 foizni tashkil etdi. Bunday natijaga erishilishida sanoatga yo'naltirilgan investisiyalar hajmi muttasil ravishda oshirilgani, biz uchun mutlaqo yangi sohalar o'zlashtirilgani muhim omil bo'ldi. Yuqori texnologiyalarga asoslangan avtomobilsozlik, neft'-gaz, kimyo, zamonaviy qurilish materiallari, temir yo'l mashinasozligi, maishiy elektronika, farmasevtika, oziq-ovqat sanoati va yengil sanoat shular sirasiga kiradi. Ma'lumki, joriy yil konveyerdan birinchi o'zbek avtomobili chiqqaniga 20 yil to'ladi. Shu qisqa davr ichida mazkur soha sanoatimizning gultojlaridan biriga aylandi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda O'zbekiston dunyodagi avtomobil' -ishlab chiqaruvchi sanoqli davlatlar safidagi o'mini tobora mustahkamlayotgani buning tasdig'idir. Aytaylik, Asaka avtomobil' zavodida yiliga 250 mingta texnik ko'rsatkich-lari yuqori, qulay va xavfsiz avtomobil' ishlab chiqarilib, yurtimiz va xorijlik buyurtmachilarga yetkazib berilayapti. Dastlabki paytlarda mashinalar uchun zarur ehtiyot qism va butlovchi buyumlarning aksariyati chetdan olib kelingan bo'lsa, bugungi kunda ularning katta qismi mahalliylashtirilgani, ayniqsa, quvonarlidir. Bunday natijaga erishilishida yurtimizning turli hududlarida mazkur jabhaga ixtisoslashtirilgan 200 dan ortiq korxonalar tashkil etilgani, tizimda 25 mingdan ziyod yuqori malakali mutaxassislar faoliyat ko'rsatayotgani muhim ahamiyatga ega, albatta.

Shu bilan birga, keyingi yillarda mamlakatimiz avtomobilsozlari tomonidan yuk avtomobillari va avtobuslar ishlab chiqarish ham o'zlashtirildi. Xususan, Samarqanddagi avtomobil' zavodida 15 tonnadan 50 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega "MAN" rusumidagi zamonaviy mashinalar, "Isuzu" avtobuslari tayyorlanmoqda. Ularga esa nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham talab yil sayin ortmoqda.

Tahlillarga ko'ra, mamlakatimiz sanoati rivojlanishining navbatdagi bosqichi 2004 yildan keyingi davrga to'g'ri keladi. Shu muddat ichida qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, korxonalarni modernizatsiyalash va texnologik yangilash, yangi qo'shma korxonalar tashkil qilish ishlari yanada keng ko'lam kasb etdi. Pirovardida sanoatning yetakchi tarmoqlarida barqaror rivojlanish sur'atlari kuzatila boshlandi. Buni yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishi yiliga o'rtacha 8 foizni tashkil qilayotgani, unda sanoatning ulushi oshib borayotgani misolida ham ko'rish mumkin.

Ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, strategik ahamiyatga ega loyihalarni moliyalashtirish, qisqacha aytganda, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishda esa, tabiiyki, 2006 yilda tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi muhim rol o'ynamoqda. Dastlab fondning Nizom jamg'armasi 3 milliard 200 million AQSh dollari etib belgilangan bo'lsa, hozirgi kunga kelib, uning hajmi 25 milliard dollardan oshdi. Pirovardida u 40 dan ortiq yirik investitsiyaviy loyihalar ijrosida faol ishtirok etdi. Ayni paytda umumiy qiymati 15 milliard 900 million AQSh dollarilik yana 23 ta loyiha moliyalashtirilishida qatnashayapti. Shu o'rinda aytish joizki, 2008 — 2011 yillarda o'zining eng avj pallasiga chiqqan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekiston iqtisodiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Bu, avvalo, eng ko'p eksport qilinadigan mahsulotlarga jahon bozorida talabning kamayishi, narxlarning tushib ketishida o'z aksini topdi. 2008 yilda Inqirozga qarshi choralar dasturi qabul qilingani global moliyaviy inqirozning salbiy ta'sirini kamaytirish imkonini berdi. Chunki mazkur hayotiy dasturda eksport qiluvchi korxonalarining barqaror ishlashini ta'minlash, ichki talabni rag'batlantirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, sanoatning asosiy tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan edi. Ularning ijrosini ta'minlash maqsadida iqtisodiyot real sektorini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida O'zbekiston inqirozdan eng kam yo'qotishlar bilan chiqqan davlatlardan biri sifatida e'tirof etildi. Moliyaviy tanazzul chuqurlashgan 2008-2009 yillarda ham mamlakatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi 10 foizdan ortiqni tashkil qilgani ana shundan dalolatdir. E'tiborlisi, yurtimizda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish ishlari izchil davom ettirilmoqda. Ayniqsa, farmasevtika, avtomobilsozlik, neft-gaz, kimyo sanoatini taraqqiy ettirishga ustuvor ahamiyat qaratilayotir. Buning samarasi o'laroq, farmasevtika sanoati jadal rivojlanib, jumladan, korxonalar soni 2 tadan 119 taga yetkazilgani tufayli dori-darmon, diagnostika vositalari va tibbiy buyumlarga bo'lgan ehtiyojning salmoqli qismi o'zimizning mahsulotlar evaziga qoplanmoqda.

Bundan tashqari, mamlakatimizning boy tabiiy-mineral zaxiralarini turmushimiz farovonligi yo'lida o'zlashtirish uchun zamonaviy ishlab chiqarish majmualari bunyod etilayotgani ham sanoatimiz salohiyatini yuksaltirayapti. Chunonchi, Surg'il koni negizida texnologiyasi va ko'lami bo'yicha jahonda bemisil

bo'lgan Ustyurt gaz-kimyoy majmuasining ishga tushirilishi yurtimiz iqtisodiyotida o'ziga xos voqea bo'ldi. Sababi, ushbu noyob loyiha ijrosi tufayli yiliga 83 ming tonna polipropilen olish, buning evaziga katta miqdorda valyutani tejash, polietilen tayyorlash hajmini 3 martadan ko'proqqa oshirish, mingdan ortiq malakali xodimlarni ish bilan ta'minlash imkoniyati vujudga keldi. Qolaversa, sanoatimiz ravnaqining hozirgi bosqichi bevosita xorijiy investisiyalarni jalb qilish va undan oqilona foydalanish darajasiga bog'liq, desak, yanglishmaymiz. Nega deganda, istiqloq yillarida mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investisiyalar umumiy hajmi 63 milliard dollardan ortdi. Ularning asosiy qismi yangi quvvatlarni foydalanishga topshirish, mavjudlarini modernizatsiyalashga yo'naltirilgani ichki bozorni import o'rnini bosuvchi mahsulotlar bilan to'ldirish, eksport ko'lamini kengaytirishda qo'l keldi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan sanoat istiqboliga qaratilgan uzoq muddatli dasturlar hayotga tatbiq qilinayotgani ham e'tiborga molik. Unga ko'ra, 2030 yilga qadar neft- gaz sohasida ishlab chiqarish hajmini 3,2 barobar, rangli metall mahsulotlarini 2,2 marta, qora metallardan tayyorlanadigan buyumlarni — 2,3, kimyoy sanoati mahsulotlari, jumladan, mineral o'g'itlarni — 3,2, to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlarini — 5,6, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash hajmini 5,7 marta oshirish ko'zda tutilganini aytish kifoya.

Bunday yuksak marralarni zabt etish aniq hisob-kitoblarga asoslanmog'i, mukammal -ishlab chiqilgan dasturiy rejalarga tayanmog'i lozim, albatta. Shuning uchun ham, respublikamizda birgina 2015 yilda sanoatni rivojlantirish bo'yicha 5 yillik muddatni o'z ichiga oladigan 3 ta davlat dasturi qabul qilindi. Mazkur hujjatlarda ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish va uni diversifikatsiyalash, iqtisodiyot tarmoqlarida energiya sarfini kamaytirish, tejamkor texnologiyalarni qo'llash, mahalliyashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar amaliyoti ko'zda tutilgan. Shuningdek, Prezidentimizning 2016 yil 11 fevraldagi "2016 — 2019 yillar uchun tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarish va mahalliyashtirish dasturi to'g'risida"gi qarorida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar tayyorlashni o'zlashtirish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish evaziga mahalliyashtirish ko'lamini oshirish vazifasi belgilab berilgan. Aniqrog'i, mazkur dasturga muvofiq, 660 dan ortiq loyihalarni ro'yobga chiqarish orqali besh yil davomida mahsulotlar importini Navoiy konmetallurgiya kombinatida 50 foiz, "O'zeltexsanoat" aksiyadorlik kompaniyasi tizimida 47 foiz, "O'zagrosanoatmashxolding" kompaniyasida 51,1 foiz, "O'zvinosanoat-xolding" kompaniyasida 77,8 foiz, "O'zfarmasanoat" -aksiyadorlik konsernida 62,6 foiz kamaytirish rejalashtirilgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish, ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning

raqobatbardoshligiga erishish, eksport tarkibi hamda geografiyasini diversifikatsiya qilish, shuningdek, hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish orqali milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar ancha faollashdi.

Buni quyidagi dolzarb masalalar bilan izohlash mumkin: birinchidan, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, uning tarmoqlarida ishlab chiqarish sur'atlari o'sishiga erishish mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, jahon bozorida keskin raqobatlashuv sharoitida milliy ishlab chiqaruvchilarning yuqori sifatli mahsulotlar bilan jahon bozorlariga chiqishini faollashtirish zaruriyati mavjud.

Uchinchidan, ilmiy sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan tendensiyalarning rivojlanishi hamda shunga muvofiq tarzda sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashda milliy iqtisodiyot doirasida doimiy ravishda zamonaviy texnologiyalar hamda innovatsiyalarni joriy etish talab qilinadi. Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish ko'p jihatdan iqtisodiyot yo'nalishlari hamda sohaslarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini barpo etish bo'yicha qulay shart-sharoitlarni yaratish bilan bevosita bog'liq. Shu bois, mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun uning tarmoqlari rolini, ayniqsa yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi hamda unda belgilangan ustuvor vazifalar milliy iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori natijalarga erishishda qo'l kelmoqda. Jumladan, mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot (YaIM) ishlab chiqarish hajmi 2020 yil yakunlariga ko'ra 580,2 trln. so'mni tashkil etgan holda 2019 yildagiga nisbatan 70 mlrd. so'mga oshdi, YaIM tarkibida tovarlar ishlab chiqarishda 341,5 trln. so'm, xizmatlar ko'rsatish sohasida – 194,4 trln. so'm miqdorida yalpi qo'shilgan qiymat yaratildi, mahsulotlarga sof soliqlar esa 44,4 trln. so'mga yetdi. Bunday natijaga iqtisodiyotning barcha tarmog'ida islohotlarning tizimli va izchillik bilan amalga oshirilishi tufayli erishildi, albatta.

Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2020 yilda yalpi ichki mahsulot hajmi 2016 yildagiga nisbatan qariyb ikki yarim barobarga oshgan holda 580,2 trln. so'mni ishg'ol etdi. Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda mamlakat sanoati yetakchi o'rin tutadi. Xususan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmi so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'ldi, jumladan mazkur ko'rsatkich 2020 yilda 367,1 trln. so'mni tashkil etgani holda 2016 yilga nisbatan 255,2 trln. so'mga oshgan. Bu jarayonda mamlakatimizda sanoat salohiyatini rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlari doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

2020 yili butun dunyoda yuzaga kelgan va hanuzgacha davom etayotgan pandemiya nafaqat odamlar salomatligiga, balki milliy iqtisodiyotlarning rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu jahonning qariyb barcha mamlakatlarida infeksiya tarqalishidan himoyalaniish maqsadida bir qator cheklovlar hamda karantin tadbirlari joriy etilishi natijasida iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan ko'plab yirik kompaniya va korxonalarda ishlab chiqarish sur'atlari hamda aholi bandlik darajasi keskin pasayishi kabi holatlarda namoyon bo'ldi. Umuman olganda, pandemiyaning ta'siri oqibatida global iqtisodiyotda inqirozli holatning shakllanishi quyidagilar orqali yuzaga keldi:

- milliy iqtisodiyotda yalpi talab hajmining keskin tushishi va uning tarkibida sezilarli o'zgarishlarning ro'y berishi;
- mamlakatlar oziq-ovqat, energiya, tibbiyot, ishlab chiqarish vositalari, mudofaa sanoati mahsulotlari bilan to'liq o'zini-o'zi ta'minlashga intilishi;
- aholi real daromadlarining kamayishi, ishsizlik va kambag'allikning ortishi;
- neft inqirozlari va savdo urushlari natijasida ayrim mamlakatlarda salbiy sal'do yuzaga kelishi;
- tadbirkorlik sub'ektlari daromadlarining keskin pasayishi, makro va mikro darajada moliyaviy oqimlar harakati hamda hajmidagi o'zgarishlar;
- jahon bozorlarida talabning pasayishi hisobiga milliy mahsulotlar eksporti hajmining qisqarishi;
- global iqtisodiyot va logistika tarkibining o'zgarishi;
- ishlab chiqarishning asosiy mintaqalarida o'zgarishlar ro'y berishi va raqobatbardoshlikning pasayishi;
- iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarish va xizmatlar hajmining tushishi;
- yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatning buzilishi;
- boy hamda qashshoq mamlakatlar o'rtasidagi tavofutning kengayishi va boshqalar.

Yuqoridagi holatlar eng yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlarda ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishi, global ishlab chiqarish zanjirlari hamda savdo aloqalarining izdan chiqishi, dunyo moliya bozorlarida xom ashyo tovarlari narxining pasayishi va kon'yunkturaning yomonlashuviga olib keldi.

Mazkur omillar global iqtisodiyotning bir qismi bo'lgan O'zbekiston iqtisodiyotiga ham muayyan darajada ta'sir qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida ushbu holatning salbiy ta'sirlarini yumshatish bo'yicha samarali oldini oluvchi choralar ko'rishni taqozo etdi.

Epidemiologik vaziyatdan kelib chiqib, maqsadli cheklov choralarini qo'llash natijasida iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatiga imkon yaratildi, shuningdek, ayrim

xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida bojxona boji va soliq to'lovlari bo'yicha imtiyozli tizim joriy qilindi. Mazkur chora-tadbirlar va yaratilgan qulay shart-sharoitlar milliy iqtisodiyotning nisbatan barqaror rivojlanishi hamda real sektor korxonalarining odatiy faoliyatga qaytishi va ishlab chiqarish hajmining ko'payishida muhim rol o'ynadi. Bu borada, Prezidentimiz tomonidan 2020 yil 19 martdagi "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020 yil 3 apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020 yil 27 apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2020 yil 18 maydagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020 yil 20 iyuldagi "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun aholi, tadbirkorlik sub'ektlari, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari qabul qilingani ayni muddao bo'ldi.

O'z vaqtida amalga oshirilgan ta'sirchan chora-tadbirlar tufayli mamlakatimizda pandemiyaning salbiy oqibatlariga qaramasdan ayrim davlatlarga nisbatan sezilarli darajada iqtisodiy o'sishga erishildi. Xalqaro valyuta fondi (XVF) ma'lumotlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulotning o'sishi 2018 yilda 5,4 foizni, 2019 yilda esa 5,6 foizni tashkil etdi. Pandemiya ta'siri natijasida mazkur ko'rsatkichning taxminan 0,7% gacha pasayishiga qaramay, XVF mintaqada YaIM o'sishini 2025 yilgacha 5,5-6% darajasida prognoz qilmoqda. MDH davlatlari orasida O'zbekiston 2020 yilda ijobiy o'sish sur'atlarini saqlab qolgan uchta davlatdan bittasi hisoblanadi, xususan, 2020 yil yakunlari bo'yicha O'zbekistonda YaIMning o'sishi 1,6 foiz, Turkmanistonda 5,9 foiz, Tojikistonda 4,5 foiz ko'rsatkichda saqlanib MDHning qolgan mamlakatlarida esa, 2019 yildagiga nisbatan pasayish tendensiyasi qayd etilgan. Bu holatga pandemiya sharoitida mamlakatimiz hukumati tomonidan milliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlar qo'llanishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Pandemiya sharoitida mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni saqlashga xizmat qilgan asosiy omillar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

so'nggi yillarda iqtisodiyot tarmoq hamda sohalarida ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash ishlarini faol tarzda olib borilganligi hamda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etilganligi;

tashqi savdoni erkinlashtirish hamda valyuta siyosati barqarorligini ta'minlash borasidagi chora-tadbirlarning samarali tarzda amalga oshirilganligi;

moliya, pul-kredit siyosati bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarning amaliyotga tatbiq etilganligi;

xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha imtiyozli tartiblarning joriy qilinganligi; barqaror oltin-valyuta zahirasining shakllantirilganligi;

puxta o'ylangan tashqi qarzar siyosatini amalga oshirish hamda jalb qilingan xorijiy investisiya va kreditlardan samarali foydalanish asosida mablag'larni istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilganligi;

tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish borasida muhim islohotlarning amalda qo'llanilganligi;

aholini samarali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda daromadlari keskin pasayib ketishining oldini olish, yangi ish o'rinlarini yaratish borasida yuqori natijalarga erishilganligi va boshqalar.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar tufayli sanoat bo'yicha mehnat unumdorligining jadal o'sishiga erishildi. Bunga birinchi navbatda, eksport qiluvchi korxonalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning barqaror faoliyatini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektorida resurs bazasini kengaytirish va investisiyaviy faollikni oshirish, iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar sabab bo'ldi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 2020 yilda 83,0 foizni, shuningdek, YaIM tarkibida sanoatning ulushi 28,5 foizni tashkil etdi. 2019 yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,9 foizni, o'rta-yuqori texnologiyali - 22,4 foizni, o'rta-quyi texnologiyali - 40,1 foiz va quyi texnologiyali - 35,6 foizni tashkil etdi. Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash hamda o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 19,4 foiz, metallurgiya sanoatining ulushi - 26,0 foiz, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 15,8 foiz, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 16,9 foiz, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,9 foizni tashkil etdi. Bu mamlakatimizda sanoat tarkibini diversifikatsiya qilish borasidagi amalga oshirilgan chora-tadbirlarning ijobiy natijasi sifatida izohlanadi. Shuningdek, yaqin istiqbolda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi sanoat tarmog'ini tarkibiy jihatdan o'rganish, tahlil qilish va sanoat mahsuloti ishlab chiqarish uchun eng samarali tarmoqlarga alohida e'tibor qaratish lozimdir.

Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida milliy iqtisodiyotda chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o'sishni ta'minlashning qator muhim yo'nalishlari belgilab berildi. Ulardan biri sifatida yangi eksport bozorlariga chiqish Hukumatning eng asosiy vazifalaridan biri ekanligi qayd etildi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan, qayta ishlangan mahsulotlarning jahon bozorlaridagi ulushi sezilarli bo'lsa-da, uni yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini rivojlantirish va uning mahsulot tarkibini diversifikasiya qilish o'zaro aloqador bo'lgan ikkita omillar guruhi orqali belgilanadi. Bir tomondan bu tabiiy resurslar sohasidagi qiyosiy ustunliklar bilan tavsiflangan statik omillar bo'lib ularning ta'siri natijasida keyinchalik yuqori texnologik hamda yuqori darajada qayta ishlangan mahsulotlarga e'tiborni kuchaytirishga imkon yaratiladi. Boshqa tomondan bu innovatsiyalar va ilmiy-texnik yutuqlar bilan bog'liq bo'lgan dinamik ravishda o'zgarib turadigan raqobat ustunligi omillari hisoblanadi. Ularning birgalikda uzviy harakati natijasida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish, eksportning barqaror o'sishini va umuman iqtisodiyot rivojida rag'batlantiruvchi ta'sirni ta'minlashga erishiladi.

Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash borasida so'nggi yillarda mamlakatimiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar iqtisodiy o'sishning barqaror poydevori sifatida xizmat qilmoqda. Jahon iqtisodiyotida pandemiyaning salbiy ta'siri hali to'liq bartaraf bo'lmaganligini hisobga olgan holda, milliy iqtisodiyotning yaqin istiqbolda barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlarni yanada faollashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- milliy iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik yangilash va diversifikasiya qilish ishlarini yanada faol davom ettirish;
- sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar turini kengaytirish va sifat jihatidan raqobatbardoshlik darajasini oshirish;
- inson kapitaliga investisiyalar kiritishni faollashtirish orqali istiqbolda ilmiy sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish;
- iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yurituvchi korxonalarining eksport va import tuzilmasini, ularning ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish hamda eksport tarkibini diversifikasiyalashga qaratilgan chora-tadbirlarni faollashtirish;
- faol investisiya siyosatini olib borish orqali muhim strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish, shuningdek xorijiy kapitalni avvalo moddiy eksportga yo'naltirilgan va import o'rini bosuvchi ishlab chiqarishga jalb qilish;
- milliy iqtisodiyotning barqaror rivojining muhim omili sifatida yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholining bandlik darajasini oshirish hamda mazkur

jarayonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada rag'batlantirish.

Xulosa o'rnida aytganda, mamlakatimizda sanoat salohiyatini yuksaltirish, xorijiy sarmoyadorlar, yirik ishlab chiqarish korxonalari, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash ishlari izchil davom ettirilmoqda. Bu esa yurtimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, pirovardida xalqimiz turmush farovonligini oshirishga xizmat qilayotir.

Nazorat savollari:

1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari va rivojlanish shart-sharoitlari.
2. Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllari. Kichik biznes sub'ektlari: yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar.
3. Tadbirkorlik faoliyatida tashkil etiluvchi monopolistik birlashmalar: kartel, trest, konsorsium, konsern.
4. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, sanoat diversifikasiya va modernizasiya bo'yicha davlatning iqtisodiy siyosati

3-MODUL. Byudjet-soliq siyosati

7 – Mavzu. Byudjet-soliq siyosati, uning maqsadi, vazifalari va vositalari.

7.1. Moliya tizimi, uning mohiyati va iqtisodiyotdagi vazifalari.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi eng avvalo davlat, uning turli mintaqa va hududlari, iqtisodiyotning tarmoq va sohalari, ishlab chiqarish birliklari, aholi turli qatlamlari o'rtasidagi pul mablag'lari oqimining samarali tashkil etilishiga bog'liq bo'ladi. Bunday pul oqimlari jamiyat real hayoti jarayonlarini aks ettirib, mamlakatdagi fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasida o'zaro iqtisodiy munosabat va aloqalarni o'rnatadi. Davlat korxonalar va tashkilotlar, turli moliyaviy muassasalar, aholi bilan olib boriladigan o'zining barcha vazifalarini aynan moliya mexanizmi orqali amalga oshiradi. Moliya milliy iqtisodiyot va aholi farovonligining o'sishini aks ettirib, korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi va ularning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishini rag'batlantiradi, ishlab chiqarish tuzilmasini, tarmoqlararo va hududiy nisbatlarni shakllantiradi.

Moliya – iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag'laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tizimidir. Uning vositasida turli darajada pul mablag'lari fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi.

Moliya pul bilan bog'liq munosabatlar bo'lib, uning moddiy asosini pul tashkil qiladi, lekin u pul emas yoki pul bilan bir xil narsa tushuncha emas. Bundan ko'rinadiki, iqtisodiyotning samarali va barqaror ravishda amal qilishi, yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida davlat ko'plab boshqa iqtisodiy sub'ektlar bilan moliyaviy munosabatlarga kirishadi.

Moliyaviy munosabatlar – davlat, mintaqalar, tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar hamda alohida fuqarolar o'rtasida pul mablag'lari fondlarining harakati bilan bog'liq holda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmui.

Moliyaviy munosabatlarning ob'ektlari va sub'ektlari farqlanadi. Moliyaviy munosabatlarning ob'ektlari bo'lib iqtisodiyotning turli darajalarida tarkib topuvchi va harakat qiluvchi pul mablag'lari fondlari hisoblanadi. Moliyaviy munosabatlar sub'ektlari tarkiban murakkab bo'lib, ularga barcha tashkilotlar, korxonalar, yuridik va jismoniy shaxslar, fuqarolar kiradi. Ular orasida doimo moliyaviy munosabatlar bo'lib turadi. Bu munosabatlarning asosiylari sifatida quyidagi munosabatlarni ko'rsatish mumkin:

- davlatlararo moliyaviy munosabatlar;
- davlat va turli xalqaro tashkilotlar, xorijiy firma va korxonalar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;

- boshqaruvning turli darajalaridagi davlat organlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- davlat va korxonalar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- davlat va aholi o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- korxonalararo moliyaviy munosabatlar;
- korxonalar va banklar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- korxonalar ichidagi xo'jalik aloqalariga xizmat qiluvchi moliyaviy munosabatlar va boshqalar.

Moliya iqtisodiyot doirasida o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) iqtisodiy jarayonlarni, loyihalar va tadbirlarni pul resurslari bilan ta'minlash va unga xizmat ko'rsatish vazifasi;
- 2) taqsimlash vazifasi;
- 3) rag'batlantirish vazifasi;
- 4) nazorat qilish vazifasi.

Jamiyat miqyosidagi iqtisodiy faoliyat turli jarayon va tadbirlarning, jumladan, mamlakatni boshqarish, mudofaa qobiliyatini ta'minlash, huquq- tartibot ishlarini yo'lga qo'yish, sog'liqni saqlash, madaniy-ma'rifiy ishlar va boshqalarning amalga oshirilishini taqozo etadi. Buning uchun eng avvalo ularni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash kerak bo'ladi. Shunga ko'ra, moliya iqtisodiy jarayon va tadbirlarni moliyaviy ta'minlash, ularga xizmat ko'rsatish vazifasini bajaradi. Moliyaning taqsimlovchi vazifasi moddiy ishlab chiqarish sohaslarida yaratilgan yulpi milliy mahsulotni, ayniqsa, uning milliy daromadni tashkil qiluvchi qismini davlat va mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, iqtisodiyot tarmoqlari, moddiy ishlab chiqarish sohaslari, mamlakat hududlari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi.

Moliyaning rag'batlantiruvchilik vazifasi, birinchidan, yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash jarayoni orqali, ikkinchidan, pul fondlarini tashkil qilish va sarflash mexanizmi orqali amalga oshiriladi.

Moliyadan ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol ustidan nazorat qilish vositasi sifatida foydalaniladi. Moliyaviy nazorat korxonalar (firma)larning moliya tizimiga rioya qilish uchun moddiy javobgar bo'lish tizimi, turli soliqlar undirib olish va mablag' bilan ta'minlash tizimi orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy munosabatlar va ularga xizmat qiluvchi maxsus muassasalar jamiyatning moliya tizimini tashkil qiladi. Bu tizim davlat va boshqa turli darajadagi byudjetlarni, ijtimoiy, mol-mulk va shaxsiy sug'urta fondlarini, davlatning valyuta

zaxiralarini, banklar, pul muomalasi, kredit va soliq tizimi, korxonalar va firmalar, tijorat va notijorat tuzilmalarining pul fondlarini, boshqa maxsus pul fondlarining harakatini o'z ichiga oladi. Eng avvalo, korxonalar (tarmoqlar) va umumdavlat moliyasini bir-biridan farqlash lozim. Korxonalar va tarmoqlar moliyasi ulardagi takror ishlab chiqarish jarayonida hamda alohida fondlar yaratish yo'li bilan ularning moliyaviy ehtiyojlariga xizmat qiladi. Umumdavlat moliyasi davlat byudjetini, ijtimoiy sug'urta fondini hamda davlat mol-mulk va shaxsiy sug'urtasi fondini, soliq tizimini o'z ichiga oladi. Davlat pul mablag'larining asosiy markazlashgan fondi bo'lmish davlat byudjeti moliya tizimining muhim bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi.

7.2 Davlat byudjeti va uni milliy daromadni qayta taqsimlashdagi ahamiyati. Davlat byudjetining daromadlari tarkibi va xarajatlari.

Davlat byudjeti – bu davlat daromadlari va xarajatlari hamda ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir.

Davlat daromadlari va xarajatlarining asosiy qismi davlat byudjeti orqali o'tadi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdir.

Davlat byudjetining ikki tomoni bo'lib, bir tomonida byudjetga kelib tushadigan daromadlar tarkibi va ularning manbalari, ikkinchi tomonida esa asosiy xarajatlarning tarkibi va miqdori o'z ifodasini topadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-sonli qaroriga muvofiq Davlat byudjeti daromadlarining 2019 yil uchun tasdiqlangan prognoz ko'rsatkichi (davlat maqsadli jamg'armalarisiz) 102 627,6 mlrd.so'mni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining 2019 yilgi daromadlar (davlat maqsadli jamg'armalarsiz) ijrosi 112 165,4 mlrd.so'm bo'lib, tasdiqlangan rejaga nisbatan 9 537,8 mlrd.so'm ko'p yoki 109,3 foizni tashkil etgan.

2019 yil yakunida Davlat byudjetiga haqiqatda 112 165,4 mlrd.so'm daromadlar undirilishi ta'minlanib, shundan soliq organlari tomonidan 83 357,4 mlrd.so'm (umumiy daromadning 74,3 foizi), bojxona organlari tomonidan 17 128,0 mlrd.so'm (15,3 foiz), Moliya vazirligi tomonidan 11 680,0 mlrd.so'm (10,4 foiz) miqdorida tushumlar ta'minlangan.

Soliq organlari tomonidan Davlat byudjetiga undirilishi lozim bo'lgan soliq va to'lovlar bo'yicha 75 095,2 mlrd.so'm prognoz belgilanib, amalda 83 357,4 mlrd.so'mga, yoki 8 262,2 mlrd.so'mga ko'p (111 foiz) bajarilgan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetining 2019 yildagi daromadlari to'g'risida ma'lumot

Млрд. сўм

Ko'rsatkichlar	Prognoz	Ijro	Farqi	
			summa	Foiz
Daromadlar, davlat maqsadli jumg'armalarisiz - jami	102 627,6	112 165,4	9 537,8	109,3
Davlat soliq qo'mitasi tushumlari	75 095,2	83 357,4*	8 262,2	111
Davlat bojxona qo'mitasi tushumlari	14 823,6	17 128,0	2 304,4	115,5
Moliya vazirligi tushumlari	12 708,8	11 680,0	-1 028,8	91,9
Bevosita soliqlar	27 206,8	31 676,8	4 470,0	116,4
Yuridik shaxslar foyda solig'i	13 883,5	16 360,6	2 477,2	117,8
Yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	1 222,1	1 988,7	766,6	162,7
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	11 533,7	12 668,5	1 134,8	109,8
Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq	567,5	658,9	91,4	116,1
Bilvosita soliqlar	45 951,1	46 427,2	476,1	101
Qo'shilgan qiymat solig'i	34 973,5	33 809,8	-1 163,7	96,7
Aksiz solig'i	8 958,9	10 314,7	1 355,8	115,1
Bojxona boji	2 018,8	2 302,7	283,9	114,1
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	17 841,3	19 680,7	1 839,5	110,3
Mol-mulk solig'i	1 822,6	2 360,2	537,7	129,5
Er solig'i	1 812,3	2 313,2	500,9	127,6
Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	13 938,9	14 692,8	753,9	105,4
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	267,5	314,5	47,0	117,6
Qo'shimcha foyda solig'i	130,0	107,9	-22,1	83
Boshqa daromadlar va soliqsiz tushumlar	11 498,5	14 272,8	2 774,3	124,1

Bojxona organlari vakolatidagi Davlat byudjetiga to'lanadigan soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha 14 823,6 mlrd.so'm prognoz belgilanib, amalda 17 128,0 mlrd.so'mga yoki 2 304,4 mlrd.so'mga ko'p (115,5 foiz) bajarilgan.

Davlat byudjeti daromadlari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining byudjetlar kesimidagi ijrosi tahlil qilinganda, O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti daromadlari bo'yicha belgilangan 72 777,3 mlrd.so'm prognoz amalda 77 031,2 mlrd. so'mga yoki 4 253,9 mlrd.so'mga (105,8 foiz), Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlari daromadlari bo'yicha 29 850,3 mlrd.so'm belgilangan prognoz amalda 35 134,2 mlrd.so'mga yoki 5 283,9 mlrd.so'mga (117,8 foizga) orttirib bajarilganligi ma'lum bo'ldi.

7.2 jadval.

Davlat byudjeti daromadlari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining byudjetlar kesimidagi ijrosi

mlrd.so'm

Ko'rsatkichlar	Tasdiqlangan parametr	Amaldagi tushumlar	Farqi	
			summa	%
Daromadlar - jami <i>shu jumladan:</i>	102 627,6	112 165,4	9 537,8	109,3
O'zbekiston Respublikasi byudjeti	72 777,3	77 031,2	4 253,9	105,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari	29 850,3	35 134,2	5 283,9	117,7

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qaroriga asosan 2019 yil davomida soliq tushumlari bo'yicha belgilangan choraklik prognoz ko'rsatkichlari tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 127-moddasiga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlari o'z byudjetlarining balansliligi buzilishiga va Davlat byudjeti taqchilligining tasdiqlangan cheklangan miqdori oshishiga olib keladigan tegishli byudjet daromadlarini qisqartirishga yoki xarajatlarini ko'paytirishga qaratilgan qaror qabul qilishga haqli emas. Daromadlarni 2019 yil uchun tasdiqlangan prognoz ko'rsatkichlariga I - IV choraklar davomida o'zgartirishlar kiritilgan, natijada yillik prognoz ko'rsatkichi 13 ta hudud bo'yicha jami 1 188,0 mlrd.so'mga kamaytirilgan,

I ta hudud bo'yicha 336,6 mlrd.so'mga, Davlat soliq qo'mitasi nazoratidagi soliqlar bo'yicha 356,8 mlrd.so'mga oshirilgan (hududlar bo'yicha qayta taqsimlangan).

Moliya vazirligi tomonidan Davlat soliq qo'mitasiga yetkazib berilgan dustlabki prognoz ko'rsatkichlari (75 589,9 mlrd.so'm) 494,7 mlrd.so'mga kamaytirilib, aniqlangan prognoz ko'rsatkichi 75 075,2 mlrd.so'm etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-sonli qaroriga muvofiq Davlat byudjeti xarajatlarining 2019 yil uchun tasdiqlangan rejasi (davlat maqsadli jamg'armalarisiz) 107 118,4 mlrd.so'mni va aniqlangan rejasi 113 500,0 mlrd.so'mni tashkil etgan.

7.3.- Jadval

Ko'rsatkichlar	Tasdiqlangan reja	Aniqlangan reja	%
Davlat byudjeti jami xarajatlari (maqsadli jamg'armalarisiz)	107 118 380,1	113 500 000	106,0
Ijtimoiy xarajatlari	58 012 116,6	62 036 584,3	106,9
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	50 334 066,6	57 958 534,3	115,1
<i>shundan:</i>			
ta'lim	28 394 264,2	33 136 511,4	116,7
<i>shundan, ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash xarajatlari</i>	3 432 500,0	4 829 606,4	140,7
maktabgacha ta'lim	4 021 568,3	5 204 641,9	129,4
umumiy ta'lim	17 100 052,0	19 250 423,4	112,6
kadrlar tayyorlash	3 840 143,8	3 922 396,2	102,1
sog'liqni saqlash	12 078 015,3	14 837 577,3	122,8
<i>shundan, sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash xarajatlari</i>	972 300,0	1 814 547,1	186,6
madaniyat va sport	1 690 126,0	2 182 472,5	129,1
fan	801 014,5	672 655,6	84,0
<i>shundan, ilmiy muassasalarning moddiy texnik bazasini mustahkamlash xarajatlari</i>	32 000,0	32 411,2	101,3

nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari	5 167 219,6	4 762 969,1	92,2
aholi bandligi darajasini oshirish	1 514 000,0	1 192 000,0	78,7
"Obod qishloq" va "Obod mahalla" davlat dasturi xarajatlari	500 000,0	590 736,4	118,1
Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga subsidiyalar	4 700 000,0		
Uy-joylar qurish dasturida qatnashayotgan banklar uchun kredit liniyalari	2 978 050,0	4 078 050,0	136,9
Iqtisodiyot xarajatlari	14 099 793,5	17 746 296,9	125,9
Markazlashgan investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish	3 960 200,0	5 630 181,4	142,2
Davlat boshqaruvi, adliya va prokuraturaorganlarini saqlash xarajatlari	3 749 428,4	4 453 237,7	118,8
Sud organlarini saqlash xarajatlari	319 900,0	359 893,6	112,5
O'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	758 000,0	695 554,4	91,8
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar byudjetlarining zaxira jamg'armalari	908 643,4	1 022 961,2	112,6
Davlat tomonidan NNT va fuqarolik jamiyatning boshqa inistitutlarini qo'llab- qo'vvatlash xarajatlari	28 600,0	37 817,3	132,2
Boshqa xarajatlar	25 281 826,0	21 517 473,2	85,1

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 144-moddasida davlat byudjeti xarajatlariga uning ijrosi jarayonida Davlat byudjetining tasdiqlangan parametrlariga nisbatan Davlat byudjeti xarajatlarini 10 va undan ortiq foizga ko'paytirishni yoki kamaytirishni nazarda tutadigan o'zgartirishlar kiritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari parametrlariga

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2019 yil 21 noyabrdagi 2911-III-sonli va 2019 yil 26 noyabrdagi 2924-III-sonli hamda Oliy Majlis Senatining 2019 yil 30 noyabrdagi SQ-537-III-sonli qarorlariga binoan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, uy-joylar qurish dasturini birgalikda moliyalashtirishda ishtirok etayotgan banklarga kredit liniyasi xarajatlari, iqtisodiyot xarajatlari, markazlashtirilgan investisiyalarni moliyalashtirish xarajatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining zaxira jamg'armalari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatlarining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tasdiqlangan xarajatlar parametrlari 10 foizdan ortiq oshirilgan bo'lsa fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari kamaytirilgan. Sud organlarini saqlash xarajatlari aniqlangan rejasi 359,9 mlrd.so'm bo'lib, tasdiqlangan rejasi (319,9 mlrd.so'm)ga nisbatan 40,0 mlrd.so'mga yoki 112,5 foizga oshgan.

7.4- Jadval

Ko'rsatkich lar	Reja	Ijro	
		Summada	%
Fan	672 655,6	662 408,5	98,5
<i>Shundan, ilmiy muassasalarning moddiy texnik bazasini mustahkamlash xarajatlari</i>	32 411,2	32 127,3	99,1
nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari	4 762 969,1	4 740 290,4	99,5
aholi bandligi darajasini oshirish	1 192 000,0	1 192 000,0	100,0
"Obod qishloq" va "Obod mahalla" davlat dasturi xarajatlari	590 736,4	1 137 870,8	192,6
Uy-joylar qurish dasturida qatnashayotgan banklar uchun kredit liniyalari	4 078 050,0	4 125 743,2	101,2
Iqtisodiyot xarajatlari	17 746 296,9	18 485 172,3	104,2
<i>shundan:</i>			
suv xo'jaligi ekspluatatsiyasi xarajatlari	3 884 617,0	3 885 796,7	100,0

fermer xo'jaliklari balansidagi nasos agregatlari va sug'orish quduqlari iste'mol qiladigan elektr energiyasini qoplash uchun subsidiyalar	153 215,7	150 816,0	98,4
sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	758 945,0	756 867,5	99,7
zararkunandalarga qarshi kurashish xarajatlarini qoplash hamda favqulodda vaziyatlarda hosilni saqlab qolishni ta'minlash	91 673,5	91 629,2	100,0
aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish	1 670 117,2	2 047 699,1	122,6
tabiatni muhofaza qilish	243 389,3	251 903,4	103,5
uy-joy kommunal ishlari	822 914,6	857 034,3	104,1
ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish	1 648 025,6	1 661 525,6	100,8
umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarni rivojlantirish	5 350	5 219	97,6
	078,6	054,5	
Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish	320 421,3	302 780,2	94,5
Markazlashgan investisiya xarajatlarini moliyalashtirish	5 630 181,4	7 048 460,3	125,2
Davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari	4 453 237,7	4 956 384,7	111,3
Sud organlarini saqlash xarajatlari	359 893,6	358 626,4	99,6
O'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	695 554,4	701 128,0	100,8
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar byudjetlarining zaxira jamg'armalari	1 022 961,2	985 413,3	96,3
Davlat tomonidan NNT va fuqarolik jamiyatning boshqa institutlarini qo'llab- qo'vvatlash xarajatlari	37 817,3	37 817,3	100,0
Davlat qarzlariga xizmat ko'rsatish va qoplash xarajatlari	1 090 419,2	1 089 203,4	99,9
Boshqa xarajatlar	20 427 054,1	20 804 100,2	101,8

Ko'rsatkich lar	Reja	Ijro	
		Summada	%
XARAJATLAR (MAQSADLI JAMG'ARMALARSIZ) - JAMI	113 500 000,0	118 008 700,2	104,0
Ijtimoiy xarajatlar	62 036 584,3	63 542 394,1	102,4
	534,3	651,0	5
<i>shundan:</i>	33 136 511,4	33 536 149,1	101,2
ta'lim	4 759 050,0	4 829 606,4	101,5
shundan, ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash xarajatlari	5 204 641,9	5 314 355,1	102,1
maktabgacha ta'lim	19 250 423,4	19 499 563,2	101,3
umumiy ta'lim	3 922 396,2	3 892 624,4	99,2
kadrlar tayyorlash	14 837 577,3	14 977 446,0	100,9
sog'liqni saqlash	1 814 547,1	1 855 046,6	102,2
shundan, sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash xarajatlari	2 182 472,5	2 417 345,3	110,8
madaniyat va sport	33 136 511,4	33 536 149,1	101,2

Ushbu o'zgarish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda taqdimnomalar kiritilmagan hamda Oliy majlis palatalari tomonidan tasdiqlanmagan. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining kassa xarajatlari 2019 yilda 118 008,7 mlrd. so'mni yoki aniqlangan reja ko'rsatkichlariga nisbatan 104,0 foizni tashkil etgan.

Davlat byudjeti tarkibida avvalgi yillarda bo'lgani kabi ijtimoiysoha xarajatlari asosiy o'rinni egallab, 63 542,4 mlrd.so'mni yoki 2019 yil Davlat byudjeti jami xarajatlarining 53,8 foizini tashkil etdi. Ijtimoiy soha xarajatlari o'tgan yil ko'rsatkichiga (42 883,3 mlrd.so'm) nisbatan 48,2 foizga oshgan. Jumladan, 2019 yilda Davlat byudjeti hisobidan:

-ta'lim sohasiga – 33 536,1 mlrd.so'm (rejaga nisbatan 101,2 foiz) yoki o'tgan yil ko'rsatkichiga (20 721,1 mlrd.so'm) nisbatan 61,8 foizga ko'p;

- sogʻliqni saqlash xarajatlariga – 14 977,4 mlrd.soʻm (rejaga nisbatan 100,9 foiz) yoki oʻtgan yil koʻrsatkichiga (9 408,4 mlrd.soʻm) nisbatan 59,2 foizga koʻp;
- madaniyat va sport sohasiga – 2 417,3 mlrd.soʻm (rejaga nisbatan 110,8 foiz) yoki oʻtgan yil koʻrsatkichiga (1 345,5 mlrd. soʻm) nisbatan 79,7 foizga koʻp;
- fan sohasini moliyalashtirishga – 662,4 mlrd. soʻm (rejaga nisbatan 98,5 foiz) mablagʻ yoki oʻtgan yil koʻrsatkichiga (434,4 mlrd.soʻm) nisbatan 52,5 foizga koʻp;
- nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya toʻlovlari uchun – 4 740,3 mlrd.soʻm (rejaga nisbatan 99,5 foiz) yoki oʻtgan yil koʻrsatkichiga (3 242,1 mlrd.soʻm) nisbatan 46,2 foizga koʻp sarflangan.

Iqtisodiyot xarajatlari ijrosi 18 485,2 mlrd. soʻmni tashkil etgan boʻlib, rejaga (17 746,3 mlrd.soʻm) nisbatan 4,2 foizga hamda oʻtgan yilgi koʻrsatkichiga (8 461,8 mlrd.soʻm) nisbatan ikki barobardan koʻproqqa oshgan.

2019 yilda Davlat byudjetidan sarflangan markazlashtirilgan investisiyalar 7 048,5 mlrd.soʻmni (rejaga nisbatan 125,2 foiz) tashkil etgan boʻlib, oʻtgan yilda bu maqsadlarga sarflangan mablagʻga (5 396,4 mlrd.soʻm) nisbatan 30,6 foizga koʻp xarajatlar amalga oshirilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining 2019 yilgi ijrosi 118 008,7 mlrd.soʻmni tashkil qilib, daromadlarning haqiqatdagi ijrosiga (112165,4 mlrd.soʻm) nisbatan Davlat byudjeti taqchilligi (defisit) 5 843,3 mlrd.soʻmni YalMga nisbatan 1,1 foiz) tashkil etgan.

Maʼlumot uchun: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qarori bilan 2019 yil Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti 4 490,8 mlrd soʻm miqdorida defisit bilan tasdiqlangan.Davlat byudjeti daromadlarining yil davomida ortiqcha bajarilishi natijasida yuzaga kelgan qoʻshimcha daromadlar Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat qarorlari asosida ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirish bilan bogʻliq tadbirlarga yoʻnaltirilgan. Jumladan:

-Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 dekabrda 1072-sonli qaroriga asosan 2019 yil Investisiya dasturiga qoʻshimcha kiritilgan obʻektlar uchun tasdiqlangan byudjet parametrlari 1 200,0 mlrd.soʻmga koʻpaygan;

-Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevralda PQ- 4201 va 2018 yil 27 iyunda PQ-3812-sonli qarorlari hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 martda 23-sonli yigʻilish bayoniga asosan “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari ijrosini taʼminlash uchun 1 004,4 mlrd.soʻmlik xarajatlar amalga oshirilgan;-uy-joylar qurish dasturini birgalikda moliyalashtirishda ishtirok etayotgan banklarga kredit liniyasi xarajatlari uchun byudjet parametrlarida tasdiqlangan 2 978,1 mlrd.soʻm

Ko'rsatkichlar	Aniqlangan reja	Kassa ijrosi (mln.so'm)	%
Xarajatlar - jami shu jumladan:	113 500 000,0	118 008 700,2	104,0
O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti	65 232 509,9	65 959 001,8	101,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlari	48 267 490,1	52 049 698,4	107,8

xarajatlar 1 147,7 mlrd.so'mga yoki 38,5 foizga ko'paygan;

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 15 iyuldagi 594-f-sonli farmoyishiga asosan Toshkent viloyati ijtimoiy soha ob'ektlariga qo'shimcha 1 100,0 mlrd.so'm ajratilgan.

Yuzaga kelgan Davlat byudjeti taqchilligi 2019 yil boshidagi davlat byudjetining 1 245,4 mlrd.so'm qoldiq mablag'lari, shuningdek, xalqaro moliya institutlarning 3 478,7 mlrd.so'm miqdoridagi qarz mablag'lari va davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirish natijasida tushgan 1 119,2 mlrd.so'm mablag'lar hisobiga qoplangan. O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti xarajatlarning ijrosi 65 959,0 mlrd.so'mni yoki aniqlangan reja ko'rsatkichining 101,1 foizini, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, Toshkent shahri va viloyatlar mahalliy byudjetlari 52 049,7 mlrd. so'mni yoki 107,8 foizni tashkil etgan.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashqi auditdan o'tkazish uchun quyidagi 5 turdagi hisobot shakllari Hisob palatasiga taqdim etilgan:

1. Davlat byudjeti ijrosining balansi;
2. Davlat byudjeti daromadlarining ijrosi to'g'risida hisobot;
3. Davlat byudjeti xarajatlarning ijrosi to'g'risida hisobot;
4. Byudjet tashkilotlarining debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotnoma;
5. Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo'yicha tarmoq, shtatlar va kontingentga doir rejaning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlar.

Tashqi audit jarayonida Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo'yicha tarmoq, shtatlar va kontingentga doir rejaning bajarilishi to'g'risidagi hisobotda ish haqi jamg'armasi reja ko'rsatkichlari davlat byudjetining xarajatlar ijrosi to'g'risidagi hisobotga nisbatan 230 ta holatda 2 420,6 mlrd. so'mga ko'p, 16 ta holatda 6,5 mlrd. so'mga kam, haqiqiy xarajatlar esa 304 ta

holatda 2 475,4 mlrd. so'mga ko'p, 3 ta holatda 3,1 mlrd. so'mga kam ko'rsatilganligi ma'lum bo'ldi. Ushbu farq aksariyat holatlarda ayrim tashkilotlarning tarmoq, shtat va kontingentlari ijrosi bo'yicha ish haqi xarajatlari hisobotga kiritilmaganligi sababli kelib chiqqan. Xususan haqiqiy xarajatlar bo'yicha aniqlangan 2 475,4 mlrd.so'm farqdan 1 257,5 mlrd.so'mi byudjet tashkilotlari bo'yicha ko'rsatkichlarni hisobotda aks ettirilmaganligi natijasida yuzaga kelgan.

7.3 Byudjet kamomadi, uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. Davlat qarzi. Moliya va inflyasiyaning o'zaro bog'liqligi.

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari muvozanatda bo'lishini taqozo qiladi. **Lekin ko'pchilik hollarda davlat byudjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchaligi kuzatiladi, buning oqibatida byudjet taqchilligi ro'y beradi.** Bu holning sabablari ko'p bo'lib, ularning ichida, davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz o'sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi alohida o'rin tutadi. Byudjet taqchilligining o'sishi yoki kamayishi mutlaq miqdorda va uning yalpi ichki mahsulot (YaIM)ga nisbatida aniq namoyon bo'ladi.

Byudjet taqchilligining o'sishi yoki kamayishi mutloq miqdorda va uning yalpi ichki mahsulot (YaIM)ga nisbatida aniq namoyon bo'ladi.

Davlat byudjetining debitorlik va kreditorlik qarzlari

Taqdim etilgan hisobotga ko'ra 2020 yil 1 yanvar holatiga debitor qarzdorlik byudjet mablag'lari hisobidan 6 254,2 mlrd. so'm, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan 2 415,6 mlrd.so'm jami 8 669,8 mlrd.so'mni tashkil etgan.Kreditor qarzdorlik byudjet mablag'lari hisobidan 5 004,6 mln.so'm, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan 2533,0mlrd.so'm jami 7 537,6 mlrd.so'mni tashkil etgan.

7.7 jadval 2020 yil 1 yanvar holatiga mavjud debitor qarzdorliklar 2019 yil 1 yanvar holatiga nisbati quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Debitor qarzdorliklarning o'zgarishi tahlil qilinganda, jami 8 669,8 mlrd.so'm debitor qarzdorlik o'tgan yilgi debitor qarzdorlikka nisbatan qariyb **1,5 barobarga** oshgan.Guruhlar kesimida debitor qarzdorliklarni o'rganilganda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha 2,0 mlrd.so'mni, kapital qo'yilmalar bo'yicha 933,4 mlrd. so'mni, boshqa xarajatlar bo'yicha 5 955,9 mlrd.so'mni, guruhlarga kiritilgandan tashqari xarajatlar 1 778,1 mlrd.so'mni tashkil etib, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha 1,5 barobarga, kapital qo'yilmalar bo'yicha 1,4 barobarga, boshqa xarajatlar bo'yicha 1,3 barobarga va guruhlarga kiritilgandan tashqari xarajatlar bo'yicha debitor qarzdorliklar 2 barobarga oshgan.

Xarajatlar tarkibi	Jami	shundan	
		byudjet mablag'lari bo'yicha (mln.so'm)	byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha
2019 yil 1 yanvar holatiga			
Debitorlik qarzi – jami	5 991 980,4	4 356 574,3	1 635 406,1
Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar	1 290,5	1 012,1	278,4
Ish haqidan ajratmalar	713,5	427,7	285,8
Kapital qo'yilmalar	671 494,0	549 816,5	121 677,5
Boshqa xarajatlar	4 425 140,7	3 804 778,5	620 362,2
Guruhlarga kiritilgandan tashqari	893 341,7	539,5	892 802,2
2020 yil 1 yanvar holatiga			
Debitorlik qarzi – jami	8 669	6 254	2 415
	804,2	244,4	559,8
Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar	1 962,5	1 797,8	164,7
Ish haqidan ajratmalar	388,2	105,3	282,9
Kapital qo'yilmalar	933 428,5	804 116,0	129 312,5
Boshqa xarajatlar	5 955 907,5	5 447 535,1	508 372,4
Guruhlarga kiritilgandan tashqari	1 778 117,4	690,2	1 777 427,2
O'sishi/kamayishi (foizda)			
Debitorlik qarzi – jami	145%	144%	148%
Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar	152%	178%	59%
Ish haqidan ajratmalar	54%	25%	99%
Kapital qo'yilmalar	139%	146%	106%
Boshqa xarajatlar	135%	143%	82%
Guruhlarga kiritilgandan tashqari	199%	128%	199%

Ish haqidan ajratmalar bo'yicha debitor qarzdorlik 0,4 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan qariyb 2 barobarga kamaygan.2020 yil 1 yanvar holatiga mavjud kreditor qarzdorliklar 2019 yil 1 yanvar holatiga nisbati quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Kreditor qarzdorliklarning o'zgarishi tahlil qilinganda, jami 7 537,6 mlrd.so'm kreditor qarzdorlik o'tgan yilgi kreditor qarzdorlikka nisbatan 1,4 barobarga oshgan Kreditor qarzdorliklarning o'zgarishi tahlil qilinganda, jami 7 537,6 mlrd.so'm kreditor qarzdorlik o'tgan yilgi kreditor qarzdorlikka nisbatan 1,4 barobarga oshgan. Guruhlar kesimida tahlil qilinganda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, ish haqiga ajratmalar 1,4 barobarga, kapital qo'yilmalar 1,8 barobarga, boshqa xarajatlar 1,6 barobarga shuningdek, guruhlarga kiritilganidan tashqari kreditor qarzdorliklar 1,1 barobarga oshgan. 2020 yil 1 yanvar holatiga byudjet mablag'lari bo'yicha ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar 2 192,8 mlrd.so'm yoki yil boshiga nisbatan 133 foizga hamda ish haqiga ajratmalar 767,6 mlrd.so'm yoki yil boshiga nisbatan 131 foizga oshgan.

Mazkur qarzdorlik tahlil qilinganda haqiqiy qarzdorlik va hisobotda ko'rsatilgan qarzdorlik o'rtasida ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha 27,6 mlrd.so'm va ish haqiga ajratmalar bo'yicha 7,8 mlrd.so'm, jami 35,4 mlrd.so'mga farq borligi aniqlandi.

7.8.-Jadval

Mln. so'm

Xarajatlar tarkibi	Jami	byudjet mablag'lari bo'yicha	byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha
2019 yil 1 yanvar holatiga			
Kreditorlik qarzi – jami	5 507 630,4	2 990 837,2	2 516 793,1
Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar	1 901 164,5	1 654 491,8	246 672,7
Ish haqidan ajratmalar	641 160,7	584 817,0	56 343,7
Kapital qo'yilmalar	657 760,4	431 000,1	226 760,2
Boshqa xarajatlar	986 647,8	320 528,4	666 119,4
Guruhlarga kiritilgandan tashqari	1 320 897,1	0	1 320 897,1
2020 yil 1 yanvar holatiga			
Kreditorlik qarzi – jami	7 537 552,3	5 004 599,9	2 532 952,4
Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar	2 565 390,1	2 192 804,2	372 586,0

Ish haqidan ajratmalar	851 082,4	767 598,6	83 483,8
Kapital qo'yilmalar	1 186 166,5	1 037 905,6	148 260,9
Boshqa xarajatlar	1 536 875,3	1 002 116,1	534 759,2
Guruhlarga kiritilgandan tashqari	1 398 037,9	4 175,3	1 393 862,5
O'sishi/kamayishi (foizda)			
Kreditorlik qarzi – jami	137%	167%	101%
Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar	135%	133%	151%
Ish haqidan ajratmalar	133%	131%	148%
Kapital qo'yilmalar	180%	241%	65%
Boshqa xarajatlar	156%	313%	80%
Guruhlarga kiritilgandan tashqari	106%		106%

7.4. Byudjet kamomadi, uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. Davlat qarzi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining 2020 yildagi ijrosi «2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonun va koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashish, global inqiroz oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari bilan belgilangan tadbirlarni muddatida va to'liq amalga oshirishga yo'naltirilgan.

2020 yilda jahon iqtisodiyoti 4,3 foizga, jumladan rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti 5,4 foizga, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan hamda rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti 2,6 foizga qisqarganiga qaramasdan, O'zbekistonda ijobiy iqtisodiy o'sish sur'ati saqlab qolinishiga erishilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti 2020 yilda 2019 yilga nisbatan 1,6 foizga o'sib, YaIM hajmi 580 trln 203 mlrd so'mni tashkil etgan, bunda yalpi qo'shilgan qiymat tarkibida xizmatlar 36,3 foizga (2019 yilda 36,1 foizga), qishloq, o'rmon va buliqchilik xo'jaligida 28,2 foizga (28,0 foizga), sanoatda 28,5 foizga (29,3 foizga), qurilish sohasida 7,0 foizga (6,6 foizga) yetgan.

Investitsiyaviy faollikning pasayishi kuzatilib, asosiy kapitalga nisbatan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2019 yilga qaraganda 8,2 foizga qisqarib, 202 trln so'mni tashkil etgan. Tashqi savdo aylanmasi 2019 yilga nisbatan 13,1 foizga kamayib, 36 mlrd 299 mln AQSh dollariga yetgan. Bunda eksport 13,4 foizga, import esa 12,8 foizga qisqargan. Inflyasiya darajasi tasdiqlangan prognoz parametrlaridan past bo'lib, 11,1 foizni tashkil etgan.

Davlat byudjeti daromadlari 132 trln 938 mlrd so'mni tashkil etib, belgilangan 128 trln 745 mlrd so'm prognoz 103,3 foizga bajarilgan.

Davlat byudjeti xarajatlari 144 trln 142 mlrd so'mni yoki YaIMga nisbatan 24,8 foizni tashkil etgan. Mahalliy byudjetlar daromadlari 27 trln 703 mlrd so'mni tashkil etib, ushbu byudjetlar ixtiyorida prognozdan tashqari 2 trln 727 mlrd so'm mablag' qolgan. Mahalliy byudjetlar xarajatlari rejaga nisbatan 104,8 foizga ijro etilib, 47 trln 191 mlrd so'mni tashkil etgan. Respublika byudjetiga soliq tushumlari bo'yicha belgilangan prognozdan ortiqcha tushirilgan 1 trln 361 mlrd so'm mablag' ham mahalliy byudjetlarga o'tkazib berilgan. Mahalliy byudjetlarga respublika byudjetidan jami 2 trln 691 mlrd so'm yo'naltirilgan.

Ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish uchun Davlat byudjetidan 74 trln 231 mlrd so'm, ya'ni jami xarajatlarning 51,5 foiziga teng yoki YaIMga nisbatan 12,8 foiz miqdorida mablag' berilgan. Investisiya xarajatlarini moliyalashtirishga Davlat byudjeti jami xarajatlarning 13,1 foizi yoki 18 trln 844 mlrd so'm mablag' sarflangan.

Davlat byudjeti taqchilligi 11 trln 204 mlrd so'mni tashkil etgan.

Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari ijrosini ta'minlash, byudjet mablag'laridan maqsadli, samarali foydalanishda kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan.

Davlat byudjetiga soliq qarzi 11 trln 180 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilga (8 trln 651 mlrd so'mga) nisbatan 22,6 foizga yoki 2 trln 528 mlrd so'mga o'sgan.

Byudjet taqchilligining o'zgarishi xo'jalik kon'yunkturasiidagi joriy tebranishlar, ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va yuksalishlarni ham aks ettiradi, inqirozlar davrida davlat byudjet mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning ma'lum sektorlarini moliyaviy ta'minlab turishga, umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarda investisiyalar hajmini saqlab turishga majbur bo'ladi.

O'rnatilgan xalqaro standartlarga ko'ra byudjet taqchilligi YaIMning 5% darajasidan oshmasligi lozim. Byudjet taqchilligi asosan davlat qarzi hisobiga qoplanadi.

Davlat qarzi ichki va tashqi qarzlardan iborat bo'ladi. **Davlat ichki qarzi** – bu davlatning mamlakat ichida zayomlar va boshqa qimmatli qog'ozlarini chiqarish, turli nobyudjet fondlari (sug'urta fondi, ishsizlik bo'yicha sug'urtalash fondi, pensiya fondi)dan qarz olish ko'rinishidagi qarzlari.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirish (qoplash)ning muhim ko'rinishlaridan biri davlat krediti hisoblanadi.

Davlat krediti – davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga tushadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi.

Moliyaviy resurslarni davlat tomonidan qarzga olishning asosiy shakli –bu davlat qarz majburiyatlari (zayomlari)ni chiqarish hisoblanadi. Ularni joylashtirish jarayonida davlat aholi, banklar, savdo va sanoat kompaniyalarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qiladi. Davlat o'z majburiyatlarini nafaqat xususiy sektorda joylashtirishi, balki ularni Markaziy bankda hisobga olishi ham mumkin. Bunda bank muomalaga pulning tovar hajmining ko'payishi bilan bog'liq

bo'lmagan qo'shimcha miqdorini chiqaradi. Mazkur holda, davlat byudjetini moliyalashtirish pul muomalasiga to'g'ridan-to'g'ri inflyasion ta'sir ko'rsatadi. Pul muomalasining o'sishi jamiyat haqiqiy boyligining ko'payishi bilan birga bormaydi.

Davlat qarzlarning to'xtovsiz ko'payib borishi, milliy daromadni foiz to'lovlari shaklida tobora ko'proq qayta taqsimlanishga olib keladi. Katta byudjet taqchilligi va davlat majburiyatlari bo'yicha foiz to'lovlari o'sish sharoitida, davlat qarzlarni to'lash vaqtini imkon darajada cho'zishga harakat qiladi. Buning uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin. Jumladan davlat o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini o'rta va uzoq muddatli zayomlarga almashtiradi. U o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini, ancha yuqori foiz bo'yicha yangi, uzoq muddatli zayomlar chiqarish hisobiga ham sotib olish mumkin. Bunday turdagi tadbirlar qisqa davrli samara berishi va vaqtincha davlatning moliyaviy ahvolini yengillashtirishi mumkin, chunki u odatda kelgusida foiz stavkasining oshishi va qarzar umumiy miqdorining o'sishi bilan bog'liq. Xo'jalik hayoti baynalminallashuv jarayonlarining tez o'sishi, xalqaro kreditning jadal rivojlanishi natijasida davlat o'ziga zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun bo'sh pul mablag'larining milliy chegaradan tashqaridagi manbalaridan faol foydalanadi. Buning natijasida tashqi qarz vujudga keladi.

Davlat tashqi qarzi – xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaromoliyaviy tashkilotlardan olingan qarz. **2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston tashqi qarzining umumiy hajmi 33,8 milliard dollarni tashkil qildi.** O'tgan yilda xususiy qarzdorlik 3,7 milliard dollarga oshib, asosan banklar hissasiga to'g'ri kelgan. 2020 yilda xususiy sektor tomonidan umumiy miqdorda 5,5 milliard dollar qarzdorlik jalb qilindi.

Ushbu qarzlarning 4,3 milliard dollari asosan banklar hissasiga to'g'ri kelsa (joriy yil IV choragida ikkita bank tomonidan qiymati 600 million dollarlik yangi qimmatli qog'ozlar chiqarildi), neft-gaz va energetika sektoridagi korxonalar 211,8 million dollar va iqtisodiyotning boshqa sektorlari tomonidan 984 million dollar jalb qilingan (Markaziy bank)


2020 yilda davlat tashqi qarzining sof o'sishi, kurslar va narxlar o'zgarishini hisobga olganda, 5,5 milliard dollarni tashkil qildi. Bu o'sish asosan yangi qarzdorliklar jalb qilinishi va davlat qimmatli qog'ozlari chiqarilishi bilan izohlanadi.

Tashqi qarzning me'yoridan oshib ketishi milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar tashqi qarz bo'yicha to'lovlar mamlakat tovar va xizmatlari eksportidan tushumning ahamiyatli qismi, masalan, 20-25% dan oshib ketsa, bu holat mamlakatning kredit bo'yicha reytingini pasaytirib yuboradi. Natijada, chetdan yangi qarz mablag'larini jalb etish mushkullashadi. Shunga ko'ra, davlatlar muntazam ravishda tashqi qarzni tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshirib boradilar.

7.1.-Rasm

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI UMUMIY TASHQI QARZINING ДИНАМИК ҚАТОРЛАРИ¹¹

(млрд. доллар)



Bular qatoriga mamlakat oltin-valyuta zaxirasi hisobidan qarzlarni to'lab borish; kreditorlarning qarz to'lov muddatlarini o'zgartirishlari, ayrim hollarda ularning ma'lum qismidan voz kechishlariga erishish; qarzlarni mamlakatdagi ko'chmas mulklar, qimmatli qog'ozlar, kapitalda ishtirok etish va boshqa huquqlarni sotish hisobiga to'lash; xalqaro banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlardan yordam olish va h.k.

Ma'lum qilinishicha, hisobot davri mobaynida davlat tashqi qarzi bo'yicha 651,3 million dollar miqdordagi asosiy qarz va 380,2 million dollar miqdordagi foiz to'lovlari amalga oshirilgan.

Xususiy tashqi qarz to'lovlari asosiy qarz bo'yicha 2 milliard dollar va foiz to'lovlari bo'yicha 370,8 million dollarni tashkil qildi. Bunda asosiy qarz va foizlar bo'yicha to'lovlarning eng katta qismini banklar hamda neft-gaz va energetika sektori korxonalari amalga oshirmoqda. 2020 yilda xususiy sektorning tashqi qarz tushumlari va to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotlar hamda xususiy tashqi qarzning so'ndirilishi bo'yicha prognozlar xalqaro hisobot tizimi talablariga muvofiq kreditorlar va qarz oluvchilar kesimida taqdim etilmoqda.

7.2.-Rasm

УМУМИЙ ТАШҚИ ҚАРЗ ТАРКИБИ ВА УНДАГИ ҲАВЛАТЛАР¹¹

(млн. доллар)

Иқтисодий сентори	Қуйидаги саналар ҳолатига кўра қарздорлик			Салмоғи	2020 йил давомидаги ўзгариш
	01.01.2019 й.	01.01.2020 й.	01.01.2021 й.		
Умумий ташқи қарз	17 159,1	24 632,0	33 841,8	100%	9 209,9
Давлат ташқи қарзи	9 950,5	15 869,6	21 346,0	63%	5 476,4
шундан: Ўзбекистон Республикаси халқаро облигациялари	-	1 107,0	1 929,4	6%	822,4
Хусусий ташқи қарз	7 208,6	8 762,4	12 495,8	37%	3 733,4
шундан: бош компанияларидан	687,8	825,8	911,4	3%	85,6
Секторларнинг хусусий ташқи қарздаги улушлари					
Банк сектори	978,2	2 920,2	6 280,9	19%	3 360,8
шундан: тижорат банкларининг халқаро облигациялари	-	307,4	937,5	3%	630,1
Нефт-газ ва энергетика сектори	5 386,5	4 852,3	4 437,3	13%	-415,1
Телекоммуникация сектори	248,2	225,5	193,6	1%	-31,9
Тўқимачилик сектори	132,2	162,7	248,8	1%	86,1
Бошқа секторлар	463,4	601,6	1 335,2	4%	733,5

7.3.-Rasm

ЖАЛБ ҚИЛИШ МУДДАТЛАРИ БЎЙИЧА УМУМИЙ ТАШҚИ ҚАРЗНИНГ ТАСНИФЛАНИШИ¹¹

(2021 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра)

Қарзни жалб қилиш муддати	Қарздорлик суммаси (млн. доллар)	Салмоғи (%)
1 йилгача	1 624,4	4,8%
1 йилдан 5 йилгача	5 745,9	17,0%
5 йилдан 10 йилгача	3 446,8	10,2%
10 йилдан ортиқ	23 024,8	68,0%
Жами:	33 841,8	100%

2021 yil 1 yanvar holatiga yalpi tashqi qarz qoldig'i 37,5 foizga yoki 9,9 milliard dollarga oshib, 36,2 milliard dollarni tashkil qildi. 020 yilda yalpi tashqi qarz asosan operatsion o'zgarishlar hisobiga 9,4 milliard dollarga oshdi. Bunda qayta baholashlar (kurslar va moliyaviy instrumentlarning narx o'zgarishlari) va boshqa o'zgarishlar mos ravishda 674,9 million va -241,1 million dollarni tashkil qildi.

Avvalroq xalqaro moliyaviy institutlardan O'zbekiston jalb qilgan tashqi qarz portfeli hajmi 8,9 milliard AQSh dollarini tashkil etib, mazkur kreditlar uzoq muddat (30 yilgacha) hamda imtiyozli foiz stavkalarida taqdim etilgan. 2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonning davlat qarzi 23,3 mlrd dollar ekvivalentini tashkil etayotgani, shundan 21,1 milliard – davlat tashqi qarzi. Shuningdek, moliya vaziri Timur Ishmetov respublikaning tashqi qarzi miqdori xalqaro me'yorlarga nisbatan past hisoblanishi, uni hukumat yaxshi boshqarish bilan birga, o'z vaqtida bimalol qaytara olishini ta'kidlagan. Vazirga ko'ra, 2021 yilda tashqi qarz olish limiti 5 milliard dollar qilib belgilangan.

Xalqaro kreditning tez o'sishi kapitalning mamlakatlararo migratsiyasi, mamlakat va mintaqalar iqtisodiy o'zaro bog'liqligi chuqurlashuvining muqarrar natijasi hisoblanadi. Xalqaro kredit moliyaviy resurslarni ham xususiy sektorning ehtiyojlarini qondirish, ham davlat byudjeti taqchilligini qoplash uchun jalb qilish imkoniyatini sezilarli kengaytiradi.

7.4.-Rasm


Ялли ташқи қарзнинг иқтисодий тармоқлари бўйича ўзгариши ва қолдиғи мутаносиблиги

(млн. долл.)

	01.01.2020 г	2020 йил учун ўзгаришлар			01.01.2021г.
		операциялар	қайта баҳолашлар	бошқа ўзгаришлар	
Ялли ташқи қарз	26 331,0	9 452,6	674,9	-241,1	36 217,4
Давлат бошқаруви сектори, шу жумладан:	12 106,4	4 043,3	352,6	5,5	16 507,7
- Давлат бошқаруви идоралари	11 742,5	4 043,7	337,5	5,5	16 129,2
- Марказий банк ¹⁶	363,9	-0,4	15,1	-	378,6
Тижорат банклари	3 088,1	3 348,5	230,3	-12,7	6 654,1
Бошқа секторлар	10 252,3	1 907,6	84,5	-204,0	12 040,4
Тўғридан-тўғри инвестициялар: бош компаниялар ва турдош компаниялардан олинган қарзлар	884,3	153,2	7,6	-30,0	1 015,1

7.5.-Rasm

Ялли ташқи қарзнинг молиявий инструментлар бўйича тўзилмаси



Shu bilan birga, tashqi qarzlarning o'sishi bir qator boshqa muammolarni keltirib chiqaradi. Bu o'rinda eng asosiy muammo milliy iqtisodiyotning kreditor va debitor mamlakatlar iqtisodiyotiga bog'liqligining kuchayib borishi hisoblanib, bu jarayonni mamlakatdagi ichki moliyaviy dastaklar bilan nazorat qilish imkoniyati bo'lmay qoladi.

7.5.-Moliya va inflyasiyaning o'zaro bog'liqligi. Soliq tizimi. Soliq turlari

Davlat byudjeti daromadlar qismining asosiy manbai bo'lib soliqlar hisoblanadi. Soliq iqtisodiy kategoriya sifatida, sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli bo'lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi. **Soliq** – bu davlatning o'z vazifalarini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirish maqsadida jismoniy va huquqiy shaxslardan byudjetga majburiy to'lovlarni undirish shakli. Soliq yordamida milliy daromadning tegishli qismi taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. Davlat tomonidan olinadigan soliqlar hamda ularning tashkil qilinish shakli va usullari birgalikda soliq tizimini tashkil qiladi. Milliy iqtisodiyotda soliqlar quyidagi uchta muhim vazifani bajaradi:

- davlat xarajatlarini moliyalashtirish (fiskal vazifasi);
- ijtimoiy tanglikni yumshatish (ijtimoiy vazifasi);
- iqtisodiyotni tartibga solish (tartibga solish vazifasi).

Davlat sarflari soliq tushumlari hisobiga amalga oshsada, davlat sarflari miqyosining o'sishi o'z navbatida soliqlarning o'sishini taqozo qiladi va uning darajasini belgilab beradi.

Hozirgi davrda umumiy tendensiya bo'lgan davlat sarflarining va shunga mos ravishda soliq hajmining o'sib borishini quyidagi omillar taqozo qiladi.

1. Aholi sonining o'sishi.
2. Ijtimoiy soha xizmatlari sifatiga talabning ortishi va urbanizatsiya.
3. Atrof-muhitning ifloslanishi.
4. Daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish.
5. Milliy mudofaa, davlat xavfsizligini ta'minlash xarajatlari hajmining o'sishi.

Korxonalar faoliyatini soliq yordamida tartibga solish quyidagi umumiy tamoyillari asosida amalga oshiriladi:

- barcha daromadlardan, ularning manbalariga bog'liq bo'lmagan holda soliq undirishning majburiyiligi;
- soliq undirishda barcha uchun yagona umumdavlat siyosati;
- samarali ishlovchi korxonalarda hamda xo'jalik yuritishning ilg'or shakllari uchun soliq me'yorlarining rag'batlantiruvchi rolini ta'minlash;
- soliq to'lovi bo'yicha barcha sub'ektlar majburiyati ustidan moliyaviy nazorat. Soliq stavkasini belgilash bir qator tamoyillarga asoslanadi.

1. Naflilik tamoyili – turli shaxslardan, ularning soliqlar hisobiga moliyalashtiriladigan dasturlardan foydalanishi darajasiga qarab turlicha soliq undirilishi kerakligini bildiradi.

Soliq summasining (**R**) soliq olinadigan summaga (**D**) nisbatining foizdagi ifodasi soliq stavkasi (**R'**) deyiladi:

$$R = R' \cdot D \cdot 100\%$$

2. **To'lovga layoqatlilik tamoyili** – soliq miqdori soliq to'lovchining boyligi va daromadlari darajasiga mos kelishi zarur. Boshqacha aytganda, soliq solish daromadlarning adolatli taqsimlanishini taqozo qilishi zarur.
3. **Adolatlilik tamoyili** – daromadlari va hukumat dasturlaridan foydalanish darajasi bo'yicha teng bo'lgan kishilar teng miqdorda soliq to'lashi zarur.

Soliq bo'yicha imtiyozlar qonunchilik bitimlarida belgilangan tartib va sharoitlar asosida o'rnatiladi. Amaliyotda soliq imtiyozlarining quyidagi turlari keng tarqalgan:

- ob'ektlarning soliq olinmaydigan eng kam darajasini belgilash;
- soliq to'lashdan alohida shaxs yoki ma'lum guruhlarini (masalan, urush fahriylarini) ozod qilish;
- soliq darajasi (stavkasi)ni pasaytirish;
- soliq olinadigan summadan chegirish;
- soliqli kredit (soliq olishni kechiktirish yoki soliq summasini ma'lum miqdorga kamaytirish).

Soliqlarni turkumlashga turli xil mezonlar asosida yondashiladi. Soliq stavkasi va daromadlar o'rtasidagi nisbatga asoslanib, soliqlar odatda progressiv (o'sib boruvchi), proporsional (mutanosib) va regressiv (kamayib boruvchi) soliqlarga bo'linadi.

Moliyaviy siyosat – davlatning o'z vazifalarini amalga oshirish uchun moliyani tashkil etish va foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar majmui. Moliyaviy siyosat diskresion va o'z-o'zidan tartiblanuvchi tavsifdagi siyosatlarga bo'linadi.

Diskresion moliyaviy siyosat iqtisodiyotga ta'sir o'tkazish maqsadida soliq va davlat sarflarini o'zgartirib turish bilan bog'liq.

O'z-o'zidan tartiblanuvchi moliyaviy siyosat esa iqtisodiyotdagi holat o'zgarishiga muvofiq tarzda tartiblovchi mexanizmlarni o'zining ishga tushishiga asoslanadi.

Bundan ko'rinadiki, milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga turli iqtisodiy sub'ektlarni soliqqa tortish hamda tushgan mablag'larni davlat byudjeti orqali qayta taqsimlash jarayonlari ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi.

Davlat tomonidan iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish maqsadida soliqqa tortish va davlat sarfi tarkibini o'zgartirish bo'yicha qo'llaniluvchi chora-tadbirlar fiskal yoki soliq-byudjet siyosati deb ataladi. Fiskal siyosat, bir tomondan, iqtisodiyotning tanazzul davrida davlat sarflarini oshirish yoki soliqlarni pasaytirish orqali xo'jalik hayotini rag'batlantirishni, boshqa tomondan esa, iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasida davlat sarflarini qisqartirish yoki soliqlarni ko'paytirish orqali yuz berishi mumkin bo'lgan inflyasiya va ishsizlikning oldini olishni ko'zda tutadi. O'zbekiston hukumati 2022 yilda YaIM 5,9 foizga o'sishi, inflyasiya 9 foizga tushishini prognoz qilmoqda. Konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini 3 foizgacha pasaytirish mo'ljallanib qilinayapti. Ish haqi, ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalar va pensiyalar miqdori inflyasiya darajasidan yuqori sur'atlarda oshiriladi. Bir nechta soliq stavkalari kamaytiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2021 yilning kutilayotgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, 2022- 2024 yillarga mo'ljallangan makroiqtisodiy prognozlar, 2022 yil uchun Davlat byudjetining

loyihasi muhokama qilindi. Dastlabki statistik ma'lumotlar joriy yilning 9 oylik yakunlari bilan respublikada yalpi ichki mahsulot **6,9 foizga** o'sganini ko'rsatmoqda. Joriy yil yakuni bo'yicha YaIM o'sishi **6,5-7 foiz** atrofida bo'lishi, bunda sanoatda ishlab chiqarish hajmi – **9,1**, qurilish ishlari hajmi – **6,6**, xizmatlar sohasi – **8,6** va qishloq xo'jaligi – **2,8 foizga** ko'payishi kutilmoqda.

Mamlakatning o'rta muddatli makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozining asosiy ssenariysida kelgusi besh yilda YaIMning o'rtacha o'sish sur'ati **6,5 foizda** bo'lishi prognoz qilingan. Xususan, 2022 yilda YaIMning **5,9 foizga** o'sishi, kelgusi yillarda esa o'sish sur'atlarining bundan yuqori bo'lishi hisob-kitob qilingan.

Hukumat oldida 2026 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM miqdorini **2 800 dollarga** yetkazish va 2030 yilga borib esa **4000 dollardan** oshirish va o'rta daromadli mamlakatlarning yuqori guruhiga kirish vazifasi turibdi. Qayd etilishicha, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish, xususan, inflyasiya darajasini 2022 yilda **9 foizgacha**, o'rta muddatda **5 foizgacha** pasaytirish, davlat qarzini mo'tadil darajada ushlab turish hamda davlat byudjeti taqchilligini kelgusi yilda **3 foizdan** oshirmaslik lozimligi belgilab olindi. Ma'lum bo'lishicha, 2021 yilda koronavirus pandemiyasi sharoitida kechiktirib bo'lmas ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish uchun Byudjet qonuniga tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali byudjetdan 27 trillion so'mdan ortiq qo'shimcha mablag'lar ajratilgan. Xususan, "Obod mahalla" va "Obod qishloq" dasturlari doirasida mahallalardagi ichki yo'llarni qurish va ta'mirlash, bog'chalar, maktablar va sog'liqni saqlash ob'ektlarini ta'mirlash va boshqa infratuzilma ob'ektlariga jami 15,8 trillion so'm, koronavirusga qarshi kurashish tadbirlariga qo'shimcha 1,3 trillion so'm ajratilgan. Joriy yilda umumiy byudjet taqchilligini YaIMga nisbatan **5,5 foizdan** oshirmaslik uchun mas'ul vazirlik va idoralar rahbarlariga qo'shimcha daromadlarni shakllantirish, joriy yilda amalga oshirish zarurati bo'lmagan xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

2022 yilgi soliq siyosatida respublika iqtisodiyotining investision jozibadorligini oshirish maqsadida bir qator o'zgarishlar taklif qilinmoqda: yilning 1 yanvaridan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasini **2 foizdan 1,5 foizgacha** pasaytirish; foyda solig'i hisoblashda investisiyaviy chegirma miqdorini yangi texnologik uskunalar uchun **10 foizdan 20 foizgacha**, binolar uchun **5 foizdan 10 foizgacha** oshirish; amortizatsiya normalarini o'rtacha **2,5 barobarga** oshirish taklif qilinmoqda.

2022 yilgi Davlat byudjeti loyihasida ijtimoiy sohaga mablag' ajratilishining ustuvorligi ta'minlangan holda, ularning salkam **45 foizi ta'lim sohasiga** yo'naltirilmoqda. Xususan, **maktabgacha ta'lim** muassasalariga hamma tadbirlarni va tarbiyalanuvchilar soni oshganligini inobatga olgan holda joriy yilga nisbatan **2,2 trillion so'm ko'paytirilib**, **8,7 trillion so'm**, **xalq ta'limiga 30,3 trillion so'm** yoki **6,5 trillion so'm ko'p**, **o'rta maxsus va oliy ta'limga 7,5 trillion so'm** yoki **3,1 trillion so'm ko'p mablag' ajratilmoqda**.

2022 yilda **sog‘liqni saqlash** sohasiga 22,6 trillion so‘m yoki jami xarajatlarning 11 foizi rejalashtirilgan. 2022 yilda **ijtimoiy nafaqa oluvchi ehtiyojmand oilalar** soni 2021 yildagi o‘rtacha 1 million 200 mingdan 1 million 440 minggacha oshib, jami oilalarning 16,5 foizi qamrab olinadi. Tuman va shaharlar byudjetlarining 5 foizi, ya‘ni 1,4 trillion so‘m mablag‘ “Ochiq byudjet portali” orqali bevosita fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

2022 yilda **ish haqi, ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalar va pensiyalar miqdorini inflyasiya darajasidan yuqori sur‘atlarda oshirish uchun** byudjet loyihasida yetarli mablag‘lar ko‘zda tutilgan.

2022 yil Byudjetnomasida xalqaro moliya institutlari ekspertlari texnik ko‘magi asosida ishlab chiqilgan, vazirlik va idoralarning navbatdagi uch yillik byudjet xarajatlari bo‘yicha rivojlantirish dasturlarining maqsadli indikatorlari aks ettirilmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, 2022 yilda konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini joriy yilda kutilayotgan yalpi ichki mahsulotga nisbatan **5,5 foizdan 3,0 foizgacha** pasaytirish lozimligi belgilab olindi.

Nazorat savollari:

1. Moliya tizimi, uning mohiyati va iqtisodiyotdagi vazifalari.
2. Davlat byudjeti va uni milliy daromadni qayta taqsimlashdagi ahamiyati.
3. Davlat byudjetining daromadlari tarkibi va xarajatlari.
4. Davlatning tashqi va ichki qarzlari.

8-Mavzu. Pul-kredit siyosati, uning maqsadi, vazifalari va vositalari.

8.1.-Pul muomalasi va unga amal qilish qonuniyatlari. Pul aylanish qoidasi va pul miqdorini (massasini) tartibga solish. Pulga bo'lgan talab va pul taklifi.

Pulning harakati bozor iqtisodiyotining moliyaviy asoslaridan biri bo'lib, barqaror pul tizimi, daromadlar va xarajatlar aylanishiga hayotiy tus bag'ishlaydi, butun iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlab beradi, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanishga imkon tug'diradi va to'la bandlikka erishishni ta'minlaydi.

Aksincha, beqaror pul tizimi ishlab chiqarish, bandlik va narx darajasining keskin tebranishiga asosiy sabab bo'lib, iqtisodiy rivojlanishga to'siq bo'lishi mumkin.

Shu sababli mazkur bob pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlarining mazmunini yoritish bilan boshlanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablag'lari to'xtovsiz harakatda bo'ladi, tovarlar va xizmatlarni ayirboshlash jarayonida resurslar uchun to'lovlarni amalga oshirishda, ish haqi hamda boshqa majburiyatlarni to'lashda pul qo'ldan qo'lga o'tib, aylanib turadi. Pulning o'z vazifalarini bajarish jarayonidagi to'xtovsiz harakati **pul muomalasi** deyiladi.

Jahonda tarixan shakllangan hamda har bir mamlakat tomonidan qonuniy ravishda mustahkamlab qo'yilgan pul muomalasining turli tizimlari amal qiladi. Mamlakat **pul tizimining** muhim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- 1) milliy pul birligi (so'm, dollar, iena, funt sterling, marka va h.k.);
- 2) naqd pul muomalasida qonuniy to'lov vositasi sifatida amal qiluvchi qog'oz, tanga va kredit pullar tizimi;
- 3) pul emissiyasi, ya'ni belgilangan qonuniy tartibda pulni muomalaga chiqarish tizimi;
- 4) pul muomalasini tartibga soluvchi davlat idoralari.

Pul muomalasi naqd va kredit pullar yordamida amalga oshiriladi.

Naqd pul muomalasiga bank biletleri va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qiladi. **Naqd pulsiz hisoblar** cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Ularning hammasi **pul agregati** deb yuritiladi. **Muomalada mavjud bo'lgan pul massasi** naqd va kredit pullarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Pul muomalasi o'ziga xos qonunlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Uning qonunlaridan eng muhimi muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va shunga muvofiq muomalaga pul chiqarishdir. Muomalani ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagi omillarga bog'liq:

- 1. Muayyan davrda (masalan, bir yil davomida) sotilishi va sotib olinishi lozim bo'lgan tovarlar summasi.** Tovarlar va xizmatlar qancha ko'p bo'lsa, ularning narxi qancha baland bo'lsa, ularni sotish va sotib olish uchun shuncha ko'p pul miqdori talab qilinadi.
- 2. Pul birligining aylanish tezligi.** Pul bir xil bo'lmagan tezlik bilan aylanadi. Bu ko'p omillarga, jumladan sotilayotgan tovarlar turiga, ularning xaridorgirligiga bog'liq bo'ladi. Pul qanchalik tez aylansa, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori shuncha kam bo'ladi.
- 3. Kreditning rivojlanganlik darajasi, puldan to'lov vositasi sifatida foydalanish.** Ko'pincha tovarlar qarzga (kreditga) sotiladi va ularning haqi kelishuvga muvofiq keyingi davrlarda to'lanadi. Demak, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori kredit miqdoriga muvofiq kamroq bo'ladi. Ikkinchi tomondan, bu davrda ilgari kreditga sotilgan tovarlar haqini to'lash vaqti boshlanadi. Bu pul miqdoriga ehtiyojni ko'paytiradi.

Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori pul muomalasi qonunini miqdoran ifodalaydi. Chunki muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoriga nisbatan muomalaga kam pul chiqarilsa, ko'pgina xo'jaliklarda pul yetishmasligi, normal holatda xo'jalik yuritib bo'lmay qolish holati yuz beradi. Yoki, aksincha, muomalada bo'lgan pul miqdori sotilayotgan tovarlar va xizmatlar summasiga nisbatan oshib ketishi va buning natijasida tovarlar bilan ta'minlanmagan pulning paydo bo'lishi uning qadrsizlanishi, ya'ni inflyasiyani bildiradi. Pul miqdoriga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olib, pul muomalasining quyidagi qonuniga ta'rif berish mumkin: boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda, muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori sotishga chiqariladigan tovarlar summasiga to'g'ri mutanosib, pulning aylanish tezligiga teskari mutanosibdir. Bunda sotishga chiqariladigan tovarlar summasi ishlab chiqarilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga va ularning narxiga bog'liq bo'ladi.

Albatta bunda narx haqida gap ketganda AQSh iqtisodchisi I.Fisher ko'rsatganidek hamma tovarlarning o'rtacha narxi olinmaydi. Chunki samolyot narxi bilan ruchka narxining o'rtachasini olib bo'lmaydi. Shuning uchun har bir turdagi tovarning bozor narxida sotilgan summalari yig'indisi olinadi. Ta'kidlash lozimki, pulning hamma tizimlari uchun pul muomalasi qonuni umumiy bo'lib, shu bilan birga oltin va qog'oz pul muomalasi qonunlarining o'ziga xos xususiyatlari va bir-biridan farqlari mavjud. Masalan,

1) oltin pul muomalada bo'lganda:

- a) ortiqcha oltin pul xazinaga jalb qilinib, zaxirada to'planib boradi, zarur bo'lganda muomalaga yoki har xil bezaklar uchun foydalanishga chiqariladi;

b) tovarlar hajmi ko'payib, muomala uchun qo'shimcha pul zarur bo'lganda xazinadagi oltin pullar muomalaga kiritiladi. Shu yo'l bilan muomala uchun zarur bo'lgan oltin pul miqdori o'z-o'zidan tartiblanadi.

2) Muomala uchun zarur bo'lgan oltin pul miqdori tovarlar qiymatining miqdoriga to'g'ri mutanosiblikda, oltinning o'z qiymatiga nisbatan esa teskari mutanosiblikda o'zgaradi:

a) oltin pul qiymati va tovarlar hajmi o'zgarmagan taqdirda tovarlar qiymati qancha past bo'lsa, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori ham shuncha kam bo'ladi. Agar tovarlar qiymati o'zgarmasa, pulning miqdori tovarlar hajmining ortishiga qarab unga mutanosib ravishda ko'payadi;

b) agar tovarlar hajmi va qiymati o'zgarmaydi, deb faraz qilsak, muomaladagi oltin pul miqdori oltinning o'z qiymatiga qarab o'zgaradi, ya'ni uning qiymati oshsa, pul miqdori kamayadi, qiymati pasaysa, pul miqdori ko'payadi.

Qog'oz pul muomalasi qonunlari oltin pul muomalasidan farq qilib, uni quyidagicha ifodalash mumkin:

- qog'oz pul qancha miqdorda chiqarilmasin, unda belgilangan qiymat miqdori muomala uchun zarur bo'lgan oltin pul miqdorining qiymatiga teng bo'ladi;
- qog'oz pulning har bir birligida belgilangan qiymat miqdori muomala uchun zarur bo'lgan oltin pul qiymatining muomalaga chiqarilgan qog'oz pul miqdori nisbatiga mos keladi.

Qog'oz pul tizimi amal qilib turgan davrdan buyon o'tgan real iqtisodiy hayot shuni ko'rsatadiki, oltin pul muomaladan chiqarilgan va qog'oz pullarning oltin pul bilan aloqasini yo'qotishga rasman urinilgan bo'lsada, uning nominal qiymat belgisi sifatidagi harakatida oltin pul bilan bo'lgan aloqasi hozirgacha ob'ektiv ravishda saqlanib qolgan. Faqat u modifikatsiyalashib, murakkablashib bormoqdaki, natijada uni mantiqiy mushohada qilish orqali tushunish ancha qiyinlashadi. Shuning uchun ham qog'oz pullar har bir davlatning maxsus qonuni bilan muomalaga chiqariladi. Bu qonunda pulning belgisi, birliklari, miqyoslari va chet el valyutalari bilan rasmiy almashuv tartibi o'rnatiladi. Ammo uning qiymat belgisi sifatida qancha qiymatga ega ekanligini hech qanday davlat qonuni bilan o'rnatib bo'lmaydi, u faqat ob'ektiv iqtisodiy qonun – pul muomalasi qonuni asosida o'rnatiladi va amal qiladi.

Milliy iqtisodiyotda davlatning, tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassasalarning majburiyatlari pul sifatida foydalanadi. Pul operatsiyalarining asosiy ko'pchilik qismi naqd pulsiz, cheklar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli muomalada bo'lgan pul miqdorini hisoblash uchun **M1 ...Mn pul agregatlari yoki tarkibiy qismi** tushunchasidan foydalaniladi.

Barcha pul agregatlari yig'indisi yalpi pul massasi yoki yalpi pul taklifini tashkil qiladi.

M0 – muomaladagi naqd (qog'oz va metall) pullar.

M1 = M0 + aholining joriy hisob varaqalaridagi pul qoldiqlari, korxonalarining hisob varaqalaridagi pul mablag'lari, banklardagi talab qilib olish mumkin bo'lgan pul omonatlari.

M2 = M1 + tijorat banklaridagi muddatli omonatlar va jamg'arma hisob varaqalaridagi pullar, ixtisoslashtirilgan moliyaviy muassasalardagi depozitlar va boshqa aktivlar. Mazkur agregat tarkibiga kiruvchi pul mablag'larini bevosita bir shaxsdan boshqa biriga o'tkazish hamda ayirboshlash bitimlarida foydalanish mumkin emas. Ular asosan jamg'arish vositasi vazifasini bajaradilar.

M3 = M2 + bank sertifikatlari + aniq maqsadli zayom obligatsiyalari + davlat zayom obligatsiyalari + xazina majburiyatlarl.

Bundan ko'rinadiki, pul massasining har bir alohida agregati o'zining likvidligi darajasiga ko'ra farqlanadi.

Likvidlik – bu turli aktivlarning o'z qiymatini yo'qotmasdan (ya'ni eng kam xarajatlar asosida) tezlik bilan naqd pulga aylana olish qobiliyatidir. Pullar (metall tanga va qog'oz pullar) eng yuqori likvidlikka ega bo'ladi. Mijoz o'zi istagan vaqtda olishi mumkin bo'lgan bank hisob varaqalaridagi pul omonatlari ham likvidli hisoblanadi. Pul massasi tarkibiga to'lov vositasi vazifasini bajarish layoqati pastroq bo'lgan aktivlar qo'shilib borishi bilan, ularning likvidlik darajasi ham pasayib boradi.

Pul bozori – bu mamlakatdagi pul miqdori hamda foiz stavkasining turli darajalarida pul mablag'lariga bo'lgan talab va pul taklifining o'zaro nisbatini ifodalovchi mexanizm.

Pul taklifi asosan Markaziy bank tomonidan tartibga solinsada, u iqtisodiyotdagi barcha taklifni qamrab ololmaydi.

Tijorat banklari o'z ixtiyorlarida bo'lgan aktivlari hisobiga yangi pullarni hosil qilishlari, ya'ni ularni bank krediti sifatida mijozlariga berishlari mumkin. To'g'ri, ularning bu faoliyatlari Markaziy bank tomonidan o'rnatiluvchi majburiy zahira me'yorlari orqali cheklanadi. YA'ni, tijorat banki o'zining joriy xarajatlarini qoplashi hamda mijozlar tomonidan kreditlar qaytarilmasligi xavfining oldini olish maqsadida ma'lum miqdordagi pul mablag'larini zahira sifatida saqlashi lozim. Aktivlarning qolgan qismi esa muomalaga chiqarilib, u ma'lum muddatdan so'ng yana bankka qaytishi hamda, majburiy zahira me'yoridan ortiqcha qismi yana muomalaga chiqarilishi mumkin. To'xtovsiz ravishda takrorlanuvchi bu jarayon pul taklifi multiplikatori yoki bank multiplikatori deyiladi.

Pul taklifi multiplikatori – bu bankdagi pul depozitlari qo'shimcha ravishda o'sgan hajmining majburiy zahiralari qo'shimcha hajmiga nisbati bo'lib, pul

mablag'larining bir birlikka ko'payishi iqtisodiyotdagi pul taklifining qanchaga o'sishini ko'rsatadi: bu yerda: $\frac{M}{R}$ yoki $\frac{1}{r}$

m – pul taklifi multiplikatori koeffitsienti;

M_s - bankdagi pul depozitlarining qo'shimcha ravishda o'sgan hajmi; R - majburiy zahiralalar qo'shimcha hajmi;

r – majburiy zahiraning foizdagi me'yori.

8.2. Pul bozori. Pul muomalasining buzilishi, uning sabablari va oqibatlari. Pul chiqarish (emissiya).

Pul muomalasi qonunlari buzilishi bilan bog'liq holda qog'oz pullarning qadrsizlanishiga **inflyasiya** deb aytiladi.

Qog'oz pullar inflyasiyaga uchraganda uch xil narsaga nisbatan qadrsizlanadi:

- 1) oltinga nisbatan – bu oltinning qog'oz pullarda bozor narxining oshishida o'z ifodasini topadi;
- 2) tovarlarga nisbatan – bu tovarlar narxining oshishida o'z ifodasini topadi;
- 3) bardoshli chet el valyutalariga nisbatan – bu chet el valyutalariga nisbatan milliy pul kursining tushib ketishida o'z ifodasini topadi.

Inflyasiya narx indeksi yordamida bazis davrga nisbatan o'lchanadi. **Narxlar indeksi** esa joriy davrdagi iste'mol narxlarini bazis davrdagi iste'mol narxlariga nisbati orqali aniqlanadi:

$$NI = \frac{TN_j}{TN_b} \times 100\%, \text{bu yerda:}$$

NI – narxlar indeksi;

TN_j – joriy davrdagi iste'mol tovarlari narxi; TN_b - bazis davrdagi iste'mol tovarlari narxi.

Narxlar o'zgarishini hisobga olish qamroviga ko'ra narxlar indeksining quyidagi turlarini hisoblash mumkin:

- iste'mol narxlari indeksi- ulgurji narxlar indeksi;
- narxlar indeksi – YAIM deflyatori;
- eksport va import narxlar indeksi.

Narxlar indeksidan foydalangan holda **inflyasiya sur'atini (IS)** quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$IS = \frac{TN_j - TN_b}{TN_b} \times 100\%$$

EMISSIYA (lot. — chiqarmoq, ishlab chiqarmoq) — muomalaga bank biletleri, barcha shakllardagi pul belgilari va qimmatli qog'ozlar chiqarish. Pul E. sini davlatning markaziy (emissiya) banklari amalga oshiradi. Pul Emissiyasi pul belgilarini bosib chiqarishnigina emas, muomaladagi naqd va naqd bo'lmagan pul massasining ko'payishini ham bildiradi. Qimmatli qog'ozlarni davlat, banklar, aksiyadorlik jamiyatlari chiqaradi. Muomalaga pul va qimmatli qog'ozlar chiqargan har qanday organ yoki tashkilot (davlat banki, moliyakredit muassasasi, korxonalar, kompaniya) emitent deb nomlanadi.

Pul muomalasini to'g'ri tashkil qilish va uni samarali boshqarish uchun aholi qo'lida talabdan ortiqcha pul bo'lmasligini (u nimalarga olib keladi, hammaga ma'lum) ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori (hajmi) hisoblaniladi. Bu muammoni bir qancha metodlar yordamida yechish mumkin. Zarur bo'lgan pul hajmini (P) tovar oboroti hajmini pul birligini aylanish tezligiga nisbati bilan aniqlash mumkin, ya'ni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$P = v \cdot q \cdot p$$

bu yerda $M = p \cdot q \cdot v$ = bu yerda: q – sotiladigan tovarlar massasi; p – tovarlarni o'rtacha bahosi; v – pul birligini aylanish tezligi (martada).

Pulning qadrliligi ekanligi yoki qadrsizlanayotganini quyidagi tenglamalar orqali aniqlash mumkin:

$P \times V = q \times p$ bo'lsa yaxshi, agarda $P \times V > q \times p$ bo'lsa pul qadrsizlanayotgan boshlaydi (teskarisi ham bo'lish mumkin).

Zarur bo'lgan pul massasi xajmini bashoratlash metodlari yordamida ham amalga oshirish mumkin. Prognozlar pulga bo'lgan talab va taklif qilinadigan pul bo'yicha tuziladi. Buning o'zi esa pul muomalasini rivojlanishining barqarorligidan dalolat beradi. Taklif qilinadigan pul bo'yicha prognozlash asosida pul bazasi ko'rsatkichi yotadi. Bu ko'rsatkich aniq bo'lsa muomaladagi pul massasini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin.

$$M1 = PM \times N, M2 = PM + N$$

Yuqorida keltirilganlardan shunday xulosa kelib chiqadi: taklif qilinadigan pul hajmiga quyidagi omillar, ya'ni: pul bazasining o'zgarishi; naqd pul va talab qilinganda beriladigan qo'yilmalarining o'zaro nisbati; muddatli qo'yilmalar va talab qilinganda beriladigan qo'yilmalarning o'zaro nisbati; pul zaxirasi normativlarining o'zgarishi (nv, ng, nu) ta'sir qiladi.

Respublikada milliy valyutani mustahkamlash ishida so'mning xarid quvvatini oshirib borish va uning barqarorligini ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi. Bunga bozorni raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirish va zarur ehtiyoqlar hosil qilish orqali erishiladi. Bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirishda milliy ishlab chiqarishni imkoni boricha kengaytirib, mahsulot sifatini yaxshilab borish, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki shu orqali iste'mol mollari sotishning umumiy hajmida milliy mahsulotlar hissasi oshirib boriladi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, milliy ishlab chiqarishni

kengaytirish orqali so‘mning barqarorligini ta‘minlash chetdan mahsulot keltirishni inkor qilmaydi. Aholini sifatli chet el mollari bilan ta‘minlash maqsadida import ham rag‘batlantirib boriladi. So‘mning barqaror amal qilishi, uning har qanday valyutaga erkin almashtirilishi yetarli **valyuta zaxirasi** bo‘lishiga bog‘liq. Unga erishishda korxonalar va barcha sub‘ektlarning, jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishi uchun zarur bo‘lgan rag‘batlantiruvchi omillarni vujudga keltirish alohida ahamiyatga ega. Jumladan, keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida ro‘y berayotgan jiddiy tarkibiy o‘zgarishlar bu borada qulay imkoniyatlarni vujudga keltirmoqda. So‘mning barqarorligini ta‘minlashda undan **ehtiyotkorona va tejab tergab foydalanish, ishlab chiqarishga sarflangan mablag‘larning eng ko‘p samara berishiga, olingan kreditlarning o‘z vaqtida qaytarilishiga erishish** muhim o‘rin tutadi. So‘mning barqarorligini ta‘minlashda **naqd pul emissiyasining o‘shishiga, aholi qo‘lida pulning harakatsiz turib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik** birinchi darajali ahamiyatga ega. Bunda muomalaga chiqarilgan pul miqdorining o‘z vaqtida qaytarilishiga erishish, mahsulot ishlab chiqarishning o‘shishi ta‘minlamagan korxonalariga kreditlar berilishiga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rilishi kerak. Inflyatsiyani pasaytiruvchi qudratli omil **milliy valyuta almashuv kursining barqarorlashuviga erishishdir**. Bu o‘z navbatida import narxlarining barqarorlashuviga olib keladiki, natijada ichki bozordagi narxlar o‘zgaradi.

Valyuta birjalarida valyuta operatsiyalarining barcha turlari uchun talab va taklif natijasida shakllanadigan yagona almashuv kursini belgilash, valyuta kursi barqarorligiga erishishning dastlabki shartidir.

Milliy valyuta kursi barqarorligini ta‘minlashning navbatidagi sharti dastlabki bosqichda valyutani nakd pulsiz almashtirish hajmini ko‘paytirishga ustunlik berishidir. Shunday qilib, yuqorida qarab chiqilgan chora va tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi milliy valyutamiz almashuv kursining barqarorlashuviga, uning xarid qilish quvvatining oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. **2021 yil 1 oktyabr holatiga muomaladagi bank plastik kartalari 25 207 659 tani tashkil etadi.**

8.1.-Jadval

№	Tijorat banklari	Muomaladagi bank kartalari soni
1	Milliy bank	2 753 627
2	O‘zsanoatqurilishbanki	1 526 251
3	Agrobank	3 354 032
4	Mikrokreditbank	889 296
5	Xalq banki	4 780 854
6	Savdogar bank	215 829
7	Qishloq Qurilish bank	694 159

8	Turonbank	536 842
9	Hamkorbank	1 085 748
10	Asaka bank	1 086 731
11	Ipak Yo'li banki	1 379 960
12	Ziraat Bank Uzbekistan	62 272
13	Trastbank	248 605
14	Aloqabank	1 019 350
15	Ipoteka-bank	2 699 239
16	KDB Bank O'zbekiston	56 355
17	Turkistonbank	31 581
18	Soderot bank Toshkent	1 159
19	Universalbank	184 306
20	Kapitalbank	532 985
21	Ravnaq-bank	503 545
22	Davr-bank	208 972
23	Invest Finance bank	418 037
24	Asia Alliance bank	247 850
25	Hi-Tech bank	26 161
26	Orient Finans bank	419 750
27	Madad Invest bank	9 608
28	O'zagroeksportbank	1 218
29	Poytaxt bank	13 143
30	Tenge bank	12 823
31	TBC bank	164 476
32	Anor bank	42 895
Jami		25 207 659

Nazorat savollari:

- 1) Pul muomalasi va unga amal qilish qonuniyatlari.
- 2) Pul aylanish qoidasi va pul miqdorini (massasini) tartibga solish.
- 3) Pulga bo'lgan talab va pul taklifi. Pul bozori.
- 4) Pul muomalasining buzilishi, uning sabablari va oqibatlari. Pul chiqarish (emissiya).

9.1.- Qimmatli qog'ozlar va ularning turlari, qimmatli qog'ozlar bozori.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish yirik hajmdagi investisiyalarni talab etadi. Ushbu jarayonda moliya bozorlari, xususan, qimmatli qog'ozlar bozori muhim rol o'ynaydi. Qimmatli qog'ozlar bozorining taraqqiy etish darajasi mamlakat moliya bozori rivojlanishini belgilab beruvchi muhim bo'g'inlardan biridir. Tizim rivojida uning tarkibidagi savdo tuzilmalarining kapitallashuv darajasi, aylanma hajmi yuqoriligi, qimmatli qog'ozlarning daromadlilik darajasi hamda muomaladagi instrumentlar likvidligi asosiy ahamiyatga ega. Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi va xalqaro integratsiyalashuvi mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investisiyalarni jalb qilishga ko'maklashuvchi muhim omildir. Shu bois ham, iqtisodiyoti taraqqiy etgan barcha mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozori rivojiga alohida e'tibor qaratiladi.

Qimmatli qog'ozlar — bu ularni chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki zayom munosabatlarini tasdiqlovchi, dividend yoki foizlar ko'rinishida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi pul hujjatlaridir. Qimmatli qog'ozlar — blankalar, sertifikatlar shaklida yoki schyotlardagi yozuv shaklida bo'lishi va hisob-kitob qilishda, shuningdek kreditlar bo'yicha garov sifatida foydalanilishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida ixtiyoriylik asosida tarqatiladi.

Ushbu Qonun qimmatli qog'ozlarning quyidagi turlariga amal qiladi:

aksiyalar;

obligatsiyalar;

xazina majburiyatlari;

depozit sertifikatlari;

qimmatli qog'ozlarning hosilalari;

veksellar.

Aksiyalar, obligatsiyalar, xazina majburiyatlari va qimmatli qog'ozlar hosilalarining rekvizitlari - O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi tomonidan, depozit sertifikatlari va veksellarning rekvizitlari esa, - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi. Qimmatli qog'ozlar egasi yozilgan va taqdim etuvchiga tegishli bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar, basharti mulkiy huquqlarni ularga egalik qilish bilan bog'liq holda ro'yobga chiqarish uchun emitent (qimmatli qog'ozni chiqaruvchi) tomonidan yoki uning topshirig'iga binoan qimmatli qog'ozlar borasida kasb faoliyatini amalga oshirayotgan tashkilot tomonidan egasining nomini qayd etish zarur bo'lsagina, egasi yozilgan bo'ladi. Egasi yozilgan qimmatli qog'ozni bir mulkdordan ikkinchisiga berish hisob-kitobdagi tegishli yozuvlarni o'zgartirishda aks etadi.

Qimmatli qog'ozlar, basharti mulkiy huquqlarni ularga egalik qilish bilan bog'liq holda ro'yobga chiqarish uchun qimmatli qog'ozni taqdim etishning o'zi yetarli bo'lsa, taqdim etuvchiga tegishli hujjatlar deb hisoblanadi. Taqdim etuvchiga tegishli qimmatli qog'ozlar erkin muomalada bo'ladi.

Aksiyalar — aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga yuridik yoki jismoniy shaxs muayyan hissa qo'shganidan guvohlik beruvchi, aksiya egasining mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini tasdiqlovchi hamda unga dividend olish va, qoida tariqasida, ushbu jamiyatni boshqarishda qatnashish huquqini beruvchi, amal qilish muddati belgilanmagan qimmatli qog'ozlardir.

Aksiyalar chiqarish to'g'risidagi qaror aksiyadorlik jamiyati muassislari tomonidan yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Sotib olingan aksiya uni chiqargan aksiyadorlik jamiyatiga, basharti bu narsa jamiyat ustavida nazarda tutilmagan bo'lsa, sotilishi mumkin emas.

Davlat korxonasi ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilganda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi emissiya risolasini tasdiqlashi aksiyalar chiqarish to'g'risidagi qaror hisoblanadi.

Obligatsiyalar ularning egasi pul mablag'lari berganligini tasdiq etuvchi vaqimmatli qog'ozlarning belgilangan qiymatini ularda ko'rsatilgan muddatda, qayd etilgan foiz to'langan holda, basharti obligatsiyalarni chiqarish shartlarida o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozlardir.

Quyidagi turlardagi obligatsiyalar chiqariladi:

- respublika ichki zayomlarining va mahalliy zayomlarning obligatsiyalari;
- obligatsiyalar oddiy va yutuqli, foizli va foizsiz (maqsadli), erkin muomalada yuritiladigan yoki muomala doirasi cheklangan qilib chiqarilishi mumkin.

Maqsadli obligatsiyalarning rekviziti obligatsiyalar qaysi mollar (xizmatlar) uchun chiqarilgan bo'lsa, shu mollarni (xizmatlarni) aks ettirishi shart.

Respublika ichki zayomlarining va mahalliy zayomlarning obligatsiyalari taqdim etuvchiga tegishli qilib chiqariladi. Respublika ichki zayomlarining va mahalliy zayomlarning obligatsiyalarini chiqarish to'g'risidagi qaror tegishincha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan qabul qilinadi. Qarorda emitent, obligatsiyalarni chiqarish shartlari va ularni tarqatish tartibi belgilab qo'yilishi lozim.

Korporativ obligatsiyalarni faqat ochiq aksiyadorlik jamiyatlari:

- auditorlik tashkilotining xulosasi bilan tasdiqlangan o'z kapitalining obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadagi miqdori doirasida;
- keyingi uch yil mobaynida rentabellik, to'lov qobiliyati, moliyaviy barqarorlik va likvidlikning auditorlik tashkiloti xulosalari bilan tasdiqlangan ijobiy ko'rsatkichlariga ega bo'lsa, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mustaqil reyting bahosini olgan bo'lsa;

-investorlarga tegishli mablag'larning emitentlar tomonidan to'lanishi bo'yicha to'lov agentlari vazifalarini bajaruvchi tijorat banklari ishtirokida chiqarishi mumkin.

Korporativ obligatsiyalar o'z egalariga ochiq aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda qatnashish huquqini bermaydi. Korporativ obligatsiyalar chiqarish to'g'risidagi qaror ochiq aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv organi tomonidan ushbu Qonunga va jamiyat ustaviga muvofiq qabul qilinadi hamda bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Korporativ obligatsiyalarni emitentlarning ustav fondini shakllantirish va to'ldirish uchun, shuningdek emitentlarning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnini qoplash uchun chiqarishga yo'l qo'yilmaydi.

Korporativ obligatsiyalar chiqarishga faqat ochiq aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi to'liq to'langanidan keyin yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasining xazina majburiyatlari — ularning egalari byudjetga pul mablag'lari berganliklarini tasdiqlovchi hamda bu qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati davomida qayd etilgan daromadni olish huquqini beruvchi, taqdim etuvchiga tegishli qimmatli qog'ozlar turidir.

Xazina majburiyatlarining quyidagi turlari chiqariladi:

uzoq muddatli — besh yil va undan ko'proq muddatga mo'ljallangan xazina majburiyatlari;

o'rtacha muddatli — bir yildan besh yilgacha muddatga mo'ljallangan xazina majburiyatlari;

qisqa muddatli — bir yilgacha bo'lgan muddatga mo'ljallangan xazina majburiyatlari.

Uzoq muddatli va o'rtacha muddatli xazina majburiyatlarini chiqarish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi. Qisqa muddatli xazina majburiyatlarini chiqarish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi. Xazina majburiyatlarini chiqarish to'g'risidagi qarorlarda daromadlarni hamda majburiyat qarzlarini to'lash shartlari belgilab qo'yiladi.

Depozit sertifikatlari — bu pul mablag'lari — omonat qo'yilgani to'g'risidagi, omonatchi yoki uning huquqiy vorisining belgilangan muddat tugaganidan keyin omonat summasini va unga tegishli foizlarini olishga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi bank — emitent guvohnomasidir.

Depozit sertifikatlarini chiqarish va ro'yxatdan o'tkazish qoidalarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilaydi. Veksel beruvchining yoxud vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lash yuzasidan qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz veksel hisoblanadi.

Veksellar oddiy va yuboriladigan veksellarga bo'linadi.

Veksel beruvchining muayyan summadagi pulni veksel oluvchiga yoxud uning buyrug'iga binoan belgilangan muddatda yoki uning talabiga ko'ra to'lashdan iborat qat'iy majburiyatini o'z ichiga olgan hujjat oddiy veksel hisoblanadi.

Veksel oluvchining muayyan summadagi pulni oluvchiga yoxud uning buyrug'iga binoan boshqa shaxsga belgilangan muddatda yoki uning talabiga ko'ra to'lash to'g'risidagi qat'iy buyrug'idan iborat to'lovchiga qaratilgan hujjat yuboriladigan veksel hisoblanadi. Bunda to'lovchi veksel bo'yicha belgilangan muddatda to'lovlarni amalga oshirishga (akseptni bajarishga) roziligini yozma ravishda tasdiqlashi shart.

Veksellarni (xazina veksellaridan tashqari) chiqarish, ro'yxatdan o'tkazish qoidalari, ularni chiqarish va muomalada yuritish shartlarini Markaziy bank, Moliya vazirligi bilan birgalikda belgilaydi. Xazina veksellarini chiqarish va muomalada yuritish qoidalarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilaydi.

Veksel oluvchining soliqlar bo'yicha va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha byudjetdan qarzi mavjud bo'lsa, u faqat pul mablag'larini olish tarzida vekselning haqini to'lashga kirishadi va byudjet bilan hisob-kitob qilib bo'lgach, qolgan summani boshqa hisob-kitoblarga sarflashi mumkin. Qimmatli qog'ozlarning hosilalari — daromadi (zarari) bir yoki bir necha bozor ko'rsatkichlari (indekslari) mazmuniga bog'liq bo'lgan qimmatli qog'ozlardir.

Qimmatli qog'ozlarning hosilalari opsionlar, fyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqarilishi mumkin.

Opsion — shartnoma bo'lib, uning egasiga qimmatli qog'ozlarni yoki tovarlarni bitimda qayd etilgan narxda belgilangan muddatda xarid qilish huquqini beradi.

Fyuchers — qimmatli qog'oz (shartnoma) bo'lib, muayyan qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalarni yoki tovarlarni shartnomada belgilab qo'yilgan narxda belgilangan kelgusi sanada xarid qilish yoki sotishdan iborat so'zsiz majburiyatni tasdiqlaydi.

Qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish va ularni muomalada yuritish tartibini O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi belgilaydi.

Veksellarga nisbatan quyidagi maxsus da'vo muddatlari qo'llaniladi: veksel saqlovchining indossantlarga qarshi va veksel beruvchiga qarshida'vo talablari bo'yicha — belgilangan muddatda amalga oshirilgan protest kundan boshlab yoki xarajatsiz aylantirish oldindan shart qilib qo'yilgan bo'lsa, to'lov muddati kundan boshlab bir yil; indossantlarning bir-biriga va veksel beruvchiga da'vo talablari bo'yicha — indossant vekselni to'lagan kundan boshlab yoki unga da'vo taqdim etilgan kundan boshlab olti oy.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi yoki uning hududiy organlari davlat korxonalarini qayta tuzish orqali tashkil etilgan ochiq

turdagi aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining birlamchi chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazadilar, shuningdek aksiyalarning belgilangan tartibda joylashtirilishini ta'minlaydilar.

(9-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2005 yil 19 dekabrda O'RQ-14-son Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2005 y., 51-son, 374-modda)

Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda belgilangan tartibda ro'yxat raqamini olgan qimmatli qog'ozlarnigina O'zbekiston Respublikasi hududida chiqarilishiga va muomalada bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan qimmatli qog'ozlarni chiqarish g'ayriqonuniy hisoblanadi va bu hol egasidan ularning hamda mazkur qimmatli qog'ozlarni sotishdan tushgan pulning olib qo'yilishiga va boy berilgan naf qoplanishini hisobga olgan holda investorlarga qaytarib berilishiga sabab bo'ladi. Bir yoki o'zaro shartnomalar bilan bog'langan bir necha shaxslar, shuningdek sho'ba yoki bir-biriga qaram bo'lgan yuridik shaxslar guruhi bank aksiyalarining yigirma foizidan ortig'ini sotib olishi uchun oldindan Markaziy bankning roziligini olish talab qilinadi.

Aksiya sotib oluvchilarning moliyaviy ahvoli qoniqarsizligi aniqlangan taqdirda, Markaziy bank bank aksiyalarining yigirma foizidan ortig'i xarid qilinishi va sotilishiga rozilik bermaslik huquqiga ega. Markaziy bank, iltimosnoma olingan kundan boshlab, o'ttiz kundan kechiktirmay, ariza beruvchiga o'z qarori to'g'risida yozma ravishda xabar beradi.

Shaxs, bir guruh shaxslar tomonidan aksiyalarning aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalida ovoz berish huquqi bilan sotib olinishi, bunda ana shu shaxs, bir guruh shaxslar mazkur aksiyalarning o'ttiz besh foizdan ko'prog'ini tasarruf etish huquqini oladigan bo'lsa, monopoliyaga qarshi davlat organining oldindan roziligini olish talab etiladi. Bunday talab aksiyadorlik jamiyatini tuzish vaqtida aksiyadorlik jamiyati muassislariga tatbiq etilmaydi, moliya-sanoat guruhlari, xolding kompaniyalarni tashkil etish hollari bundan mustasno. Qimmatli qog'ozlarning egalari saqlab turish maqsadida ularni pul o'tkazish yo'li bilan hisobga olish va sotish uchun kompyuterli telekommunikatsion tizimi bor ixtisoslashgan muassasalarga (depozitariylarga) ishonib qo'yishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi respublika sarhadlaridan tashqaridagi emitentlar chiqargan qimmatli qog'ozlarni O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga kirishning umumiy qoidalari, har yilgi me'yorlari va tartibini belgilab qo'yadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomalar bo'yicha majburiyatlarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasining huquqiy tasarrufidagi emitentlar tomonidan chiqarilgan yoki chiqarilishi mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarni O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida muomalaga chiqarishning har yilgi me'yorlari va ruxsat tartibini belgilab qo'yishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi respublikada ro'yxatga olingan qimmatli qog'ozlar Yagona davlat reestrini yuritadi hamda ularning ro'yxatini muntazam e'lon qilib boradi.

Qimmatli qog'ozlar emissiyasi ularni dastlabki egalar (investorlar) — yuridik va jismoniy shaxslarga sotish yo'li bilan qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarishdir.

Emissiya:

-aksiyadorlik jamiyati ta'sis etilib, aksiyalar uning muassislari o'rtasida tarqatilgan taqdirda;

-aksiyadorlik jamiyatining dastlabki ustav sarmoyasi (fondi) miqdori aksiyalar chiqarish yo'li bilan ko'paytirilgan taqdirda;

-yuridik shaxslar, davlat tomonidan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan zayom sarmoyasi obligatsiyalar va boshqa qarz majburiyatlari chiqarish yo'li bilan jalb etilgan taqdirda;

-korxonalarining qarz majburiyatlari o'zaro umum respublika ko'lamida to'langan taqdirda amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar muomalasi deganda ularni sotib olish va sotish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan, qimmatli qog'ozlar egasi almashinuviga olib keladigan boshqa harakatlar tushuniladi. zbekiston Respublikasi hududida qimmatli qog'ozlarni (depozit sertifikatlari va veksellardan tashqari) muomalaga chiqarish hamda ularni ro'yxatdan o'tkazish qoidalarini O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi tasdiqlaydi. Qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi emitent, shuningdek u bilan kelishib turib qimmatli qog'ozlarni dastlabki egalariga sotuvchi investisiya muassasalari har bir xaridorga mazkur qog'ozlarni xarid etish paytiga qadar sotish shartlari va emissiya risolasi bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashlari shart. Emissiya risolasi emitent to'g'risidagi, sotishga havola etilayotgan qimmatli qog'ozlar haqidagi, qimmatli qog'ozlarni chiqarish taomili va tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda xaridorning mazkur qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki bunday xariddan voz kechishga qaror qilishiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan boshqa xil axborotlarni aks ettiradi. missiya risolasini chiqarish, uni ro'yxatga olish tartibini, shuningdek emissiya risolasida e'lon qilinishi shart bo'lgan ma'lumotlar ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi belgilaydi. Banklar uchun ularning emissiya risolalarida ko'rsatilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilgan holda belgilaydi. Davlat korxonalari ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga

aylantirilganda emissiya risolasini tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Ochiq yozilish uchun havola etilayotgan qimmatli qog'ozlarning emissiya risolasini emitent O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markaziga taqdim etadi va u ro'yxatga olinganidan so'ng, mazkur qimmatli qog'ozlarga yozilish boshlanishidan kamida o'n kun oldin matbuotda, shuningdek fond birjasining maxsus nashrida albatta e'lon qilinishi kerak. Ochiq sotuvga havola etilayotgan aksiyalarni, korporativ obligatsiyalarni chiqarishga oid axborotlarda biron bir o'zgarishlar yuzaga kelgan hollarda qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi emitent sodir bo'lgan o'zgarishlar to'g'risidagi xabarni mazkur qimmatli qog'ozlarga yozilish boshlangunga qadar e'lon qilinadi.

Aksiyalar, korporativ obligatsiyalarni chiqarishga oid e'lon qilingan axborotdagi ma'lumotlar noto'g'riligi aniqlangan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bu qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi emitent mazkur axborotga tegishli o'zgartishlar kiritmaguniga qadar ularning tarqatilishini to'xtatib turish huquqiga ega.

Emissiyani ro'yxatga olish uchun taqdim etiladigan emissiya risolasidagi ma'lumotlarning to'g'riligi yuzasidan javobgarlik emitentning zimmasida bo'ladi. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi emissiya risolalari ro'yxatga olinmagunga qadar qimmatli qog'ozlarni ommaviy axborot vositalarida reklama qilish taqiqlanadi.

Emitent o'zining moliya-xo'jalik ahvoli va faoliyatining natijalari to'g'risida jamoatchilikka har yili kamida bir marta axborot berishi (matnda bundan keyin yillik hisobot deb yuritiladi) shart. Yillik hisobot hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldan kechikmay e'lon qilinadi hamda egasi yozilgan aksiyadorlarga va O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markaziga yuboriladi.

Yillik hisobotda emitent to'g'risida quyidagi ma'lumotlar keltirilishi lozim:

- uning oldingi yilgi xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risidagi axborot;
- moliyaviy ahvol to'g'risidagi auditor tasdiqlagan ma'lumotlar, shuningdek oldingi yilgi balanslar va auditorlar hisoboti;
- qo'shimcha chiqarilgan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar; mansabdor shaxslar shaxsiy tarkibidagi o'zgartishlarga doir asoslar.

Emitent o'z xo'jalik faoliyatida sodir bo'lgan hamda qimmatli qog'ozlarning qiymatiga yoki ular yuzasidan olinadigan daromadlar miqdoriga ta'sir etuvchi o'zgarishlar, xususan:

- qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlar o'zgartirishligi;
- mansabdor shaxslar shaxsiy tarkibida o'zgarishlar ro'y berganligi;

- emitent bankdagi schyotlar xatlanganligi;
- sog'lomlashtirish (emitentning moliyaviy holatini sog'lomlashtirishga qaratilgan tadbirlar majmuini amalga oshirish) harakatlari boshlanganligi;
- emitent faoliyati qayta tashkil etilganligi, to'xtatib qo'yilganligi yoki tugatilganligi;
- favqulodda holatlar oqibatida emitent mol-mulkinging kamida 10 foizi nobud bo'lganligi;
- emitent mol-mulkinging 10 foizidan ortiq miqdorda emitentga nisbatan da'vo qo'zg'atilganligi;
- ustav fondi yoki emitent asosiy va muomaladagi mablag'lari qiymatining 50 foizidan ortiq miqdorida qarz olinganligi yoki qimmatli qog'ozlar emissiya qilinganligi to'g'risidagi axborotlarni ikki kun ichida O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markaziga yuborishi, shuningdek mazkur o'zgarishlarga oid axborotlarni e'lon qilishi shart.

Basharti emitent aksiyalari fond birjasida muomalada yursa, u mazkur axborotlarni birjaga ko'rsatilgan muddatda taqdim etishi shart.

Emitent o'zi haqida qimmatli qog'ozlar qiymatiga yoki ular yuzasidan olinadigan daromad miqdoriga ta'sir etishi mumkin bo'lgan noto'g'ri ma'lumotlar e'lon qilingan taqdirda besh ish kuni mobaynida bu ma'lumotlarni tuzatish choralari ko'rishi shart.

Qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish (emissiya) quyidagi ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- ommaviy e'lon bermay, reklama kampaniyasi o'tkazmay, emissiya risolasini e'lon qilmay va ro'yxatdan o'tkazmay oldindan ma'lum cheklangan miqdordagi investorlar orasida xususiy yo'sinda tarqatish;

- emissiya risolasini e'lon qilib va ro'yxatdan o'tkazib, cheklanmagan miqdordagi investorlar orasida ochiq savdo o'tkazish.

Yuqorida aytib o'tilgan hollarning har birida O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi emissiyalarning eng kam va eng ko'p miqdorlarini belgilab beradi.

Qimmatli qog'ozlar emissiya risolasini ro'yxatdan o'tkazish chog'ida emitent emissiya nominal qiymatining 0,1 foizi miqdorida respublika byudjetiga yig'im to'laydi.

Davlat korxonalari aksiyadorlar jamiyatlariga aylantirilganida birlamchi emissiya risolasini ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'im olinmaydi.

Emitentlar o'zi chiqargan qimmatli qog'ozlarni mustaqil ravishda, komission haq evaziga banklar, investisiya kompaniyalari, moliya brokerlari orqali sotish huquqiga ega.

Investisiya kompaniyalari emitent bilan kelishib turib qimmatli qog'ozlarni quyidagi shartlar asosida chiqarishga kafil va tashkilotchi bo'lishlari mumkin:

-keyinchalik boshqa investorlarga sotib yuborish maqsadida barcha chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni qayd etilgan bahosida o'z hisoblaridan sotib olishlari;

-chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning belgilangan muddat davomida chet investorlar o'rtasida joylashtirilmay qolgan qismlarini o'z hisoblaridan sotib olishlari.

Investisiya kompaniyalari va moliya brokerlari tarqatilmay qolgan qismlarini sotib olish majburiyatini zimmlariga olmay turib qimmatli qog'ozlarni emitent nomidan chet investorlarga sotish to'g'risida emitent distribyuter shartnomalari tuzishlari mumkin.

Qimmatli qog'ozlarning emitentlari, investorlar, investisiya institutlari, shuningdek ularning birlashmalari (uyushmalari), fond birjalari (birjalarning fond bo'limlari), qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish va muvofiqlashtirish bo'yicha davlat tomonidan vakolat berilgan organlar va boshqalar) qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilari hisoblanadilar.

Qimmatli qog'ozlar emitenti — qimmatli qog'ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog'ozlarning egalari oldida o'z nomidan majburiyatli bo'lgan yuridik shaxs yoki davlat organidir.

Investor — qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'z hisobidan sotib oluvchi jismoniy yoki yuridik shaxsdir. Chet el fuqarolari va yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi qimmatli qog'ozlar bozorida investorlar sifatida ishtirok etishlari mumkin.

Investisiya muassasasi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yuzaga keltirilgan yuridik shaxs bo'lib, u qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq faoliyatini asosiy faoliyati tariqasida amalga oshiradi.

Fond birjasi — qimmatli qog'ozlar bir maromda muomalada bo'lishining zarur shart-sharoitini ta'minlash, ularning bozor bahosini (qimmatli qog'ozlar talab va taklifi o'rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi narxlarni) belgilash va ularga doir ma'lumotlarni keragicha tarqatish, qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarining kasb mahoratini yuqori darajada saqlab borish faoliyatining alohida sohasi bo'lgan tashkilotdir.

Fond birjasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, birja ustaviga hamda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq yumushlarni amalga oshirishning ichki qoidalariga amal qiladi.

Fond birjasi (mol-fond birjasining yoki valyuta birjasining fond bo'limi) O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkaziladi va u qimmatli qog'ozlarga doir birja faoliyati yuritish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasidan lisenziya oladi. Qimmatli qog'ozlarga doir

birja faoliyati yuritish uchun lisenziya olmagan tashkilot bunday faoliyat yuritishga haqli emas.

Mol-fond birjalari va valyuta birjalarida mustaqil tarkibiy bo'linma va mustaqil bo'lmagan tarkibiy bo'linma sifatida fond bo'limlari tashkil etilishi mumkin. Fond bo'limlari o'z faoliyatlarida fond birjalariga qo'yiladigan barcha talablarga amal qilishlari lozim.

Qimmatli qog'ozlar muomalasini amalga oshirish huquqini beruvchi ruxsatnomasi (lisenziyasi) bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar fond birjasi muassislari bo'lishlari mumkin.

Birjada brokerlik o'rni sotib olgan yuridik shaxslar, shu jumladan, chet el yuridik va jismoniy shaxslar fond birjasining (mol-fond birjasi yoki valyuta birjasi fond bo'limining) a'zolari bo'lishlari mumkin. Fond birjasi a'zolarining miqdorini birjaning boshqaruv organlari tartibga solib turadi. Davlat hokimiyati va boshqaruv, prokuratura va sud organlari, ularning mansabdor shaxslari va mutaxassislari fond birjasi a'zolari bo'lishga haqli emaslar.

Fond birjasi a'zolari qimmatli qog'ozlar muomalasini amalga oshirish uchun ruxsatnomalarga ega bo'lgan hamda investisiya muassasasi maqomini olgan taqdirdagina oldi-sotdiga qo'yiladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining mutaxassislari qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beruvchi malaka attestatiga ega bo'lishlari shart. Malaka attestatining amal qilish muddati — uch yil.

Qimmatli qog'ozlarga doir birja amallari qoidalarini birjaning yuqori boshqaruv organi tasdiqlaydi.

Qoidalarda quyidagilar nazarda tutilmog'i lozim:

- mazkur birjada qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi prinsiplari;
- birja oldi-sotdisi qatnashchilarining tarkibi hamda ularga qo'yiladigan talablar majmui;
- birja yig'ilishlari o'tkaziladigan joy va vaqt to'g'risidagi axborot;
- qimmatli qog'ozlarni birja oldi-sotdisiga chiqarish tartibi;
- birja bitimlarining tavsifi;
- mijozlar brokerlarga beradigan topshiriq (buyruq) turlari;
- oldi-sotdini tashkil etish;
- bitimlarni ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish tartibi;
- qimmatli qog'ozlar muomalasini amalga oshirishda foydalaniladigan shartnoma, hisobot, buyurtma va xabarnomalar hamda birjaga oid boshqa hujjatlar namunalari.

Fond birjasi birja oldi-sotdisi vaqtida bitimlar tuzish, bitimlarni tekshirib ko'rish va ular yuzasidan hisob-kitob qilish tartibini mustaqil ravishda ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Fond birjalari va fond bo'limlari O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori

ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bilan kelishib olingan qimmatli qog'ozlar muomalasi bitimlarini amalga oshirish nizomlari va ichki qoidalari, fond birjasi ustavi (fond bo'limi to'g'risidagi Nizom) asosida ish tutadilar. Fond birjasida amallarni uning a'zolarigina amalga oshira oladilar.

Fond birjasi:

-investisiya muassasalarining birja a'ziligiga kirishida ularga qo'yiladigan eng kam majburiy talablarni belgilash;

-birja oldi-sotdilarida birja a'zolari vakillarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

-birja yig'ilishlarini chaqirish va o'tkazish;

-ekspert, malaka va baholash komissiyalari, maslahat va ma'lumotnoma beruvchi sho'balar hamda ularning ishlashi uchun kerakli boshqa muassasalar, shuningdek qimmatli qog'ozlar muomalasini amalga oshirishdagi nizolarni hal qiladigan komissiyalar ta'sis etish;

-o'z ustaviga muvofiq birja a'zolari to'laydigan kirish va joriy badallarni belgilab, undirib olish, bitimlarni ro'yxatga olganlik, texnik xizmat ko'rsatganlik uchun, doimiy va bir galgi mijozlardan birjada bo'lganlik uchun haq belgilab, undirib olish, shuningdek birja ustavini, birja yig'ilishlari qoidalarini buzganlik, ro'yxatdan o'tkazish yig'imini vaqtida to'lamaganlik uchun jarima va penyalar undirib olish;

-birja bukletlari, ma'lumotnomalari, to'plamlarini chop etish;

-nazorat qiluvchi organlarning qonunga xilof xatti-harakatlari ustidan sud tartibida shikoyat qilishga haqlidir.

Fond birjasi faoliyatining pul ta'minoti:

-fond birjasi aksiyalari va paylarini sotish; fond birjasidagi brokerlik o'rinlarini sotish;

-fond birjasi a'zolari muntazam to'lab boradigan a'zolik badallari; birja bitimlarini ro'yxatdan o'tkazishda olinadigan yig'imlar;

-qimmatli qog'ozlar muomalasida vositachilik qilishda olinadigan komission haq;

-birja ustavida nazarda tutilgan axborot xizmati va boshqa xil xizmatlar ko'rsatishdan keladigan daromadlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Fond birjasi faoliyati:

-muassislar umumiy yig'ilishining qaroriga binoan; sud organlarining qarorlari asosida;

-qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda to'xtatiladi.

Qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi emitentlarning majburiyatlari yuzasidan javobgarlik ularning o'z zimmasida bo'ladi.

Investisiya institutlariga ruxsatnomani (lisenziyani), qimmatli qog'ozlar bozorining mutaxassislariga malaka attestatini O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi berib, u fond birjasidagi birja

faoliyati davomida qonun hujjatlari va birja ustavi talablariga rioya etilishini nazorat qilib borishga vakolatli bo'lgan hamda birjaning boshqaruv organlari majlislarida (yig'ilishlarida) va oldi-sotdilarida hozir bo'lish huquqiga ega o'z vakilini tayinlaydi. Qonun hujjatlari buzilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi tartibbuzarlarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq sanksiyalar qo'llashi mumkin.

Davlat boshqaruv organi va o'zga organning qimmatli qog'ozlarni chiqarish va muomalada yuritishga taalluqli g'ayriqonuniy xatti-harakat va qarorlari ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

Basharti O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Xalqaro amaliyotda xususiy fond birjalari aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etiladi. Bu jamiyatlarning aksiyadorlari bo'lib xususiy kompaniyalar hisoblanadi. Bunday mulkchilik shaklidagi fond birjalari qimmatli qog'ozlar bilan birja savdolarini tashkil qilishda mustaqil hisoblanadilar. Birja savdolari mamlakatdagi mavjud qonunchilik asosida tashkil etiladi va olib boriladi. Amaldagi qonunchilikni buzganlik uchun ko'zda tutilgan huquqiy majburiyat asosida javobgarlikka tortiladi. Xususiy fond birjalari faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatlarda davlat organlari tomonidan o'z zimmalariga birja savdolari va savdo bitimlari bo'yicha qaltisliklar yuzasidan xech qanday majburiyatlarni olmaydilar. Birjalarning bunday shakllari AQSh dagi fond birjalari, ya'ni Nyu- York fond birjasi (New York Stock Exchange) va Buyuk Britaniyada London fond birjasi (London Stock Exchange) shakllangan va ular o'z faoliyatini olib bormoqdalar.

Xalqaro amaliyotda ochiq-huquqiy fond birjalari o'z faoliyatini davlat tashkiloti maqomida olib boradilar va ular doimiy ravishda davlatning vakolatli organlari tomonidan nazorat etib boriladi. Bunday birjalar faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatlarda davlatning vakolatli organlari qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiq qilish tartibini ishlab chiqishda ishtirok etadi, bu tartibning amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi hamda nazorat qilib boradi, fond birjasi faoliyat ko'rsatish uchun birja makleklarini tayinlaydi, ularni ishdan chetlaydi va boshqalar. Fond birjalarining bunday shakllari Germaniyadagi Frankfurt fond birjasi (Frankfurter Wertpapier bourse), Nemis muddatli shartnomalar birjasi (Deutsche Termin borse) va Fransiyadagi Parij fond birjasi (Paris Bourse) shakllangan va o'z faoliyatini olib bormoqdalar.

Aralash mulkchiligidagi fond birjalari aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etiladi, lekin ustav kapitalining 50 foizidan kam bo'lmagan ulushi davlatga tegishli bo'ladi, qolgan qismi esa yuridik hamda jismoniy shaxslarga tegishli bo'ladi. Fond birjalarining bunday shakllari Shveysariyadagi Syurix fond birjasi (Zurich Stock Exchange), Italiyadagi Milan fond birjasi (Borsa Valori di Milano), Avstriyadagi, Shveysiyadagi fond birjalari shakllangan va ular o'z faoliyatini olib bormoqdalar.

Fond birjalari iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tayotgan mustaqil davlatlarda ham alohida ahamiyatga ega. Mazkur mamlakatlarda fond birjalari iqtisodiyotni hususiyashtirish va korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarishning asosiy vositasi hisoblanadi. Aynan fond birjasi savdo maydonlarida xususiyashtirilgan davlat korxonalari negizida tashkil etilgan kompaniyalar aksiyalarining birlamchi sotilishi amalga oshiriladi. Birja brokerlari korxonani butun xususiyashtirish jarayoni davomida kuzatgan holda aksiyalashtirish bo'yicha operatorlar vazifasini o'z zimmasiga oladi. Ushbu mamlakatlardagi aksiyalarning birja bozori, odatda, birlamchi bozor bo'lib u xususiyashtirilgan korxonalar aksiyalarning narxlarini belgilab beradi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'zlarining fond birjalarini barpo etishni boshlayotgan mamlakatlarda, odatda, dastlabki vaqtlarda aksiyalar katta qismining sotilishi tasodifiy xususiyatga ega, ya'ni bir hafta yoki bir oy mobaynida bir aksiyalarning o'zi bo'yicha bitimlarning barqaror qayd etilgan miqdori kuzatilmaydi. Bu axborotga ega bo'lmaslik, bir tranzaksiyaning yuqori qiymati qimmatli qog'ozlarning yuqori likvidligi, sarmoyadorlarning iqtisodiy salohiyatining zaifligi kabi qator omillar bilan bog'liq. Mamlakatimiz fond bozori O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng 90 yillar boshlarida yuzaga chiqdi. Mamlakatimizda fond bozorini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish uchun kerakli bo'lgan bilim va tajribalarning yo'qligi sababli davlat hamda bozor ishtirokchilarini fond bozorini rivojlanishining xalqaro tajribasini chuqur o'rgangan holda va xo'jalik yuritishning yuzaga kelgan ichki o'ziga xos amaliyotining umumlashtirgan holda olib borishni talab etdi. Bunda Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot banki (Jahon banki), Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi, «O'ttizlik guruhi» (o'zlarining qimmatli qog'ozlar bozorlarini tashkil etishni boshlayotgan barcha mamlakatlarga yagona bo'lgan yondashuvlar va qoidalarni tavsiya etuvchi xalqaro tashkilot) kabi turli yirik xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari inobatga olindi. Mazkur tavsiyalarning bajarilishini O'zbekistonga rivojlangan mamlakatlar o'zlarining fond bozorlari tizimini yaratishda yo'l qo'ygan xatolarini takrorlamaslik imkonini beradi. Ushbu tamoyilning bosqichma-bosqich va izchil hayotga tadbiiq etilishi sezilarli natijalarga erishish imkonini berdi. Mamlakatimizda 1991 yilning bahor oylarida O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan mamlakatning eng yangi tarixida birinchi «Toshkent» O'zbekiston Respublikasi tovar hom-ashyo birjasi tashkil etildi. Shu yilning yoz oylarini boshida birja savdolarining shiddat bilan o'sishi birja ustav sarmoyasining oshirilishi, uning ishtirokchilari tarkibining kengaytirilishi zaruratini keltirib chiqardi. 1991 yilning avgustida «O'zbekiston tovar hom-ashyo birjasi» ma'suliyati cheklangan jamiyat «Toshkent» O'zbekiston Respublika universal tovar-fond birjasi (qisqartirilgan nomi – «Toshkent» fond birjasi)ga aylantirildi va uning tarkibida qimmatli qog'ozlar bozorining dastlabki rasmiy tashkiloti – fond bo'limi ochildi. Ushbu fond bo'limi zimmasiga qimmatli qog'ozlarning uyushgan respublika bozorini tashkil etish (fond boyliklari bilan birja savdolarini tashkil

qilish), birjaning ustav sarmoyasini shakllantirish maqsadida uning aksiyalarini joylashtirish vazifalari yuklatildi.

1992 yilning yanvar oyida «Toshkent» birjasining fond bo'limi O'zbekiston Respublikasida birinchi bo'lib qimmatli qog'ozlar bilan muntazam savdolarni o'tkazishga kirishdi. 1992 yilda «Toshkent» birjasini fond bo'limining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha aylanmasi 26,0 mln. rublni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasining dongdor fond birjalarining xuddi shunday ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadigan darajada edi. Fond bozorining mamlakat miqyosidagi dastlabki yirik muassasa bo'lgan fond bo'limi nafaqat dastlabki emitentlar va sarmoyadorlarning, balki O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining ham e'tiborini tortdi. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi o'sha vaqt endigina fond bozoriga nisbatan o'z munosabatlarini belgilay boshlab, uni tartibga solib turishga urinib ko'rdi. O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bilan savdo hajmlarining mumtazam ravishda o'sib borishi natijasida mamlakatimizda 1993 yil 2 sentyabrda «Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning 17 moddasida ilk bor fond birjasi tushunchasiga ta'rif berildi. Unga asosan «Fond birjasi - qimmatli qog'ozlar bilan bir maromda muomalada bo'lishining zarur shart-sharoitini ta'minlash, ularning bozor bahosini (qimmatli qog'ozlar talab va taklifi o'rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi narxlarini) belgilash va ularga doir ma'lumotlarni keragicha tarqatish, qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarining kasb mahoratini yuqori darajada saqlab borish faoliyatining alohida sohasi bo'lgan tashkilotdir».

Fond birjasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, birja ustaviga hamda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq xizmatlarni amalga oshirishning ichki qoidalariga amal qiladi.

Mamlakatimizda ushbu qonunni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 8 aprelida «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkchiligining ximoya etishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni chiqdi. Bu farmonni hayotga tatbiq qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 8 iyundagi «Toshkent» Respublika fond birjasining samarali faoliyat ko'rsatishni ta'minlash va qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qonunchilik xujjatlariga asosan uning negizida, uning nomini, avvalgi rasmiy belgisini – bir o'rkachli tuya (matonatilik va chidamlilik ramzi), fond birjalari faoliyat ko'rsatishining mumtoz tamoyillariga asoslangan operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga amal qilish an'analari saqlab qolgan yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati shaklidagi «Toshkent» Respublika fond birjasi tashkil etildi. O'z faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab «Toshkent» Respublika fond birjasi tarmoq dasturiy mahsulotlarini yaratishga ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni jalb etish bilan birga savdolarning elektron birja tizimini barpo qilish, shuningdek,

aksiyalashtirish va aksiyalarni xarid qilish orqali mablag'larning milliy iqtisodiyotga investisiya qilishni tashviq qilish bo'yicha faol ishlarni boshlab yubordi.

Barcha fond birjalarida bo'lganligi kabi «Toshkent» Respublika fond birjasida ham birja savdolarida ishtirok etish uchun faqat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beruvchi maxsus lisenziyaga ega bo'lgan birja a'zolariga ruxsat etildi.

Faoliyatining dastlabki yilida «Toshkent» Respublika fond birjasi o'z qo'li ostiga 250 nafar a'zolarini, shu jumladan AQSh, Germaniya, Rossiya, Pokiston davlatlarining vakillarini birlashtirdi, ularning deyarli to'rtdan bir qismini xususiy shahslar tashkil etdi. Birja a'zolicigiga kirish shartlari brokerlik joylarining sotib olinishini va muntazam a'zolik badallarining to'lanishini nazarda tutdi.

Hozirgi paytda «Toshkent» Respublika fond birjasi mamlakatimiz moliya tizimining tez rivojlanayotgan tuzilmalaridan biri bo'lib, sarmoya bozorining fond ulushi o'zgarishlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Shuni ta'kidlash lozimki, «Toshkent» Respublika fond birjasining faol pozitsiyasi sababli qisqa muddatda rivojlangan qimmatli qog'ozlar savdo tizimining tashkiliy-texnik, huquqiy va iqtisodiy asoslari yaratildi. Hozirda birja O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida o'z filiallariga ega. Biz quyidagi chizmada «Toshkent» Respublika Fond birjasining tarkibiy tuzilishini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizning barcha xududlarida «Toshkent» Respublika fond birjasining filiallari tashkil etilgan va ular o'z faoliyatini olib bormoqda.

Xalqaro amaliyotda xorijiy mamlakatlarning yirik birjalari faoliyatini integratsiya jarayonlari kuchayib bormoqda.

Bunday jarayonlarda birja faoliyatini rivojlantirishda yagona xalqaro savdo tizimiga ulanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. «Toshkent» Respublika fond birjasida ham jahon qimmatli qog'ozlar bozoriga integratsiya yo'nalishida faoliyat amalga oshirilmoqda. 1995 yilda xalqaro tashkilotning qarorgohi Istanbul shahrida joylashgan Yevroosiyo federatsiyasiga (FEAS) qo'shildi. 1999 yilning sentyabr oyida Frankfurt fond birjasi bilan o'zaro hamkorlik va ma'lumotlar ayirboshlash yuzasidan shartnoma imzolandi. 2004 yilning 23 iyulida «Toshkent» Respublika fond birjasi va London fond birjasi o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Bundan tashqari hozirgi vaqtda «Toshkent» Respublika fond birjasi va +uvayt fond birjasining +uvayt avtomatlashtirilgan savdo tizimi (Kuwait Automated Trading System) departamenti bilan o'zaro hamkorlik qilish yuzasidan muzokaralar olib borilmoqda. An'anaviy fond birjasi bu uning malakali tashkilotchilari tomonidan savdoning maxsus tamoyillariga asoslangan va eng yaxshi qimmatli qog'ozlarning savdosini olib boradigan doimiy ulgurji bozordir.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra fond birjasi - qimmatli qog'ozlar bir maromda muomalada bo'lishining zarur shart-sharoitini ta'minlash, ularning bozor bahosini (qimmatli qog'ozlarning talab va taklifi o'rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi

murxlarni) belgilash va ularga doir ma'lumotlarni keragicha tarqatish, qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarining kasb mahoratini yuqori darajada saqlab borish faoliyatining alohida sohasi bo'lgan tashkilotdir.

Fond birjasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, birja ustaviga hamda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish qonun - qoidalariga amal qiladi.

Fond birjasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkaziladi va u qimmatli qog'ozlarga doir birja faoliyati yuritish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi qimmatli qog'ozlar va foiz birjalari davlat komissiyasidan lisenziya oladi. Qimmatli qog'ozlarga doir birjada faoliyat yuritish uchun lisenziya olmagan tashkilot bunday faoliyat yuritishga haqli emas.

Qimmatli qog'ozlar muomalasini amalga oshirish huquqini beruvchi maxsus ruxsatnomasi (lisenziya) bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar fond birjasining muassislari bo'lishlari mumkin.

Birjada brokerlik joyini sotib olgan yuridik shaxslar, shu jumladan xorijlik yuridik shaxslar ham fond birjasining a'zolari bo'lishi mumkin. Fond birjasi a'zolarining miqdorini boshqaruv organlari tartibga solib turadi. Davlat hokimiyati va boshqaruv, prokuratura va sud organlari, ularning mansabdor shaxslari hamda mutaxassislari fond birjasi a'zolari bo'lishga haqli emaslar.

Fond birjasining a'zolari qimmatli qog'ozlar muomalasini amalga oshirish uchun ruxsatnomalarga ega bo'lgan hamda investisiya instituti maqomini olgan taqdirdagina qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan savdolarga qo'yiladi. Birjadan rasmiy brokerlik o'rnini sotib olgan va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beruvchi maxsus malaka shaxodatnomasini (attestagini) olgan jismoniy shaxs uni davlat hokimiyati mahalliy organlarida ro'yxatdan o'tkazganidan va bankda hisob-kitob raqamini ochganidan keyingina qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdiga qo'yilishi mumkin edi. O'zbekiston Respublikasining 2005 yil 22 sentyabrida qabul qilingan «tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyati tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonunga asosan jismoniy shaxslarning brokerlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlandi.

Amaldagi qonunchilikka asosan qimmatli qog'ozlar bozorining malakali mutaxassislari qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beruvchi malaka shahodatnomasiga ega bo'lishi shart. Malaka shahodatnomasining muomalada amal qilish muddati – uch yil qilib belgilangan.

«Toshkent» Respublika fond birjasida 70 ga yaqin brokerlik idoralari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ular respublikaning Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarida joylashgan. Birjada haftada besh kun soat 10.00 dan 13.00 gacha va 15.00 dan 15.30 gacha quyidagi sho'balarda bo'yicha savdolar o'tkaziladi: listing, listing-oldi, listingdan tashqari va xususiylashtirilayotgan korxonalar,

qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori va erkin muomaladagi valyutada (SKV) chet el sarmoyadorlariga sotiladigan savdo maydonchalari faoliyat ko'rsatadi.

«Toshkent» Respublika fond birjasida savdolar an'anaviy «kim oshdi» texnologiyasi bo'yicha o'tkaziladi va bu eng maqbul usul hisoblanadi. 2000 yildan boshlab birjada sifat jihatidan yangi elektron savdo tizimi tadbiiq qilingan.

«Toshkent» Respublika fond birjasida listing tartibi joriy etilgan. Unga asosan likvid va ishonchliroq, ya'ni moliyaviy tomondan mustahkam aksiyadorlik jamiyatlari o'z aksiyalari bilan maxsus, obro'ga ega listing maydonchasida savdo qilish huquqiga ega bo'ladilar.

«Toshkent» Respublika fond birjasida zamonaviy yangi texnika va texnologiyalarni tadbiiq etish dasturi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Internat tarmog'ida «www.uzse.com» adres bo'yicha birja rasman o'z saytini ishga tushirdi. Ushbu saytning qo'llanilishi bilan umumjahon kompyuter tarmog'i orqali birjada savdoga qo'yilgan aksiyalarni dunyodagi barcha bo'lajak sarmoyadorlarga taklif qilish imkoniyati vujudga keldi. Xorijiy sarmoyadorlar esa bu aksiyalar bilan haqqoniy muddat sharoitida tanishib «videolisting» uslubi orqali korxonalarini va ulardagi mavjud ishlab chiqarish jarayonini o'z ko'zi bilan ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

«Toshkent» Respublika fond birjasi qimmatli qog'ozlar bilan savdoni tashkil etish, uni olib borish uchun quyidagi huquqlarga ega:

- investisiya institutlarining birja a'ziligiga kirishida ularga qo'yiladigan eng kam majburiy talablarni belgilash;

-birja oldi-sotdilarida birja a'zolari vakillarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

-birja yig'ilishlarini chaqirish va uni o'tkazish;

-ekspert, malaka va baholash komissiyalari, maslahat va ma'lumotnoma beruvchi sho'balar hamda ularning ishlashi uchun kerakli boshqa muassasalar, shuningdek, qimmatli qog'ozlar muomalasini amalga oshirishdagi nizolarni hal qiladigan komissiyalarni ta'sis etish;

-birja o'z ustaviga muvofiq birja a'zolari to'laydigan kirish va joriy badallarni belgilab, undirib olish, bitimlarni ro'yxatga olganlik, texnik xizmat ko'rsatganlik uchun, doimiy va bir galgi mijozlardan birjadagi savdoda qatnashganlik uchun haq belgilash, undirib olish, shuningdek birja ustavini, birja yig'ilishlari qoidalarini buzganlik, ro'yxatdan o'tkazish yig'imini vaqtida to'lamaganlik uchun jarima va penyalarni undirib olish;

-birja bukletlari, ma'lumotnomalari va to'plamlarini chop etish;

-nazorat qiluvchi organlarning qonunga xilof xatti-xarakatlari ustidan sud tartibida shikoyat qilishga haqlidir.

«Toshkent» Respublika fond birjasi qimmatli qog'ozlarga doir birja amallari qoidalarini mustaqil ishlab chiqadi va birjaning yuqori boshqaruv organini tasdiqlaydi.

Birja amallari qoidalarida quyidagi tartib-qoidalar nazarda tutilmog‘i lozim:

- mazkur birjada qimmatli qog‘ozlar savdosining tamoyillari;
- birja savdosini malakali qatnashchilarining tarkibi hamda ularga qo‘yiladigan talablarning majmui;
- birja yig‘ilishlari o‘tkaziladigan joyi va vaqti to‘g‘risidagi axborot;
- qimmatli qog‘ozlarni birja savdosiga chiqarish tartibi;
- birja bitimlarining tasnifi;
- mijozlar brokerlarga beradigan topshiriq (buyruq)ning turlari;
- qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkil etish;
- bitimlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ularni rasmiylashtirish tartibi;
- qimmatli qog‘ozlar muomalasini amalga oshirishda foydalaniladigan shartnoma, hisobot, buyurtma va xabarnomalar hamda birjaga oid boshqa hujjatlarning namunalarini chiqarish.

«Toshkent» Respublika fond birjasi yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati bo‘lib, u o‘z faoliyatini mablag‘ bilan o‘zi ta‘minlaydi. Fond birjasi faoliyatining pul ta‘minoti quyidagi manbalardan iborat:

- fond birjasining aksiyalari va paylarini sotish;
- fond birjasidagi brokerlik o‘rinlarini sotish; fond birjasi a‘zolarining muntazam to‘lab boradigan a‘zolik badallari;
- birja bitimlarini ro‘yxatdan o‘tkazishda olinadigan yig‘imlar;
- qimmatli qog‘ozlar muomalasi vositachilik qilishda olinadigan komission haq;
- birja ustavida nazarda tutilgan axborot hizmati va boshqa xizmatlarni ko‘rsatishdan keladigan daromadlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga asosan fond birjasi faoliyati quyidagi holatlarda:

- birja muassislari umumiy yig‘ilishining qaroriga binoan;
- sud organlarining qarorlari asosida;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda to‘xtatiladi.

9.2. Pul-kredit tizimini davlat tamonidan tartibga solinishi. Pul-kredit siyosati turlari, uning asosiy vositalari.

2017 yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi o‘rta muddatli istiqbolda bank tizimi va pul-kredit siyosatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ushbu yo‘nalishdagi muhim qarorlardan biri milliy valyuta almashuv kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanish tamoyillarini joriy etish orqali ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirilishi bilan bog‘liq amaliy qadamlar bo‘ldi.

Valyuta kursi shakllanishida tamomila yangi yondashuvdan foydalanilishi, o‘z navbatida, Markaziy bankning asosiy e‘tiborini ichki bozordagi narxlar

barqarorligiga qaratish asnosida pul-kredit siyosatini takomillashtirish imkoniyatini beradi. Ayni vaqtda valyuta bozorini liberallashtirish borasidagi islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko'p jihatdan pul-kredit siyosatini takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini mustahkamlash hamda bank tizimini rivojlantirish choralari samaradorligi bilan chambarchas bog'liq.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Valyuta bozorini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilinishidan ko'p o'tmay O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pul-kredit siyosatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi va Pul-kredit siyosatini 2017-2021 yillarda rivojlantirish va inflyasion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar Kompleksi tasdiqlandi.

Bu boradagi keyingi muhim qadamlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonining qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur farmonda narxlar barqarorligini ta'minlash vazifasi Markaziy bankning bosh maqsadi etib belgilanib, Markaziy bankning mustaqilligi va institusional rivojlanishini ta'minlash bo'yicha tegishli choralar nazarda tutilgan. Qayd etish lozimki, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yondashuvlarining qayta ko'rib chiqilishi davrida shakllanayotgan yangi voqeliklarda pul-kredit sohasidagi o'zgarishlarning aholi va tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan to'g'ri qabul qilinishi va qo'llab-quvvatlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o'rta muddatli istiqbolda pul-kredit siyosatini rivojlantirish va amalga oshirish Konsepsiyasi kommunikatsiyalar kanalining jamoatchilik fikrini shakllantirish hamda inflyasion targetlash rejimini amaliyotga joriy etishdagi yetakchi roli inobatga olingan holda ishlab chiqilgan.

Ushbu Konsepsiyaning maqsadi inflyasion targetlashga o'tishning konseptual asoslarini hamda ushbu pul-kredit siyosati rejimini amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etish uchun zaruriy sharoitlar yaratish bo'yicha o'rta muddatli rejalarni keng jamoatchilikka yetkazish va batafsil tushuntirishga qaratilgan.

Makroiqtisodiy barqarorlik va rivojlanishni ta'minlashda pul-kredit siyosatining o'rni. Mamlakatda ichki narxlar barqarorligi ta'minlanishi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati bo'lib, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda zaruriy sharoit hisoblanadi. Bunda inflyasiyaning past va barqaror ko'rsatkichlari muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish raqobatbardoshligi va aholini yashash darajasini oshirishning muhim omili sanaladi. Shu nuqtai nazardan, narxlar o'sish sur'atlarining pasayishi va barqarorlashishi davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi kerak.

Inflyasiyaning past va barqaror darajasi aholi hamda yuridik shaxslar omonatlarini uzoq muddatli investisiyalarga aylanishi uchun kerakli sharoit yaratadi

hamda ichki bozordagi narxlar nomutanosibligini kamaytirib mavjud iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning markaziy banklari tajribalari hamda xalqaro moliya institutlari izlanishlari natijalari pul-kredit siyosatini amalga oshirishda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadining shak-shubhasiz ustuvorligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, pul-kredit siyosatini amalga oshirish tartibi va ketma-ketligi turli mamlakatlarda iqtisodiyotning xususiyatlari hamda tarkibiy tuzilishiga qarab farqlanadi.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Bunda "milliy valyuta barqarorligi" tushunchasini ikki xil, ya'ni almashuv kursining xorijiy valyutalarga nisbatan barqarorligi yoki uning ichki xarid qobiliyati barqarorligi deb talqin qilish mumkin.

Almashuv kursining erkin shakllanishi sharoitida milliy valyutaning barqarorligi uning ichki harid qobiliyatini saqlash orqali erishiladi. Bunda, erkin suzib yuruvchi almashuv kursi iqtisodiyotni ichki barqarorlashtiruvchi funksiyasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, to'lov balansi bilan bog'liq tashqi shok va qiyinchiliklar kuzatilganda almashuv kursining mos ravishda o'zgarishi ekportyorlar va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Ayni paytda Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy maqsadini ikki xil tushunilishini oldini olish va uning faoliyati asosiy yo'nalishini aniq belgilab olish maqsadida qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritilishi ko'zda tutilgan.

Ta'kidlash lozimki, narxlar barqarorligi deyilganda nol darajadagi yoki salbiy inflyasiya ko'rsatkichlari nazarda tutilmaydi. Narxlar barqarorligi deyilganda narxlarning turg'un holatda turishi emas, balki ularning past darajada o'sishi tushuniladi. Bir qarashda narxlarning turg'un turishi maqbul ko'rinsa-da, narxlarning past va barqaror o'zgarishi iqtisodiyotning samarali faoliyati uchun eng qulay sharoit hisoblanadi.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishning usul va mexanizmlari (inflyasion targetlash rejimiga o'tishning ahamiyati). Ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash vazifasi pul-kredit siyosatini amalga oshirishning aniq strategiyasi va batafsil rejasi bo'lishini hamda maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun samarali instrumentlar va mexanizmlarni talab etadi.

Pul-kredit siyosati rejimlaridan foydalanishning xalqaro tajribasi. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar markaziy banklari tomonidan keng qo'llanilayotgan usullar inflyasion targetlash, monetar targetlash, valyuta kursini targetlash va nominal yakorsiz rejimlarni o'z ichiga oladi.

Inflyasiyaning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish vazifasi aksariyat markaziy banklar uchun bosh maqsad hisoblansa-da, yuqorida qayd etilgan uslublar asosan tezkor va oraliq mo'ljallarga qarab farqlanadi.

Monetar targetlash rejimi. Pul-kredit siyosatini amalga oshirishning ushbu usulida narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadida pul agregatlari, rezerv pullar va pul massasi hajmlari o'zgarishini nazorat qilish nazarda tutiladi.

Ushbu strategiyaning samarali qo'llanilishi inflyasiya ko'rsatkichlari va pul agregatlari o'rtasidagi mustahkam doimiy bog'liqlik bo'lishini talab etadi. Bunda inflyasiyaning maqsadli ko'rsatkichlariga pul agregatlari hajmini maqbul darajada ushlab turish vositasida erishiladi. Monetar targetlash rejimi 1970-chi va 1980-chi yillarda AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveysariya va boshqa rivojlangan davlatlarda faol qo'llanilgan. Shu bilan birga, so'nggi yillarda moliya bozorlarining rivojlanishi va yangi moliyaviy instrumentlarning amaliyotga joriy etilishi hisobiga pulga nisbatan talabning nobarqaror darajada bo'lishi mazkur usul samaradorligining pasayishiga olib keldi. Natijada markaziy banklar pul massasidagi o'zgarishlarga samaralari ta'sir ko'rsatish va inflyasiyaning maqsadli ko'rsatkichlarini ta'minlash imkoniyati cheklanishi kuzatildi.

Pul agregatlari va inflyasiya darajasi o'rtasidagi bog'liqlikning kuchsizlanishi tufayli ko'pchilik markaziy banklar tomonidan pul agregatlarini targetlash amaliyotidan voz kechilib, inflyasion targetlash rejimini joriy qilinishiga sabab bo'ldi.

Monetar targetlash rejimi pul taklifi va talabining keskin o'zgarishlari kuzatilgan rivojlanayotgan va o'tish davridagi mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishning dastlabki yillarida samarali strategiya sifatida keng qo'llanilgan. Bunda inflyasiya bo'yicha tegishli ko'rsatkichlarni belgilashda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadlaridan kelib chiqilgan.

1994 yildan boshlab O'zbekistonda amalga oshirilgan pul-kredit siyosati ham pul massasining keskin o'sib ketishini oldini olish orqali milliy valyuta barqarorligini ta'minlash maqsadlariga qaratildi. Bunda rezerv pullar va pul massasining o'zgarishi operatsion hamda oraliq mo'ljallar sifatida qo'llanildi.

Mazkur rejim rasman monetar targetlash deb tasniflansa-da, amaliyotda milliy valyutaning almashuv kursini dollarga bog'lash orqali bosqichma-bosqich devalvatsiya qilib borilganligi tufayli ba'zi xalqaro institutlar va mutaxassislar tomonidan ushbu rejim aralash turga kiritilgan.

Bir vaqtning o'zida ikki maqsadga yo'naltirilgan almashuv kursi siyosati tashqi shoklar vujudga kelgan sharoitlarda samarasiz ekanligini ko'rsatdi. Bunda bir tomondan oltin-valyuta zahiralari oshirish vazifasi qo'yilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan so'mning almashuv kursini ma'lum bir darajada ushlab turish maqsadi ko'zlangan. O'z navbatida, mazkur almashuv kursi to'lov balansi holati va tashqi iqtisodiy sharoitlarni o'zida aks ettirmagan.

Bunday siyosat, o'z navbatida, ichki valyuta bozorida muammolarni yuzaga keltirib, samarali pul-kredit siyosatini yuritish imkoniyatlarini pasaytirdi. Bundan

tashqari, pul-kredit instrumentlaridan foydalanishning passiv rejimi monetar targetlashni samarali qo'llashda qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirdi.

Pul massasi o'zgarishini omillar asosida tahlili, pul massasi o'sishi turli davrlarda oltin-valyuta zaxiralarining oshishi hamda iqtisodiyotni kreditlash hajmlarining kengaytirish hisobiga ta'minlanganligini ko'rsatmoqda.

O'z navbatida, Davlat byudjetining muvozanatli ijrosi va hukumat hisobraqamlarida mablag'lar yig'ilishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobraqamlarida mablag'larning jamlanib borilishi pul massasi o'sishini maqbullashtiruvchi omillardan bo'lgan. Ayni paytda iqtisodiyotni kreditlashning asosiy manbalari markazlashgan mablag'lar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilganligi hamda ushbu mablag'lar asosan ishlab chiqarish texnologiyalari va xomashyo materiallarini import qilish maqsadida foydalanilganligi tufayli iqtisodiyotda pul massasi o'sishiga va mos ravishda inflyasiya darajasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmagan.

Umuman olganda, ushbu omillar ta'sirida pul massasi tez sur'atlarda oshishining oldi olingan.

9.1.-rasm



Shu bilan birga, amalga oshirilgan tahlillar natijasida inflyasiya darajasi, YaIM deflyatori va pul massasi o'zgarishi o'rtasida aniq va barqaror o'zaro bog'liqliklar aniqlanmadi. Pul aylanish tezligi va pul multiplikatori ko'rsatkichlari o'zgarishi ham ushbu ko'rsatkichlar dinamikasining o'zgaruvchan xarakterga ega ekanligini, pul-kredit ko'rsatkichlarining maqsadli parametrlarini ishlab chiqishda xatoliklarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Umuman olganda, pul massasining YaIM nominal hajmiga nisbatan mo'tadil darajada o'sishi inflyasiya bosimining sezilarli kuchayishini oldini olishga xizmat qildi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichlar o'rtasida aniq bog'liqlikning mavjud emasligi rezerv pullar va pul massasi aniq darajasini hisoblash imkoniyatini bermaydi. Masalaning yana bir

muhim jihati, Markaziy bankning pul agregatlarini samarali boshqara olishi qobiliyati bilan bog'liq. Odatda, markaziy banklar rezerv pullar darajasini samarali boshqara oladilar, ammo pul massasini nazorat qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

9.2.-rasm



Ushbu jarayon asosan dollarizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hamda moliya bozorlari rivojlanish bosqichida turgan mamlakatlarda ko'p kuzatiladi, binobarin, bunday mamlakatlarda kredit va depozitlarga bo'lgan talab keskin o'zgarib turishi mumkin.

9.3.-rasm



Pulga bo'lgan talabning o'zgaruvchanligi, keng ma'nodagi pul massasining tarkibi, dollarizatsiya darajasining yuqoriligi kabi omillar pulga bo'lgan talabni aniqlash imkoniyatini pasaytiradi.

Bunday holatda, pulga bo'lgan talab va foiz stavkalari o'rtasidagi bog'liqlik sust bo'lganligi sababli Markaziy bank uchun pul massasining maqsadli darajasini saqlab turish vazifasi murakkablashadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolar natijasida keng ma'nodagi pullar hajmining oraliq mo'ljallardan chetlashishi Markaziy bankning pul-kredit siyosatiga bo'lgan ishonchni pasaytiradi.

Valyuta kursini targetlash rejimi. Valyuta kursini targetlash rejimi milliy valyuta ayirboshlash kursini past va barqaror inflyasiya darajasiga ega rivojlangan davlatlar valyutasiga bog'lashni nazarda tutadi.

Shuningdek, valyuta kursini targetlashning milliy valyuta ayirboshlash kursi tebranishi mumkin bo'lgan gorizont va shartli koridorlarni o'rnatish hamda real ayirboshlash kursini asosiy savdo hamkor davlatlar valyutalari savatchasiga nisbatan targetlash kabi turlari ham mavjud.

Valyuta kursini targetlash rejimi iqtisodiyoti eksport, ayniqsa, xom-ashyo tovarlari eksportiga bog'liq bo'lgan, shuningdek, iste'mol savatida import tovarlari yuqori ulushni tashkil qilgan mamlakatlarda faol qo'llaniladi.

Mazkur rejim iqtisodiy inqiroz kuzatilgan davrlarda inflyasiya darajasini tez va samarali pasaytirish imkonini beradi. Bunda pul-kredit siyosati faqatgina ayirboshlash kursining maqsadli darajasini ta'minlashga yo'naltiriladi. Jumladan, valyuta kursi qadrsizlanganda qat'iy pul-kredit siyosati, valyutaning qadri maqsadli darajadan ko'proq oshganda yumshoq pul-kredit siyosati yuritiladi.

Valyuta kursini targetlash rejimi aniqligi va oddiyligi sababli aholi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlari va bozorning boshqa ishtirokchilari tomonidan oson tushuniladi.

Mazkur rejimning yana bir ijobiy tomoni moliyaviy institutlar yaxshi rivojlanmagan sharoitlarda ham u o'zining samaradorligini saqlab qoladi. Bunday vaziyatda valyuta kursiga pul-kredit siyosati choralari va valyuta intervensiyalari orqali ta'sir ko'rsatiladi.

Shu bilan birga, kapital oqimlari kuchli bo'lgan davrlarda ushbu rejimni samarali qo'llash imkoniyati cheklanadi va iqtisodiy inqiroz davrida markaziy bankning valyuta kursini barqarorlashtirish borasidagi vazifasini qiyinlashtiradi.

Valyuta kursini targetlash rejimini qo'llanishi quyidagi shart sharoitlar bilan chambarchas bog'liq:

-valyuta kursining maqsadli ko'rsatkich doirasida bo'lishini ta'minlashda markaziy banklarning imkoniyati oltin-valyuta zaxiralarning hajmiga bog'liq bo'ladi.

Zaxiralarning yetarlicha bo'lmasligi valyuta kursining qadrsizlanishiga olib keladi, bu esa keyingi davrlarda ham devalvatsion va inflyasion kutilmalarni

oshiradi. Bu, o'z navbatida, import narxlarining oshishiga hamda ichki valyuta bozorida cheklovlarning o'rnatilishi natijasida iqtisodiyotda xufyona valyuta bozori va turli ayirboshlash kurslarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi;

-milliy valyuta ayirboshlash kursining bir necha marta rejali devalvatsiyasi amalga oshirilganda, devalvatsion va inflyasion kutilmalarning kuchayishi oqibatida inflyasiya darajasi oshishi xatari yuzaga keladi;

-nominal ayirboshlash kursi qat'iy belgilanadigan sharoitda real ayirboshlash kursining oshishi to'lov balansining yomonlashishiga va iqtisodiyotda devalvatsion xatarlarning ortishiga olib keladi;

-narxlar darajasi va ayirboshlash kursiga bo'lgan bosimning kuchayishi markaziy banklarning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi imkoniyatiga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Mazkur sharoitda barqarorlikni ta'minlashga foiz stavkalarining oshirilishi orqali erishiladi. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiyotning real sektori rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Xorijiy mamlakatlar, shu jumladan, mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari tajribasi ayirboshlash kursini targetlash oltin-valyuta zaxiralariining sezilarli darajada kamayishi, kursning sun'iy ravishda ushlab turish oqibatida mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligining pasayishi, eksport sektori rivojlanishining sekinlashishi va iqtisodiyotning tashqi omillarga ta'sirchanligining oshishi kabi qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Nominal yakorga ega bo'lmagan rejim. Pul-kredit siyosatining nominal mo'ljalsiz rejimida markaziy banklar tomonidan aniq bir maqsadli nominal ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha majburiyat olinmaydi. Bunda uzoq muddatli maqsadlar sifatida iqtisodiy o'sish sur'ati, yuqori bandlik va inflyasiyaning past darajasi kabi maqsadlar belgilanib, oraliq mo'ljallar esa keng jamoatchilikka oshkor etilmaydi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning maqsadli parametrlariga erishishda markaziy banklar tomonidan pul-kredit siyosatining turli miqdoriy mo'ljallaridan foydalaniladi.

Inflyasiya darajasi past va kam o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lgan hamda pul-kredit siyosati choralariining natijasi uzoq muddat talab qiladigan mamlakatlarda mazkur rejimdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Inflyasion targetlash rejimi. Pul-kredit siyosatining inflyasion targetlash rejimida markaziy bank tomonidan inflyasiyaning o'rta muddatli maqsadli darajasi e'lon qilinadi va pul-kredit instrumentlari ushbu inflyasiyaning maqsadli ko'rsatkichiga erishishga yo'naltiriladi.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishning mazkur usuli ko'pgina rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Inflyasion targetlash rejimi inflyasiya darajasining o'zgaruvchanligi va inersion davomiyligini kamaytirishning samarali usuli hisoblanib, o'rta muddatli istiqbolda barqaror va muvozanatli iqtisodiy o'sishga erishish uchun kulay sharoitlarni yaratadi.

Inflyasion targetlash rejimi dastlab 1989 yilda Yangi Zelandiyada amaliyotga joriy qilingan. Bugungi kunga kelib dunyoning 30 dan ortiq davlatlari, jumladan, Avstraliya, Argentina, Braziliya, Buyuk Britaniya, Gruziya, Isroil, Hindiston, Kanada, Polsha, Turkiya, Shvesiya, Yaponiya, Chexiya kabi davlatlar pul-kredit siyosatining mazkur rejimidan foydalaniladilar.

MDH mamlakatlari orasida Armaniston va Rossiyada inflyasion targetlash rejimi qo'llanmoqda. Qozog'iston va Belarus Respublikasi markaziy banklari tomonidan o'rta muddatli istiqbolda inflyasion targetlash rejimiga o'tish rejasi va dasturlari e'lon qilingan.

Pul-kredit siyosatini yuritishda inflyasion targetlash rejimining tanlanilishi ushbu rejimning afzalliklari bilan bir qatorda valyuta kursi yoki pul agregatlarini targetlash rejimlarida kuzatilgan qator muammolar bilan izohlanadi. Markaziy bankning pul-kredit siyosatining maqsadlari va asosiy yo'nalishlari, shuningdek inflyasiyaning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha majburiyatlarining aniq belgilanishi jamiyatda ijobiy iqtisodiy kutilmalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Inflyasion targetlash rejimida inflyasiya bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda markaziy bankning yuqori darajadagi mustaqilligi talab qilinadi. Bunda makroiqtisodiy sharoitlarning o'zgarishlariga tezkor moslashuvchanlik imkoniyatining mavjudligi markaziy bankka iqtisodiyotdagi ichki muammolarga e'tibor qaratishiga imkoniyat yaratadi.

Mazkur rejimda markaziy bank faoliyati shaffofligining oshishi aholining inflyasiya kutilmalarini pasayishiga hamda markaziy bankka bo'lgan ishonchi mustahkamlanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, ushbu rejimga o'tish va uni samarali amalga oshirish mamlakatda muhim tashkiliy-huquqiy va makroiqtisodiy sharoitlar majmuini talab qiladi.

Xususan, past va barqaror inflyasiya darajasiga erishish vazifasi markaziy bankning pul-kredit siyosatini amalga oshirishdagi nafaqat rasman balki amalda ham bosh maqsadi bo'lishi kerak.

Markaziy bank oraliq mo'ljal sifatida xizmat qiluvchi narxlar dinamikasidagi o'zgarishlar prognozi asosida inflyasiya bo'yicha maqsadli ko'rsatkichga erishish yuzasidan majburiyat oladi. Boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (iqtisodiy o'sish, pul massasi, ayirboshlash kursi va boshqalar) bo'yicha maqsadli mo'ljallar rasmiy ravishda qabul qilinmaydi.

Bunda markaziy bank amaldagi inflyasiya darajasi va kutilayotgan narxlar dinamikasiga baho berishda ishonchli tahliliy va prognozlashtirish bazasiga ega bo'lishi talab etiladi. Tahlillarning sifatli bo'lishi ko'p jihatdan, ichki bozordagi narxlarning real dinamikasini o'zida aks ettiruvchi ishonchli va batafsil statistik ma'lumotlarning mavjudligini talab etadi.

Inflyasion targetlash rejimining samaradorligi ko'p jihatdan, markaziy bankning inflyasiya bo'yicha miqdoriy mo'ljallarni belgilash va pul-kredit instrumentlarini tanlashdagi mustaqilligi darajasi bilan bog'liq. Shuningdek, bu rejimni qo'llashda fiskal siyosatning pul-kredit siyosatidan ustunlik qilmasligi, ya'ni pul-kredit siyosatining soliq-byudjet sohasidagi maqsadlarga qaratilmasligi talab etiladi.

Inflyasion targetlash rejimida inflyasiya bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda aholi va biznes vakillarining inflyasion kutilmalari muhim ahamiyat kasb etishi tufayli olib borilayotgan pul-kredit siyosatiga jamiyatning ishonchini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bunda markaziy bank faoliyatining shaffofligi hamda aholi bilan muloqot tizimining kuchaytirilishi yuqoridagi vazifalar ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi. Xususan, markaziy bank doimiy ravishda statistik ma'lumotlarni chop etib, maqsadli ko'rsatkichlarga erishish yuzasidan ko'rilayotgan choralar to'g'risida jamiyat va iqtisodiyotning real sektori ishtirokchilarini xabardor qilib boradi.

Inflyasion targetlash rejimida markaziy bankning foiz stavkasi pul-kredit siyosatining asosiy instrumenti bo'lganligi uchun mazkur rejimning natijadorligi mamlakatdagi moliya institutlari va bozorlarining rivojlanganlik darajasiga bog'liq hisoblanadi.

Bunda, markaziy bank pul bozorida foiz stavkalari darajasi va dinamikasiga likvidlikni taqdim etish yoki likvidlikni qaytarib olish operatsiyalari orqali ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur holatda, markaziy bank tomonidan belgilanadigan inflyasiya o'zgarishining oraliq intervali amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy bank tomonidan asosiy e'tibor maqsadli ko'rsatkichlarning mazkur interval doirasida bo'lishini ta'minlashga qaratiladi.

Ushbu parametrlar bajarilmagan holatlarda markaziy bank tomonidan tafovutlarning sabablariga tushuntirish berilishi va keyingi davrda amalga oshirilishi lozim bo'lgan choralar xususida aniq pozisiya shakllantirilishi lozim. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlar tajribasida inflyasion targetlash rejimi qo'llanilishining tahlili mazkur rejimni amaliyotga joriy etish jarayonida qator muammoli holatlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Xususan, rivojlanayotgan va MDH mamlakatlarida inflyasiyaga ta'sir qiluvchi asosiy omillar nomonetar xususiyatga egaligi hamda ularning markaziy bank nazorati doirasidan tashqarida ekanligi pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash samaradorligini sezilarli darajada cheklaydi.

Shuningdek, maqsadli ko'rsatkich sifatida haqiqiy vaziyatni o'zida aks ettiruvchi narxlar indeksining tanlanishi ham inflyasion targetlash rejimini qo'llashning yana bir muhim talablaridan hisoblanadi.

Ayrim mamlakatlarda iste'mol baholari indeksi (IBI) o'rniga jahon bozorlaridagi narxlar o'zgarishi, ma'muriy o'rnatiladigan narxlar, mavsumiylik kabi

qator omillarni istisno etuvchi indekslardan foydalaniladi. O'zgartirilgan ko'rsatkichlarning qo'llanilishi rasmiy IBI yoki YaIM deflyatori bilan tafovutlarning kelib chiqishi xatarlarini oshiradi.

Inflyasion targetlash rejimining amaliyotga joriy qilish xususiyatlari turli mamlakatlarda bir-biridan farqlansa-da, umuman olganda, erishilgan natijalar mazkur usulning rivojlangan mamlakatlar, shuningdek, o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida samarali bo'lganligidan dalolat beradi.

Inflyasion targetlash rejimining joriy qilinishi iqtisodiy siyosatni keng ko'lamda takomillashtirishni talab etadi.

Misol uchun, Lotin Amerikasida inflyasion targetlashning qo'llanilishi soliq-byudjet siyosatining ham qayta ko'rib chiqilishini taqozo qilgan. Shuningdek, inflyasion targetlash rejimini amaliyotga joriy qilgan mamlakatlarda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sifatining yaxshilanishi, markaziy bankning texnik hamda tahliliy-proгноzlashtirish imkoniyatlarining oshishi kuzatiladi.

Inflyasion targetlashning natijadorligi ko'p jihatdan pul-kredit siyosati foiz kanali samaradorligiga bog'liqligini inobatga olib, xorijiy mamlakatlarda asosiy e'tibor moliya tizimini rivojlantirish va barqarorligini ta'minlashga qaratilmoqda.

O'zbekistonda inflyasion targetlash rejimini joriy etish istiqbollari. Barqaror iqtisodiy rivojlanish va makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish usullarining bozor instrumentlaridan foydalanish asosida tubdan qayta ko'rib chiqilishi munosabati bilan ichki bozordagi narxlar barqarorligini ta'minlash pul-kredit siyosatining bosh maqsadi sifatida belgilandi.

Bunda inflyasiya sur'atini pasaytirish va uni past darajada saqlab turish o'rta muddatli istiqbolda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda asosiy shart sifatida qaraladi.

Ichki valyuta bozorining liberallashtirilishi pul-kredit siyosatining tamoyil va usullarini bosqichma-bosqich inflyasion targetlashga qaratish uchun zarur bo'lgan asosni yaratadi. O'rta va uzoq muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta'minlashda inflyasion targetlash samarali usul hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida inflyasion targetlash rejimining tanlanishi qator sabablar bilan izohlanadi.

Birinchidan, bugungi kunda inflyasion targetlash pul-kredit siyosatining ta'sirchan rejimi sifatida o'zini namoyon qilib, o'rta muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadiga eng muvofiq keluvchi rejim hisoblanadi.

Ikkinchidan, monetar agregatlar yoki valyuta almashuv kursini targetlash kabi rejimlarning amaliyotga qo'llanilishi tajribasi ularning O'zbekiston sharoiti va zamonaviy talablarga mos kelmasligini ko'rsatmoqda.

Xususan, valyuta almashuv kursini targetlash rejimida kursning doimiy tarzda maqsadli darajada saqlab turilishi xalqaro rezervlarni sezilarli darajada kamaytirib, valyuta inqirozining kelib chiqish xatarini oshiradi.

Valyuta almashuv kursini targetlash rejimida valyuta kursini mos ravishda o'zgartirish orqali tashqi salbiy ta'sirlarni mo'tadillashtirish imkoniyati cheklanadi. Bundan tashqari, mazkur rejimda Markaziy bankning asosiy e'tibori faqatgina valyuta almashuv kursining maqsadli darajasini ta'minlashga qaratilishi tufayli ichki maqsadlarga qaratilgan mustaqil pul-kredit siyosatini amalga oshirish imkoniyati cheklanadi.

Boshqa tomondan, iqtisodiyotni liberallashtirish va tarkibiy o'zgartirish, shuningdek, xufyona iqtisodiyotning sezilarli darajada mavjud bo'lishi sharoitlarida pul agregatlarining keskin o'zgarishi kuzatilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, monetar targetlash rejimi doirasida maqsadli ko'rsatkichlarni o'rnatish va unga erishish vazifasini murakkablashtiradi.

Shu bilan birga, pul agregatlari va inflyasiya orasidagi barqaror bog'liqlikning pasayishi monetar targetlash rejimi samaradorligini kamaytiradi.

Mamlakatimizda valyuta siyosatini liberallashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar hamda narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha aniq maqsadlarning belgilanishi inflyasion targetlashga o'tish uchun tayanch shart-sharoitlar yaratadi.

Xalqaro tajribaga asosan, inflyasion targetlash rejimiga o'tish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha makroiqtisodiy sharoitlar mavjudligini va kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishini talab qiladi:

-pul-kredit siyosatini yuritish, ya'ni transmission mexanizm samaradorligini oshirish;

-valyuta bozori faoliyatini yanada liberallashtirish va takomillashtirish;

-pul-kredit siyosatining mavjud instrumentlarini takomillashtirish va yangi zamonaviy bozor instrumentlarini joriy etish;

-banklararo pul bozori faoliyatining shaffoqligini oshirish va rivojlantirish;

-makroiqtisodiy prognozlash va tahlil qilish salohiyatini mustahkamlash;

-pul-kredit siyosatining pirovard maqsadi va qo'llaniladigan instrumentlar to'g'risida keng jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida pul-kredit siyosatining aniqligi va shaffoqligini oshirish;

-kommunikatsion siyosatni takomillashtirish;

-Markaziy bankning institusional bazasini rivojlantirish;

-moliya bozorini, shu jumladan, davlat qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish;

-makroiqtisodiy siyosatni samarali muvofiqlashtirish;

-iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tarkibiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish.

Umuman olganda, inflyasion targetlashga o'tish pul-kredit siyosatining barcha asosiy yo'nalishlarini tubdan qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni talab qiladi. Ushbu konsepsiyada nazarda tutilgan tadbirlarning bosqichma-bosqich

amalga oshirilishi bozor mexanizmlari va instrumentlari asosida pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish bo'yicha strategik vazifalar bajarilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirish va rivojlantirish bo'yicha ushbu Konsepsiya o'z ichiga 2018-2021 yillar uchun mo'ljallangan chora-tadbirlar "yo'l xaritasi"ni qamrab oladi.

Mazkur yo'l xaritasini ishlab chiqishda asosiy e'tibor inflyasion targetlashning mexanizm va tamoyillarini o'rta muddatli istiqbolda samarali joriy qilish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha choralarni amalga oshirishga qaratildi. **Pul-kredit siyosatining transmission (o'tkazish) mexanizmi.** Iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosati choralarning yalpi talab va inflyasiya darajasiga samarali ta'sir mexanizmining mavjudligi xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Inflyasion targetlash rejimida Markaziy bank inflyasiya bo'yicha qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, foiz stavkalarini o'zgartiradi va o'rnatadi. Iqtisodiyotda inflyasion xatarlar kuchayganda, Markaziy bank an'anaviy tarzda foiz stavkalarini oshirish orqali pul-kredit qat'iyashtiradi. Ushbu choralarning iqtisodiyotning real sektoriga ta'sir qilish darajasi va muddatlari pul-kredit siyosati transmission mexanizmlarining samaradorligi bilan belgilanadi. Pul-kredit siyosatining transmission mexanizmi o'zida Markaziy bank foiz stavkalari o'zgarishining iqtisodiy faollikka va pirovardida inflyasiya darajasiga ta'sir o'tkazish jarayonini aks ettiradi. Pul-kredit siyosatining iqtisodiyotga ta'siri alohida transmission kanallar orqali amalga oshiriladi.

Asosiy kanallar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: foiz kanali; kredit kanali; valyuta kursi kanali; inflyasion kutilmalar kanali; aktivlar bahosi kanali. Foiz kanali pul-kredit siyosatining iqtisodiyotga ta'sir etuvchi an'anaviy kanali hisoblanadi. Markaziy bank foiz stavkasining o'zgarishi iqtisodiyotdagi umumiy foiz stavkalari darajasiga ta'sir ko'rsatib, investisiya/jamg'arma darajasini o'zgartirish orqali iqtisodiyotdagi yalpi talabning o'zgarishiga olib keladi.

Yalpi talabning o'zgarishi, o'z navbatida, inflyasiya darajasiga ta'sir etadi. Markaziy bankning asosiy foiz stavkasi va yalpi talab orasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lmasada, foiz stavkasi o'zgarishining ta'siri boshqa kanallar orqali ham amalga oshadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasining iqtisodiyotdagi foiz stavkalariga ta'siri bo'yicha tahlillar ular orasida barqaror bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda.

Ayni vaqtda transmission mexanizm foiz kanalining ta'sirini O'zbekiston sharoitida cheklanganini banklararo pul bozorining shaffof emasligi va yetarlicha rivojlanmaganligi bilan izohlash mumkin.

Xususan, banklararo pul bozorida tijorat banklari faolliyatining sustligi va operatsiyalar hajmlarining kichikligi foiz kanalining samaradorligini pasaytiradi.

2017 yilning ikkinchi yarmidan Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga qisqa muddatli likvidlikni taqdim qilish operatsiyalari faollashtirildi. Lekin bunda yagona banklararo pul bozorining mavjud emasligi hamda pul-kredit instrumentlari ta'sirining cheklanganligi amalga oshirilayotgan choralar samarasini pasaytirmoqda.

Yuzaga kelgan holatdan kelib chiqib hamda pul-kredit siyosati transmission mexanizmining foiz kanalini kuchaytirish va pul bozorini samarali tartibga solish maqsadida 2018 yilning birinchi yarim yilligida qisqa muddatli pul resurslarini jalb qilish va joylashtirish bo'yicha banklararo pul bozorining yagona elektron platformasini yaratish ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, pul-kredit siyosatining transmission mexanizmining foiz kanalini mustahkamlashda zaruriyat tug'ilganda Markaziy bank tomonidan bank tizimidagi ortiqcha likvidlikni jalb qilish bo'yicha operatsiyalar amalga oshiriladi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, pul-kredit siyosatining transmission mexanizmi samaradorligini ta'minlash va foiz instrumentlarini optimallashtirish maqsadida Markaziy bankning pul-kredit siyosatining asosiy ko'rsatkichi sifatida asosiy stavka va foiz koridorini 2021 yildan amaliyotga joriy qilish ko'zda tutilgan.

Likvidlik taqdim etish va jalb qilish bo'yicha pul-kredit siyosati instrumentlari turlarining kengaytirilishi Markaziy bankning asosiy operatsiyalari bo'yicha foiz koridorini shakllantirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish va unda bozor mexanizmlari ta'sirining oshib borishi bilan bir qatorda faol pul-kredit siyosatining amalga oshirilishi transmission mexanizmining foiz kanalini sezilarli darajada mustahkamlab boradi. **Kredit kanali** pul-kredit siyosatining asosiy ta'sir kanallaridan biri bo'lib, ushbu kanal orqali foiz stavkasi iqtisodiyotning real sektoridagi jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur kanalning samaradorligi ko'p jihatdan kredit resurslariga bo'lgan talab va taklifning Markaziy bank foiz stavkalarining o'zgarishiga nisbatan ta'sirchanligiga bog'liq hisoblanadi.

Bugungi kunda iqtisodiyotdagi pul massasi oshishining asosiy qismi kredit kanali hissasiga to'g'ri kelganligi bois, uning o'zgarishi ichki bozordagi narxlar darajasiga o'zining salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, 2017 yil birinchi yarim yilligida tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektorini kreditlash hajmlarining sezilarli darajada oshirilishi pul massasi o'sish sur'atining tezlashishi va iqtisodiyotdagi inflyasion bosimning kuchayishiga olib keldi. Iqtisodiyotni kreditlash darajasini barqarorlashtirish maqsadida 2017 yilning ikkinchi yarmidan Markaziy bank tomonidan qayta moliyalash stavkasi 14 foizgacha oshirilib, pul-kredit siyosati qat'iylashtirildi.

Bu esa, o'z navbatida, kredit resurslari foiz stavkalarining oshishiga olib keldi. Shuningdek, umumiy depozit va kreditlar tarkibida xorijiy valyutadagi depozit va kreditlar ulushining yuqoriligi hamda xufiyona iqtisodiyotning mavjudligi kabi

omillar iqtisodiyotni kreditlash hajmiga ta'sir ko'rsatishga asoslangan pul-kredit siyosatining samaradorligini sezilarli darajada pasaytirmoqda.

O'z navbatida, tijorat banklari tomonidan kreditlarni bozor shartlari asosida berilmasligi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlari doirasida intiyozli va maqsadli kreditlar berilishi kredit kanali samaradorligining pasayishiga sabab bo'lmoqda.

Bunday holatlarda Markaziy bank tijorat banklariga nisbatan prudensial nazorat talablarini kuchaytirish va pul-kredit siyosatining instrumentlaridan oqilona foydalanish asosida milliy valyutadagi kredit va depozitlarning jozibadorligini oshirish siyosatini faol ravishda olib borishni ko'zda tutmoqda.

Markaziy bankning foiz siyosatini amalga oshirishda kredit resurslarini moliyalashtirish manbalari xususiyatlari inobatga olinib, bozor mexanizmlariga asoslanmagan kreditlar ta'sirini kamaytirish bo'yicha choralar kuchaytiriladi.

Valyuta kursi kanali. Mazkur kanal ta'siri pul-kredit siyosati shartlarining o'zgarishi natijasida almashuv kursining ichki hamda tashqi tovar va xizmatlarga bo'lgan nisbiy talabning o'zgarishi orqali namoyon bo'ladi.

Boshqa tomondan, Markaziy bank foiz stavkasining o'zgarishi milliy valyutadagi moliyaviy aktivlar daromadlilik darajasining mos ravishda o'zgarishiga olib kelib, almashuv kursiga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Ichki valyuta bozorining liberallashtirilishi jarayonida milliy valyuta almashuv kursining devalvatsiyasi aholining inflyasion kutilmalarini oshirib, valyuta kanalining inflyasion kutilmalar kanali bilan aloqasini kuchaytirdi.

Bunda, inflyasion targetlashga o'tish almashuv kursining erkin bozor sharoitida shakllanishi talab qilinishini inobatga olib, valyuta kursi kanali va aholining inflyasion kutilmalari darajasi orasidagi aloqadorlikning muntazam ravishda kamaytirib borilishi o'rta muddatli davrdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. **Inflyasion kutilmalar kanali** pul-kredit siyosatining inflyasion targetlash rejimi doirasida amalga oshirilishida inobatga olinishi lozim bo'lgan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy jarayonlar ishtirokchilari qarorlar qabul qilishlarida nafaqat real bozor sharoitlarini, balki ularning kelajakdagi o'zgarish ehtimolini ham inobatga olishlarida inflyasion kutilmalar kanali asosiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, korxonalar va tadbirkorlar narxlarni o'rnatishlari va kelajakda ish haqi o'zgarishini baholashlari uchun inflyasion kutilmalar muhim hisoblanadi. Shu o'rinda, mazkur kanalning asosiy xususiyati korxonalar va tashkilotlar tomonidan maxsulot va xizmatlar narxlarini shakllantirilishida namoyon bo'ladi. Bunda, kelajakda inflyasiya darajasining oshishini kutayotgan korxonalar va tashkilotlar narxlarni oshiradi, bu esa joriy inflyasiya darajasining o'sishiga olib keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, kutilmalar kanali yuqorida keltirilgan to'rtta kanallarning barchasi bilan o'zaro bog'liqdir. Masalan, pul bozorida foiz

stavkalari dinamikasining shakllanishi ko'p jihatdan kelajakda kutilayotgan stavkalar darajasiga bog'liqdir.

Iqtisodiyotda inflyasion kutilmalarning markaziy bank maqsadli ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori darajada bo'lishi jamiyatda inflyasiyani markaziy bank tomonidan to'la nazoratga olish borasidagi shubhalarni keltirib chiqaradi. Mazkur vaziyat foiz stavkasini keskin oshirish zaruriyatini tug'dirishi mumkin. O'zbekiston sharoitida iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va erkinlashtirish jarayonlari amalga oshirilayotgan davrda inflyasion kutilmalar oshishi va kelajakda ma'lum muddat davomida saqlanib qolishi mumkin. Inflyasion targetlash rejimiga o'tish Markaziy bankning kelajakda amalga oshirilishi kutilayotgan siyosatiga jamoatchilik ishonchini oshirish va shu asnoda ijobiy inflyasion kutilmalar shakllanishiga erishishni talab etadi.

Aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning kelajakda narxlar o'zgarishi yuzasidan kutilmalarini baholash va monitoring qilish, shuningdek, mazkur kutilmalarning xususiyatlari hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni atroflicha o'rganish maqsadida 2018 yildan boshlab Markaziy bank tomonidan iste'mol narxlari dinamikasi va inflyasion kutilmalarni o'rganish yuzasidan kuzatuvlar va so'rovlar olib borish amaliyoti joriy qilindi.

Bunda, Markaziy bank tomonidan inflyasion kutilmalar shakllanish jarayonini o'rganish, tahlil qilish va ularni modellashtirish salohiyatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Aktivlar narxlari kanalining inflyasiya darajasiga ta'siri pul-kredit siyosatining o'zgarishi natijasida aktivlar narxlarining o'zgarishi tufayli kuzatiladi.

Xususan, mazkur kanal samarali amal qilgan sharoitda pul-kredit shartlarining yengillashtirilishi hisobiga davlat qarz majburiyatlari bo'yicha foiz stavkasining pasayishi moliyaviy resurslarning daromadliligi yuqoriroq bo'lgan muqobil aktivlarga qayta yo'naltirilishiga olib keladi. Natijada muqobil aktivlarning narxi va bunga mos ravishda inflyasiya darajasining oshishi kuzatiladi.

Ta'kidlash joizki, davlat obligatsiyalari, kapital va ko'chmas mulk bozorlarining rivojlanganlik darajasi va samarali faoliyati, o'z navbatida, mazkur kanal ta'sirchanligini belgilaydigan asosiy omillardan hisoblanadi.

Bunda markaziy bank pul-kredit siyosati instrumentlarining samaradorlik darajasi mazkur siyosatdagi o'zgarishlarning (qisqa muddatli foiz stavkalari, rezerv pullar) boshqa soha va tarmoqlarga ta'siri xususiyati, tezligi va intensivligi orqali belgilanadi.

Umuman olganda, o'tkazish kanallarining amal qilishi bank va moliya sohasidagi raqobat muhiti, muqobil moliyalashtirish manbalarining mavjudligi, moliyaviy bozorlarning rivojlanganlik darajasi va samaradorligi, moliyaviy vositachilik xizmatlarining sifati va qamrovi, valyuta kursi rejimi, kapitallar harakati, investisiya uchun xafsiz moliyaviy instrumentlarning mavjudligi kabi bir qator omillarga bog'liq.

Ichki valyuta bozorini yanada liberallashtirish va kurs siyosatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar

Inflyasion targetlash rejimiga o'tish bozor mexanizmlari asosida erkin shakllanadigan suzib yuruvchi valyuta kursining amal qilishini talab etadi.

Bunda, Markaziy bankning valyuta siyosati va intervensiya strategiyasining aniq belgilab olinishi, shaffoflikning ta'minlanishi hamda qabul qilinayotgan qarorlarni valyuta bozori ishtirokchilari tomonidan to'liq tushunilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan, ichki valyuta bozorini erkinlashtirishda milliy valyuta ayirboshlash kursining shakllanishida bozor sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning davom ettirilishi Markaziy bankning mazkur yo'nalishdagi ustuvor vazifasi bo'lib qoladi.

Ushbu maqsadda Markaziy bankning valyuta kurslari shakllanish jarayoniga aralashuvini kamaytirib borish, valyuta intervensiyasi strategiyasini erkin suzib yuruvchi valyuta kursi tamoyillari asosida takomillashtirish hamda iqtisodiyot sub'ektlari va valyuta bozori ishtirokchilarini yangi sharoitlarda ishlashga tayyorlab borish ko'zda tutilmoqda.

O'rta muddatli davrda Markaziy bank intervensiyalarining valyuta kursi shakllanishiga yuqori darajada ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida keyingi davrlarda amalga oshiriladigan intervensiyalar neytral xususiyatga ega bo'ladi.

Xalqaro amaliyotda valyuta bozorida almashuv kursining erkin o'rnatilishida markaziy bankning minimal ishtiroki talab etiladi. Bunda faqatgina inqirozli vaziyatlar yuzaga kelgandagina valyuta kursining keskin tebranishlarini oldini olish va valyuta bozorini barqarorlashtirish maqsadida Markaziy bank intervensiyani amalga oshiradi. Biroq O'zbekiston sharoitida Markaziy bankning valyuta bozorida muntazam ishtirok etish zaruriyati Markaziy bank tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalardan monetar oltin va boshqa qimmatbaho metallarni bevosita sotib olinishi bilan izohlanadi.

Qimmatbaho metallarning bevosita Markaziy bank tomonidan sotib olinishi milliy valyutadagi mablag'larning to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiyotga tushishiga va inflyasion xatarlar oshishiga olib keladi. Ayni vaqtda qimmatbaho metallarni sotishdan tushadigan valyuta mablag'lari esa ichki valyuta bozoriga tushmaydi. Markaziy bank tomonidan qimmatbaho metallarning to'g'ridan-to'g'ri xarid qilishining salbiy ta'sirini oldini olish va valyuta bozori muvozanatligini ta'minlash maqsadida Markaziy bank valyuta bozorida tegishli miqdorlarda xorijiy valyutaning muntazam sotuvini amalga oshirib boradi.

Xalqaro amaliyotda ishlab chiqaruvchilardan qimmatbaho metallarni xarid qilish va valyuta tushumlarini ichki valyuta bozorida sotish borasidagi to'laqonli va samarali vositachilik funksiyasini Markaziy bank tomonidan bajarilishi to'g'ridan-to'g'ri intervensiya hisoblanmaydi. Bunda Markaziy bank tomonidan xorijiy valyutaning sotilishi faqatgina vositachilik xususiyatiga ega bo'lib, Markaziy

bankning valyuta bozoridagi faol ishtiroki almashuv kursini boshqarish maqsadini ko'zlamaydi hamda klassik ma'nodagi intervensiya deb hisoblanmaydi.

Bugungi kunda aholining inflyasion kutilmalari ko'p jihatdan valyuta bozoridagi almashuv kursining dinamikasi bilan bog'liqligini inobatga olgan holda, qisqa muddatli davrda milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash pul-kredit siyosatining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bunda, almashuv kursi barqarorligini ta'minlash vazifasi bevosita markaziy bankning to'g'ridan-to'g'ri intervensiyalari hisobiga emas, balki quyidagi choralarni bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirish orqali ta'minlanadi:

-qisqa muddatli davrda valyuta kursi o'zgarishi tebranishlari kengligini bosqichma- bosqich oshirish yo'li bilan valyuta bozoridagi talab va taklif muvozanatiga erishish hamda valyuta bozorini ta'minlanganlik darajasini oshirish;

-pul-kredit siyosatining foiz va boshqa instrumentlarini ustuvor ravishda qo'llash hamda bank tizimida tegishli hajmdagi likvidlikni saqlab turish orqali valyutaga bo'lgan talabga ta'sir ko'rsatish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun Markaziy bank "xalqaro valyuta zaxiralarning neytralligi" tamoyiliga amal qiladi, ya'ni ishlab chiqaruvchilardan qimmatbaho metallarni xarid qilish natijasida bank tizimiga tushgan milliy valyutadagi mablag'larning sterilizatsiyasini amalga oshiradi. Shu bilan birga, iqtisodiyotda mavjud yuqori inflyasion bosimning milliy valyuta kursi barqarorligiga salbiy ta'sirini inobatga olib, kelajakda valyuta kursining barqarorligini ta'minlash ko'p jihatdan inflyasiya darajasini pasaytirishga bog'liq bo'ladi.

Real almashuv kursining muvozanatli darajasini ta'minlash uchun valyuta kursining dinamikasi ichki bozordagi hamda asosiy savdo hamkor mamlakatlardagi narxlar darajasining o'zgarishini o'zida aks ettirishi kerak. Ushbu jihatlar hamda valyuta bozorining joriy rivojlanganlik darajasini inobatga olgan holda, Markaziy bank intervensiya siyosatida dastlabki bosqichlarda asosiy e'tibor fundamental omillar emas, balki qisqa muddatli davrda valyuta bozorida talab va taklifning nomuvofiqligi natijasida yuzaga keladigan valyuta kursidagi keskin tebranishlarning oldini olishga qaratiladi. O'rta muddatli istiqbolda ichki valyuta bozorini rivojlantirish vazifasiga valyutani tartibga solish va valyuta kursi shakllanishini liberallashtirish, jumladan, almashuv kursi tebranishi chegaralarini oshirish vositasida erishiladi. Bu, o'z navbatida, valyuta bozorining rivojlanish va ta'minlanganlik darajasini oshirishga hamda valyutaga bo'lgan talab va taklifning muvozanatiga erishish uchun bozor mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Valyuta svopi, valyuta opsiyonlari, fyucherslar va shu kabi instrumentlarni amaliyotga joriy qilinishi valyuta bozorini rivojlantirish va valyuta almashuv kursi barqarorligini ta'minlash uchun qo'shimcha imkoniyatlarni yaratadi.

Amaldagi pul-kredit siyosati instrumentlarini takomillashtirish va zamonaviy bozor instrumentlarini joriy etish

Inflyasion targetlash rejimiga o'tish jarayonida samarali pul-kredit siyosatini amalga oshirish, o'z navbatida, pul-kredit siyosati instrumentlari ta'sirini cheklovchi omillarni aniqlash va bartaraf qilishni talab etadi.

Iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlash vazifasi pul-kredit siyosati instrumentlari samaradorligiga hamda uning transmission mexanizmini ko'rilayotgan choralarni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga o'z vaqtida va to'liq o'tkazish imkoniyatiga bog'liq. Pul-kredit siyosatini rivojlantirishning hozirgi bosqichida zamonaviy pul-kredit instrumentlarini joriy etish, amaldagilarini takomillashtirish va ularning ta'sir mexanizmini mustahkamlash, shuningdek ichki iqtisodiy cheklovlarni bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga ustuvor ravishda e'tibor qaratiladi.

Majburiy zaxira talablari. Yangi iqtisodiy voqelikda pul-kredit instrumentlaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari kompleksida majburiy zaxira talablarini takomillashtirish ham ko'zda tutilgan. Bunda, amaldagi majburiy zaxiralash tartibi banklarning likvidligiga qo'yilgan prudensial talablarni hisobga olgan holda zaxiralash me'yorlari, valyutasi va hisoblash bazalarini optimallashtirish orqali takomillashtiriladi.

Majburiy zaxiralashning amaldagi tartibiga muvofiq, zaxiralash valyutasi tijorat banklari tomonidan mustaqil tanlanadi. Mazkur amaliyot banklarga valyuta aktivlarini majburiy zaxiraga yo'naltirish orqali saqlash va buning natijasida bo'shaydigan milliy valyutadagi mablag'lardan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda. Bugungi kunda tijorat banklarining Markaziy bankdagi majburiy zaxiralari tarkibida xorijiy valyutaning ulushi umumiy summaning 90 foizidan ziyodini tashkil etayotganligi ushbu instrumentning so'm likvidligini tartibga solish samaradorligini pasaytirmoqda. Natijada tijorat banklari milliy valyutadagi qo'shimcha moliyaviy resurslarga ega bo'lishi pul-kredit siyosati instrumentlari ta'sirchanligining kamayishiga hamda bank tizimi likvidligini boshqarishdagi majburiy zaxiralash instrumenti samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Xalqaro tajribani o'rganish natijalari mazkur instrument samaradorligini oshirish va qo'llanilayotgan me'yorlarning bank tizimi likvidligiga ta'sirini aniq baholash maqsadlarida tijorat banklari tomonidan zaxiralash valyutasini erkin tanlash imkoniyatini chegaralash maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda.

Majburiy zaxiralar shakllantiriladigan majburiyatlar ro'yxatini qayta ko'rib chiqilishi, jumladan, ro'yxatga jismoniy shaxslar depozitlari va boshqa moliyaviy resurs manbalarining kiritilishi zaxiralash tartibidagi mavjud tafovut va nomutanosibliklarni kamaytirish imkonini beradi.

Depozit va kreditlarning umumiy hajmida xorijiy valyutadagi depozit va kreditlar ulushining yuqoriligi pul-kredit siyosati instrumentlarining samaradorligini cheklovchi yana bir omil hisoblanib, amaldagi majburiy zaxiralash tartibining takomillashtirilishini taqozo qiladi.

Shu bilan birga, Bazel III qoidalarida ko'zda tutilgan talablardan tashqari banklar likvidligiga qo'shimcha prudensial talablarning o'rnatilishi majburiy zaxiralash me'yorlarining aniq ta'siriga baho berishni qiyinlashtiradi.

Bu borada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan takrorlanishlarning oldini olish maqsadida zaxiralash talablariga tegishli tuzatishlar kiritilishi talab etiladi. Majburiy zaxiralash tartibini takomillashtirish va talablarning maqsadli darajalarini belgilashda bank tizimidagi likvidlik hajmi va tijorat banklarining moliyaviy holati hisobga olinadi. Shuningdek, iqtisodiyotdagi inflyasion xatarlarning pasayib borishini va bank tizimidagi mavjud vaziyatni hisobga olgan holda majburiy zaxira talablarini o'rtachalash tartibini joriy etish masalasi ko'rib chiqiladi. Bu esa, o'z navbatida, banklarning moliyaviy holatini mustahkamlashga va moliyaviy resurslarning qiymatini maqbullashtirishga xizmat qiladi.

Pul-kredit siyosatining foiz instrumentlari. Inflyasion targetlash rejimida pul- kredit siyosatining foiz instrumentlaridan foydalanishda asosiy e'tibor tijorat banklarining likvidligini boshqarish maqsadlariga qaratiladi. Bunda bozor instrumentlarini qo'llashni faollashtirish vazifalaridan kelib chiqib, Markaziy bank foiz instrumentlarining samaradorligi oshirib boriladi. Xususan, ularning ta'sirini oshirish maqsadida likvidlik taqdim etish va tijorat banklarining mablag'larini Markaziy bank depozitlariga jalb qilish operatsiyalarining turlari va hajmlarini kengaytirish nazarda tutilgan. Pul-kredit siyosatining asosiy mo'ljali sifatida monetar operatsiyalar bo'yicha asosiy stavka va foiz koridori joriy qilinishi Markaziy bankning foiz instrumentlari ta'sirchanligini oshirish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, xalqaro tajribani hisobga olgan holda, pul-kredit siyosatining operatsion parametrlari qaytadan ko'rib chiqiladi.

Kelajakda Markaziy bankning garov asosida kreditlash operatsiyalari muddatlari qayta ko'rib chiqilib, ularning turlari optimallashtirilib umumlashtiriladi. Shu bilan birga, tijorat banklariga milliy valyutadagi ortiqcha zaxiralarni joylashtirish imkonini beruvchi depozit sxemalari joriy qilinib, bu foiz koridorining pastki chegarasini saqlab qolinishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, tijorat banklari likvidligini qo'llab-quvvatlash maqsadida garov ta'minoti turlari va tartibini kengaytirish orqali likvidlik berish mexanizmini takomillashtirish ko'zda tutilmoqda.

Bank tizimidagi qisqa muddatli likvidlikni sifatli prognozlash masalasi pul-kredit siyosatining foiz instrumentlaridan samarali foydalanishda katta ahamiyat ega.

Mazkur yo'nalishda Markaziy bankning prognoz-tahlil imkoniyatlarini kuchaytiriladi, bu borada Moliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik va axborot almashinuvi yanada mustahkamlanadi.

Ochiq bozor operatsiyalari. Markaziy bank tomonidan bank tizimidagi likvidlikni tartibga solishning asosiy bozor instrumentlaridan biri ochiq bozor operatsiyalari hisoblanadi. Pul-kredit siyosatining faol bosqichga o'tish sharoitida bank tizimidagi likvidlikning maqsadli operatsion ko'rsatkichlarga mosligini

ta'minlashda ochiq bozor operatsiyalarini doimiy ravishda o'tkazib borish ko'zda tutilmoqda.

Ochiq bozor operatsiyalari strategiyasini ishlab chiqishda quyidagilarga ustuvor ravishda e'tibor qaratiladi:

- operatsion maqsadlarga erishish;
- likvidlik oqimlarining keskin tebranishlarini qisqartirish;
- pul bozoridagi foiz stavkalarini Markaziy bank foiz stavkasiga yaqin darajada shakllanishini ta'minlash;
- instrumentlarning harajat va foydaliligining maqbul nisbatiga erishish;
- bozorni yanada rivojlantirish va boshqalar. Bunda, ochiq bozor operatsiyalarida

foydalaniladigan instrument turlarini Markaziy bank tomonidan bosqichma-bosqich ko'paytirilib boriladi.

Xususan, Markaziy bank iqtisodiyotdagi va bank tizimidagi holatdan kelib chiqib, ochiq bozor operatsiyalari turlari va hajmlarini belgilaydi, ular qatoriga:

-o'zgarmas va o'zgaruvchan stavkada cheklangan hajmdagi kimoshdi savdolari;

- garov ta'minoti asosida milliy valyutada kreditlar berish;
- davlat qarz majburiyatlari chiqarilishi bilan ular bo'yicha REPO operatsiyalari;

-milliy valyutadagi muddatli depozitlar va boshqalar kiradi.

Ochiq bozor operatsiyalarini o'tkazishda asosiy e'tibor o'tkaziladigan operatsiya muddatlarining likvidlik maqsadli darajasi bilan muvofiqlashtirish, bozorni yanada rivojlantirish, operatsiyalarni amalga oshirish jarayonlarining ishonchiligi va shaffofligini ta'minlash qabi vazifalarga qaratiladi.

Qayd etish lozimki, respublikamizda 1996 yildan 2011 yilgacha davlat qimmatli qog'ozlari muomalaga chiqarilib ular tijorat banklari o'rtasida joylashtirilgan. 2012 yilga kelib davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarilishi to'xtatilgan.

Moliya vazirligini ma'lumotiga ko'ra 2021 yil 27 aprel kuni O'zbekiston Valyuta birjasida o'tkazilgan elektron savdolarida ilk marotaba 5 yillik davlat qimmatli qog'ozlari muomalaga chiqarildi. Qayd etilishicha, qimmatli qog'ozlarning o'rtacha tortilgan daromadligi 12,65 foizni tashkil etib, 5 yillik muddat uchun benchmark yaratildi.

Auksion savdolarida umumiy qiymati 100 mlrd so'm bo'lgan davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun dilerlar tomonidan taklifga nisbatan 1,7 barobar ortiq hajmdagi buyurtmalar qabul qilindi.

O'rta va uzoq muddatli davlat qimmatli qog'ozlari emissiya qilinishi milliy valyutadagi past xatarli instrumentlarni chiqarish orqali mablag'larni jalb qilish benchmarki bo'lib xizmat qiladi, moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiyalash

hamda moliya bozoriga yangi ishtirokchilarni (sug'urta kompaniyalari va boshqalar) jalb etish uchun zamin yaratadi.

Moliya vazirligi tomonidan davlat qarzi portfelini diversifikatsiyalash va valyuta xatarlarini pasaytirish maqsadida davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish hajmi oshirilmoqda va ichki moliya bozorlarini rivojlantirish borasida tizimli choralar ko'rilmoqda. Ma'lumot uchun, Moliya vazirligi tomonidan chiqarilgan davlat qimmatli qog'ozlari hajmi 2018 yilda 597 mlrd so'mni, 2019 yilda 1 trln 550 mlrd so'mni, 2020 yilda 5 trln 24 mln so'mni va 2021 yil yanvar-aprel oylarida 1 trln 173 mlrd so'mni tashkil etdi. Shuningdek, davlat qarzi portfelida valyuta xatarlarini kamaytirish maqsadida 2020 yil noyabr oyida ilk bora so'mda 2 trln so'm miqdorida suveren xalqaro obligatsiyalari chiqarildi.

Davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish, joylashtirish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha imkoniyatlar mavjud bo'lib, bu borada yetarlicha tajriba shakllangan. Xalqaro amaliyotda davlat qimmatli qog'ozlarining doimiy muomalada bo'lishi nafaqat davlat byudjeti defisitini moliyalashtirishning maqbul yo'li, balki mamlakat moliya bozorini rivojlantirishning muhim instrumenti bo'lib hisoblanadi.

O'z navbatida, Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalarini faollashtirish maqsadida 2018 yilda davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish borasida Moliya vazirligi bilan tegishli tadbirlarni amalga oshiradi. Shu bilan birga, Markaziy bank operatsiyalarini takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish ishlari davom ettiriladi.

Ta'sirchan foiz siyosatini amalga oshirishda banklararo pul bozorining samarali ishlashi muhimligini inobatga olib, Markaziy bank ushbu bozorning har tomonlama rivojlanishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratadi. Xususan, 2018 yilda qisqa muddatli likvidlik berish jarayonini takomillashtirish maqsadida banklararo pul bozorining yagona elektron platformasini ishga tushirilgan. Ushbu tadbirning amalga oshirilishi tijorat banklarining bo'sh pul mablag'lari to'g'risidagi ma'lumotlarni yagona platformaga jamlash va bozor ishtirokchilari uchun foiz stavkalari dinamikasini kuzatish imkonini yaratadi hamda foiz stavkalarining bozor mexanizmlari asosida shakllanishiga xizmat qiladi. Ayni vaqtda yagona elektron platforma Markaziy bankning bozor operatsiyalari orqali qisqa muddatli foiz stavkalariga tezkor ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi va pul-kredit siyosati uzatish mexanizmining foiz kanali ta'sirini kuchaytiradi.

Shaffoflikni oshirish va kommunikatsion kanalni takomillashtirish
Inflyasion targetlash rejimida pul-kredit sohasida amalga oshiriladigan choralar shaffofligini oshirishga va asossiz inflyasion kutilmalarning oldini olishga qaratilgan kommunikatsion kanalining amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda, Markaziy bank qabul qilinayotgan qarorlar

sabablari hamda mohiyatini elektron va bosma ommaviy axborot vositalari orqali aholi va biznes hamjamiyatiga tushuntirish bo'yicha faol ish olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Xalqaro valyuta jang'armasining ma'lumotlarni tarqatish umumiy tizimiga (MTUT) qo'shilishi hamda Markaziy bankning alohida mavzularga bag'ishlangan nashrlari sonining ko'paytirilishi shaffoflikni oshirish va kommunikatsion kanalni mustahkamlashga xizmat qiladi. Pul-kredit siyosati sohasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va kutilayotgan natijalarni keng jamoatchilikka yetkazish va ular tomonidan ma'lumotlarni to'g'ri qabul qilinishini ta'minlash maqsadida e'lon qilinadigan axborotlarda soha mutaxassisi bo'lmaganlar uchun tushunarli bo'lgan til va atamalardan foydalaniladi. Shu bilan birga, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar ko'lami kengaytirib boriladi.

Tahlil va prognozlash salohiyatini mustahkamlash

O'rta muddatli istiqbolda inflyasion targetlashga o'tish Markaziy bankning tahlil va prognozlash salohiyatini mustahkamlashni hamda bosqichma-bosqich takomillashtirib borishni talab qiladi.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishning aniq strategiyasini ishlab chiqish va uning instrumentlaridan samarali foydalanish vazifasi ko'p jihatdan Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan tahlil va prognozlar sifatiga bog'liq. Puxta ishlab chiqilgan makroiqtisodiy prognozlarga asoslangan pul-kredit siyosati ichki moliya bozorlaridagi noaniqliklarni kamaytiradi, qabul qilinayotgan qarorlar mohiyatini tushuntirishni yengillashtiradi va uning yo'nalishlarini oldindan aniqlash imkonini yaratadi. Bugungi kunda Markaziy bank xalqaro amaliyotlar asosida prognozlash ishlarini tashkil etishning boshlang'ich bosqichida turibdi. Bunda inflyasiya darajasini prognozlashning dastlabki modellarini tuzish borasida ilk qadamlar tashlangan.

Xususan, **ARIMA** (avtoregressiya – suzuvchi o'rtachaning integrallashgan modeli) modelida iste'mol narxlarining guruhlashtirilgan indeksini qo'llash va sinovdan o'tkazish boshlandi. Shu bilan birga, **OLS** (eng kichkina kvadratlar usuli) **VAR** (vektorli avtoregressiya) modellari ham qo'llanmoqda.

Ushbu modellarni qo'llash o'tgan davrdagi ma'lumotlarga asoslanganligi bois oldingi yillardagi statistik ma'lumotlarning sifati ishonchli prognozlarni ishlab chiqishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, prognozlashning zamonaviy tizimini shakllantirish bilan bir vaqtda statistik ma'lumotlarning ishonchli bazasini yaratish bo'yicha ish olib borilmoqda.

2018-2021 yillarda inflyasiya va bank tizimidagi likvidlilikni omillar bo'yicha tahlil qilish, to'lov balansi statistikasini zamonaviy usullar asosida tuzish, asosiy makroiqtisodiy hamda pul-kredit ko'rsatkichlarini prognozlash va modellashtirish instrumentlarini takomillashtirish bo'yicha ishlar yanada kuchaytiriladi. Zaruriy ma'lumotlar bazasini shakllantirish bilan bir qatorda yarim tarkibiy va tarkibiy modellar asosida qo'llaniladigan modellar ro'yxatini kengaytirish ko'zda tutilmoqda. Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan 2018

yildan boshlab iqtisodiyotdagi inflyasion kutilmalarni aniqlash borasida o'tkazilayotgan so'rovlar va kuzatuvlar inflyasion xatarlarni chuqur o'rganish, pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va samarali amalga oshirishda ko'mak beradi.

Narxlarning shakllanish jarayonini har tomonlama o'rganish, shuningdek, nomonetar omillar ta'sirida vujudga kelishi mumkin bo'lgan inflyasion xatarlarni oldindan aniqlash va ularning ichki narxlar barqarorligiga ta'sirini pasaytirish maqsadida Hukumat va tegishli vazirliklar bilan hamkorlik munosabatlari takomillashtirib boriladi.

Markaziy bank xalqaro moliya institutlari va xorijiy mamlakatlar markaziy banklari bilan ham hamkorlikni sifat jihatdan yangi darajada davom ettiradi.

Pul-kredit siyosatini takomillashtirish va uning instrumentlari rolini kuchaytirish, bank tizimi likvidligini tahlil qilish va prognozlash hamda pul bozoridagi operatsiyalar samaradorligini oshirish maqsadida 2018-2021 yillarda Xalqaro valyuta jamg'armasining maxsus texnik missiyalarini jalb qilish, xorijiy mamlakatlar markaziy banklari ilg'or tajribasini o'rganish va o'zaro tajriba almashish amaliyotini kengaytirish ko'zda tutilmoqda. Bank tizimining moliyaviy mustahkamligi va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bank nazorati choralarining samarali qo'llanilishi, pul-kredit siyosati ta'sirini oshirishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Bank nazoratini xalqaro amaliyot va andozalarga muvofiq holda takomillashtirilishi, bank tizimida raqobat muhitining kuchayishi hamda tijorat banklarining kredit siyosatida bozor mexanizmlarini keng qo'llashni davom ettirilishi, o'z navbatida, bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlayda va pul-kredit siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xorijiy mamlakatlarning inflyasion targetlashga o'tish tajribasi ushbu rejimga o'tishga tayyorgarlik ko'rish bosqichining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Inflyasion targetlash rejimiga o'tish tadbirlarini yakunlash uchun talab etiladigan uzoq muddatni inobatga olib oraliq davrda amalga oshiriladigan pul-kredit siyosati narxlar barqarorligini ta'minlash va zaruriy makroiqtisodiy sharoitlarni yaratish chora-tadbirlarini qamrab oladi.

Inflyasion targetlashga o'tish davrida asosiy e'tibor 2017-2021 yillarda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish va inflyasion targetlash tizimiga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar Kompleksida ko'zda tutilgan rejalarni to'laqonli bajarilishini ta'minlashga, iqtisodiy islohotlar davrida inflyasion bosim va risklarning oldini olishga hamda iqtisodiy-huquqiy bazani mustahkamlashga qaratiladi.

Xususan, qonunchilik asoslarini mustahkamlash borasidagi tadbirlar "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlarga, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni o'z ichiga oladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarga kiritiladigan o'zgartirishlar asosan quyidagilarni nazarda tutadi:

-Markaziy bank operatsion faoliyati mustaqilligini mustahkamlash va narxlar barqarorligini ta'minlash vazifasini Markaziy bankka yuklash;

-valyutani tartibga solishning ustuvor yo'nalishlarini va aniq me'yorlarini o'rnatish, shuningdek valyuta bozorini rivojlantirish hamda uning bir maromda faoliyat yuritishi uchun zaruriy sharoitlar yaratish;

-bank faoliyatini tartibga solishning bozor mexanizmlari va tamoyillarini qo'llashni kengaytirish, shuningdek sohada raqobat muhitini kuchaytirishning kafolatlari hamda sharoitlarini ta'minlash va boshqalar.

Oraliq davrda amalga oshiriladigan asosiy vazifalardan biri Markaziy bankning valyuta bozorida market-meykerlik rolini pasaytirgan holda, valyuta bozorini rivojlantirish hamda almashuv kursi barqarorligini ta'minlashning bozor mexanizmlariga o'tish hisoblanadi. Bozor mexanizmlari ta'sirida almashuv kursining moslashuvchanligini oshirish, o'z navbatida, ichki valyuta bozorining kengayishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarda oltin-valyuta rezervlarini maqsadli darajada saqlash bilan bir qatorda valyuta bozorida qimmatbaho metallarni sotishdan tushgan xorijiy valyutadagi daromadlarni muntazam ravishda sotish dasturini ishlab chiqish va joriy etish ko'zda tutilmoqda. Inflyasion targetlash rejimiga o'tish uchun tayyorgarlik davrida Markaziy bankning ustuvor vazifasi samarali antiinflyasion siyosat olib borish hisoblanadi.

Ushbu maqsadga Markaziy bank instrumentlaridan moslashuvchanlik bilan foydalanish orqali qat'iy pul-kredit sharoitlarini saqlab turish orqali erishiladi. Pul-kredit sharoitlari hamda inflyasiya darajasini tahlil qilish, baholash va prognozlash ishlari ko'rsatkichlarning keng to'plamlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bunda, narxlarni barqarorlashtirish siyosatini olib borishda asosiy ta'sir kanallarini aniqlash vazifasiga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, pul-kredit siyosatining bozor instrumentlari turlarining kengayib borishi bilan bir qatorda maqsadli parametrlarga erishishga yo'naltirilgan monetar operatsiyalar faollashtirilib, hajmlari mutanosib ravishda oshirilib boriladi.

2017-2021 yillarda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish hamda inflyasion targetlash tizimiga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar Kompleksida keltirilgan vazifalarning amalga oshirilishi, o'z navbatida, moliya bozorlari rivojlanishiga xizmat qilib, pul-kredit siyosatining ta'sir kanallarini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, ushbu davrda inflyasiyani modellashtirish va prognozlash ishlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi hamda shu asnoda pul-kredit siyosati instrumentlarini takomillashtirish borasidagi qarorlar qabul qilish jarayonining sinovi amalga oshirib boriladi.

Modellar takomillashtirilishi bilan inflyasiyaning maqsadli miqdoriy ko'rsatkichlari belgilanadi. Umuman olganda, pul-kredit siyosatining oraliq rejimi inflyasion targetlash rejimiga o'tishga tayyorgarlik ko'rish maqsadida pul-kredit siyosatining barcha jarayonlari va uning instrumentlarini qayta ko'rib chiqish hamda takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar majmuini qamrab oladi.

Inflyasion targetlashga o'tishning huquqiy asoslari yaratilganligi hamda pul-kredit siyosatining tamoyil va mexanizmlarini amaliy jihatdan qayta ko'rib chiqish jarayonining boshlanganligiga qaramasdan, ushbu rejimga to'laqonli o'tish qator xatar va cheklovlar hisobiga qiyinlashadi.

Xususan, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar inflyasion kutilmalarining barqaror yuqori darajada saqlanib qolayotganligi inflyasion targetlashga muvaffaqiyatli o'tish jarayonidagi asosiy cheklovlardan biri hisoblanadi. Bunda iqtisodiyotning barcha sektorlarini erkinlashtirish davrida inflyasion bosimning oshishi inflyasion xatarlar saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Inflyasion kutilmalarning o'tgan yillardagi narxlar dinamikasi asosida shakllanishini hisobga olganda, iqtisodiyotdagi inflyasion kutilmalarni pasaytirish va barqarorlashtirish o'tish davridagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Inflyasiyaga nomonetar omillar ta'sirining yuqori bo'lganligi sababli ushbu vazifalarni amalga oshirish yanada qiyinlashadi va inflyasion targetlashga muvaffaqiyatli o'tishda qator to'siqlarni vujudga keltiradi. Bunday omillar qatoriga ayrim tovarlar bo'yicha ma'muriy tartibga solinadigan narxlarning saqlanib qolishi, mahalliy bozorlarning monopollashganligi, xomashyo narxlarining yuqoriligi, jahon iqtisodiyotining tiklanayotganligi munosabati bilan inflyasiyaning import qilinishi, ishlab chiqarish samaradorligining pastligi va energiya sarfining yuqoriligi, infratuzilmaning yaxshi rivojlanmaganligi va boshqalar kiradi.

Mazkur sharoitlarda inflyasion targetlash rejimining samaradorligi Markaziy bank kommunikasion siyosatining ta'sirchanligi hamda aholining amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosatiga nisbatan ishonchiga bog'liq bo'ladi. Bunda narxlar o'sishining sabablari va narxlar barqarorligini ta'minlash borasida ko'riladigan choralarni aholiga tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, valyuta bozorining shakllanishi sharoitida valyuta siyosati va tashqi iqtisodiy faoliyatning liberallashtirilishi jarayonlarining davom ettirilishi bilan bog'liq xatarlar ham kuzatiladi.

Bunda erkin suzib yuruvchi valyuta kursiga o'tishda valyuta kursining qisqa muddatli keskin tebranishlarini yumshatish va valyutani xedjirlash instrumentlarini rivojlantirish orqali salbiy oqibatlarni kamaytirish muhim hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish, pul-kredit siyosati instrumentlarining ta'sirchanligi hamda samaradorligini kamaytiruvchi sabablarni bartaraf etish bilan uzviy bog'liq. Moliya sektorining institusional jihatdan sust rivojlanganligi va yashirin iqtisodiyotda katta hajmdagi naqd pul mablag'lari aylanmasining mavjudligi Markaziy bank pul-kredit siyosatining samaradorligini pasaytiruvchi omillardan hisoblanadi.

Davlat qarz majburiyatlarining muomalada mavjud emasligi Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirish hamda bank sektorining ushbu qarz instrumentlaridan garov ta'minoti sifatida foydalanib, qisqa muddatli likvidlikni jalb qilish imkoniyatlarini cheklaydi. So'nggi yillarda Davlat byudjeti balanslashgan holda ijro etilishi sharoitida davlat qarz majburiyatlarini

chiqarishning ob'ektiv sabablari mavjud emasligiga qaramasdan, investision, shu jumladan, hududiy va tarmoqlar rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash va maqbullashtirishda qarz qimmatli qog'ozlarining afzalligi ularni yaqin istiqbolda muomalaga chiqarish uchun asos bo'lishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy xatarlar ko'p jihatdan eksport tarkibi va iqtisodiyotga valyuta tushumlari dinamikasi bilan bog'liq hisoblanadi. Bunday holatlarda, qimmatbaho metallar bozorida narxlar o'zgarishi hisobiga hamda qo'shni mamlakatlar va asosiy savdo hamkor davlatlardagi iqtisodiy muammolar natijasida yuzaga keluvchi xatarlarni minimallashtirish talab etiladi. Milliy iqtisodiyot xususiyatlarini inobatga olgan holda, pul-kredit siyosati rejimlarining o'ziga xos jihatlari va ta'sirchanligi tahlili o'rta muddatli istiqbolda Markaziy bankning ustuvor maqsadi sifatida narxlar barqarorligiga erishish vazifasiga inflyasion targetlash rejimi juda mos kelishini ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, pul-kredit siyosatini amalga oshirishning tamoyil va usullarining inflyasion targetlashga bosqichma-bosqich yo'naltirish uchun zaruriy huquqiy asoslar va tayanch iqtisodiy sharoitlar yaratildi. Xususan, valyuta siyosatining liberallashtirilishi va bozor sharoitlarida almashuv kursining shakllanishini ta'minlash bo'yicha choralar, Markaziy bankning ustuvor maqsadlari va amaliy mustaqilligini aniq belgilanishi, pul-kredit siyosatini amalga oshirishning faol bosqichiga o'tilishi, inflyasiyani hisoblash va baholash usullarini takomillashtirilishi, shuningdek shaffoflikning oshirilishi va kommunikatsion siyosatning kuchaytirilishi kabi amaliy choralar inflyasion targetlashga o'tish uchun asosiy sharoitlarni yaratadi. Shu bilan birga, mavjud xatarlar va to'siqlar inflyasion targetlash rejimini joriy etish vazifasining bajarilishini qiyinlashtiradi. O'z navbatida, Markaziy bank asosiy e'tiborni prognozlash va tahliliy bazani mustahkamlashga, pul-kredit siyosati instrumentlarini takomillashtirish va ularning ta'sir kanallarini kuchaytirishga, kommunikatsion siyosatni rivojlantirish va aholining ishonchini oshirish kabi vazifalarga qaratadi. Markaziy bank ushbu rejimga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda tegishli vazirlik va idoralar bilan sa'y-harakatlarni birlashtiradi va hamkorlikda faoliyat yuritadi. Umuman olganda, inflyasion targetlashga o'tish pul-kredit siyosati sohasining barcha jihatlarini tubdan qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni talab etadi. Bu esa, o'z navbatida, uzoq muddatli istiqbolda barqaror iqtisodiy o'sishning asosi bo'lgan makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda sifat jihatdan yangi bosqichga o'tilishini anglatadi.

Nazorat savollari:

1. Qimmatli qog'ozlar va ularning turlari, qimmatli qog'ozlar bozori.
2. Pul-kredit tizimini davlat tomonidan tartibga solinishi.
3. Pul-kredit siyosati turlari, uning asosiy vositalari.

10-Mavzu. Tashqi savdo siyosati, uning maqsadi, vazifalari va vositalari.

10.1. Xalqaro savdo. Tashqi savdo aylanmasi va tashqi savdo balansi, tashqi savdo ko'rsatkichlari.

Hozirgi jahon rivojining xususiyatli belgisi tashqi iqtisodiy aloqalarning, avvalo, tashqi savdoning tez o'sishi hisoblanadi. Tashqi savdo xalqaro hamkorlikning ishlab chiqarish, ilmiy-texnika va boshqa shakllari (kadrarni tayyorlash, turizm va h.k.) bilan bir qatordagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim shakli hisoblanadi. Barcha mamlakatlar tashqi savdosi majmui xalqaro savdoni tashkil etadi.

Xalqaro savdo – bu turli davlat milliy xo'jaliklari o'rtasidagi tovar va xizmatlarning ayirboshlash jarayonidir. Xalqaro savdo qadimdan mavjud bo'lsada, faqat XIX asrga kelib, ya'ni deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar xalqaro savdo aloqalarida ishtirok eta boshlashi bilan jahon bozori shakliga kirdi. Xalqaro savdo tashqi savdo aylanmasi, eksport va import, savdo balansi kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Eksport – bu tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovar mamlakatdan tashqariga chiqariladi. Eksportning iqtisodiy samaradorligi shu bilan aniqlanadiki, mazkur mamlakat ishlab chiqarishning milliy xarajatlari jahon xarajatlaridan past bo'lgan mahsulotlarni chetga chiqaradi.

Bunda eksportda olinadigan yutuq hajmi mazkur tovar milliy va jahon narxlarining nisbatiga, mazkur tovarning xalqaro aylanmasida ishtirok etuvchi mamlakatlarning mehnat unumdorligiga bog'liq.

Xalqaro savdoda **tovarlarning eksport tarkibi** fan-texnika revolyusiyasi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ta'siri ostida o'zgaradi. Hozirgi davrda xalqaro savdoning eksport tarkibida qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari yetakchi o'ringa ega bo'lib, uning hissasiga jahon tovar ayriboshlashining 3/4 qismi to'g'ri keladi. Oziq-ovqat, xomashyo va yoqilg'i ulushi faqat 1/4 qismini tashkil qiladi.

Xizmatlar eksporti tovarlar eksportidan farq qiladi. Chet ellik iste'molchilarga xizmat ko'rsatish, chet el valyutalarini olish bilan bog'liq bo'lib, u milliy chegarada amalga oshiriladi (masalan, chet el kompaniyasi vakillariga pochta, telegraf xizmati ko'rsatish).

Kapital eksport qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Kapital eksporti kredit berish yoki chet el korxonalari aksiyalariga maqsadli qo'yilmalar kabi shakllarda amalga oshirilib, kapital chiqarilgan vaqtda eksport qiluvchi mamlakatdan mablag'lar oqimini taqozo qiladi va shu orqali tasarrufida bo'lgan resurslar hajmini qisqartiradi. Boshqa tomondan, kapital eksporti chet davlatlarning mazkur mamlakatdan bo'lgan qarzlarini ko'paytiradi. U jahon bozoriga tovarlarning keyingi eksporti uchun qulay sharoit yaratadi va chet el valyutasida foiz yoki

dividend shaklida barqaror daromad olish omili hisoblanadi. Ko'plab mamlakatlar, cheklangan resurs bazasiga va tor ichki bozorga ega bo'lib, o'zlarining ichki iste'moli uchun zarur bo'lgan barcha tovarlarni yetarli samaradorlik bilan ishlab chiqarish holatida bo'lmaydi. Bunday mamlakatlar uchun import kerakli tovarlarni olishning asosiy yo'li hisoblanadi.

Import eksportdan farq qilib chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga keltirishni bildiradi. Bunda mamlakat ichida ishlab chiqarish xarajatlari tashqaridan sotib olingan chog'dagi xarajatlaridan yuqori bo'lgan mahsulotlar import qilinadi. Tashqi savdo samaradorligini hisoblashda mazkur mamlakat tomonidan import qilish hisobiga muayyan tovarlarga bo'lgan o'z ehtiyojining tezlik bilan qondirilishi hamda bunday tovarlarni mamlakat ichida ishlab chiqarilgan chog'da sarflanishi lozim bo'lgan resurslarning tejalishi natijasida olinuvchi iqtisodiy naf e'tiborga olinadi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida tashqi savdo balansini baholashda ochiq va yopiq iqtisodiyot deb nomlanuvchi usuldan foydalanilmoqda. Ushbu uslub milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga qay darajada bog'liqligini ko'rsatuvchi indikator hisoblanadi. Yopiq iqtisodiyot bilan bog'liq tashqi iqtisodiy faoliyatda, eksportning YaIMdagi ulushi 10 %dan kam bo'ladi. Ochiq iqtisodiyotda esa eksportning YaIMdagi ulushi 35 %dan ortiq bo'ladi. Ushbu mezonga ko'ra, 2017 yil ochiq iqtisodiyot bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga – Gonkong (157%), Singapur (96,3%), Vetnam (90,5%), Slovakiya (84,2%), BAA kabi davlatlar kirsam, yopiq iqtisodiyot bo'yicha esa eng past ko'rsatkich – Yaman (1,3 %), Nepal (3,37 %), Sudan (3,37 %) kabi davlatlarida kuzatiladi[6]. Bundan tashqari, jahon davlatlarining ochiq iqtisodiyot asosida tashqi savdo siyosatini olib borishini mamlakat savdo balansiga bog'lagan holda tahlil etildi. Unga ko'ra, 49 mamlakat tashqi savdosida ochiq iqtisodiyot olib borishi va ulardan 17 tasi (36,9 %)da salbiy saldo holati kuzatilgan. Shuningdek, YaIMda eksport ulushi 10 va 35 foiz oralig'ida bo'lgan, kombinatsiyalashgan ochiq va yopiq iqtisodiyot bilan bog'liq tashqi savdo siyosati 110 ta davlatda kuzatilgan bo'lib ularning 81 tasi (73,6 %)da salbiy saldo holati qayd etilgan. Shu bilan birga, eksportning YaIMdagi ulushi 10%dan kam bo'lgan mamlakatlar soni 46 ta ekanligi va ularning hech birida ijobiy saldo holati kuzatilmaganligi aniqlandi.

2021 yil Yanvar-sentyabr oylarida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 28,2 mlrd dollarga teng bo'ldi.

Ma'lum qilinishicha, uchinchi chorak yakunlariga ko'ra eksport hajmi 10,3 mlrd dollarni, import hajmi esa 17,9 mlrd dollarni tashkil etgan. Tashqi savdoda 7,6 mlrd dollar miqdorida passiv balans kuzatilgan. Tashqi savdo aylanmasida import hajmi eksport hajmiga qaraganda yirikroq hajmda o'sib bormoqda. Joriy yilda eksport tarkibida oltin eksporti hajmining keskin qisqarishi tashqi savdo asosiy ko'rsatkichlari shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, eksport va import hajmlari orasidagi farqning yanada yiriklashishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, 2021 yilning

ikkinchi choragida oltin eksporti hisobiga eksport hajmi birinchi chorak yakuniga nisbatan qariyb uch barobarga o'sgan. Uchinchi chorakda esa eksport hajmi o'sish sur'ati pasaygan. Import hajmi uchinchi chorakda yanvar-iyun natijalariga nisbatan 1,6 barobardan ziyodga o'sgan.

10.1-jadval

2021 yilning I-III choraklarida tashqi savdo asosiy ko'rsatkichlari, mlrd dollarda. Manba: Statistika qo'mitasi

	2021 yil I chorak	2021 yil II chorak	2021 yil III chorak
Tashqi savdo aylanmasi	7,1	18,0	28,2
Eksport	2,4	7,0	10,3
mahsulotlar	1,9	4,5	8,5
xizmatlar	0,5	1,1	1,8
oltin	-	1,4	-
Import	4,7	11,0	17,9
mahsulotlar	4,3	10,3	16,7
xizmatlar	0,4	0,7	1,2

O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi tarkibi

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, yanvar-sentyabr oylarida tashqi savdo aylanmasi tarkibi quyidagicha:

- Eksport — 10,3 mlrd dollar
- Sanoat mahsulotlari — 3,1 mlrd
- Xizmatlar — 1,8 mlrd
- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar — 921,3 mln
- Kimyoviy mahsulotlar — 741,7 mln
- Mineral yoqilg'ilar va moylash mahsulotlari — 636,5 mln
- Turli tayyor mahsulotlar — 574,2 mln
- Mashina va asbob-uskunalar — 492,4 mln
- Nooziq-ovqat mahsulotlari — 388,1 mln
- Import — 17,9 mlrd dollar
- Mashina va transport asbob-uskunolari — 6 mlrd
- Sanoat mahsulotlari — 3,3 mlrd
- Kimyoviy mahsulotlar — 2,5 mlrd

- Oziq-ovqat mahsulotlari — 1,7 mlrd
- Xizmatlar — 1,2 mlrd
- Turli tayyor mahsulotlar — 1 mlrd
- Mineral yoqilg'ilar va moylash mahsulotlari — 900 mln
- Nooziq-ovqat mahsulotlari — 881 mln.

Mamlakat eksportining qariyb yarmi sanoat mahsulotlari hamda xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Import tarkibining uchdan bir qismini mashina va transport asbob-uskunolari tashkil etadi. Shuningdek, sanoat mahsulotlari va kimyoviy tovarlar import tarkibida sezilarli ulushga ega.

Ma'lumot uchun, 2021 yilning birinchi yarmi yakuniga respublikaning tashqi savdo aylanmasi 18 mlrd dollarni tashkil etib, 2020 yilga nisbatan 2,1 mlrd dollarga yoki 13,6% ga ko'paygan.

10.1. Xalqaro savdo mutlaq afzallik nazariyasi (A.Smit). Xalqaro savdoda qiyosiy afzalliklar (D. Rikkardo nazariyasi) va ularni tashqi savdo rivojiga ta'siri.

Xalqaro savdo bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Iqtisodiy resurslarning harakatchanligi mamlakatlar o'rtasida mamlakat ichidagiga qaraganda ancha past bo'ladi. Musalan, ishchilar mamlakat ichida viloyatdan viloyatga, hududdan hududga erkin o'tishi mumkin. Mamlakatlar o'rtasidagi til va madaniy to'siqlardan tashqari yana immigratsion qonunlar ishchi kuchining mamlakatlar o'rtasidagi migratsiyasiga qattiq cheklashlar qo'yadi. Soliq qonunchiligidagi, davlat tomonidan tartibga solishning boshqa tadbirlaridagi farqlar va boshqa qator muassasaviy to'siqlar real kapitalning milliy chegara orqali migratsiyasini cheklaydi.

2. Har bir mamlakat har xil valyutadan foydalanadi. Bu mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdoni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

3. Xalqaro savdo siyosiy aralashuv va nazoratga mahkum bo'lib, bu ichki savdoga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlardan tavsifi va darajasi bo'yicha sezilarli farqlanadi.

Xalqaro savdoning tarkibiy tuzilishi ishlab chiqarish asosiy omillarining turli mamlakatlar o'rtasida joylashuvi hamda jahon ishlab chiqarishi tuzilmasiga bog'liq. Agar bundan bir asr muqaddam xalqaro savdoda ustun ravishda xomashyo, materiallar, oziq-ovqat va yengil sanoat mahsulotlari ayirboshlangan bo'lsa, bugungi kunga kelib sanoat tovarlari, ayniqsa mashina va asbob- uskunalarining salmog'i sezilarli darajada o'sdi. Intellektual tovarlar va xizmatlarning ulushi ham keskin ravishda oshib, umumiy savdo aylanmasining 10 foiziga qadar yetdi. Shuningdek, xalqaro savdoni tashkil etish shakllari ham takomillashib bormoqda. An'anaviy ko'rinishdagi tovar birjalari, auksionlar, savdo-sanoat yarmarkalari,

savdo ko'rgazmalari bilan bir qatorda ikki tomonlama bitimlarning quyidagi shakllari ham keng qo'llanmoqda:

- 1) barter – tovarlarni to'g'ridan-to'g'ri, pul ishtirokisiz bir-biriga ayirboshlash. Barterda pul ishtirok etmasada, tovarlarning qiymatini bir-biriga taqqoslash uchun pulning qiymat o'lchovi vazifasi orqali baholab olinadi;
- 2) eksport qiluvchilar tomonidan yetkazib berilgan tovarlar qiymatining bir qismiga import tovarlarni xarid qilish;
- 3) texnikaning yangi modellarini sotishda eskirgan modellarni sotib olish;
- 4) import qilingan asbob-uskunalar qism va detallarini importga sotuvchi mamlakat tomonidan butlab berish;
- 5) kompensatsion bitimlar. Mazkur bitimlar shartiga ko'ra, texnologik asbob-uskunalar yetkazib beruvchi tomonlarning biri taqdim etgan kredit (moliyaviy, tovar ko'rinishidagi) bo'yicha to'lovlar ana shu asbob-uskunalarda tayyorlangan tayyor mahsulotlarni yetkazib berish orqali amalga oshiriladi;
- 6) bir mamlakatda undirilgan xomashyoni boshqa bir mamlakat ishlab chiqarish quvvatlari yordamida qayta ishlashda ushbu qayta ishlash va tashib berish xizmatlarini qo'shimcha xomashyo yetkazib berish orqali to'lash;
- 7) kliring operatsiyalari, ya'ni o'zaro talab va majburiyatlarni hisobga olish orqali naqd pulsiz hisoblashuv.

Ikki tomonlama savdo tamoyilida amalga oshiriluvchi xalqaro operatsiyalar barcha hajmida barter bitimlari 4 foiz, ikki tomonlama xarid – 55 foiz, kompensatsion bitimlar – 9 foiz, kliring operatsiyalari 8 foizni tashkil etadi.

Xalqaro savdoda ishtirok etish har bir mamlakat uchun milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatdan himoya qilish vazifasini dolzarb qilib qo'yadi. Bu vazifa mamlakatlarning savdo siyosati orqali amalga oshadi. Jahon amaliyotida bu siyosatning **proteksionizm (tashqi ta'sirdan himoyalash)** va **fritrederlik (savdoga to'liq erkinlik berish)** kabi shakllari keng tarqalgan.

Jahon bozori va jahon xo'jaligi. Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarni tasniflash.

Jahon bozori – xalqaro mehnat taqsimoti orqali bir-birlariga bog'langan turli mamlakatlar o'rtasidagi barqaror oldi-sotdi munosabatlaridir.

Jahon bozori tovarlar, xizmatlar, ilmiy ishlanmalar va mehnat bozolaridan iborat. Jahon bozori milliy bozordan farq qilgani holda ishlab chiqarishning mamlakatlararo ixtisoslashuviga va shunga ko'ra ularning bir-biriga tovarlar yetkazib berish zarurligiga asoslanadi. Milliy bozordagi ko'pgina tovarlar jahon bozorida bo'lmaydi. Jahon bozorida savdo-sotiq turli mamlakatlardagi tovar ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farqqa asoslanadi. Agar tovarlarni mamlakat ichida ishlab chiqarish xarajatlari uning jahon bozorida narxidan past bo'lsa,

eksport qulay bo'ladi, ya'ni foydali bo'ladi, agar bu xarajat yuqori bo'lsa, import yuz beradi.

Jahon bozorida maxsus narxlar – kontrakt narxlari bor, bu narxlar baynalminal xarajatlarni, xalqaro miqyosdagi talab-taklif nisbatini va raqobat sharoitini aks ettiradi. Jahon bozoridagi savdo operatsiyalaridan ko'riladigan foyda miqdori eksport va import qilinayotgan tovarlarning milliy va baynalminal ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farqqa bog'liq bo'ladi. Uning samaradorligini oshirishning asosiy yo'llari mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini kamaytirish, mahsulotning sifatini oshirish, tashqi savdo xizmatlarini yaxshilash, shuningdek, jahon bozoridagi o'zgarishlardan ustalik bilan foydalanish hisoblanadi. Jahon bozori o'ziga xos infratuzilma orqali amal qiladi. Bu xalqaro tovar birjalari, fond birjalari, banklar, auksionlar, moliya-sug'urta, savdo-sanoat kompaniyalari va ishga yollovchi firmalardir. Bozor iqtisodiyoti tabiatan baynalminal va shu sababdan ham milliy doiradan tashqari chiqib xalqaro miqyosda aylanadi. Bozor iqtisodiyotining ko'p asrlik taraqqiyoti natijasida XIX va XX asr bo'sag'asida kapitalistik xo'jalik ko'rinishida bo'lgan jahon xo'jaligi vujudga keldi va rivojlanib boradi.

Jahon iqtisodiyotining eng muhim xarakterli tomonlaridan biri xalqaro mehnat taqsimoti asosida xalqaro sohada xar tomonlama o'zaro aloqalarning shakllanishi va xo'jalik hayotining baynalminallashuvidir.

Jahon xo'jaligi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi milliy, mintaqaviy va umumjahon miqyosda mehnat taqsimotining chuqurlashib borishi, turli mamlakatlar milliy iqtisodining yakkalik holatidan chiqib davlatlararo xo'jalik tizimiga kirib borishining natijasidir. Xalqaro mehnat taqsimoti jahon xo'jaligining moddiy asosini tashkil qiladi. Mehnat taqsimotining rivoji milliy doiradagi xo'jaliklarni va alohidalashgan ishlab chikaruvchilarni dastlab yagona ichki bozorga, keyinchalik esa umumjahon bozori dorasiga tortadi.

XMTning chuqurlashib borishi mamlakatlar o'rtasidagi fan-texnika, ishlab chiqarish, savdo-iqtisodiy aloqalarning ob'ektiv asosi hisoblanadi va shu tufayli ishlab chiqarishning baynalminalligi umumjahon jarayoniga aylanadi. Xullas, XMT – butun jahon xo'jaligining tashkil topishi va rivojlanishining hal qiluvchi omilidir. Jahonda mashinalashgan ishlab chiqarish, eng avvalo sanoatning paydo bo'lishi va uning rivojlanishi alohida mamlakatlar xo'jaligini bir-biriga bog'lab barcha maxalliy mayda bozorlarni jahon bozoriga birlashtirdi. Jahon xo'jaligi ikki guruh munosabatlarining sintezidan iborat.

Birinchi – sof bozor munosabatlari. Bu xalqaro bozorda tashkil topgan narx asosida ekvivalent ayirboshlash, o'zaro raqobat, pul bilan muomala qilish, foyda topishga intilish va boshqalar. Bu munosabatlar iqtisodiy aloqalar tizimiga yetakchilik qiladi, ammo ular tanxo emas.

Ikkinchisi – muntazam hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlari bo'lib, ular foyda olish tamoyiliga asoslanmaydi, raqobat o'rniga hamkorlik, sheriklik aloqalari

hukmronlik qiladi. Xalqaro munosabatlarda ular ikkilamchi, xali yetakchi mavqega ega bo'lmagan.

Har qanday davlat o'zining iqtisodiy taraqqiyotini o'zga mamlakatlar bilan iqtisodiy va ishlab chiqarish aloqalarisiz tasavvur eta olmaydi. Bu xalqaro mehnat taqsimoti, jahon bozori, jahon savdosi, baynalminal ko'lamda ishlab chiqarishning umumlashuvi, fan-texnika taraqqiyotining ishlab chiqarish kuchining xalqaro ta'siri kabi omillarning rivojlanishini talab etadi. Mamlakatlarning milliy xo'jalik yaxlitligini saqlab qolgan holda xalqaro mehnat taqsimoti asosida jahon xo'jaligi shakllanadi.

Jahon munosabatlari o'z ob'ekti va sub'ektiga ega. Xalqaro miqyosda resurslarning taqsimlanish va samarali ishlatilishi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, uning kooperatsiyasi, iqtisodiy integratsiya, savdo, ilmiy-texnikviy hamkorlik, qoloqlik va qashshoqlikka chek qo'yish, ekologiyaga putur yetkazmaydigan iqtisodiy faoliyat yuritish kabilar umumjahon munosabatlarining ob'ekti bo'lsa, turli davlatlar, xalqaro va milliy firmalar, xalqaro tashkilotlar, uning sub'ekti hisoblanadi.

Jahon xo'jaligining o'zi mehnat taqsimoti mahsuli, lekin bu xo'jalik o'rni tobora chuqurlashtirib ishlab chiqarishdagi baynalminallikni kuchaytiradi. Bu esa, ixtisoslashuv asosida xarajatlarni pasaytirish va mahsulotlar, xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi.

Jahon xo'jaligida iqtisodiy aloqalar shakllari o'zgarib, uning ko'rinishlari ko'payib boradi, ishtirokchilar doirasi yangi mamlakatlar hisobidan kengayadi. Keyingi yillarda bu doiraga markaziy Osiyoning yosh davlatlari jumladan O'zbekiston Respublikasi ham kirib keldi. Aloqalarning chuqurlashuvi xalqaro iqtisodiyot integratsiyasini yuzaga chiqardi va integratsiya ularning eng oliy shakliga aylandi. Integratsiyalashuv jarayonida hal etilmagan ko'pdan-ko'p muammolar mavjudki, bizning Respublikamiz uchun bu tashqi iqtisodiyot va valyuta siyosatini yanada erkinlashtirishdan iborat.

Jahon xo'jaligidagi iqtisodiy integratsiya – milliy bozorlar va mamlakatlar milliy xo'jaliklari o'rtasidagi o'zviy bog'liqlik, hamjihat rivojlanishni ta'minlash, turli mamlakatlar doirasida resurslarning erkin harakat qilishi, yagona umumiy bozor tashkil qilish maksadlarida birlashuvidir.

Xalqaro integratsiya uchun uchta shart talab qilinadi. Birinchidan, mashinalashgan ishlab chiqarish chuqr ixtisoslashadi va tashqi aloqalarsiz rivojlana olmay koladi. Ikkinchidan, turli mamlakatlar iqtisodiy darajasida g'oyat kata tafovut bo'lmaydi, uarning darajasi bir-biriga yaqin turadi. Uchinchidan, turli mamlakatlar hududiy umumlikka ega bo'lib, ularning tarixan rivojlangan aloqalari mavjud bo'ladi. Mana shu shartlar borligidan 1958 yilda Yevropa iqtisodiy uyushmasi tashkil topib, bunga 15 ta mamlakat birlashgan.

Bu uyushmaning asosiy vazifasi ishtirokchi mamlakatlar doirasiga resurslar, tovarlar, xizmatlar harakatini milliy chegaradan xoli ravishda erkin ko'chib yurishni

ta'minlash, umumiy bozorlarni vujudga keltirish, bozor vositasida tovarlarni davlatlararo aholi talab-ehtiyojini qondirish va yuksak iqtisodiy rivojlanishga erishishdir.

Yangi integratsion ittifoq – Shimoliy Amerika uyushmasi bo'lib, AQSh, Kanada va Meksikani birlashtirgan. Sharq mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiyot integratsiya shakllaridan biri – Iqtisodiy hamkorlik hisoblanadi. Bu ittifoq 1964 yili Eron, Turkiya, Pokiston ishtirokida tuzilgan. Texnika – iqtisodiy va madaniy hamkorlik qilish, mazkur integratsiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bu iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga 1992-1993 yillarda Markaziy Osiyo davlatlari va Ozorbayjon qo'shilgan. Integratsiya resurslarining eng samarali, binobarin, texnika jihatidan ilg'or ishlab chiqarish sohalarga to'planishga yordam berib, bir-birini o'zaro to'ldiradigan milliy xo'jaliklarni yaratiladiki, ularning yaxlitligi yagona ishlab chiqarish kompleksini shakllantiradi. Natijada xalqaro ishlab chiqarish infratizimini va bozor infratuzilmasi yuzaga keladi, ilmiy texnikaviy ishlab chiqarish, savdo, moliya sohasidagi hamkorlik muntazam va doimiy tus oladi.

Markaziy Osiyodagi integratsiya samarali va katta istiqbolga ega. Har qanday ishlab chiqarish eng avval umumiy iqtisodiy faoliyat bo'lib, unga xos belgilardan biri ixtisoslashuvdir. Ixtisoslashuv asosida mehnat taqsimoti ijtimoiy mehnat faoliyatining sifat jihatidan ajralishini bildiradi. Mehnat faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi birgalikda muayyan maydon doirasida ham taqsimlaninishi ro'y beradi.

Xalqaro mehnat taqsimoti ijtimoiy mehnatning turli davlatlar yoki davlatlar guruxi o'rtasida taksimlaninishi, ishlab chiqarishning baynalminal miqyosida ixtisoslashuvini bildiradi, davlatlararo iqtisodiy aloqalarni zaruratga aylantiradi.

Xalqaro mehnat taqsimoti mehnat taqsimotining eng yuksak darajasi hisoblanadi. Xalqaro mehnat taqsimoti XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida shakllandi.

Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarning tasniflanishi

Jahon xo'jaligida har bir o'zgarishlar (jahon bozoridagi narxlar harakati va alohida mamlakatning eksport imkoniyatidan tortib dunyo iqtisodiyotidagi tarkibiy siljishlar va xalqaro monopoliyalar faoliyatigacha) dunyodagi barcha mamlakatlar manfaatini o'ziga tortadi. Mamlakatning savdo, ishlab chiqarish, valyuta-moliya sohasidagi jahon tamoyillariga bog'liqlik ob'ektiv reallik hisoblanadi. Hozirgi davrda har qanday mamlakatni uning iqtisodiyoti qanday rivojlangan bo'lishidan qat'iy nazar, jahon xo'jaligi aloqalariga jalb qilmasdan to'laqonli iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas.

Dunyo bir-biridan maqsadlari, amal qilish mexanizmi bilan farqlanuvchi turli xil ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, xalqaro guruhlariga bo'lingan. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash har xil mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Turli mamlakatlarning **iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarining** turli-tumanligi ular taraqqiyot darajasini qandaydir bitta nuqtai-nazardan baholash

imkonini bermaydi. Shunga ko'ra, mazkur maqsadda bir necha asosiy ko'rsatkich va mezonlardan foydalaniladi:

- mutlaq va nisbiy YaIM;
- milliy daromad va uning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdori;
- milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi;
- mamlakat eksporti va importi tarkibiy tuzilmasi;
- aholining turmush darajasi, sifati va boshqalar.

Mamlakatning jahon xo'jaligidagi o'rnini aniqlashda bir necha yondashuvlar mavjud. Ulardan eng oddiylari – mamlakatlarni **aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad darajasi** bo'yicha guruhlariga ajratish hisoblanadi. Bunday yondashuv BMT, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon tiklanish va taraqqiyot banki (JTTB) tomonidan qo'llaniladi. Masalan, JTTB daromad darajasiga ko'ra mamlakatlarning uchta guruhini farqlaydi. 2015 yili aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi milliy daromadlarning quyidagi chegaraviy miqdorlari belgilangan edi:

- daromadlarning past darajasi – 765 dollargacha (49 ta mamlakat);
 - daromadlarning o'rtacha darajasi – 766 dollardan 9385 dollargacha (58 ta mamlakat);
 - daromadlarning yuqori darajasi – 9386 dollar va undan yuqori (26 ta mamlakat).
- Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlashga umumiy asosda yondashib **xo'jalik tizimlarining xususiyatlariga** mos ravishda davlatlarning uchta guruhini ajratib ko'rsatish mumkin: rivojlangan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan holda rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyoti mavjud bo'lmagan mamlakatlar.

Rivojlanganlik darajasi bo'yicha ham o'z navbatida uchta guruh farqlanadi: past, o'rtacha va yuqori rivojlangan mamlakatlar. Shimoliy-sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar (YaIM), yuqori daromadli neft eksport qiluvchi mamlakatlar (Saudiya Arabistoni, Quvayt va boshqalar), eng kam rivojlangan 16 mamlakatlar (EKRM), shu jumladan eng kambag'al mamlakatlar (Chad, Bangladesh, Efiopiya), har xil mintaqaviy ittifoqlar va baynalminal guruhlariga ajratiladi. Bu barcha turli-tumanlik bir butun yaxlitlikka o'zaro iqtisodiy bog'liqlikning har xil jihatlari orqali tortiladi. Hozirgi xo'jalik aloqalarining chuqurlashib borayotganligi, baynalminallashuvning kuchayishi hamda fan-texnika inqilobining keng qamrovli tavsifi, aloqa va kommunikatsiya vositalarining butunlay yangi roli sharoitida milliy iqtisodiyot o'z-o'zini ta'minlash orqali samarali amal qilishi mumkin emas.

Jahon xo'jalik aloqalarining tez o'sishi shunday davrlarga to'g'ri keladiki, bu davrda ishlab chiqarish omillarining harakati tezlashadi, kapital milliy chegaradan o'sib chiqadi, ishchi kuchi migratsiyasi kuchayadi, xalqaro mehnat taqsimotining shakllanish jarayoni tezlashadi. Bu shundan guvohlik beradiki, xo'jalik

aloqalarining baynalminallashuvini ko'p jihatdan ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish mantiqi taqozo qiladi, ya'ni u milliy chegaradan o'sib chiqadi va ob'ektiv ravishda ishlab chiqarishning baynalminallashuvini zarur qilib qo'yadi.

Xalqaro savdoning rivojlanish bosqichlari.

XX asrning so'nggi yillarida sobiq Ittifoqning parchalanishi, mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalarning sifat jihatdan yangi bosqichga chiqishi, milliy xo'jalik aloqalarining integratsiyalashuvi bilan, globalizatsiya jarayonlarining jadallashuvi yuz berdi. Globalizatsiya natijasida jahon xo'jaligining tarkibiy qismiga aylanib borayotgan mamlakatlarning soni ortib bormoqda. Bu milliy darajadagi huquqiy, iqtisodiy hamda texnologik to'siqlar yo'qolishiga, uning o'rniga xalqaro iqtisodiy xo'jalikning umumiy iqtisodiy qonuniyatlari va xalqaro xo'jalikning funksional aloqalarini tatbiq etilishiga olib kelmoqda.

Mamlakatlar hayotidagi globalizatsiya - iqtisodiy munosa-batlardagi tovarlar, xizmatlar, kapital hamda fond bozorlaridagi savdo va siyosatga doir tartiblarning tobora erkinlashuvi orqali namoyon bo'lmoqda. Tashqi savdo aloqalari erkinlashtirilayotgan mamlakatlar soni yil sayin ortib bormoqda.

Jahon iqtisodiy va moliyaviy muhitining shakllanishiga ta'sir etgan sezilarli o'zgarishlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) 1957 yili Londonda Britaniya hukumatining funt sterling ustidan nazorat o'rnatishiga javob tariqasida yevrodollar bozorining yuzaga kelishi;

2) 1958 yilda dastlab, "Umumiy bozor" deb atalgan Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi (EIX) - hozirgi Yevropa Ittifoqining (EI) tashkil topishi;

3) Amerika korporatsiyalari xorijiy faoliyatlarini kengaytirishga intilishi (1950 yillardan boshlab). Jahon bozorida Yevropa va Yaponiya korporatsiyalari faoliyatining sezilarli o'sishi, shuningdek, xalqaro maydonda Amerika korporatsiyalari bilan ushbu mamlakatlar o'rtasida raqobatning kuchayishi;

4) O'tgan asrning 60-yillarida Yaponiya iqtisodiyotini tez sur'atlar bilan o'sishi, Uzoq Sharq biznes faoliyatida yangi imkoniyatlarning ortishi;

5) 1971-1973 yillarda Brettonvud tizimini qulashiga olib kelgan jahon moliya inqirozlari, valyutaning belgilangan kursi tizimidan, suzuvchi valyuta kurslariga o'tish;

6) 1971-1979 yillardagi birinchi va ikkinchi neft inqirozlari jahon iqtisodiy tizimiga bosim o'tkazishi. Ushbu sanalarda neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK) neft narxini sezilarli darajada oshirishi;

7) Rivojlanayotgan mamlakatlarning 1982 yilda tashqi qarzlarga xizmat ko'rsatishi bilan bog'lik jahon qarzdorlik inqirozining boshlanishi;

8) 1980 yillarda Yaponiyaning xalqaro moliyaviy kuch va jahon kapitalining manbasi sifatida yetakchi mamlakatga aylanishi;

9) 1987 yilda yettita mamlakatning ("Katta yettilik") Parijda Luvr bitimini imzolashi. Ular o'z valyuta kurslarining dollarga nisbatan tor tebranish doirasida sun'iy ravishda almashtirish orqali, kuchsizlanib borayotgan dollarni qo'llab-

kuvvatlashni rejalashtirdilar. Shuningdek, ushbu mamlakatlar kelishilgan iqtisodiy siyosat yuritishni mo'ljalladilar;

10) 1987 yilda YeIX yagona Yevropa aktini qabul qilish orqali 1992 yilda yaxlit Yevropa bozorini tashkil qilishni rejalashtirilishi. Bunda, mazkur tashkilotning G'arbiy Yevropa moliyaviy va iqtisodiy holatiga sezilarli ta'sir etishi kutildi;

11) 1989-1992 yillarda Sharqiy Yevropa mamlakatlari o'z siyosiy yo'nalishlarini o'zgartirishi. Ularning kommunistik dunyoqarashdan ko'p partiyaviylikka, markazdan rejalashtiriladigan iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishi, jahondagi siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy holatga chuqur ta'sir etdi;

12) 1992 yildan keyin yaxlit Yevropa bozorining yuzaga kelishi, 1993 yil noyabr oyidan erkin savdo bo'yicha Shimoliy Amerika bitimining kuchga kirishi, 1993 yilda Osiyo-tinch okeani iqtisodiy hamkorligi konferensiyasi va boshqa jarayonlar, o'tgan asrning 90-yillarida hududiy rivojlanishni jadallashtirdi.

XX asr bo'sag'asida jahon iqtisodiyotida to'rtta asosiy tarkibiy an'ana kuzatildi:

birinchidan, xomashyo eksportiga asoslangan hamda sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlardagi o'zgarishlar. Xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar va sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasida an'anaviy iqtisodiy aloqalar mavjud bo'lib, ularning o'zaro munosabatlar modeli quyidagicha edi: xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar, xomashyoni eksport qilib, olingan valyuta tushumlaridan sanoat mahsulotlari importini moliyalashtirganlar. O'tgan asrning 70-yillarida "Rim klubi" nomi bilan mashhur G'arbiy Yevropa olimlari "dunyo miqyosida tez orada tabiiy resurslarning global taqchilligi yuzaga keladi", deb bashorat qilgan edilar.

Ushbu mulohazalarga asoslanib ko'pgina xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar xomashyo sotish evaziga valyuta tushumini oshirish maqsadida kartellarga birlashdilar. Ammo, sanoat texnologiyasi va qishloq xo'jalik sohasining keskin rivojlanishi, xomashyoga bo'lgan talabning qisqarishiga ta'sir ko'rsatdi va natijada xomashyo bahosining pasayishi yuz berdi.

ikkinchidan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarishdan, bilim va malakaga asoslangan ishlab chiqarishga o'tildi.

Jahon iqtisodiy tuzilmasidagi ushbu o'zgarishlar natijasida bandlik tarkibida yuqori malaka talab qiluvchi mutaxassislariga ehtiyoj ortib, nisbatan past malakali mutaxassislariga talab pasayib bordi. Axborot almashuvining osonligi - tadbirkorlik faoliyatini, kichik biznes va shaxsiy tashabbusni rag'batlantirdi.

Ilmiy-texnika progressi yutuqlaridan foydalanish, bilimni va yuqori malakani talab qildi, shuning uchun ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlikni oshirish uchun, inson kapitaliga investisiya qilish muhimligi ortdi.

uchinchidan, jahon savdosida xalqaro kapital harakatining sezilarli darajada ortishi. Ushbu o'zgarish xalqaro savdoga nisbatan xalqaro kapital harakatining tez sur'atda o'sishi bilan yuz berdi. Xalqaro moliya statistikasining ma'lumotlariga ko'ra, jahon eksporti hajmi, 1981 yildagi 2000 mlrd. AQSh dollaridan 1991 yilda 3447 mlrd. AQSh dollari darajasigacha o'sgan. Shu vaqt oralig'ida xalqaro obligatsiyalar emissiyasi 23 mlrd.dan 342 mlrd. AQSh dollariga o'sdi. Bundan tashqari, uchta yetakchi xalqaro moliya bozorlarida ko'plab xorijiy valyutalar aylanmasi sezilarli darajada o'sdi. 1986 yildan 1992 yilgacha Londonda xorijiy valyutaning kunlik o'rtacha aylanmasi 90 mlrd.dan 303 mlrd. AQSh dollarigacha ortdi. Shu davrda Nyu-Yorkdagi kunlik aylanma 50 mlrd.dan 192 mlrd.ga, Tokioda 48 mlrd.dan 128 mlrd. AQSh dollariga ortgan.

To'rtinchidan, transmilliy korporatsiyalar (TMK)ning qo'shma korxonalarini tashkil etish uchun xalqaro investitsiyalari va hamkorlik bitimlarida diversifikatsiya darajasining ortishi.

Bunda asosiy o'zgarish sifatida TMKlar va ularning turli mamlakatlarda qo'shma korxonalarini sonining o'sib borishini ko'rsatish mumkin.

TMKlar o'zlarining tashkiliy, ishlab chiqarish va marketing tizimlarini chet mamlakatlar hududlariga yoyib, shu yo'l bilan tovar, xizmat, kapital va texnologiyalarini ishlab chiqarishga jalb etib, ushbu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro harakatlarga ta'sir etdi. Qo'shma korxonalar xalqaro biznes integratsiyasining keng tarqalgan shakliga aylandi.

Shuningdek, jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv jarayonlarida xalqaro tashkilotlar rolini alohida e'tirof etish zarur.

Jahon savdo tashkiloti (JST), Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTb), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IXRT), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va shu kabi xalqaro institutlar hamda yetakchi mamlakatlar boshliqlari va moliya vazirlarining xar yili bo'lib o'tadigan uchrashuvlarining xalqaro munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati ortib bormoqda. Texnologiyalar bo'yicha, atrof-muhitni asrash, moliya institutlarining faoliyati, buxgalteriya hisobotlari, milliy statistika (milliy hisoblar tizimi) va boshqalarga yagona andozalarni qo'llash kengaymoqda. Ushbu andozalar ta'lim va madaniy sohalarga yoyilmoqda.

Xalqaro tashkilotlar orqali makroiqtisodiy siyosatning yagona mezonlari tatbiq etilmoqda. Valyuta-kredit, soliq, tashqi iqtisodiy siyosat, bandlik sohasi bo'yicha qo'yiladigan talablarning bixillashuvi yuz bermoqda, xalqaro raqobat qoidalari ishlab chiqilmoqda.

Bu jarayonlar qanchalik jadal sur'atlarda amalga oshirilmasin, zamonaviy jahon iqtisodiyoti to'la global holatda faoliyat yuritayotgani yo'q, balki u endi globallashuv jarayonlarining dastlabki bosqichlarini boshdan kechirmokda.

O'tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarning jahon bozoriga integratsiyalashuvi uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Ba'zi milliy bozorlarning

ochiq, ba'zilarining qattiq tartibga solinadigan bo'lgan hozirgi holati bilan, globallashuvning asosiy tamoyillaridan bo'lgan erkinlashuv, bir-biriga nomuvofiq bo'lgan ko'rinishni hosil qilmoqda.

Xalqaro tovarlar, xizmatlar va kapitallar almashinuvining erkinlashish an'anasi kengayotgan bir paytda, har bir davlat eksport va importni tartibga solishning ma'lum instrumentlarini saqlab qolmoqdalar. Ularning asosiy maqsadi - tarkibiy qayta qurish va inqiroz davrining qiyinchiliklarini yengib o'tish, milliy xavfsizlikni ta'minlash - takror ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlovchi (energetika, transport, aloqa va h.k.) va mamlakat mudofaa qobiliyati kabi strategik sohalarni moliyaviy ta'minlash, shuningdek, savdo sheriklardan munosib imtiyozlar olish, shuningdek, byudjet tushumlarini oshirishdan iborat bo'lmoqda. Amaldagi bunday proteksionizm fiskal muammolarni hal etishdan ko'ra, ko'prok tarkibiy siyosat o'tkazish vositasi hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda nafaqat erkin savdo g'oyasi (erkinlashuv) bilan proteksionizm o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga chiqmoqda, balki milliy xo'jalikni jahon xo'jaligiga kirish samarasini maksimal tarzda ta'minlash maqsadida, xo'jalikni tartibga solishning yuqoridagi ikki instrumentining optimal aralashmasidan foydalanilmokda. Bunday aralashmaning shakli va nisbatlari, ma'lum vaqtdagi pragmatik manfaatlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda globalizatsiya bilan birga, integratsiya jarayonlarining yana bir shakli - ma'lum geografik joylashuvga asoslangan hududiy integratsiya (hududiylashuv) yuz bermoqda.

O'sib boruvchi globallashuv, hududiylashuv, iqtisodiyotning transmilliylashuvi va integratsiya natijasida, eski - davlatlararo tartibga solish mexanizmi tubdan o'zgardi. Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar ikkiyoqlama munosabatlar chegarasidan chiqib, ko'pyoqlama tus olmoqda.

Ammo, "milliy xo'jalik majmui", "mamlakatning milliy iqtisodiy manfaatlari" tushunchalari o'z ma'nosini saqlab qolmoqda. Milliy xo'jalik hamon ishlab chiqarish, almashuv, taqsimot va iste'mol, shuningdek, iqtisodiy faoliyatning asosiy markazidir.

Har bir davlatning yillar davomida shakllangan o'z tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy - madaniy rivojlanish xususiyatlari mavjud bo'lib, boshqa mamlakatlarning tajribalarini ko'r-ko'rona ko'chirib olish, yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etiladigan, iqtisodiy rivojlanishning hamma uchun umumiy retseptlarini qo'llash, samarasiz va iqtisodiy vaziyatni izdan chiqarishi mumkin.

Jahon xo'jaligiga kirishda ilg'or mamlakatlarning boy tajribalariga taxliliy yondoshish va ushbu tajribalarni milliy xususiyatlar bilan eng optimal tarzda uyg'unlashtirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, o'zining mustaqil tashqi iqtisodiy siyosatini olib borish imkoniyati yuzaga chiqdi. Respublikaning tashqi iqtisodiy siyosati xalqaro moliyaviy munosabatlarda mamlakat milliy

manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan holda amalga oshiriladi va u quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar tashqi munosabatlarda oshkoralik;
- teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- o'zining milliy-davlat manfaatlari ustuvorligida o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish;
- respublika biron-bir davlatning ta'sir doirasiga kirmasligi tamoyiliga to'la amal qilish;
- to'la ishonch, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish asosida ikki tomonlama, shuningdek, ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va ularni rivojlantirish;
- umume'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlariga rioya etish.

Tashqi iqtisodiy soha tarmoqlari majmuini vujudga keltirmasdan turib, shuningdek, moliya, bank-kredit tashkilotlari, bojxona xizmati ishini xalqaro me'yorlar va talablar darajasida yo'lga qo'ymasdan turib, xalqaro aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni tasavvur etib bo'lmaydi. Tashqi savdo, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarda quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi:

birinchidan, respublikaning eksport qudratini rivojlantirish va yanada mustahkamlash, eksportga yunaltilgan iqtisodiyotni shakllantirish;

ikkinchidan, eksport imkoniyatini kengaytirish, jahon bozoriga kirib borish uchun, avvalo, qimmatbaho xomashyoni qayta ishlash negizida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarni rivojlantirish;

uchinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo'jalik ishlarini yurituvchi sub'ektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o'rnatishda, o'z mahsulotlarini chet ellarda sotishda ko'proq erkinlik berish, tovarlarni eksport va import qilishda birmuncha imtiyozli tartibni joriy qilish borasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat o'tkazish;

turtinchidan, xorijiy sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga keng ko'lamda jalb etish uchun zarur huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda boshqa sharoitlarni yaratish;

beshinchidan, xalqaro moliyaviy munosabatlarning tarkibiy majmuini vujudga keltirish;

oltinchidan, xalqaro huquq va xalqaro moliyaviy munosabatlar sohasida malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish. Integratsiya munosabatlari, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanadi. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda - dunyo miqyosida va mintaqa ko'lamida integratsiya jarayonlariga qatnashsada, ammo bir muhim qoidaga amal qiladi, ya'ni: bir davlat bilan yaqinlashish boshqa

bir davlat bilan uzoqlashish hisobiga bo'lmashligi lozim. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy jihatdan rivojlangan bozor tizimiga ega bo'lgan, demokratik davlat haqidagi hozirgi zamon tushunchalariga mos ravishda jahon hamjamiyatiga kirishishi mumkinligiga asoslanadi. Mamlakat jahon hamjamiyati bilan hamkorlik o'rnatgan takdirdagina, ya'ni xalqaro mehnat taqsimotida o'zining munosib o'rnini topganda, mintaqa va butun dunyo xavfsizlik tizimlarini barpo etishda faol ishtirok etgandagina uni iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning yangi sifat bosqichga olib chiqish imkoniyatlari kengayadi. O'zbekiston Respublikasi rivojlanish va taraqqiyot yo'liga qadam qo'yib, iqtisodiy hamkorlik sohasidagi ko'pgina nufuzli xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a'zolari safiga kirib kelmokda. Qisqa vaqt oralig'ida respublika XVF, Jahon banki, XMT, Jahon sog'likni saqlash tashkiloti (JSST), Osiyo va Tinch okeani ijtimoiy-iqtisodiy komissiyasi (OTIK), YeTTB, Xalqaro Moliya korporatsiyasi (XMK), Hamdo'stlikning mintaqaviy iqtisodiy tashkiloti (XMIT) va shu kabi qator xalqaro moliyaviy tashkilotlarga qabul qilindi. Jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv hakida so'z borganda, BMT faoliyatida O'zbekistonning ishtiroki e'tiborga loyiq xodisa. Faqat BMTgina xavfsizlikni saqlash va ta'minlashga qaratilgan diplomatiyadan to tinchlik o'rnatishga qaratilgan operatsiyalarda qatnashishgacha bo'lgan vositalarga ega.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning strategik maqsadi - davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar: YeI, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti (EXXT), Shimoliy Atlantika bloki (NATO), Qo'shilmaslik Harakati va boshqalar bilan samarali hamkorlik qilmokda.

1996 yilning iyul oyida Florensiyada O'zbekiston bilan YeI Kengashi o'rtasida sherikchilik va hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. Imzolangan ushbu bitim O'zbekistonning xavfsizligi va taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan yana bir muhim hissa bo'lib, bu sherikchilik iqtisodiy, madaniy, ilmiy sohalarni va siyosiy sohalarni qamrab oladi.

Jahon banki bilan birgalikda O'zbekistonda milliy valyutani mustahkamlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish va to'lov balansini qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va korxonalar darajasidagi islohotlarni amalga oshirish uchun tiklanish qarzi berish to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqildi va amalga oshirilmoqda.

Jahon bozorining tovar tuzilmasi.

Hozirgi kunda tovarlarni belgisi va strukturasi ko'ra tasniflashning eng keng tarqalgan usuli tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning Gormonizatsiyalash tizimi (Harmonized Commodity Description and Coding System) hisoblanadi. U bojxona hamkorligi Kengashining Gormonizatsiyalash tizimi bo'yicha Komitet (hozir Jahon bojnona tashkiloti) tomonidan 1983 yil ishlab chiqilgan va 1988 yildan amal qila boshlagan. Kodlashtirish tizimida birinchi ikkita kod soni tovar guruhini bildiradi, to'rtasi – tovar pozitsiyasini, oltinchisi – subpozitsiya.

Ushbu tizim nomenklaturasidagi asosiy elementlar ikki tizimga ega:

- tasniflash tizimi;
- kodlashtirish tizimi.

Tasniflash tizimi 6 pog'onadan iborat

1. bo'limlar;
2. guruhlar;
3. kichik guruhlar (guruhlar bir qismi);
4. tovar pozisiyalari;
5. kichik pozisiyalar (pozisiyalar bir qismi);
6. subpozisiyalar.

Gormonizatsiyalash tizimiga muvofiq tovarlar quyidagi belgilarga asosan guruhlanadi:

- kelib chiqishi bo'yicha (o'simlik, hayvonot);
- foydalanish maqsadiga ko'ra;
- qayta ishlov darajasi bo'yicha.

Foydalanish maqsadiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- ichimlik va oziq-ovqat tovarlari;
 - sanoat xomashyosi;
 - yoqilg'i va moylash materiallari;
 - mashina va asbob-uskunalar;
 - transport vositalari (ishlab chiqarishga va shaxsiy iste'molga mo'ljallangan);
 - aholi iste'moliga mo'ljallangan sanoat mahsulotlari. Qayta ishlov darajasi bo'yicha:
 - xomashyo tovarlari (ishlab chiqarishga mo'ljallangan va mo'ljallanmagan);
 - yarim tayyor mahsulotlar (ishlab chiqarishga mo'ljallangan va mo'ljallanmagan);
 - tayyor mahsulotlar (ishlab chiqarishga mo'ljallangan va mo'ljallanmagan);
- Milliy boj tariflarida tovarlarni bir xil tasniflashni ta'minlash uchun yagona tasniflash tizimini yaratish bo'xona qonunchiligini unifikatsiya qilishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning Gormonizatsiyalash tizimi bo'yicha Xalqaro konvensiyani imzolagan mamlakatlar unga to'liq amal qilishga majbur. Bu jahon savdosida tovarlar bo'yicha statistik ma'lumotlarni olti raqamli kod bo'yicha solishtirish imkonini ta'minlaydi. Xalqaro savdo muammolari ko'p

yillar davomida olim va siyosatchilarni qiziqtirib keladigan masalalardan biri hisoblanadi. Xalqaro savdoning nazariy asoslarini birinchi bo'lib tadqiqot predmeti sifatida o'rgangan va bu yo'nalishda tavsiyalar ishlab chiqqan oqim merkantilizm hisoblanadi.

Merkantilizm tarafdorlari boylikning kelib chiqish manbayi savdoda, mamlakatning boyligi to'plangan pul bilan o'lchanadi degan fikrni ilgari suradilar. Merkantilizm ikki oqimga: dastlabki va so'ngi merkantilizmga ajratiladi. Dastlabki merkantilizm vakillari davlatning kuch qudrati pulda, shunga qarab aholining turmush tarzi shakllanadi deb ko'rsatishadi. Demak, pulni qonuniy yo'l bilan ko'paytirish kerak. Davlat esa qimmatbaho metallarni chetga chiqarmaslikka, importni cheklashga harakat qilishi, chetdan pul kirib kelishini rag'batlantirishi kerak degan g'oyani ilgari suradilar, so'ngi merkantilistlar esa aktiv savdo balansiga erishish, ya'ni ko'proq chetga tovar sotib kamroq chetdan tovar sotib olishni targ'ib etadilar.

Merkantilizm, eng avvalo, davlatning iqtisodiy siyosatini ifoda etgan, uning amaliy faoliyati uchun tavsiyalar ishlab chiqqan. Merkantilistlar tadqiqotining maqsadi reallik sifatidagi iqtisodiyotni tahlil qilish emas, balki hukumatga amaliy maslahatlar berishdir. Shuning uchun ular davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini qo'llab-quvvatladilar, yuqori soliq stavkasini va davlat xarajatlarini himoya qildilar.

Merkantilistlarning ilmiy dunyoqarash tamoyillari quyidagilar bilan tasvirlanadi: har qanday oltin va qimmatbaho narsalarga boylik sifatida qarash; mamlakatga oltin va kumushning oqib kelishini ta'minlash maqsadida tashqi savdoni tartibga solish; arzon xom ashyoni import qilish yo'li bilan sanoatni rag'batlantirish; import qilinadigan sanoat tovarlariga proteksionistik tariflarni belgilash; eksportni, ayniqsa, tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish; ish haqining past darajasini ushlab turish uchun aholining o'sishi. Milliy farovonlikning zaruriy sharti sifatidagi aktiv savdo balansi doktrinasi, shak-shubhasiz, merkantilizmning asosi hisoblanadi.

Shu narsani qayd qilib o'tish kerakki, uzoq yillar davomida boylikning, xalq farovonligining asosi-mehnat, yer, dehqonchilik va chorvachilik, xunarmandchilik deb kelinar edi (uni biz yuqorida ko'rib chiqdik).

Avvalo, natural-xo'jalik tizimining yemirilishi, tovar-pul munosabatlarining o'sishi, fan va madaniyatning yuksalishi, ayniqsa, yangi yerlarning ochilishi, buyuk geografik kashfiyotlar, mustamlakachilik tuzumining paydo bo'lishi, birinchi navbatda, savdoning tez rivojlanishiga turtki bo'ldi. Noekivalent savdo tufayli metropoliyalar mustamlakalar hisobiga beqiyos boyidi. Mana shu davrga kelib jamiyatning boyishida savdoning o'rini asoslab berishga uringan merkantilizm qarashlarida noelastik talab va eksportning importdan ko'p bo'lishining maqsadga muvofiqligi, kapital eksportini rag'batlantirish va jamiyat ishlarini qo'llab-quvvatlash tushunchalari ustunlik qilgan, shuningdek, "qo'shningni quritsang, go'yoki millat boy bo'ladi" kabi noto'g'ri siyosat ilgari surilgan.

Demak, merkantilizm bozor iqtisodiy munosabatlarining vujudga kelish davridagi birinchi iqtisodiy tafakkurlar maktabi sifatida bir qator *nazariy – metodologik xususiyatlarga* ega. Ularning mohiyatiga ko'ra, merkantilistlar:

- *tadqiqot predmeti* (iqtisodiy tahlil) sifatida muomala sohasini tekshirishni afzal ko'rdilar, buning ustiga, ishlab chiqarish sohasidan ajralgan holda;
- *tadqiqot usuli* sifatida asosan iqtisodiy hodisalarning tasodifiy yuzaki tashqi ko'rinishini ifoda etishga olib keluvchi va iqtisodiyotning barcha sohalarini tizimli tarzda tahlil qilish imkoniyatini istisno etuvchi empirizm (nazariyadan ko'ra amaliy faoliyatga ko'proq moyil bo'lishlik)dan foydalandilar;
- *pulning paydo bo'lishini* odamlarning sun'iy ixtirosi natijasi deb hisobladilar, pulning o'zini esa boylik bilan bir narsa deb qaradilar;
- *pul qiymati (qimmatini)* kelib chiqishini oltin va kumush pullarning «tabiiy xususiyati» va mamlakatdagi ularning miqdori bilan bog'lab talqin qildilar;
- *mehnat taklifining oshishini* yuqori ish haqi bilan emas, balki past ish haqi zarurligi bilan bog'lab ko'rsatdilar;
- *iqtisodiy o'sishni* davlatning tashqi savdoni tartibga solish va savdo balansida ijobiy saldoga erishishi tufayli mamlakat pul boyligining ko'payishi natijasi sifatida qaradilar.

Shu bilan birga, merkantilistik maktabning bu va boshqa qoidalari iqtisodiy adabiyotda an'anaviy ravishda uning rivojlanishidagi ikki bosqich – dastlabki va keyingi bosqichlarini hisobga olgan holda tavsiflanadi. Bunday bosqichlarga bo'linish dastlabki va keyingi merkantilistlarning aktiv savdo balansiga, ya'ni tashqi savdoda ijobiy saldoga erishish yo'llarini har xil tushunganligi sababli kelib chiqadi.

Dastlabki merkantilizm «*pul balansini*» siyosatini olib borgan. Bu siyosat pul muomalasini, tashqi savdoni ma'muriy yo'l bilan qattiq tartibga solish asosida mamlakatning pul boyligini ko'paytirishga qaratilgan (mamlakatda pul qancha ko'p bo'lsa, u shuncha boy hisoblangan). Dastlabki merkantilizm oltin va kumushni boylikning mutlaq shakli deb qaradi va uni chetdan olib kelish yo'lini qidirdi. Dastlabki merkantilistlar tashqi savdoda ijobiy saldoga erishish uchun quyidagilar maqsadga muvofiq hisobladilar:

- eksport qilinadigan tovarlarga *maksimum yuqori baho o'rnatishni*;
- tovarlar *importini har tomonlama cheklashni*;
- mamlakatdan oltin va kumushning oqib chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslikni.

Dastlabki merkantilizm davrida hukumat xorijiy savdogarlarni ularning pulini mahalliy pulga almashtirish va ko'proq tovar sotib olishga qiziqtirish maqsadida ataylab chaqalarni buzib, ularning qiymatini pasaytirish bilan shug'ullangan.

Keyinchalik tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi, tashqi savdoning kengayishi merkantalistlarning boylik muammosiga bo'lgan qarashini o'zgartirishga majbur etdi.

Keyingi merkantilistlarning «savdo balansi» nazariyasi (yoki yetuk merkantilizm) Angliyada keng tarqala boshladi. Mazkur konsepsiya vakillari dastlabki merkantilistlarni mamlakatdan tashqariga pul chiqarishni man etgani, importni haddan tashqari cheklagani uchun tanqid qildi. Ularning fikricha, hukumatning tashqi iqtisodiy siyosatdagi asosiy vazifasi – mamlakatda imkoni boricha ko'proq pul mablag'larini jamg'arish emas, balki aktiv savdo balansiga erishishdir (eksportning importdan ustun bo'lishi). *Eksport va import o'rtasidagi farq (ijobiy saldo) – mamlakat boyligining o'sishidir.* Demak, real boylik bu– «o'lik pullar» yig'indisi emas, balki yangi pullarni, ya'ni pul kapitalini vujudga keltiruvchi pullardir.

Shulardan kelib chiqqan holda, keyingi merkantilizm vakillari aktiv savdo balansiga erishish uchun qator tavsiyalarni ilgari surdilar:

- tashqi bozorlarni nisbatan arzon tovarlar sotish yo'li bilan egallash hamda bir mamlakat tovarini olib, boshqalariga uni qimmatiga sotish;
- mamlakatda faqat aktiv savdo balansini saqlab turgan holda, tovarlar importiga ruxsat etish (zeb-ziynat buyumlaridan tashqari);
- qulay savdo ishlarini amalga oshirish uchun oltin va kumushni chetga chiqarish, pirovard natijada mamlakatda ularning massasini ko'paytirish.

Pulning tovarli mohiyatini tan olsa-da, uning qimmatini keyingi merkantilistlar ilgarigidek oltin va kumushning tabiiy xususiyatidan deb qaradilar. Ammo aynan ular metallistik nazariyadan pulning miqdoriy nazariyasiga va monometallizm tizimiga o'tishga sabab bo'lgan. Agar dastlabki merkantilistlar pulning jamg'arish funksiyasini asosiy deb bilgan bo'lsalar, keyingi rivojlangan merkantilistlar – muomala funksiyasini asosiy deb hisobladilar. Keyingi merkantilistlarning ishonchiga ko'ra, pulning qimmatini uning miqdoriga nisbatan teskari bog'liqlikda, tovarlar bahosi darajasi esa pul miqdoriga to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi. Ular, pul taklifining ko'payishi unga bo'lgan talabni oshirgach, savdoni rag'batlantiradi, deb bir tomonlama hisobladilar.

Mutlaq ustunlik nazariyasi

Adam Smit turli mamlakatlarda tovarlarni ishlab chiqarishda mutlaq xarajatlardagi farq xalqaro savdo rivojlanishining asosini tashkil etadi degan tezisni asoslab berdi. Unga ko'ra, ba'zi mamlakatlar boshqa mamlakatlarga nisbatan tovarlarni kam xarajat sarflab, samarali ishlab chiqaradi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu mamlakatlar mazkur tovarlarni ishlab chiqarishda mutloq ustunlikka ega. Mutlaq ustunlik yuqori mehnat unumdorligida va tovarlarni ishlab chiqarishga ketadigan kam xarajatlarda namoyon bo'ladi.

Savdoni sun'iy ravishda cheklab qo'yishga A. Smit qarshi chiqdi va qaysi mamlakatning mahsuloti arzon bo'lsa o'sha mamlakat bilan savdo qilishning avzalligi to'g'risida aytib o'tadi. Masalan, A.Smit qayd qilib o'tganidek: "Agar Fransiyaning vinosi Portugaliya vinosidan yaxshi va arzon bo'lsa yoki uning gazlamasi Germaniya gazlamasidan yaxshi bo'lsa, unda Buyuk Britaniya uchun o'ziga kerakli chet el vinosi va gazlamasini Portugaliya yoki Germaniyadan emas, balki Fransiyadan sotib olish foydali". Shuningdek, Shotlandiyada uzum yetishtirish shart emas, chunki u yerda vino Portugaliyaga nisbatan 30 barobar qimmat. Vino qerda arzon bo'lsa o'sha yerdan sotib olish maqsadga muvofiq.

A.Smitning asosiy g'oyasi – *mutlaq xarajatlar* g'oyasidir. Unga ko'ra, mutlaq xarajatlari kam bo'lgan mamlakatlardan tovarlarni import qilish, ishlab chiqarish xarajatlari past tovarlarni esa (ularni xarid qilayotganlarga nisbatan) eksport qilish kerak.

A.Smitning tasdiqlashicha, har xil sun'iy ta'sir ko'rsatish va qarshiliklarga qaramasdan ikki mamlakat o'rtasida savdo aloqalarning olib borilishi tabiiy, normal hol hisoblanadi, u doimo foydali, garchi har ikkilasi uchun foyda hamisha bir xil bo'lmasa ham. "Har bir aqlli oila boshlig'ining qoyidasi shundan iboratki, chetdan sotib olishdan ko'ra, uyda tayyorlash qimmatga tushidagan narsalarni uyda tayyorlamaslikka harakat qilish. Tikuvchi o'ziga etik tikishga harakat qilmaydi, balki uni etikdo'zdan sotib oladi. Etikdo'z o'ziga kiyim tikishga urinmaydi, balki tikuvchining xizmatiga murojaat qiladi".

A.Smit bo'yicha, bu qoida bir butun mamlakat uchun qo'llanilishi kerak. Agar qandaydir bir xorijiy mamlakat bizni muayyan tovar bilan, uni o'zimizda ishlab chiqarishga nisbatan ancha arzon narxda ta'minlashi mumkin bo'lsa, biz birmuncha ustunlikka ega bo'lgan sohalarda ishlatilayotgan sanoat mehnati mahsulotining ma'lum qismi uchun ushbu tovarni undan sotib olish ancha foydali. Aynan shuning uchun, mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini tanlashda, A.Smit bozorning roliga katta e'tibor bergan bo'lishiga qaramay, u ushbu masalani ko'rib chiqishda mamlakatning tabiiy (ob-havo sharoiti, ba'zi bir tabiiy resurslarga ega bo'lish va b.q.) va qo'lga kiritilgan (odatda, texnologik ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan) ustunliklarini hisobga olishni zarur deb hisoblanadi. Eksport qiluvchi mamlakat qachonki mutlaq ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lgandagina tashqi savdodan yuqori foyda ko'rishi mumkin.

Lekin, A.Smitning bu nazariyasida barcha tovarlarni ishlab chiqarishda bir yoki bir necha mamlakatlar mutlaq ustunlikka ega bo'lsa, bunday vaziyatda qanday bo'ladi degan savol ko'rib chiqilmagan. Mazkur nazariya, agar mamlakatlar tovarlarni ishlab chiqarishda hech qanday mutlaq ustunlikka ega bo'lmasa, ular xalqaro savdoda qatnashishi mumkinmi degan savolga ham javob bermaydi.

Qiyosiy ustunlik nazariyasi

A.Smitdan farqli o'laroq, **David Rikardo** mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlashda mutlaq xarajatlardagi farq muhim emas, deb hisobladi. Yuqorida

qayd qilib o'tganimizdek xarajatlarda mutlaq ustunlikka ega bo'lmagan mamlakatlar nima qilishlari kerak?

Bir qator misollar bilan D.Rikardo "xarajatlardagi mutlaq ustunlik" mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlashning zarur sharti emasligini isbotlab berdi. Savdo qilayotgan mamlakatlar o'rtasida qiyosiy xarajatlar farq qilishi kifoya.

Shu asosda D.Rikardo "Qiyosiy ustunlik nazariyasi"ni yaratdi. Bu nazariya butun dunyo ilm-fani va savdosida hamma tan olgan nazariya hisoblanadi. Mazkur nazariyaning asosiy qoidasi shundan iboratki, har bir mamlakat o'zining muayyan tovarni ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlari bilan uni sotib olishga ketadigan xarajatlari o'rtasidagi farqni qiyoslab ko'rgan holda tashqi savdoda ishtirok etadi. Muayyan tovarni ishlab chiqarish bir mamlakat uchun boshqa mamlakatlarga nisbatan qulayroq bo'lishi mumkin. Shu bois, "Qiyosiy ustunlik nazariyasi"ga binoan, mamlakatlar xarajatlarni hisobga olgan holda u yoki bu mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi kerak.

D.Rikardo shunday misol keltiradi: Portugaliyada muayyan miqdordagi vinoni tayyorlash uchun 80 kishilik mehnat, gazlama ishlab chiqarish uchun esa 90 kishilik mehnat talab qilinadi (bir yilga). Angliyada shu miqdordagi vinoni ishlab chiqarish uchun 120 kishilik mehnat, gazlamani ishlab chiqarish uchun 100 kishilik mehnat sarflash zarur. Garchi olib kelingan gazlama Portugaliyaning o'zida Angliyaga nisbatan kam xarajat evaziga ishlab chiqarilishi mumkin bo'lsa ham, bu sharoitda Portugaliya uchun vinoni gazlamaga ayirboshlash foydali. Gap shundaki, resurslarni gazlama ishlab chiqarishdan, Angliyaga nisbatan katta qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan, vino tayyorlash tarmog'iga o'tkazib, Portugaliya vinoni ayirboshlash yo'li bilan 80 kishilik mehnat sarflari hisobiga, ya'ni 10 kishilik mehnatni tejash evaziga, gazlama olishi mumkin. Bunday ayirboshlash Angliya uchun ham foydali, negaki u o'z kuchini gazlama ishlab chiqarishga sarflab, gazlamani sotish yo'li bilan muayyan miqdordagi vinoni 120 kishining mehnati hisobiga emas, balki faqat 100 kishilik mehnat evaziga olishi mumkin (ya'ni 20 kishilik mehnatni tejash hisobiga). Bu misoldan shu narsa ko'rinadiki, qiyosiy ustunlik mavjud bo'lsa, ixtisoslashuv va ayirboshlash ikkala mamlakat uchun ham foydalidir. Bundan mamlakatlar o'rtasida mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi zarurligi kelib chiqadi.

Qiyosiy xarajatlar g'oyasi – bu o'zaro foyda ko'rish g'oyasidir. Unga ko'ra "... Fransiya va Portugaliyada vino tayyorlanishi, Amerika va Polshada don yetishtirilishi, Angliyada metall buyumlari va boshqa tovarlar ishlab chiqarilishi kerak".

Lekin "Qiyosiy ustunlik nazariyasi"da bir qator soddalashtirishlar mavjud bo'lib, tashqi iqtisodiy aloqalarda bo'ladigan qiyinchiliklar aks ettirilmagan. D. Rikardo modeli – bu ikki mamlakat o'rtasidagi savdo modelidir. Mazkur model Qiyosiy xarajatlarning o'zgarishini, savdo qilayotgan mamlakatlarning unumdorlik imkoniyatlaridagi farqlarni ham hisobga olmaydi.

10.3. Xeksher – Olin nazariyasi. Erkin savdo va proteksionizm..

Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi

Qiyosiy ustunlik nazariyasining zamonaviy turlanishi (ko'rinishi) shved iqtisodchilari Eli Xeksher (1879–1952) va Bertil Olin (1899–1979) tomonidan ishlab chiqilgan “Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi” hisoblanadi.

D.Rikardo ishlab chiqarish xarajatlaridagi farqlarni tabiiy va geografik sharoitlar tufayli kelib chiqadigan farqlar bilan aniqlanishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqqan. Bu prinsip umuman to'g'ri, lekin yetarli emas. Jahon bozorida faqat neft, paxta, apelsin bilan savdo qilinmaydi. Tashqi savdo ayirboshlanishida ishlab chiqarish sanoati tovarlari va xizmatlarning hissasi tobora ortib borayapti. Bu mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishda, jahon narxining shakllanishida tabiiy sharoitlardan ko'ra boshqa omillar ko'proq rol o'ynaydi.

Masalan, Shvesiya tashqi bozorga murakkab sanoat mahsulotlarini – avtomobillar va rolikli podshipniklarni, tog'-kon uskunalari va dengizda ishlatiladigan motorlarni – yetkazib berish bilan samarali savdo qiladi. Ko'p sohalarda raqobat ustunligini qo'lda ushlab turgan aynan shu mamlakatda tashqi savdo nazariyasining yaratilishi bejiz emas. Mazkur nazariya texnologiyasi deyarli bir xil bo'lgan savdo qilayotgan mamlakatlar ishlab chiqarish omillari (kapital, ishchi kuchi, yer) bilan bir xil darajada ta'minlanmaganligiga asoslanadi.

Qiyosiy xarajatlar konsepsiyasiga asoslangan holda, shved iqtisodchilari Xeksher va Olin bunday xarajatlar asosida nima yotishini tushuntirib berishga harakat qildi. Ular, savdo qilayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish omillari kombinatsiyasi umuman o'xshash bo'lgan sharoitda xarajatlar darajasidagi farq asosan ularning ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganligiga bog'liq, deb xulosa qiladi.

Xeksher-Olin tadqiqotida tashqi savdoda xarajatlari nafaqat tabiiy sharoitlardagi farq bilan, balki savdo ishtirokchilari ta'minlangan har xil omillar narxi bilan ham aniqlanadi. Bir xil omillar ortiqcha, boshqa bir omillar yetishmaydi. Bir turdagi omillarning narxi nisbatan yuqori, boshqa turdagi omillarning narxi nisbatan past. Omillarning narxi ularning kamyobligi bilan aniqlanadi: odatda, tanqis omillar – qimmat, ortiqcha omillar - arzon. Agar mamlakatda qandaydir bir omil boshqa omillarga nisbatan ortiqcha bo'lsa, masalan, arzon ishchi kuchi ko'p bo'lsa, unda bu mamlakat mehnat talab mahsulotlarni (to'qimachilik, kiyim-kechak va b.) ishlab chiqarishga va ularning savdosiga ixtisoslashadi. Agar mamlakatda kapital ortiqcha bo'lsa, unda bu mamlakatga kapital sig'imli mahsulotlarni (mashinalar, asbob-uskunalar) eksport qilish foydali.

Masalan, arzon ishchi kuchiga ega bo'lgan Xitoyga Janubiy Koreya kapital sig'imli mahsulotlarni (avtomobil, kundalik turmush elektr asboblarini) eksport qiladi: Xitoy Janubiy Koreyaga mehnat talab mahsulotlarni (kiyim-kechak, to'qimachilik) mahsulotlarini eksport qilish qo'l keladi. Shvesiya po'lati va metall

mahsulotlarining raqobatdagi ustunligi shundaki, mamlakatda qazib olinadigan temir rudasidan yuqori sifatli po'lat eritish mumkin.

Demak, Xeksher-Olinning tashqi savdo modeli asosida xarajatlarning tuzilishi, ortiqcha ishlab chiqarish omillarining past narxi yotadi. Mamlakat ortiqcha ishlab chiqarish omillaridan intensiv foydalanib ishlab chiqariladigan mahsulotlarni eksport qiladi, ishlab chiqarish omillari tanqis bo'lgan tovarlarni esa import qiladi. **“Leontevcha ziddiyat”**

Amaliyot shu narsani ko'rsatib berdiki, ishlab chiqarish omillari konsepsiyasi tashqi savdoga, milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir etuvchi turli xil omillarning hammasini hisobga olishga qodir emas. Masalan, Xeksher-Olin modeli, nega, Shveysariya farmasevtik tovarlarni eksport qilishga ixtisoslashgan, Amerika personal kompyuterlarni ishlab chiqarishda yetakchilik qiladi, Yaponiya kundalik elektronika buyumlarining yirik eksportchisi hisoblanadi kabi savollarga javob bera olmaydi.

Mazkur nazariyaning to'g'riligini AQSh iqtisodchisi **V.Leontev** tekshirib ko'rdi. Ma'lumki, Amerika kapitali ko'p mamlakat hisoblanadi. Shu bois u kapital sig'imli tovarlarni eksport, mehnat sig'imli tovarlarni import qiladi deb taxmin qilingan. Natija uning teskarisini, ya'ni AQSh kapital sig'imli tovarlarni emas, balki ko'proq mehnat sig'imli tovarlarni eksport qilishini, kapital sig'imli tovarlarni esa ko'proq import qilinishi ko'rsatdi. Bu holat “Leontevcha ziddiyat” nomini olgan.

Leontev olib borgan hisob-kitoblarning to'g'riligini boshqa iqtisodchilar ham tasdiqlashgan. Ma'lum bo'lishicha, tashqi savdo tuzilmasida bunday mos kelmaslik boshqa mamlakatlarga ham xos bo'lgan. Tashqi savdo sohasi mutaxassislari, alohida mamlakatlar savdosiga va bir butun jahon savdosi tuzilmasiga ta'sir etuvchi omillar juda ko'p, xilma-xil va o'zgaruvchan bo'ladi, degan fikrga kelishgan. Ularning ta'sir ko'rsatish ahamiyati ham har xil.

Mahsulotning hayotiy sikli .Klassiklarning qiyosiy ustunlik nazariyasida ba'zi bir savollar o'z yechimini topmaganligi (masalan, eksport tuzilmasi dinamikasi qonuniyatlari qanday, nega bir xil tarmoqlar oldinga siljisa, ikkinchisi orqaga surilib ketadi) xalqaro mehnat taqsimoti muammosiga bo'lgan yangi yondashuvlarning kelib chiqishini taqozo etdi. Shunday yondashuvlardan biri “Mahsulotning hayotiy sikli” konsepsiyasi hisoblanadi. Bu nazariyani ishlab chiqishda **M.Pozner**, **G.Xufbaujr**, **L.Uells** va boshqa iqtisodchilar qatnashdi. Lekin birinchi marta bu nazariyaning tasnifiy bayoni 1966 y. atoqli Amerika olimi **R.Varronning** **“Mahsulotning hayotiy sikli nuqtai nazaridan ko'rilgan xalqaro investisiyalar va xalqaro savdo”** maqolasida e'lon qilingan.

AQSh eksport tuzilmasini tahlil qilish natijalari mazkur nazariyaning yaratilishiga bevosita turtki bo'ladi. Tahlil natijalari jahon bozorida raqobatbardoshlik asosini tashkil etuvchi tarmoqlar majmuining o'zgarib turishini ko'rsatib berdi. XX asr boshiga kelib bunday tarmoqlar jumlasiga to'qimachilik va o'rmontexnik sanoati, qora metallurgiya, mashinasozlik kiritilgan. 30-chi yillarning

oxiriga kelib tarmoqlar majmui va tartibi o'zgardi (birinchi o'ringa mashinasozlik chiqdi, oziq- ovqat sanoati ilg'or ekport qiluvchi tarmoqlar qatoriga qo'shildi), 60- chi yillarning boshiga kelib esa, transport vositalarini, asbob-uskunalarini, kimyoviy tovarlarni, elektr uskunalarini va boshqa mashinalarni ishlab chiqarish tarmoqlari Amerikaning asosiy eksport qiluvchi tarmoqlari majmuini tashkil etdi.

Urushdan keyingi tashqi savdo tuzulmasi tahlili natijalari eksport tarmoqlarida ilmsig'imli mahsulotlarni ishlab chiqaradigan tarmoqlarning roli ortib borayotganligini aniqlab berdi. Shu sababli "Ilmsig'imli tarmoqlar" atamasi kiritilidi. Hozir ilmsig'imli tarmoqlar oldingi qatorga ko'tarildi va ular mamlakatning jaxon bozorida raqobat qudratini belgilab bermoqda. "Ilmsig'imli" atamaning muomilaga kiritilishi ishlab chiqarish omillari to'g'risidagi tushunchani qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ilmsig'imli mahsulot - mehnat sig'imli mahsulotning o'zgartgan shaklidan boshqa narsa emas. Ko'pchilik ilmiy – texnik xodimlari (barcha yollanma ishchilarning 50 foiziga yaqini) ish haqining yuqoriligi va ko'p sonli yuqori malakali ishchilarining mavjudligi tufayli ilmsig'imli mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi umumiy sarflarda ishchi kuchiga to'g'ri keladigan sarflar hissasi ham yuqori. Bundan tashqari turli ishlab chiqarish bosqichlarida har bir yollanma mehnat egasining hissasi xam har xil bo'ladi. Demak, mehnat omilini tarkibiy tuzilishi jixatdan bir xil deb qaragan Xeksher-Olin nazariyasini qo'flash xatodan holi emas. Shu bois "mahsulotning hayotiy sikli" nazariyasi mualliflari mehnatni bir qancha turlarga ajratadi: yuqori malakali mehnat, boshqaruv mehnati, malakasiz mehnat va b. Shunday qilib, ikki omilli model ko'p omilga aylandi, ya'ni kapital omili bilan birga mehnatning har xil turlari amal qiladi.

Har bir omilni ahamiyatining o'zgarishiga muvofiq ravishda ishlab chiqarishning uch fazaga (ular "mahsulotning hayotiy sikli"ga mos tushadi) bo'linishi mazkur nazariyaning kelib chiqishiga yana bir sabab bo'ldi.

Birinchi fazada – yangi mahsulotni ishlab chiqarishga joriy etishda – yutuq eng avvalo fan-texnika darajasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun yuqori malakali mehnat asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi o'rinda boshqaruv mehnati turadi, uning asosiy vazifasi tovarlarni keng miqyosda ishlab chiqarishga o'tishning eng qulay yo'lini qidirib topish hisoblanadi, mazkur bosqichda ishlab chiqarish kichik ko'lamda olib borilishi tufayli kapital oxirgi o'rinda qoladi. "Mahsulotning hayotiy sikli" nazariyasiga ko'ra, yangi mahsulotni ishlab chiqarishga joriy etish eng kuchli ilmiy kadrlar va yuqori malakali ishchi kuchi to'plangan rivojlangan mamlakatlarda amalga oshiriladi.

Ikkinchi fazada ommaviy ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Bunday ishlab chiqarish industrial baza quvvatiga, ishlab chiqarish strategiyasiga bog'liq bo'ladi. Bunda kapital va boshqaruv mehnati asosiy rol o'ynaydi. Yuqori malakali mehnat esa, endi faqat texnologik ishlab chiqarishning muayyan sur'atini ushlab turish vazifasini o'taydi, o'rta va past malakali ishchilar mehnati bilan birga ikkinchi o'rinni egallaydi. Demak, fan-texnika jihatdan yetakchi bo'lmagan, lekin ortiqcha

kapitali ko'p bo'lgan o'rtacha rivojlangan mamlakatlarda mahsulot ishlab chiqarishning ikkinchi "hayotiy sikli" davom etadi.

Uchinchi faza uchun bir xil texnologik asosda mahsulotlarni ommaviy tarzda ishlab chiqarish xos. Malakasiz mehnat birinchi o'ringa suriladi, u o'z mavqeini saqlab qolgan kapital bilan bir qatorda turadi. Olimlar, muxandislar va menejerlar mehnatining ahamiyati keskin pasayadi. Bundan shu narsani ko'rish qiyin emaski, bu fazada mahsulot ishlab chiqarish soddalashib, malakasiz ishchilar zahirasi ko'p bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda ommaviy tus oladi.

Keyinchalik mazkur mahsulotga talab va uni ishlab chiqarish pasayadi, natijada uning o'mini qoplovchi yangi mahsulot ishlab chiqarish fazasi qaytadan boshlanadi.

Xalqaro mehnat taqsimotini tadqiq etish yo'nalishlari

Xalqaro mehnat taqsimoti tadqiqotlari bo'yicha tanqidiy yo'nalishning kelib chiqishi odatda **argentinalik R.Prebish va amerikalik G.Zinger** nomi bilan bog'lab tushuntiriladi. Ular haqiqatdan ham birinchi bo'lib xalqaro mehnat taqsimotining o'zaro foydali xarakteri to'g'risidagi tezisga qarshi chiqqan va sanoati rivojlangan mamlakatlar agrar mamlakatlar hisobiga boyib borishini ko'rsatib bergan tadqiqotchilar hisoblanadi. Lekin aynan shunday g'oyalarni boshqa atoqli iqtisodchilar – **shvesiyalik G.Myurdal, angliyalik T.Balog, fransiyalik F.Perru, braziliyalik S.Furtado, amerikalik U.Lyuis va Xirshmanlar** ham ilgari surgan.

Bu iqtisodchilarning "Qiyosiy ustunlik nazariyasi"ga tanqidiy qarashlari asosan uning metodologiyasiga qaratilgan. Ularni mazkur nazariyadagi ikkita jihat. qanoatlantirmagan

TSAda eksport hajmi 10329,2 mln. AQSh dollariga (17,2 % ga kamaydi) va import hajmi 17886,8 mln. AQSh dollariga (18,7 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 7557,6 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Tashqi savdo aylanmasining eng katta hajmi 2021 yil may oyida qayd etilib, 4250,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 2020 yilning shu oyiga nisbatan 2078,9 mln. AQSh dollariga ko'paydi. 2021 yil sentyabr oyida tashqi savdo aylanmasi hajmi 3252,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi va 2020 yilning shu davriga nisbatan 10,1 foizga ko'paydi.

2021 yilning III choragida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 10203,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, II-chorak ko'rsatkichiga nisbatan 6,5 foizga kamaydi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston va Turkiya shular jumlasidandir. Qolgan 16 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.


O'zbekiston jahonning 179 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (19,1%), Rossiya Federatsiyasida (18,1%), Qozog'istonda (9,9%), Turkiyada (8,6%), Koreyda (4,9%), Qirg'iz Respublikasi (2,4%) va Germaniyada (2,0%) qayd etilgan.

Ўзбекистоннинг ташқи савдоси

январь- сентябрь 2021



Савдо таркиби (миллион доллар)



Ўзбекистон Республикаси
девятти статистика хизмати
маълумотлари асосида

CERR

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ
ОБОЗРЕНИЕ

Nazorat savollari :

1. Xalqaro savdo. Tashqi savdo aylanmasi va tashqi savdo balansi, tashqi savdo ko'rsatkichlari.
2. Xalqaro savdo mutlaq afzallik nazariyasi (A.Smit).
3. Xalqaro savdoda qiyosiy afzalliklar (D. Rikkardo nazariyasi) va ularni tashqi savdo rivojiga ta'siri.
4. Xeksher – Olin nazariyasi. Erkin savdo va proteksionizm.
5. O'zbekiston respublikasining tashqi savdosi va xalqaro savdoda tutgan o'mi.

11. mavzu. Valyuta bozori.

11.1. Valyuta bozori: asosiy tushunchalari. O'zgarib turuvchi va qat'iy (o'zgarmaydigan) valyuta kursi tizimlari.

Pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzlar va subsidiyalar oqimi, ilmiy-texnikaviy mahsulotlarni ayirboshlash, turizm va h.k.) xizmat qilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar xalqaro **valyuta-kredit munosabatlari** deb ataladi. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari pulning xalqaro to'lov munosabatida amal qilish jarayonida vujudga keladi.

Valyuta – bu mamlakatlar pul birligi (masalan, so'm, dollar, funt sterling va h.k.).

Har bir milliy bozor o'zining milliy valyuta tizimiga ega bo'ladi. Bunda milliy va xalqaro valyuta tizimini farqlash zarur. **Milliy valyuta tizimi – valyuta munosabatlarining milliy qonunchilik bilan belgilanadigan, mazkur mamlakatda amal qilish shaklini ifodalaydi.** Uning tarkibiga quyidagi unsurlar kiradi:

- milliy pul birligi;
- valyuta kursi tartibi;
- valyutaning muomalada bo'lish shart-sharoitlari;
- valyuta bozori va oltin bozori tizimi;
- mamlakatning xalqaro hisoblashuv tartibi;
- mamlakat oltin-valyuta zaxirasining tarkibi va uni boshqaruv tizimi;
- mamlakat valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi milliy muassasalar mavqei.

Xalqaro valyuta tizimi – xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda kelishilgan holda amal qiladigan shakli. Xalqaro valyuta tizimining tarkibiy unsurlari quyidagilar hisoblanadi:

- asosiy xalqaro to'lov vositalari (milliy valyutalar, oltin, xalqaro valyuta birliklari – SDR, Yevro);
- valyuta kurslarini belgilash va ushlab turish mexanizmi;
- xalqaro to'lovlarini balanslashtirish tartibi;
- valyutaning muomala qilish shart-sharoiti;
- xalqaro valyuta bozori va oltin bozori tartibi;
- valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlararo muassasalar tizimi.

Bundan ko'rinadiki, milliy va xalqaro valyuta tizimi unsurlari deyarli bir xil bo'lib, ular faqat tashkil etilishi, amal qilishi va tartibga solinishi miqyoslari jihatidan farqlanadi.

Jahon valyuta tizimi o'zining rivojlanishida uchta bosqichdan o'tdi va ularning har biriga xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilishning o'z tiplari mos keladi.

Birinchi bosqich 1879-1934 yillarni o'z ichiga olib, bunda **oltin standart** sifatidagi valyuta tizimi ustunlikka ega bo'lgan. **Ikkinchi bosqich** 1944-1971 yillarni o'z ichiga olib, bunda **oltin-devizli** (Bretton-Vuds tizimi deb nomlanuvchi) tizim ustunlikka ega bo'lgan. Bu ikki tizim qayd qilinadigan valyuta kurslariga asoslangan. **Uchinchi bosqich**, ya'ni hozirgi davrda amal qiluvchi jahon valyuta tizimi 1971 yilda tashkil topgan bo'lib, bu tizim **boshqariladigan, suzib yuruvchi valyuta tizimi** nomini oldi. Chunki davlat ko'pincha o'z valyutalarining xalqaro qiymatini o'zgartirish uchun valyuta bozorining faoliyat qilishiga aralashadi.

Oltin standart tizim qayd qilingan valyuta kursining mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Banklar o'zlari chiqargan banknotlarni oltinga almashtirgan. Xalqaro to'lovlarni muvofiqlashtirish vositasi bo'lib, oltinni erkin chiqarish va kiritish xizmat qilgan. Mamlakat uchta shartni bajarsa oltin standart qabul qilingan, deb hisoblangan, ya'ni:

a) o'z pul birligining ma'lum oltin mazmunini o'rnatadi;

b) o'zining oltin zaxirasi va pulning ichki taklifi o'rtasidagi qattiq nisbatni ushlab turadi; v) oltinning erkin eksport va importiga to'sqinlik qilmaydi. Oltin standart pul birligining oltin mazmuni nisbatiga asoslanadi. Oltin standart sharoitida, turli mamlakatlar pul birligining nisbati ularning rasmiy oltin mazmuni bo'yicha o'rnatiladi.

Oltin standart barbod bo'lgandan keyin, valyuta sohasini tartibga solishning o'zaro maqbul yo'lini topishga harakat qilindi. Yangi jahon valyuta tizimi asoslarini ishlab chiqish maqsadida, 1944 yil Bretton- Vudsda (AQSh) ittifoqchi davlatlarning xalqaro konferensiyasi chaqirildi.

Bu konferensiyada o'zaro bog'liq valyuta kurslarini tartibga solish tizimini yaratish haqidagi kelishuvga erishildi va bu ko'pincha Bretton-Vuds tizimi deb ataladi. Mazkur tizim oldingi oltin standartdan keskin farq qilmaydi. Uning asosida oltin-valyuta standart (AQSh dollari) yotadi va bu yerda rezervlar sifatida oltin va dollar chiqadi.

Dollarning oltinga almashinishi rasman to'xtagandan keyin, valyutaning qayd qilingan kursi suzib yuruvchi kursiga o'rin bo'shatadi.

Xalqaro valyuta tizimidagi bu o'zgarish 1976 yil Kingston (Yamayka) dagi kelishuvga binoan huquqiy jihatdan mustahkamlanadi. Qog'oz pul tizimiga o'tish bilan, qog'oz pullar oltinga almashtirilmaydi. Beqaror kurslar sharoitida valyuta kursi ham har qanday boshqa narxlar kabi talab va taklifning bozor kuchlari bilan belgilanadi.

Har qanday valyuta tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri valyuta kursi hisoblanadi.

Valyuta kursi bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasidagi bahosidir.

Valyuta kurslariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar ichidan quyidagilarni ajratib kursatish mumkin:

- milliy daromad va ishlab chiqarish xarajatlarini darajasi;
- milliy iste'molchilarning real xarid qilish layoqati va mamlakatdagi inflyasiya darajasi;
- valyutalarga talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi to'lov balansi holati;
- mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi;
- valyutaga jahon bozoridagi ishonch va h. k.

Nazariy jihatdan valyuta kurslarining tebranishini tushuntirish **xarid qilish layoqatining paritet** (turli mamlakatlar pul birliklari qiymatining bir-biriga nisbati) **nazariyasi** yordamida amalga oshiriladi. Bu nazariyaga ko'ra, kurslar nisbatlarini aniqlash uchun ikki mamlakat iste'mol tovarlari «savati» narxlarini taqqoslash talab qilinadi.

Masalan, agar O'zbekistonda bunday «savat», aytaylik 120 ming so'm, AQShda esa 100 dollar tursa, 120 mingni 100 ga bo'lib, 1 dollarning narxini hosil qilamiz, bu 1200 so'mga teng. Agar boshqa sharoitlar o'zgaragan holda mamlakatimizdagi tovarlarning narxi oshsa, dollarning so'mga nisbatan almashuv kursi ham oshadi

O'zbekiston Markaziy banki mavsumiy tebranishlarni kamaytirish va oltin-valyuta zaxiralarini ko'paytirishni hisobga olgan holda o'zgaruvchan valyuta kursi rejimini qo'llab kelmoqda.

2021 yilning birinchi yarim yilligida ichki valyuta bozoridagi holat xorijiy valyutaga bo'lgan taklif va talab hajmining o'sishi sharoitida shakllandi.


Ichki valyuta bozorida xorijiy valyutadagi umumiy **taklif** hajmi 2021 yilning I yarim yilligida **9,8 mlrd AQSh dollarini** (Markaziy bank intervensiyalarini hisobga olmagan holda) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,6 barobarga o'sdi (2020 yilda — 6,0 mlrd dollar, 2019 yilda — 5,1 mlrd dollar). Xususan, mazkur davrda:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan 4,6 mlrd dollar miqdoridagi chet el valyutalari sotilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 1,7 barobarga oshdi (2020 yilda — 2,7 mlrd dollar);

- banklar va jismoniy shaxslar tomonidan sotilgan chet el valyutalari miqdori 3,7 mlrd dollarni (2020 yilda — 2,4 mlrd dollar);


- Davlat markazlashgan resurslari hisobidan sotilgan chet el valyutalari miqdori 1,5 mlrd dollarni tashkil etdi (2020 yilda — 930 mln dollar).

11.1.rasm Ichki valyuta bozoridagi taklif manbalari (mln dollar)



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida ichki valyuta bozori operatsiyalarida talabning umumiy hajmi 11,3 mlrd dollarni tashkil etib, 2019 va 2020 yillarning tegishli davrlariga nisbatan 1,7 va 1,4 barobarga o'sdi. Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning umumiy talbdagi ulushi 2021 yilda 18 va 82 foizlarni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilning tegishli davrida bu ko'rsatkich mos ravishda 21 va 79 foiz nisbatida bo'lgan.


11.2. rasm Ichki valyuta bozori segmentlari kesimida chet el valyutasiga bo'lgan talabning o'zgarish dinamikasi (mln dollar)



Yuridik shaxslar tomonidan chet el valyutasiga bo'lgan talab 2021 yilning dastlabki 6 oyligida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 43 foizga o'sib, 9,3 mlrd dollarni tashkil etdi (2020 yil yanvar-iyun oylari — 6,5 mlrd dollar).

Shuningdek, ushbu davrda yuridik shaxslar tomonidan ichki valyuta bozorida 7,8 mlrd dollar miqdoridagi xorijiy valyutalar sotilib, bu ko'rsatkich 2020 yilning shu davriga nisbatan 1,8 barobarga ko'pdir (2020 yil I yarim yilligida — 4,3 mlrd dollar).

11.3. rasm. 2021 yil yanvar-iyun oylarida banklarning yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri operatsiyalari hajmi dinamikasi (mln dollar)




Valyuta bozorida chet el valyutasining asosiy qismi (56 foizi) ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar, tovarlar va xomashyo importi, 21 foizi — xorijiy kreditlarni so'ndirish, 20 foizi — xalq iste'moli tovarlari va dori-darmon mahsulotlari importi, 1 foizi — xorijiy investorlar daromadlarining repatriatsiyasi va qolgan 2 foizi — boshqa maqsadlar uchun xarid qilingan.

2021 yilning yanvar- iyun oylarida importni moliyalashtirish manbalari tarkibida ichki valyuta bozorida sotib olingan mablag'lar (konvertatsiya) ulushi 58 foizni, xorijiy valyutadagi o'z mablag'lari hisobiga importni moliyalashtirish ulushi 24 foizni tashkil etdi.


2020 yilning tegishli davrida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 57 va 21 foizga teng bo'lgan. Hisobot davrida jismoniy shaxslar tomonidan valyuta ayirboshlash shaxobchalari orqali sotilgan chet el valyutasi miqdori 3,3 mlrd dollarni tashkil etib, avvalgi yilning mos davriga nisbatan 1,5 barobarga (2020 yilda — 2,2 mlrd dollar) oshdi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslar tomonidan 2 mlrd dollar sotib olinib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 barobar (2020 yilda — 1,7 mlrd dollar) o'sdi. Joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida xalqaro pul o'tkazmalari orqali respublikaga kelib tushgan valyuta mablag'lari hajmi 3,3 mlrd dollarni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 barobarga oshdi.

11.4 rasm. 2019 — 2021 yillar yanvar-iyun oylarida xalqaro pul o'tkazmalari orqali respublikaga kelib tushgan valyuta mablag'lari hajmi (mln dollar).



Joriy yilning I yarim yilligida milliy valyutaning almashuv kursi dinamikasi ichki valyuta bozorida talab va taklifning fundamental faktorlari hamda tashqi omillar ta'sirida shakllandi. Xususan, hisobot yili boshidan milliy valyuta kursi 1,2% ga, iyun oyida esa 0,2% ga qadrsizlandi.

11.5 rasm



11.2. To'lov balansi, uning makroiqtisodiyotdagi ahamiyati, asosiy hisoblari va tarkibi. Davlatning siyosati, uning maqsadi, vazifalari va vositalari.

So'nggi paytlarda respublikamizda to'lov balansi va mamlakatimizning xalqaro investision pozitsiya bo'yicha hisobotlar xalqaro standart talablari asosida tayyorlanib, nashr qilib borilmoqda. To'lov balansi mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari va jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi darajasini aks ettiradi. Ayni paytda, to'lov balansi har bir mamlakat uchun individual xususiyatlarga ega bo'ladi va bu holat o'sha mamlakat iqtisodiy siyosati, iqtisodiy rivojlanishi va iqtisodiy xavfsizligi, resurs ta'minoti kabilar bilan izohlanadi. Shuningdek, to'lov balansiga xalqaro muhit va shart-sharoitlar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. To'lov balansi davlatning tartibga solish ob'ekti hisoblanganligi bois, bu borada qator nazariy yondashuvlar shakllangan. To'lov balansi nazariyalarining asosiy maqsadi xalqaro hisob-kitoblarni tartibga solish usullarini ishlab chiqish hisoblanadi.

To'lov balansi" tushunchasining paydo bo'lishi "savdo balansi" atamasi bilan uzviy bog'liqdir. "Savdo balansi" atamasi ilk bor E.Misseldenning "Savdo doirasi" (1923 y.) asarida foydalanilgan bo'lib, unda Angliya savdo balansining dastlabki hisob-kitoblari berilgan. "Savdo balansi" tushunchasi keyinchalik T.Mann asarlarida yanada rivojlantirilgan. U "Angliyaning tashqi savdodagi boyligi" (1664 y.) asarida "umumiy savdo balansi" tushunchasini kiritadi va bu orqali mamlakatning qolgan barcha mamlakatlar bilan munosabatlarini yaxlitlikda ifodalashga harakat qiladi. T.Mann ta'kidlashicha, muayyan mamlakatlar bilan tashqi savdodagi defisit boshqa mamlakatlar bilan ijobiy qoldiq (saldo) orqali qoplanishi mumkin, shu boisdan tashqi savdo faoliyati umumiy savdo balansi asosida baholanishi kerak. "To'lov balansi" atamasi ilk marotaba D.Styuardning "Siyosiy iqtisod tamoyillari haqida tadqiqotlar" (1767 y.) asarida foydalanilgan bo'lib, unda tashqi savdo va kapital harakati o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatib berilgan. D.Styuard fikricha, to'lov balansi mustaqil tushuncha bo'lib, quyidagilardan tarkib topadi: 1) fuqarolarning chet eldagi xarajatlari; 2) qarzar bo'yicha to'lovlar, asosiy qarz va foizlar bo'yicha xorijliklarga to'lovlar; 3) boshqa mamlakatlarga pul mablag'larini qarzga berish. To'lov balansi va savdo balansi birgalikda dunyo mamlakatlari bilan umumiy balansni tashkil etgan. Boshqacha aytganda, dastlab 200 yildan ortiq davr mobaynida "to'lov balansi" atamasi faqatgina moliyaviy aktivlar xalqaro harakati bilan bog'liq bo'lib, savdo balansidan ajratilgan holda tuzilgan. Bu davrda to'lov balansi tushunchasi muayyan davriy oraliqda (yoki muayyan sanaga) chet eldan olingan va boshqa davlatlarga o'tkazib berilgan to'lovlarning yalpi summasini aks ettirgan. Davlat organlari tomonidan "to'lov balansi" atamasi ilk bor 1819 yilda Angliyada parlament komissiyasining mamlakatlar xalqaro hisob-kitoblari holatini tadqiq qilishga bag'ishlangan ma'ruzasida foydalanilgan. Ma'ruzada to'lov balansi deganda yil mobaynida mamlakatga olib kelingan va mamlakatdan olib chiqib ketilgan oltin (oltin tangalar) qiymati tushunilgan. Biroq to'lov balansini

tizimli ravishda nashr etish Angliyada yuz yildan keyin yo'lga qo'yilgan. XIX asr mobaynida va Birinchi Jahon urushiga qadar bo'lgan davrda to'lov balansini baholashga qaratilgan tadqiqotlar Angliyada M.Kay, R.Giffen, Ch.Gobsonlar tomonidan, AQShda g'aznachilik va F.Peysh tomonidan amalga oshirilgan.

Shuningdek, Avstriya-Vengriya to'lov balansi tahlili M.T.Guber tomonidan olib borilgan bo'lsa, Shveysariya va Vengriyaning to'lov balanslari mos ravishda V.Sollinger va U.Felnerlar tomonidan tadqiq qilingan. Unifikatsiyalashgan va yagona xalqaro atamaning mavjud emasligi vaqt o'tgan sari yaqqol sezila boshladi.

Ushbu muammoni bartaraf etishga bo'lgan dastlabki urinish 1905 yilda Londonda Xalqaro statistika instituti (International Statistical Institute) sessiyada amalga oshirilib, unda I.Gruber va M.Fovillening ikki mustaqil ma'ruzalari tinglandi.

Sessiya natijalari bo'yicha 1907 yilga kelib, to'lov balansining qayta ishlangan sxemasi namoyish etildi. Birinchi Jahon urushi yakunlangach jahon iqtisodiy tizimida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Birinchidan, Angliya jahon pul bozorlarining zaxira markazi maqomidan mahrum bo'ldi va natijada yirik miqdordagi qisqa muddatli xorijiy kapital hajmidan ayrildi. Yirik bankir-kreditor maqomi esa AQShga o'tdi. Ikkinchidan, valyuta kurslarining yanada moslashuvchan (egiluvchan) tizimini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Chunonchi asosan inflyasion bosim tufayli yuzaga kelgan valyuta bozorining beqaror holati kreditor-mamlakatlarning risklarini sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Shu boisdan, kapital repatriatsiyasi va harbiy xarakterdagi qarz majburiyatlari bilan bog'liq davlatlararo kapitallar oqimi hisobini yuritish muammosini hal etish talab qilinar edi. Bu esa, o'z navbatida, to'lov balansiga bo'lgan qiziqishlarning sezilarli darajada ortishiga, xususan, mazkur masala yuzasidan qilingan tadqiqotlar va nashrlar sonining o'sishiga olib keldi. Ayrim mamlakatlarning hukumatlari to'lov balansining rasmiy ma'lumotlarini muntazam ravishda chop etib borishni yo'lga qo'yishdi. Xususan, Angliya to'lov balansini tuzgan va nashr qilishni yo'lga qo'ygan ilk mamlakatga aylandi. 1919 yilda Angliya Savdo vazirligi birinchi yillik to'lov balansini namoyish etdi. Angliya ortidan AQSh ham to'lov balansini tuzish va nashr etishni yo'lga qo'ydi. AQSh savdo boshqarmasi 1922 yildan boshlab to'lov balansi haqidagi ma'lumotlarni chop etishni boshlagan. To'lov balansi shakliga nisbatan yagona yondashuv, uning tushunchalari va tuzish metodologiyasini ishlab chiqish majburiyatini Millatlar Ligasining Iqtisodiy komissiyasi o'z zimmasiga olgan edi. 1924 yildan boshlab, Millatlar Ligasi yagona metodologiya bo'yicha mamlakatlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida alohida mamlakatlarning to'lov balansini nashr qilishni boshladi. 1924 yilda nashr qilingan to'lov balansi to'plamidan 13 mamlakatning to'lov balanslari o'rin olgan. 1928 yilga kelib, Millatlar Ligasi Xalqaro savdo palatasi bilan birgalikda to'lov balansining dastlabki sxemasini qayta ishlagach, uning yangi sxemasini taqdim etdi. Yangi sxemaga ko'ra, muhim o'zgarish joriy operatsiyalar va kapital harakati hisobvarag'i moddalarining tengligini (muvozanati) joriy qilinganligida bo'ldi. Joriy hisobvara

qoldig'i kapital harakati hisobvarag'ining teskari ishorali qoldig'i bilan ekvivalent bo'lishi shart etib belgilandi. Yuqoridagi hisobvaraƒ moddalari o'rtasidagi nomuvofiqlik (farq) "Sof xatolar va yo'qotishlar" moddasi bilan yopilishi ko'zda tutildi. Bu o'rinda oltin harakatiga muvozanatlovchi modda sifatida qaralmadi. Shunday qilib, faqatgina to'lovlar harakatini aks ettiruvchi to'lov balansi tushunchasidan voz kechilib, yangi iqtisodiy mazmun kasb etadigan tushuncha tomon qadam qo'yildi. Natijada to'lov balansida ifodalanadigan iqtisodiy jarayonlar qamrovi sezilarli darajada kengaydi. Qayta ishlangan to'lov balansi tarkibi hisob-kitob va kapitallar harakati va kreditlar moddalarini o'zida mujassamlashtirdi (11.1-jadval)

11.1 jadval

To'lov balansi tarkibi

Tushumlar	To'lovlar
Hisob-kitob balansi	
Tovarlar eksporti	Tovarlar importi
Xizmatlar eksporti	Xizmatlar importi
Xorijdan olingan beg'araz to'lovlar	Xorijga berilgan beg'araz to'lovlar
Kapital harakati balansi	
Kapital importi	Kapital eksporti
± "Sof xatolar va yo'qotishlar"	

Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo'yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2021 yilning "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb nomlanishi yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi ishlar natijadorligi va yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish borasida oldimizda turgan muhim vazifalarni belgilab berdi. 2021 yil 18-28 yanvar kunlari 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Prezident farmoni loyihasi umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Muhokamalar jarayonida davlat dasturi loyihasida nazarda tutilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlashga oid bandlarga talaba-yoshlar, olimlar, tegishli vazirlik va idoralarning davlat va fuqarolik xizmatchilari, tadbirkorlar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari o'zlarining fikr-mulohazalari, konseptual va dolzarb bo'lgan takliflari bilan ishtirok etishdi. Bildirilgan fikr va mulohazalar tahlil qilinganida esa, fuqarolarimizda yoshlar hayotiga oid islohotlarga alohida qiziqish va daxldorlik hissi yuqori ekani namoyon bo'ldi. Xususan, davlat dasturi

loyihasining 96 ta bandida ijtimoiy sohani rivojlantirish va yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar hamda muhim vazifalar belgilangan. Birinchi navbatda, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va sog'lig'ini saqlashni kuchaytirish, shu jumladan, koronavirusga qarshi profilaktik emlash ishlarini tashkil etish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta'minlash, yoshlarning bandligi va real daromadlarini oshirish hamda 2021–2023 yillarda Yoshlar uylarini qurish dasturini amalga oshirish, nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash kabi ustuvor vazifalar shular jumlasidandir. Yoshlar bandligini ta'minlash omillaridan biri ularni talab etilayotgan kasb bo'yicha ixtisoslashtirishdir. Shu bois davlat dasturi loyihasida "Har bir tadbirkor – yoshlarga madadkor" tamoyili asosida ko'ngilli tadbirkorlarni jalb etgan holda 1 nafar tadbirkorga 1 nafardan ishsiz yoshni birlashtirish tashabbusini amalga oshirish vazifasi qayd etilgan. Shuningdek, "Yoshlar: 1+1" dasturi doirasida uyushmagan va ishsiz yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, ularda biznes ko'nikmalarini shakllantirish, imtiyozli kreditlar ajratish orqali o'z faoliyatini boshlashga ko'maklashish vazifalari belgilab olingan. Loyihada nazarda tutilgan mazkur vazifalarning to'laqonli amaliyotga joriy etilishi natijasida yoshlarni arzon ishchi kuchi sifatida mehnat bozoriga kirib kelishining oldi olinib, bugungi kun talabiga javob beradigan raqobatdosh kadrlar bo'lib yetishishiga erishiladi.

Shuningdek, dastur loyihasida yoshlarimizning uzluksiz ta'lim olishlarini ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, oliy ta'lim muassasasida ikki va undan ortiq farzandi shartnoma asosida o'qiyotgan oilalarga imtiyozli ta'lim krediti berish tartibini joriy etish, oliy ta'lim muassasalariga talaba-qizlarni qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun ajratilgan grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingga yetkazish kabi bandlarning mavjudligi, oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan Davlat siyosatining yana bir yorqin misoli sifatida e'tirof etilgan. Xulosa qilib aytganda, Davlat dasturi loyihasida ilgari surilgan yoshlar siyosatiga oid taklif va tashabbuslarning hayotga tatbiq etilishi natijasida yoshlarimizning ta'lim-tarbiya olishi borasida, ularning Vatanimiz taraqqiyotidagi mas'uliyati va o'rnini oshirishda, fuqarolarimizning turmush darajasini yaxshilash, sog'lig'ini asrash masalalarida bir qator natijalarga erishish imkonini beradi.

Nazorat savollari:

- 1. Valyuta bozori: asosiy tushunchalari. O'zgarib turuvchi va qat'iy (o'zgarmaydigan) valyuta kursi tizimlari.**
- 2. To'lov balansi, uning makroiqtisodiyotdagi ahamiyati, asosiy hisoblari va tarkibi.**
- 3. Davlatning siyosati, uning maqsadi, vazifalari va vositalari.**

12. Mavzu. Ijtimoiy siyosat, uning maqsadi, vazifalari va vositalari.

12.1 Daromad turlari va manbalari. Nominal va real daromad. Diskriminatsiyaning iqtisodiy nazariyasi. Daromadlarning tabaqalanishi va tengsizlikdagi qonuniyatlar. Lorens egri chizig'i, samaradorlik va foydani qayta taqsimlash. Daromadlar tengligini ta'minlashga qaratilgan chora- tadbirlar. Kambag'allik va uning ifodasi. Kambag'allik ko'rsatkichlari.

Har qanday iqtisodiyotning bosh masalasi inson va uning ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Bu albatta insonning jamiyatdagi o'rni, ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlarni taqsimlash munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi ishlab chiqarishning holatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lsa ham, taqsimot masalasi ham o'ziga xos muhim o'rin tutadi. Taqsimlash – bu har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishlab chiqarilgan mahsulotdagi ulushini aniqlash jarayonidir. Taqsimlashning ikki jihatini, ya'ni iqtisodiy jihatini va ijtimoiy jihatini farqlash lozim. Taqsimlashning iqtisodiy jihati taqsimlashning milliy iqtisodiyotga ehtiyojlar tizimi, manfaatlar va rag'batlar orqali ta'sir etishini ifoda etsa, ijtimoiy jihati esa uning aholi ijtimoiy ehtiyojlarining qondirilishi va rivojlantirilishini aks etadi.

Asrlar davomida insoniyat taqsimotdagi ijtimoiy adolat ustida fikr yuritib keladi. "Iqtisodiyot nazariyasi"da ijtimoiy adolat – bu daromadlar taqsimlanishidagi mo'tadil tengsizlik muammosidir. Uni turli konsepsiyalar o'ziga xos ravishda talqin etadi. Jumladan, "**Egilitar**" konsepsiya tarafdorlari daromadlarning tekis taqsimlanishini adolatli, deb biladi. "**Roulsian**" konsepsiyasiga ko'ra esa, adolatlilik jamiyatning eng kam ta'minlangan a'zosi farovonligini maksimalashtirishdir. "**Utilitar**" konsepsiya daromadlarni taqsimlashda adolatlilik, deb shunday holatni nazarda tutadiki, unga ko'ra ijtimoiy farovonlik birinchi o'rinda turadi. Bozor konsepsiyasiga ko'ra adolatli taqsimlash, bu ishlab chiqarish omillariga talab va taklif asosida shakllanadigan taqsimlashdir.

O'zbekistonda shakllantirilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti ommaviy farovonlikni mo'ljal qilib oladi. Unga erishish uchun bozor mexanizmiga xos vositalar ishlatiladi. Hozirgi zamon iqtisodiyoti yuksak rivojlangan texnika-texnologiya, sifatli ish kuchi va taraqqiy etgan menejmentga asoslangani uchun farovonlikni ta'minlaydigan yuqori mehnat unumdorligiga erishadi. Yuksak ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiyotda **insonparvarlik** prinsiplari amal qilishi uchun zamin yuzaga keladi. Ammo farovonlikni ta'minlash insoniylik bilan bir qatorda jamiyatning iqtisodiy tizimida ham sifat o'zgarishlari bo'lishini talab etadi. Hozirgi kunda bunga mulkning demokratlashuvi natijasida – ko'p xil mulkchilik negizida ish tutish bilan erishiladi. Bu yerda asosiy jihat – mulksizlarning mulkdorlarga

aylanishidir. Hozirgi kunda ish kuchi sohiblari boshqa mulk egalariга ham aylanmoqdalar.

Mehnat va mulk funksiyalarining oddiy odamlar qo'lida yig'ilishi iqtisodiyotni insoniylik prinsipilariga bo'ysundiradi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan jamiyatda nufuzli iqtisodiy faoliyat qonuni amal qiladi. Bu qonunga ko'ra, iqtisodiy faollik negizida pul topib, boy bo'lish emas, balki jamiyatda nufuzli, obro'-e'tiborli bo'lish, o'z nufuzi bilan nom chiqarish va shu yo'sinda ijtimoiy hayotda o'z o'rmini topa bilishga intilish maqsadi yotadi. Bu hol yuz berishi uchun inson sahiy va olijanob bo'lishi kerak. Nufuzli iqtisodiyot qoidalari qanchalik keng amal qilsa, shunchalik ommaviy farovonlik yuz beradi. Har bir kishi iste'mol etadigan buyumlarning ekvivalenti bo'lgan pul daromadi taqsimot kategoriyasidir. Bozor iqtisodiyotiga xos taqsimot qonuniga ko'ra moddiy ne'matlar va xizmatlar resurslar bergan pirovard natijasga qarab, ularning egalari o'rtasida taqsimlanadi. Shu bilan birga, jamiyatda taqsimotning nobozor qoidalari ham amal qiladi. Bozor iqtisodiyotiga xos taqsimot qonuniga ko'ra moddiy ne'matlar va xizmatlar resurslar bergan pirovard natijasiga qarab, uning egalari o'rtasida taqsimlanadi. Aytilgan taqsimot qonuni bozor iqtisodiyoti uchun ijtimoiy adolat tamoyillari belgilaydi. Ular daromadni cheklashni inkor etadilar. Ularga binoan daromadlar har bir ishlab chiqarish omili samarasiga qarab, cheksiz o'sib borishi mumkin. Taqsimot qonuniga binoan ish kuchi sohibi ish haqi oladi, kapital egasi foyda, yer egasi renta oladi, menejer ish haqi va foyda oladi, avval ishlaganlar pensiya oladilar. Taqsimotning bozor qoidalari hukmron bo'lsada, jamiyatda uning nobozor qoidalari ham amal qiladi. Nogironlar, kambag'allar, boshpanasizlarga yordam ko'rsatish taqsimotdagi ijtimoiy hayr-ehson tamoyili bo'lib, uning bozor qonunlariga aloqasi yo'q, aksincha, u insoniylik jihati hisoblanadi. Bozor taqsimotiga ekvivalentlik, ya'ni omillar bergan natijaga monand ravishda daromad ajratish xos. Ammo noekvivalent taqsimot ham bor. Davlat daromadning bir qismini o'z ihtiyoriga olganga taqsimlash munosabati yuz beradi, ammo ekvivalentlik bo'lmaydi, chunki davlat daromaddagi o'z hissasini iqtisodiy o'sishdagi xizmatlariga teng miqdorda emas, balki umumdavlat talab-eh-tiyojini qondirish zarurligi uchun oladi.

Resurs egalari daromadi ularning ishlatilish samaradorligiga bog'liq va uning mezonini bozor aniqlaydi. Samaradorlik mezonini esa bozor talabining qondirilishidir. Resurslar yordamida talabgir tovar qanchalik ko'p yaratilsa, shunchalik pul ko'p topiladi, shunga binoan daromadlar ham ko'payadi. Resurslar bozor nuqtai nazaridan samarali ishlatilmasa, tabiiyki, daromad kamayadi. Xullas, daromad bozorning resurslar sifatini naqadar tan olishiga bog'liq.

Iqtisodiy voqeelikdan kelib chiqib, turli maktablar daromadlarni taqsimlash masalasiga turlicha yondashadilar. Masalan, "Liberal" nazariya vakillari ishlab chiqarish omillari ta'limotiga tayanib, har bir omil egasi o'z ulushini oladi va davlatning bu yo'nalishga aralashuvi maqsadga muvofiq emas, deb bilsalar; "Ijtimoiy davlat" nazariyasi namoyondalari esa, aksincha, davlat fuqarolarining

arzigulik daromadlarini davlat tomonidan qayta taqsimlanishini zarur, deb hisoblaydilar. "Daromadlarni qayta taqsimlashning masshtabli" nazariyasi bozor iqtisodiyoti sharoitlarida davlatning xatti-harakati orqali barchaning yuqori turmush darajasini ta'minlashni ifoda etadi.

Aholi daromadlari, ularning turlari va manbalari. Daromadlar tengsizligi, ular darajasini aniqlash. Yuqorida aytilganidek, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi taqsimot qonuniga muvofiq iqtisodiyot sub'ektlarining daromadi ularga qarashli resurslarning miqdori va samarali ishlatilishiga qarab belgilanadi. Bunga binoan olingan daromadlar ishlab chiqarish omillari daromadlari yoki bozor daromadlari hisoblanadi va har bir omil o'z egasiga alohida daromad keltiradi. Ishchi kuchi egasi ish haqi, kapital egasi foyda, ko'chmas mulk egasi renta, pul egasi foiz, aksiya egasi dividend shaklida daromad oladi.

Taqsimot qonuniga ko'ra, daromadlar ekvivalent ya'ni babbaravar, tengmatenglik tamoyiliga asoslanishi – har bir sub'ekt o'z qo'lidagi ishlab chiqarish omili yordamida tovar va xizmatlar yaratishga qo'shgan hissasiga qarab daromad olishi kerak. Bunday daromadlar iqtisodiyotda bozor daromadlari deb ataladi. Bu asosiy daromad turi bo'lsada u yagona daromad emas, undan tashqari bozor tamoyillari emas, balki insonparvarlik qoidalariga asoslangan nobozor daromadlari ham bo'ladi. Bozor daromadlari olinish usuliga va shakllanish manbalariga ko'ra farqlanadi. O'z olinish usuliga ko'ra daromadlar mehnatga asoslangan va mehnatsiz topilgan daromadlarga bo'linadi. Ish haqi, foyda kabi daromadlar mehnatga asoslangan daromadlar, deb hisoblansa, qo'yilmalar uchun foiz, meros kabi daromadlar mehnatsiz daromadlar jumlasiga kiradi.

Shakllanish manbalariga ko'ra daromadlar ish haqi, mulkdan kelgan daromadlarva ijtimoiy to'lovlarga bo'linadi. Mulkdan kelgan daromadlar sirasiga foyda, renta, foiz, dividend daromadlari mansubdir. Ijtimoiy to'lovlar bilan bog'liq daromadlar pensiya, stipendiya va hokazolardan iborat.

Bozor iqtisodiyotida ish haqi daromadning asosiy qismi, ammo yagona daromad emas. Rivojlangan bozor mamlakatlarida u axoli jami daromadlarining 2/3 qismini tashkil etadi. Ish haqi miqdorining ko'p yoki oz bo'lishi odatda, mehnat bozoridagi ish kuchiga talab va ish kuchi taklifining nisbatiga, mehnatning unumdorlik kuchiga, bozor talabiga mos ravishda ishlay bilishiga bog'liq bo'ladi. Foyda, foiz, dividend, renta, mulkdan keladigan daromad ularning miqdori, uning egasi tomonidan qanchalik samarali ishlatilishiga qarab bo'ladi. Davlat tomonidan qarilik va nogironlik yoki boquvchisiz qolganlarga beriladigan pensiya, nafaqalar, bir yo'la yordam pullari, stipendiyalar va turli natural to'lovlar, nobozor daromadlarini tashkil etadi. Bu to'lovlarni davlat firmalari va ayrim homiyilar tashkil etib, shu hisobdan muhtojlarga bepul ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon beriladi, bepul xizmatlar ko'rsatiladi.

Diskriminatsiya (kamsitish) so'zi 20 asrning boshlarida frantsuz tilida olingan – (tenglikdan mahrum qilish, huquqlarni cheklash, farqlarni aniqlash, farqlash),

so'zning kelib chiqishi lotin tilidagi "discernere" so'zi bilan bog'liq - ajratish, alohida-alohida degan ma'nolarning mazmunida zamonaviy iqtisodiy kontseptsiya sifatida aks ettirilgan.

Iqtisodiyotda kamsitish sheriklarning "o'zlari" va "begonalar" ga bo'linishi bo'lib, bu mamlakatlar, korxonalar, shaxslar darajasida teng iqtisodiy turli nuqtai nazarni anglatadi. Kamsitish, ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqlarini qonuniy asoslarsiz boshqalarga nisbatan buzish yoki mahrum qilish sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy kamsitish kamsituvchi sub'ektga tadbirkorlik yoki mehnat faoliyatining noqulay sharoitlarida sabab bo'ladi. Diskriminatsiya muammolarini ishlab chiqish Amerika iqtisodchisi, Chikago iqtisodiy fikrlash maktabi vakili Gari Bekkerning ilmiy hissasi bilan bog'liq. Uning tadqiqotlari iqtisodiy fanning yangi yo'nalishini - kamsitish iqtisodiyotini shakllantirishga imkon berdi. Bu yo'nalishning ayrim asosiy tushunchalarini keltiramiz.

Diskriminatsiya darajasi - bir xil ish haqi stavkalaridagi foiz farq. Diskriminatsiyaning uzoq muddatli oqibatlari-uzoq muddatli kamsitishni amalda qo'llaydigan firmalar raqobatbardosh emasligidir..

Diskriminatsiya-tashqi iqtisodiy integratsiya oqibatlarini tahlil qilish uchun asosiy iqtisodiy tushuncha bo'lib, u mintaqaviy darajada kamsitishdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida axoli daromadlari ish haqi tadbirkorlik faoliyatdan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya, turli xil yordam shaklidagi pul tushumlaridan, mulkdan foiz, dividend, renta shaklidagi daromadlardan, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulkdan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan, hunarmandchilik, kasanachilik, turli xil xizmatlar ko'rsatish va moliya kredit, banklardan keladigan daromadlardan tashkil topadi.

Axoli daromadlari darajasini aniqlashda nominal, ixtiyorida bo'lgan va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi.

Nominal daromad – axoli tomonidan ma'lum vaqtda pul shaklida olgan daromadlarining miqdori.

Ixtiyoridagi daromad – nominal daromaddan soliqlar va turli majburiy to'lovlar chiqarib tashlangandan so'ng, axoli ixtiyorida shaxsiy iste'mol va jamg'arish uchun qoladigan daromad.

Real daromad – axolining ixtiyorida qolgan daromadga qancha tovar va xizmatlar sotib olishi bilan aniqlanadi, daromadning xarid qobiliyatini anglatadi yoki real daromad – bu iste'mol etiladigan tovar va xizmatlarda ifoda etilgan daromad bo'lib, muayyan narx-navo sharoitida pul daromadlariga bozorda nima berilishini bildiradi. **Real daromad ikki narsaga bog'liq bo'ladi.**

a) qo'lda mavjud bo'lgan pul daromadining yoki axoli ixtiyorida qolgan daromadning miqdoriga teng.

b) pul birligining xarid qobiliyati. Bu bozorda narxga bog'liq bo'ladi, ya'ni narx qimmatlashsa u kamayadi, narx arzonlashsa ortadi.

Masalan, o'qituvchining bir oylik qo'lga tekkan yoki o'z ixtiyorida qolgan daromadi 200 ming so'm. Shu pulga 100 ming so'mlik kiyim-kechak, 60 ming so'mga oziq-ovqat tovarlari, 40 ming so'miga ro'zg'or uchun zarur tovarlar, uy-joy anjomlari, bolalariga maktab tovarlari xarid qilish mumkin. Narx pasaysa 90 ming so'mga kiyim-kechak, 50 ming so'mga oziq-ovqat tovarlari, 30 ming so'mga uy-ro'zg'or anjomlari, bolalar uchun turli xil o'quv qurollari xarid qilsa (200-170-30) 30 ming so'm qoladi. Shu pulga qo'shimcha ravishda tovarlarni xarid qilish mumkin. Bu iste'molni orttiradi, narxlar oshsa iste'mol qisqaradi. Shuning uchun real daromad aniqlanganda narxlarning o'zgarishi hisobga olinishi zarur. Buning uchun iste'mol tovarlari narxining indeksidan foydalaniladi. Bu tovarlar tarkibiga ko'pchilik iste'mol qilinadigan tovarlar to'plami kiradiki, u iste'mol savati deb yuritiladi. Iste'mol savati ishlab chiqarishni rivojlanishi va kengayishi bilan o'zgarib kengayib boradi, yangi tovar va xizmatlar kirib keladi. Masalan, bir vaqtlar shaxsiy avtomobilga ega bo'lish, televizor, kompyuterlardan, uyali telefon aloqasidan foydalanish xarajatlari iste'mol savatiga kirmagan. Bugun esa bular odatdagi iste'mol tovarlariga aylanib bormoqda va iste'mol savatiga kiradi.

Aholi daromadlari "turmush darajasi" va "turmush sifati" tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. Aholi daromadlari oshib borgan sari xalq yashash sharoitlari yaxshilanib boradi. Turmush darajasi, deganda kishilar farovonligining miqdoriy me'yori tushuniladi. Daromadlar va iste'mol darajasining o'sishi, umr yoshining o'sib borishi, ish haftasi va ta'tilning uzunligi uni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardir.


Turmush sifati kishilar turli sharoitalri haqidagi umumiy tushunchalar bo'lib, mehnat sharoitlari va xavfsizligi, madaniy daraja, jismoniy rivojlanish kabilar bilan xarakterlanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlarning tabaqalanishi yoki tengsizligi hukm suradi. Bozor sharoitida hamma bir xil tenglikka asoslangan daromad ololmaydi. Chunki kimdir ko'p pul topsa, kimdir kam topadi. Chunki pulni ko'p, oz topish eng avvalo insonning ish qobiliyatiga, ijtimoiy-iqtisodiy muhitga bog'liq. Bu muhit har bir shaxsning ish qobiliyatini to'laroq yuzaga chiqara olsa ishlab pul topish ko'payadi, agar aksi bo'lsa kamayadi. Bozor iqtisodiyoti pul topish uchun, qonuniy ravishda teng imkoniyatlar beradi, lekin bu imkoniyatdan foydalanish har xil bo'ladi va bu o'z navbatida turmush darajasida farqlanadi va bu daromadning har xilligida yuz beradi. Kishilar turmushini farqlantiruvchi yana bir omil ijtimoiy-demografik holat bo'lib, oila tarkibining har xilligi bilan yuz beradi.

Oila tarkibida mehnat qilib pul toparlar ko'p bo'lsa, boqimandalar oz bo'lsa, albatta u jon boshiga hisoblanganda ko'p bo'ladi. Shuning uchun ko'p bolali oilalarda ixtiyoridagi daromad hajmi katta bo'lsada, u jon boshiga hisoblanganda kam chiqadi. Misol uchun ikki oilani olib ko'raylik. Birinchi oilada 5 kishi bor 3 kishi pul topadi. Har birining daromadi oyiga 100 ming so'm 2 kishi boqimanda. Bu oilaning jami daromadi 300 ming so'm bo'lib, jon boshiga 60 ming so'mdan to'g'ri keladi.

Ikkinchi oilada 6 kishi bor ulardan faqat 2 kishi ishlab oyiga 200 ming so‘m daromad topadi, lekin bu yerda boqimanda 4 kishi, jon boshiga daromad 33 ming so‘mga to‘g‘ri keladi. Daromadlarning farqlanishi (60>33) pul topishga emas balki, oila a‘zolari soniga, boqimandalar soniga bog‘liq. Daromadning farqlanishi uning tabaqalanishi-differentsiatsiyasi, deb yuritilib daromadlardagi tengsizlikni ko‘rsatadi. Daromadlardagi tengsizlik aniqlanganda xonadonlar 5 ta kvintelga (guruhga) bo‘linadi. Bunda xonadonlar quyidan yuqoriga, ya‘ni past daromaddan yuqori daromad sari joylashtiriladi (1 kvintel – o‘ta kambag‘allar, 2 kvintel – kambag‘al, 3 kvintel – o‘rtahol, 4 kvintel - boy, 5 kvintel – o‘ta boylardan iborat bo‘ladi).

Turli kvinteldagi xonadonlarning umumiy xonadonlar sonidagi hissasi (% hisobida) ularning jami daromaddagi hissasi bilan taqqoslanadi. Bu bilan xonadonlarning qanday daromadlarning qanday qismini olinganligi aniqlanadi. Odatda quyi kvintellardagi xonadonlarning daromaddagi hissasi kichik bo‘ladi, ya‘ni masalan 10% xonadon 5-6 % daromadni oladi. Vaholanki, yuqo-ri kvintellarda xonadonlar soni kam bo‘lsada, ular daromadning katta qismini oladilar. Ayrim mamlakatlarda oz miqdordagi 4-5 foizni tashkil etgan boy oilalar daromadlarning katta qismini oladilar. Bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarishni o‘sishi, axolining turmush darajasi ko‘tarilayotganligiga qaramay, eng boy va eng kambag‘allar o‘rtasidagi tafovut oshib bormoqda. BMT ning ma‘lumotiga ko‘ra, dunyodagi eng boy 3 odamning boyligi Afrika, Osiyo, Lotin Amerikasi qit‘asidagi 48 ta kam rivojlangan mamlakatlarning yillik yalpi ichki mahsulotidan ortiq. Sayyora-mizning 225 eng boy odamlarining umumiy daromadi 1 trln dol-larlardan ortiq. Shunday bir vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlarda yashayotgan 4,4 mlrd. axolining 3/5 qismi kanalizatsiyadan foydalan-may, 1/3 qismi toza ichimlik suvidan iste‘mol qilishdan, 1/3 qismi sog‘liqni saqlash xizmatidan foydalanishdan mahrum etilgan. Yevropaliklar bir yilda 11 mlrd. dollarlik iste‘mol qilgan muzqaymoqning qiymati, dunyoda toza ichimlik suvi va kanalizatsiyaga muhtoj bo‘lganlar ehtiyojini to‘la qondirish imkonini beradi.

12.1 grafik. Daromadlar tengsizligi darajasining miqdorini aniqlash uchun Lorens egri chizig‘idan foydalaniladi. Axoli hissasi, %



“Oilalar” ulushi yotiq chiziqda, daromadlar ulushi esa tik chiziqda joylashgan. Nazariy jihatdan daromadlarning mutloq teng ta’minlanishi imkoniyati (burchakni teng ikkiga bo’luvchi) chiziqda ifodalangan bo’lib, u oilalarning har qanday tegishli foizi daromadlarning mos keluvchi foizini olishini ko’rsatadi. 20% oilalar barcha daromadlarining 20 %, 40% axoli 40% daromadni, 60% axoli 60% daromadlarni olishni bildiradi.

Mutloq tenglikni ifodalovchi chiziq va Lorens egri chizig’i o’rtasidagi tafovut daromadlar tengsizligi darajasini aks ettiradi. Bu farq qanchalik katta bo’lsa tengsizlik katta va daromadlarning haqiqiy taqsimlanishi mutloq teng bo’lsa, bunda Lorens egri chizig’i va bissektirisa o’qi bir-biriga mos kelib, farq yo’qoladi.

Daromadlar tabaqalanishin aniqlashning ko’p qo’llaniladigan ko’rsatkichlaridan biri disel koeffitsienti bo’lib, bu ko’rsatkich 10% eng yuqori ta’minlangan axoli o’rtacha daromadlari va 10 % eng kam ta’minlangan ahol o’rtacha daromadi o’rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Solishtirilayotgan aholi qatlamlari orasidagi farq 13- 15 martadan oshiq bo’lmasligi talab etiladi. O’zbekistonda bu farq turli yillarda 7,9 dan 11,5 gacha bo’lib, u me’yordan chiqib ketmagan. 2012 yil bu ko’rsatkich 8,0 ni tashkil etdi. Masalan AQSh va Angliyada bu nisbat 13:1 ga, Shvesiyada esa 5,5:1 ga teng.

Yalpi daromadning axoli guruhlari o’rtasida taqsimlanishini xarakterlash uchun axoli daromadlari tengsizligi indeksi (Djinni koeffitsienti) ko’rsatkichidan foydalanildi. Bu ko’rsatkich qanchalik katta bo’lsa (ya’ni 1,0 ga yaqinlashsa) tengsizlik shuncha kuchli bo’ladi. Jamiyat a’zolari daromadlari tenglashib borganda bu ko’rsatkich 0 (nol)ga intiladi.

Respublikamizda ijtimoiy nochor va kam ta’minlangan axoli qatlamlariga ustivor yordam siyosati tufayli axoli daromadlari orasidagi tafovut darajasini birmuncha yumshatishga olib keldi. Jinni koeffitsienti (jamiyatning daromad bo’yicha tabaqalanishi ko’rsatkichi) 1991-1997 yillarda 0,261 dan 0,421 ga ko’tarilib, 2003 yilda 0,387 gacha tushdi. U 2019 yil 0,3 ni tashkil etdi.

Umumiy daromadlarning tabaqalanishi alohida tarmoqlar va faoliyat sohalarida ish haqi darajasidagi farqning ortishi bilan birga boradi. Milliy iqtisodiyotda o’rtacha ish haqining tarmoqlar, korxonalar va ishlovchilar kategoriyasi bo’yicha ma’lum tengsizligi mavjud. Daromadlar tengsizligining asosiy sababi, bozor iqtisodiyotining xususiyatidan kelib chiqadi. Respublikamizda ham bozor iqtisodiyotiga o’tish daromadlar tengsizligi masalasini ma’lum darajada keskinlashtiradi. Daromadlarning tabaqalanishi eng avvalo mulkiy tabaqalanishdan kelib chiqadi.

Kambag’allik tushunchasiga yagona ta’rif mavjud emas. Ba’zilar kambag’allik deganda insonning birlamchi ehtiyojlarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta’lim va sog’liqni-saqlash) qondirishga imkoniyatning mavjud emasligini tushunsa, boshqalar – tanlov erkinligining yetarlicha emasligi yoki kuniga 1,90 dollardan kam miqdorga kun kechirishni, uchinchi tomon esa –

insonning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ishtirokiga putur yetkazuvchi ijtimoiy, ta'lim va sog'liqni-saqlash sohasidagi to'siqlarning doimiy doirasini tushunishadi. Umumiy qaraganda, kambag'allikni baholash bir nechta aniq belgilangan ko'nikma va usullarni talab qiladi. Belgilangan davrda inson farovonligi darajasini o'lchashda foydalaniladigan 2 ta ko'rsatkich mavjud: aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol xarajatlari. Daromadlarning iste'molga nisbatan o'zgaruvchan bo'lishi, ba'zi daromad manbalarini aniqlashning murakkabligi, daromadlar to'g'risidagi yolg'on ma'lumotlarning keltirilish darajasi yuqori bo'lganligi uchun amaliyotda 2- ko'rsatkichdan foydalanish tavsiya etiladi. Shuning bilan birga, farovonlik ko'rsatkichi sifatida iste'mol xarajatlari ma'lumotlaridan foydalanishda esa vaqt o'tishi bilan narxlarning o'zgarishini, ayrim mamlakatlar o'rtasidagi narxlar farqini, uyda iste'mol qilinadigan tovarlar (shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari), uy xo'jaliklari tomonidan qabul qilinadigan jamoat tovarlari va xizmatlari narxlari (bepul yoki subsidiyalangan tibbiy yordam, maktab ovqatlari, xalq ta'limi) kabilarni hisobga olgan holda bu ko'rsatkichga ba'zi to'g'rilashlarni kiritish lozim bo'ladi. Shu sababli, kim kambag'al yoki kambag'al emasligini aniqlash uchun iste'mol (daromad) to'g'risidagi bilimlarga asoslanib, odatda "kambag'allik chegarasi" deb nomlanadigan kambag'allikning eng yuqori darajasini aniqlab olish lozim. Bu esa mushkul vazifadir, chunki kambag'allik ta'rifi bo'yicha ham, uning chegarasi bo'ladigan narsada ham mutaxassislar o'rtasida yakdil fikr mavjud emas. Shu bilan birga, kambag'allik chegarasining eng ko'p ishlatiladigan ta'riflari quyidagilardir:

Oziqlanishga asoslangan kambag'allik darajasi. Qashshoqlik ma'lum ko'rinishlarni oladi va ochlik ana shunday ko'rinishlardan biridir. Bunday holda, farovonlik aholi jon boshiga kunlik kilokaloriyalar iste'moli bilan o'lchanadi va ushbu kategoriyadagi odamlar uchun kunlik energiya sarfi miqdori bilan taqqoslanadi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti kuniga energiya sarfi chegarasini o'rtacha 1800 kilokaloriya qilib belgilashni tavsiya etadi. Bu ko'rsatkich yoshga, jinsga va inson faoliyat darajasiga qarab o'zgarishi mumkin. Oziq moddalar yetishmovchiligining boshqa shakllari, masalan, oqsillar yoki "yashirin ochlik" deb nomlangan ba'zi mikroelementlar uchun ham chegara belgilanishi mumkin. Bunday holatda ham tavsiya etilgan minimal darajadan kelib chiqib kambag'allikning umumiy darajasini belgilash mumkin.

Xalqaro kambag'allik chegarasi. Ushbu chegara Jahon banki tomonidan xalqaro taqqoslash uchun ishlatiladi. O'ta qashshoqlik chegarasi sotib olish qobiliyati pariteti bo'yicha kuniga 1 dollar miqdorida belgilanadi, kambag'allik chegarasi esa kuniga 2 dollar miqdorida belgilanadi. So'nggi paytlarda ushbu kambag'allik chegaralari tegishli ravishda 1,25 va 2,5 dollarga ko'tarilgan. Hozirgi vaqtda dunyodagi eng kambag'al 15 mamlakat ushbu kambag'allik chizig'ilaridan foydalanadi. Biroq, hozirgi vaqtda, turli mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari

va rivojlanish bosqichlarini hisobga olgan holda, kambag'allikning boshqa chegaralari ham qo'llaniladi. Xususan, daromadi o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lgan davlatlar uchun kam ta'minlanganlik darajasi kuniga 3,2 dollar, daromadi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan davlatlar uchun esa kuniga 5,5 dollarni qo'llash tavsiya etiladi.

Nisbiy kambag'allik chegarasi. Qashshoqlik nafaqat mutloq, balki nisbiy tushunchadir. Odamlar o'z iste'mol darajasini tegishli nazorat guruhidagi boshqa odamlar bilan taqqoslaganda o'zlarining holatini sub'ektiv ravishda yomon baholashlari mumkin. Bu nisbiy mahrumlik tushunchasi tufayli odamlar o'z mamlakatlari yoki jamoalaridagi o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan shaxsiy daromadlari yoki iste'mollar darajalariga ahamiyat berishadi. Nisbatan kambag'allik chegarasini oddiy ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda munosib ishtirok etish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy integratsiya xarajatlari sifatida ham izohlash mumkin. Nisbiy kambag'allik chegarasini qo'llash Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan. Bu holda kam ta'minlanganlar sifatida mamlakatda eng kam iste'mol qiluvchi 25% odam tushuniladi.

Sub'ektiv kambag'allik chegarasi. Aytishimiz mumkinki, kambag'allik nafaqat mutloq yoki nisbiy standart, balki idrok hamdir. Bunday holda, uy xo'jaligiga: "Siz qanday xarajatlarning qanday darajasini mutloq minimal deb hisoblaysiz?" deb so'raladi va bu ularning haqiqiy xarajatlari darajasi bilan taqqoslanadi. Shunday qilib, amaldagi xarajatlari o'lon qilingan sub'ektiv minimumdan past chiqqanlar ulushiga kambag'allik darajasi deb qaraladi. Ammo, bu yerda kambag'allik darajasi, ko'p hollarda, savolning qanday berilishiga bog'liq. zbekistonda kambag'allikni o'lchashda faqat dastlabki ikkita usul qo'llaniladi. Oziqlanishga asoslangan usulning natijalari kambag'allik darajasini 11,4% ekanligini ko'rsatadi. Ikkinchi yondashuv natijalariga asoslanib esa kuniga 5,5 dollar chegarani oliganda kamta'minlanganlik darajasi 36,6% va 3,6 dollar deb olganda - 9,6%ni tashkil etadi. Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, kambag'allikning yuqori darajasi Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatilmoqda. So'nggi yillarda kambag'allik darajasini o'rganish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan omma uchun ochiq ma'lumotlar bazasini yaratishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Ular bizga kambag'allikni tavsiflash, uning omillari, shuningdek, aniq dasturlar va siyosiy islohotlarning kambag'allikka ta'siri to'g'risidagi ko'plab farazlarni sinab ko'rish imkonini beradi. Masalan, kambag'al bo'lgan va bo'lmagan odamlar yoki uy xo'jaliklarining xususiyatlarini taqqoslab, kambag'allikning sababini aniqlash va unga qarshi kurashning aniq parametrlarini belgilash mumkin. Bunda ma'lumot quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilinishi mumkin **Oila a'zolarining xususiyatlari:** yoshi, jinsi, millati, ma'lumoti va sog'lig darajasi. **Uy xo'jaligining demografik xususiyatlari:** oila boshlig'ining jinsi, ishlash yoshidagi a'zolariga to'g'ri keladigan bolalar va qariyalar soni. **Mulk:** yer, chorva

mollari, asboblar va ijtimoiy kapital. **Faoliyat turlari:** faoliyat sohasi, tomorqa faoliyati, bandlik turi. **Joylashuv:** qishloq /shahar, viloyat, tuman.

Kommunal xizmatlardan foydalanish: elektr energiyasi, ichimlik suvi, tibbiyot muassasasi, maktab, ijtimoiy yordam dasturlari.

Bozorga kirish va xususiy xizmatlar: bozorlargacha masofa, yo'l infratuzilmasi, moliyaviy xizmatlardan foydalanish va b. Masalan, Rossiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, uy xo'jaligining kambag'al bo'lishiga 16 yoshgacha bo'lgan bolalarning mavjudligi, ishsiz oila a'zolarining borligi, qishloq joylarda yashashi, barqaror daromad manbalarining yo'qligi va ularning norasmiy sektorda bandligi va mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi yomonligi kabi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday qilib, O'zbekistondagi kambag'allikning yanada aniq tasvirini unga qarshi kurash bo'yicha asosiy chora-tadbirlar va tavsiyalarning mazmunini belgilaydi. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, kam ta'minlangan oila 7 kishidan iborat bo'lib, oila boshlig'ining o'rtacha yoshi 50 yoshdan yuqori va u oliy ma'lumotga ega emas. Jumladan, 11% kamta'minlangan oilaning boshlig'i ishsiz, 93% holatlarda esa oliy ma'lumotga ega emas va faqat 24% o'rta maxsus ma'lumotga ega. Kamta'minlangan uy xo'jaliklarining 43% doimiy ish joyiga ega emas. 93% markaziy isitish tizimiga, 96% markaziy kanalizatsiya tizimiga va 66% markaziysuv ta'minotiga ulanmagan. Prognozlash va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan BMT Taraqqiyot dasturi ko'magida olib borgan shunga o'xshash tadqiqotlar natijalariga ko'ra esa respublikada kamta'minlangan uy xo'jaliklarining ahvolini quyidagicha tavsiflanishi mumkin: ular 3 bolali qishloq joylarda istiqomat qiluvchi, oila a'zolarining ma'lumot darajasi yuqori bo'lmagan va chet elda mehnat qila oladigan mehnatga layoqatli a'zosi bo'lmagan uy xo'jaliklaridir. Shu bilan birga, kamta'minlanganlik darajasi aniq mintaqaviy xususiyatga ega. Ushbu natijalar Jahon bankining 2019 yilda O'zbekiston iqtisodiyotini inklyuziv diagnostikasi bo'yicha xulosalari bilan mos keladi.

Xususan, eng kamta'minlangan uy xo'jaliklari bolalari ko'payishi sababli kattaroq ekanligi, shuningdek, ishlaydigan kattalar soni kamligi qayd etilgan. Erkaklar orasida farovonlik darajasi har xil bo'lgan guruhlar o'rtasida mehnat holatida jiddiy tafovut yo'q. Biroq kamta'minlangan ayollarning ishchi kuchi tarkibidagi ishtiroki ancha past, har uchinchi kam ta'minlangan oilaning boshlig'i ayol kishi. Iste'mol (daromadlar) o'rtasidagi tafovutni belgilovchi uchta eng muhim omil bu oila boshlig'larining jinsi, ma'lumoti va bandlik holati. Ushbu natijalar mamlakatning kambag'allik muammosini hal qilishda aksariyat mintaqalarda ta'lim sifati, bandlik darajasi, uy-joy bilan ta'minlanganlik imkoniyatlari va yashash sharoitlari muhimligini tasdiqlaydi.

Kambag'allikka qarshi choralar: makroiqtisodiy va mikro darajadagi siyosat

Kambag'allikka qarshi kurash bo'yicha tavsiyalar kam ta'minlangan uy xo'jaliklarining xususiyatlari, jamiyat hayotida ishtirok etishda iqtisodiy-ijtimoiy to'siqlar va rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlari, shuningdek, makroiqtisodiy va mikro darajada siyosatga asoslangan bo'lishi ularning muvofaqiyatini belgilaydi. **Inklyuziv biznes modellarini ishlab chiqish.** Bugungi kunda dunyoda aholisining kam ta'minlangan qatlamlari energiya, suv ta'minoti, kanalizatsiya, axborot texnologiyalari kabi ko'plab sohalarda sezilarli darajada qondirilmagan ehtiyojlarga ega. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining turg'unligi sharoitida kam ta'minlangan guruhlar ishtirokidagi bozor segmentlarining jozibadorligi oshib bormoqda. Kambag'allar jamiyatning iqtisodiy faol qismi sifatida, agar ularning ishlab chiqarish faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlari kengaytirilsa, ishchilar yoki tadbirkorlar sifatida iqtisodiy o'sish jarayonlarida ham ishtirok etishlari mumkin. Shuning uchun zarur bilim va ko'nikmalarning yetishmasligi muammosini hal qilish va kambag'allarning ta'limiga investisiya kiritish rivojlanishning asosiy omilidir. Bundan tashqari, mazkur inklyuziv biznes modellari bozor sharoitlariga moslashtirilishi kerak, bu yerda institutlar, infratuzilma va ta'lim darajasi nisbatan past, taqdim etilayotgan mahsulotlar va xizmatlar do'konlarda arzon bo'lishi, maqbul va faol ravishda reklama qilinishi kerak bo'ladi. Bunday mahsulotlar tan narxi va sotish bahosi o'rtasidagi kichik farq bilan tavsiflanadi, ammo savdo hajmi katta bo'ladi. Bu nafaqat arzon tovarlarni, balki kambag'allarning qondirilmagan ehtiyojlarini qondiradigan qadriyatlarni yaratishni ham anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi inklyuziv biznes uchun to'siqlarni (masalan qonunlar va normalarning past samaradorligi yoki ularning mavjud emasligi, byurokratiya, qishloq infratuzilmasi va yo'llarning umumiy rivojlanmaganligi, shuningdek, ta'limning past darajasi) yengib o'tishda davlat organlari va biznes vakillari o'rtasida muloqotni tashkil etish zarur.

O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi vaqt-vaqti bilan inklyuziv biznesda investisiya imkoniyatlarini ilgari surish, rivojlanmagan bozorlarni aniqlash va inklyuziv biznesning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bo'yicha treninglar o'tkazib turishi tavsiya etiladi. Inklyuziv biznes bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun har yili o'tkaziladigan mahsulotlar yarmarkalarini tashkil etish, ularda tadbirkorlar o'zaro tajriba almashishlari, bir-biri bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari ko'rib chiqilishi mumkin. Har yili "eng yaxshi inklyuziv biznes modellari tanlovini" o'tkazish va natijalarni va namunaviy loyihalarni keng omma e'tiboriga havola etish, mavjud tanlovlar doirasida "Yilning eng yaxshi inklyuziv biznes loyihasi" nominatsiyasini taqdim etish samarali mexanizmlardan deb qaraladi.

Davlatning tarkibiy islohotlari. Odatda, yalpi ichki mahsulot o'sishi yuqori bo'lgan davlatlar kambag'allikni kamaytirishda ham katta yutuqlarga erishmoqda. Biroq, dunyo taraqqiyoti tarixida ko'plab teskari misollarni topish mumkin. Buning

sabablari turli xil iqtisodchilar tomonidan turli yo‘llar bilan izohlanadi. Masalan, ba’zi mamlakatlarda (Kolumbiya va Marokash) ushbu vaziyatning sababi iqtisodiy o‘shishga parallel ravishda o‘shib borayotgan daromadlar tengsizligining ta’siri bo‘lishi mumkin (Kolumbiyada faol iqtisodiy o‘shish davrida Jini indeksi 51,3dan 58,3gacha ko‘tarilgan). Boshqa davlatlar (Filippin) uchun davlat muassasalarining ish sifati pastligi va boshqa institusional omillar ko‘rsatilgan (masalan, Filippinda davlat muassasalarining sifati 1998 yildagi 3,3 dan 2006 yilda 2,5 gacha pasaygan). Binobarin, iqtisodchilar iqtisodiy o‘shishning samaralari avtomatik ravishda aholining barcha qatlamlariga ta’sir qilishi cheklanganligi tufayli davlatning qayta taqsimlash rolini hisobga olishga undaydilar. Shunday qilib, davlat aralashuvi ish bilan ta’minlash, soliqqa tortishning progressiv turi, ijtimoiy xarajatlar va eng kam ish haqi siyosatiga yo‘naltirilgan tarkibiy islohotlarni rag‘batlantirish kabilarni o‘z ichiga olishi lozim. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ayollarni ish bilan ta’minlash dasturini mukammalroq ko‘rinishini qabul qilishi, xususan, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish va bolalarni erta rivojlanish markazlarida bo‘lishlarini rag‘batlantirish, rasmiy ish kunida bandlikni yoki ish vaqtining moslashuvchan davomiyligini va taqsimlanishini ta’minlaydigan yangi ish o‘rinlarini yaratish, ish va ayollarning shaxsiy hayotini muvofiqlashtirish kabi masalalarni inobatga olishi maqsadga muvofiq.

Sanoat siyosati. Rivojlanayotgan davlatlar sharoitida malakasiz ishchi kuchining haddan tashqari ko‘pligi va moliyaviy va moddiy resurslarning yetishmasligi tendensiyasi ustunlik qiladi, bu asosan mehnat resurslarini talab qiladigan sohalarni rivojlantirish maqsadga muvofiqligini bildiradi. Bunga qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va yengil sanoat, shuningdek, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish turlari – montaj, yig‘ish, kompyuter ishlab chiqarish, orgtexnika, sanoat elektr jihozlarining ayrim turlari va elektrotexnika kabi sohalarni kiritish mumkin. Tegishli ravishda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mehnat talab qiladigan tarmoqlarni rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli dasturni qabul qilishi maqsadga muvofiq: masalan, to‘qimachilik sanoatini va qo‘shimcha qiymat ulushi yuqori bo‘lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish va eksport qilish, milliy brendni yaratish, ipak buyumlari, gilam, milliy hunarmandchilik maxsulotlarini ishlab chiqarishga yaqindan yordam berishi mumkin.

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish. Xizmat ko‘rsatish sohasida, xususan aloqa va axborotlashtirish, maishiy xizmat, bank va biznes xizmatlarida (konsalting, audit, lizing, sug‘urta va boshqalar) kichik biznesni rivojlantirish; qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tadbirkorlarga xizmat ko‘rsatish, shu jumladan mahsulotlarni tayyorlash va saqlash, qishloq xo‘jaligi texnikalariga xizmat ko‘rsatish, chorva uchun ozuqani sotish xizmatlari, o‘g‘itlar va o‘simliklarni himoya qilish xizmatlari, veterinariya xizmatlariga alohida e’tibor qaratish lozim. Qishloq joylarda xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlardan biri bu xizmat

ko'rsatuvchi provayderlarning statistik ma'lumotlar bazasini (reestrlarini) takomillashtirish bo'lishi mumkin. Dunyoning ilg'or tajribalariga asoslangan mahalliy kamta'minlangan oilalarni jalb etgan holda ekoturizmni rivojlantirish dasturi qabul qilish imkoniyati ham mavjud.

Qishloq xo'jaligiga oid siyosat. Qishloq xo'jaligi ekinlarini chuqur qayta ishlash va rivojlangan mamlakatlarning bozorlariga eksport qilishning ulkan salohiyati saqlanib qolmoqda. Bu esa qishloq xo'jaligidagi hosildorlikning o'sishini, daromadlarining o'sishini va qishloq aholisining turmush sharoitining yaxshilanishini ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi uchun zarur infratuzilmani yanada rivojlantirish: ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganish, ularning samaradorligini isbotlagan innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va usullar bilan almashish tizimini yaratish. Masalan, Janubiy Koreyaning muvaffaqiyatli amalga oshirgan "Yangi qishloq uchun harakat" loyihasi allaqachon Afrika va Janubi-Sharqiy Osiyoda amalga oshirilmoqda. Yetakchi korxonalar va hududlardan ichki texnologiyalarni jalb qilish, mintaqada maxsus iqtisodiy zonalarni yaratish mumkin. Jahon tajribasini, xususan, Xitoy va Hindistonni tajribasini hisobga olgan holda, agrar islohotga e'tiborni kichik fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qayta ishlash va sotishni yengillashtirishga yo'naltirish kerak. Birinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha kooperativlar ishini rivojlantirish va buning uchun zarur texnologiyalarni jalb qilish jarayonini yengillashtirish kerak. Hukumat mintaqalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xalqaro sertifikatlash markazlarini tashkil qilishi va ularning xizmatlaridan foydalanishini osonligini ta'minlashi kerak, bu esa ishlab chiqarilgan meva va sabzavotlarning bozorini kengaytiradi, qayta ishlashni tashkil qiladi va kamta'minlangan qishloq aholisining daromadlarini oshiradi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish. Axborot texnologiyalarini keng joriy qilish: ta'lim va tibbiy xizmatlarni mobil telefonlar orqali taqdim etish tizimini yaratish, smartfonlar uchun o'z-o'zini rivojlantirish uchun barcha kerakli darsliklar yoki dasturlar jamlangan ma'lumotlar, intellektual o'yinlar tizimini joriy etish.

Innovatsion potensialni rivojlantirish, ijodkorlikni rag'batlantirishda quyidagilarni inobatga olish:		
-ilmiy-tadqiqot ishlariga	sarflanadigan xarajatlarni	ko'paytirish;
-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish	chiqarishni rivojlantirishni	rag'batlantirish;
-nashr etilgan ilmiy	nashrlar qatorini	kengaytirish;

- ekspert-maslahat tuzilmalarini rivojlantirish;
- Aholi tomonidan zarur buyumlar va xizmatlarni topishda sarf-xarajatlar va vaqt xarajatlarini kamaytirish;

-nisbatan qimmat uy-ro'zg'or buyumlarini sotib olishga qodir bo'lmagan va vaqtincha foydalanilmayotgan mulk imkoniyatlarini oshirish maqsadida ijaraga berish xizmatlarini joriy etish;

-narsalarni almashish va xizmatlarni taklif qilish uchun maxsus Internet-saytlar sinfini joylashtirish bo'yicha milliy dasturni ishlab chiqish.

Investisiya siyosati. Migrantlarga ularning jamg'armalarini samarali investisiya qilishga yordam berish uchun alohida dasturlar ishlab chiqish.

Mintaqaviy siyosat. Har bir mintaqada o'ziga xos kambag'allik profillari mavjud bo'lib, uni o'rganish uchun aniq choralar ishlab chiqishni talab qiladi. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi (kam ta'minlanganlik darajasi yuqori bo'lgan mintaqqa) uchun chora-tadbirlar dasturini aynan kam daromadli ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda ishlab chiqish lozim. Bunda Qoraqalpog'iston uchun xavf omillari hisoblangan mintaqaning past iqtisodiy rivojlanishi, 16 yoshgacha bo'lgan aholining ulushi kattaligi, ishsizlik darajasining nisbatan yuqoriligi, daromadlarning beqarorligi kabi muammolardan kelib chiqib ish tutish choralarning samaradorligini oshirishi mumkin.

Uy-joy qurilishi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi shaharlarda arzon uy-joy qurilishi bo'yicha respublika dasturini qabul qilish va ipoteka kreditlash tizimini rivojlantirish lozim, jumladan:

- rejalashtirish va ishlab chiqish jarayonida ma'muriy xarajatlarni kamaytirish;
- uy-joy narxini pasaytirish;
- yer narxini pasaytirish;
- qurilish sanoatiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilish;
- ipoteka kreditlash va jamoaviy kassalar imkoniyatlarini oshirish;
- foiz stavkalari va sotib olingan uy-joy qiymatiga dastlabki badalning ulushini kamaytirish;

-fuqarolar tomonidan jamg'arma badallari bosqichida shakllantirilgan uy-joy uchun mablag'larni maqsadli yig'ish mexanizmini yaratish. Uy-joy kommunal xo'jaligini modernizatsiya qilish dasturini qabul qilish:

- ushbu xizmatlarga narxlarning doimiy oshi ketishining oldini olish;
- qishloq aholisining toza ichimlik suvi bilan ta'minlash;
- elektr energiyasi va gazdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- ularni qish mavsumida uzluksiz yetkazib berishni ta'minlash.

Axborot siyosati. Qishloq aholisining xabardorligini oshirish uchun yangi harakatni yaratish: gigiena qoidalariga rioya qilish va antisanitar sharoitda o'stirilgan mahsulotlardan foydalanmaslik va qayta ishlangan va mikrooziqaviy moddalarga boy oziq-ovqat mahsulotlarini (suv, bolalar uchun oziq-ovqat va boshqalar) sotib olish orqali davolanish uchun katta pulni tejash mumkinligini keng targ'ib qilish. Masalan, Chilida sut kukuni mikroelementlar, xususan, temir bilan boyitilgan, bu kamqonlikni tarqalishini uch yil ichida 80 foizga kamaytirgan. Ixtisoslashgan treninglar uyushtirish orqali odamning daromadini oshirish yo'llarini

o'rgatish, shu bilan birga ovqatlanishni yaxshilashga (mikroelementlar bilan mahsulotni boyitish) va biofortifikatsiya investisiyalarni rag'batlantirishga da'vat etish o'z samarali natijasini berishi lozim. 2021 yilning 27 fevralida kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda Prezident Shavkat Mirziyoev mamlakatimiz aholisining 12-15% yoki 4-5 million aholi kambag'allik sharoitidaligini ta'kidladi. Bu ularning kunlik tushumi 10-13 ming so'mdan oshmasligini anglatadi.

Hozirgi kunda kambag'al oilaning shaxsiy kompyuter bilan ta'minlanganligi Respublikadagi o'rtacha oiladan 12 barobarga, shaxsiy mashina bilan – 11 barobarga, kondisioner bilan – 8 barobarga, changyutgich bilan – 4 barobarga, kir yuvish mashinalari bilan – 4 barobarga, muzlatgich bilan – 2 barobarga, televizor va uyali aloqa vositalari bilan – 1,5 barobarga kamligi kuzatiladi. Aholining kambag'al qatlami mamlakatga xos bo'lgan tezkor iqtisodiy o'sishdan foyda ko'rish imkoniyatidan mahrum bo'libgina qolmay, jamiyatning turli sohalarida ishtirok etish imkoniyati cheklanganligi tufayli rivojlanishga ham hissa qo'sha olmaydi. Davlat bepul o'rta ta'limni ta'minlaydi, tibbiy xizmatlarning asosiy paketini kafolatlaydi, "ijtimoiy ahamiyatli va xavfli" sharoitlar uchun parvarish zaif deb tasniflangan guruhlariga ixtisoslashgan yordam va kam ta'minlangan oilalarga imtiyozlar beradi. Ammo, bundanda ko'pi amalga oshirilishi lozim. Rahbarlarga kambag'allikdan xalos etish rejasini ishlab chiqish topshirig'i berildi. Chunki kambag'allik holatida tushib qolishdan ko'ra, undan chiqib ketish ko'p karra qiyinroq. O'zi qishloq sharoitida yashovchi kambag'al odam kasal bo'lib qolgan sharoitda doktorga uchrashish uchun shaharga qatnashiga to'g'ri keladi. Uning dori-darmon xarajatlariga yo'l kira ham ko'shiladi. Kambag'al oila farzandi pul topish ilinjida ta'lim olish imkoniyatidan mahrum bo'lib qolishi mumkin, bu esa uning kelajakdagi daromadlari darajasiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham ko'p hollarda "kambag'allik" va "kambag'allik qopqoni" tushunchalari birga ishlatiladi. Prezident Shavkat Mirziyoev 2020 yil fevraldagi parlamentga murojaatida ilk bor O'zbekiston aholisining kambag'al qatlami haqida so'zlashdi. Respublika aholisining 12-15 foizi kambag'al ekani, ularning umumiy soni 4,5-5 million nafarligini ta'kidladi.

Pandemiya va uning salbiy oqibatlari mamlakatda kambag'allik darajasi yanada ortishiga olib keldi. Ayni paytda bu bo'yicha yangi hisob-kitoblar ma'lum qilinganicha yo'q.

Aholi kambag'allashuviga ta'sir qilgan omillar quyidagilardir:

- asosan qishloq joylarda aholining yetarli bilim va malakaga ega emasligi va natijada mehnat bozorida raqobatga dosh berolmasligi;
- ta'lim tizimidagi salbiy natijalar va hududlarda tibbiyot sifatining pastligi;
- aholining ba'zi qatlamlarida boqimandalik kayfiyatining yuqoriligi, milliy urf-odatlarda ortiqcha sarf-xarajatlarning mavjudligi;

-ayrim hududlarda ishsizlikning yuqori darajada ekanligi, yangi ish o'rinlari tashkil etilishining faqat qog'ozdagina mavjudligi daromad kamligi va yashash darajasining pasayishiga olib kelgan. Agar mazkur ko'rsatkichlarning aksi yuz bersa, ya'ni ishlab chiqarish rivojlansa, bilim va malaka, bandlikni ta'minlash, mehnat bozorida raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari oshsa, o'z-o'zidan moddiy o'sish ham yuqorilashi kuzatiladi.

Jahon bankiga ko'ra, O'zbekistonda kambag'allikning yuqori darajasi Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatilmog'ada.

Hisob-kitoblar natijasida kambag'al deya ta'riflanayotgan aholining kunlik daromadi 10-13 ming so'mni tashkil etishi ma'lum bo'lgan. Biroq ayni paytgacha aholining minimal iste'mol xarajatlari qanchaligi e'lon qilinmayapti. Dunyo miqyosida esa aholi turmush darajasi minimumi muhim ahamiyatga egaligi ma'lum va bu doimiy e'tibordagi ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Mazkur holatda O'zbekiston hukumati ehtiyoji o'ta yuqori fuqarolarni aniqlab, ularni moddiy qo'llab-quvvatlovchi dastur – «**temir daftar**» tizimini joriy etdi. Ma'lumotlarga ko'ra, respublika miqyosida mazkur ro'yxatga kirgan 594,3 ming oila va ularning 2,5 million nafar a'zosi (shundan 648 ming nafar mehnatga layoqatli ishsiz oila a'zolari) kiritilib, joriy yil 1 mart holatiga 641,3 ming nafarining (99 foiz) bandligi ta'minlandi. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hozirgi kunga qadar «temir daftar»ga kiritilgan 600 mingga yaqin ehtiyojmand oilalarga jami 1,37 trillion so'mlik to'g'ridan to'g'ri moddiy va nomoddiy yordamlar ko'rsatilganini ochiqdadi. Qayd etilishicha, kam ta'minlangan oilalarning daromad manbaini yaratish orqali respublika bo'yicha 2021 yil 1 mart holatiga 515,9 ming oila va ularning 2,2 million nafar a'zolari «temir daftar» ro'yxatidan chiqarilgan. Shu bilan birga, o'tgan yilda ijtimoiy ko'makka muhtoj va kam ta'minlangan oilalarga nafaqa va moddiy yordam ajratish qamrovi ham oshirilgan. Jumladan, bola parvarishi uchun nafaqa va moddiy yordam oluvchi oilalar soni o'tgan yil yakunida yil boshiga nisbatan ikki baravarga, ya'ni 600 ming nafardan 1,2 million nafargacha ortgan. Shuningdek, o'rta va uzoq muddatlarda kambag'allikni qisqartirishning strategik maqsadlarini belgilash maqsadida, Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi ekspertlari bilan birga «2021-2030 yillarga qadar O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasi» loyihasi ishlab chiqilib, umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Kambag'allar soni 5 million nafar atrofida deya aytilayotgan bir davrda bu kabi harakatlar qamrovini kengaytirish va jadallashtirish muhim ahamiyatga ega. **Istiqbolda kambag'allik qanday qisqartiriladi?** Shundoq ham tashqi qarzlilar va byudjet defisiti ortib borayotgan bugungi davrda kambag'al va qoloq aholi sonining ortib borishi mamlakatni parokanda qilish ehtimoli katta. Shu sabab hukumat darajasida har bir fuqaroga ayniqsa, moddiy yordamga juda muhtojlarga, albatta, maksimal darajada ko'mak berish ustuvor vazifalardan bo'lib

qolmoqda. Ayniqsa, ularni ish bilan ta'minlash yoki tadbirkorlik o'rgatish kabi tashabbuslar shular jumlasidan. Ammo iqtisod o'smasa, ish haqi ham, aholi turmush darajasi ham pasayib boraveradi. Vazirlikka ko'ra, ishsiz a'zolari bor bo'lgan hamda «temir daftar», «ayollar daftari» va «yoshlar daftari»ga kiritilgan oilalarga dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun 2021 yil 1 iyuldan boshlab:

- dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun yangi o'zlashtirilgan, lalmi, foydalanilmayotgan yer maydonlaridan 10 sotixdan 1 gektargacha yer ajratilishi;
- ajratilgan yer maydonlari sug'orish tizimi (artezian quduqlar, tomchilatib sug'orish va boshqalar) hamda elektr energiyasi bilan ta'minlanishi;
- berilgan yerlarni o'zlashtirish uchun (er haydash, urug'-ko'chat xarid qilish va boshqalar) subsidiya ajratilishi belgilangan.

Moddiy yordamga muhtojlar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolarga dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun kerakli mehnat qurollari xaridiga subsidiyalar ajratilishi, ishsizlar bandligini ta'minlash, turli grant, nafaqa va boshqa to'lovlardan foydalanish imkoniyatini oshirish maqsad qilingan.

Ma'lumotlarga qaraganda, 2021 yilda 70 ming nafar ishsiz fuqaroni 40 turdagi kasb-hunarga o'qitish, 39,6 ming nafar ishsizlarni tadbirkorlik ko'nikmalariga o'rgatish, 50 ming kishini tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi uchun chet tillariga o'qitish reja qilingan. Bundan tashqari, ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'lami ham kengaytirilmoqda.

Bu sa'y-harakatlar o'zini qay darajada oqlashi va kelgusida kambag'allikni qisqartirish borasida qanday natijalarga erishilishini vaqt ko'rsatadi.

12.2. Davlatning ijtimoiy siyosati, uning maqsadi, vazifalari va vositalari. Davlat ijtimoiy yordami dasturlari. Ishsizlik nafaqasi. Mehnat faoliyati bilan mashg'ul bo'lishni rag'batlantirish. Iste'mol savati tushunchasi, mohiyati va turlari. Daromadlarni qayta taqsimlash. Ijtimoiy dasturlar

Ishdan mahrum bo'lgan, birinchi marta ish qidirayotgan, shuningdek uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashni istagan va ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslarga ishsizlik nafaqasi to'lanadi.

Ishsizlik nafaqasi ishsiz deb e'tirof etilgan shaxsga u ish qidirayotgan shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatdan o'tgan kundan e'tiboran tayinlanadi. Qaramog'ida uchtagacha kishi bo'lgan, 35 yoshga to'lmagan ishsiz erkakka ishsizlik nafaqasi u haq to'lanadigan jamoat ishlarida belgilangan tartibda ishtirok etgan taqdirda tayinlanadi. Ishsiz shaxsning nafaqa olish huquqi u ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan paytdan boshlab kechi bilan o'n birinchi kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Ishsizlik nafaqasi ko'pi bilan:

-ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan yoki uzoq (1 yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga harakat qilayotgan shaxsga 12 oylik davr mobaynida 26 kalendar hafta;

-ilgari ishlamagan va birinchi marta ish qidirayotgan shaxsga esa 13 kalendar hafta mobaynida to'lanadi.

Mehnat faoliyati bilan mashg'ul bo'lgash ishchini quyichagicha rag'batlantiriladi: (Mehnat kodeksi 264-modda. **Rag'batlantirish tusidagi to'lovlar**)

-Rag'batlantiruvchi to'lovlar tarkibiga xodimlarning ishdagi yuqori yutuqlari, kasbiy mahorati, energiya resurslari, materiallarni tejash, boshqa belgilangan ko'rsatkichlarga erishganliklari uchun beriladigan mukofotlar, qo'shimcha haqlar, nafaqalar va boshqa to'lovlar kiradi.

-Ish haqi tizimida taqdim etiladigan mukofot – bu xodimni oldindan belgilangan ko'rsatkichlar va shartlarga erishishga rag'batlantirish uchun ish haqining tarkibiga kiritilgan va xodimga to'lanadigan asosiy ish haqidan (tarif stavkasidan) ortiq bo'lgan pul mukofoti.-Ish haqi tizimida ko'zda tutilmagan rag'batlantiruvchi mukofot – bu bir martalik tusdagi va ish beruvchining qaroriga binoan bir martalik mukofot sifatida to'lanadigan xodim oldindan belgilangan ko'rsatkichlar va shartlarga erishganligi uchun emas, balki muayyan voqealar (yubileylar, bayramlar va boshqalar) ro'y berishi munosabati bilan yoki xodim tomonidan muayyan harakatlarni amalga oshirayotganligi uchun (ish beruvchining alohida muhim buyrug'ini bajarish, ratsionalizatorlik taklifini kiritish va hokazo) to'lanadigan pul mukofoti.

-Ustama – bu mehnat shartnomasi bo'yicha ishlarni bajargan va xodimni rag'batlantirish (kasbiy mahorat, ish staji, ma'lum bir tashkilot yoki sohada ish tajribasi va hokazolar) uchun to'lanadigan pul to'lovi, yoki kompensatsiya (ko'chma yoki sayohat uchun ish haqi, noqulay iqlim sharoitida ishlash yoki zararli yoki og'ir ish sharoitida ishlash uchun, mehnatning intensivligi va boshqalar uchun).

- Ish haqi qo'shimchasi – bu xodimga to'g'ridan-to'g'ri majburiyatlari tarkibiga kirmaydigan qo'shimcha funksiyalarni (kasblarni (lavozimlarni) birlashtirish uchun qo'shimcha, bajarilgan ish hajmini ko'paytirish, xizmat ko'rsatish doirasini kengaytirish, yo'q xodimning vazifalarini bajarish va hokazo) bajarish, kafolatli tusdagi va odatdagi ish sharoitlaridan og'ish hollarida yoki xodimlar ish haqining bir qismi o'zlarining aybisiz kamaytirilganda ularning ish haqining bir qismini saqlab qolish maqsadida qilingan, tezkor ehtiyojlari va boshqa sog'liqni saqlash sabablarga ko'ra, tungi ish, dam olish kunlari va bayramlar va qo'shimcha ish) uchun to'lanadigan pul to'lovi.

Mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar va ustamalar, asosiy ish haqiga boshqa rag'batlantirish to'lovlari tizimi ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishgan holda belgilanadi. Byudjet

tashkilotlarida rag‘batlantirish to‘lovlarini qo‘llash tartibi va shartlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Iste‘mol savatchasi. Sodda qilib aytganda, iste‘mol savatchasi – muayyan vaqt davomida inson hayoti va uning salomatligini saqlash uchun zarur mahsulotlar, tovarlar va xizmatlarning eng kam to‘plami. Hamma ovqatlanishi, kiyinishi, kommunal va boshqa xizmatlar haqini to‘lashi, zarur dori-darmonlarni xarid qilishi lozim va h.k. Bularning bari mahsulotlar savatchasini butlash uchun asos hisoblanadi. Uning ma‘lumotlaridan, o‘z navbatida, **tirikchilik uchun zarur eng kam miqdorni (iste‘mol savatchasining qiymat bahosini)** belgilash uchun foydalaniladi.

Respublikamizda «tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor» va «iste‘mol savatchasi» tushunchalarini 2018 yilning 1 iyuligacha huquqiy jihatdan tartibga solib rejalashtirilgan. Bu 2018 yilgi Davlat dasturida (Prezidentning 22.01.2018 yildagi PF-5308-son Farmoni bilan tasdiqlangan) mamlakat aholisi daromadlarining zarur darajasini aniqlash uchun nazarda tutilgan. Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari mas‘ul ijrochilar etib tayinlangan. Iste‘mol savatchasini ishlab chiqishda – aholining barcha jins va yoshdagi guruhlari uchun oziq-ovqat mahsulotlarini iste‘mol qilish normalarini belgilashda Sog‘liqni saqlash vazirligi ham jalb etilishi kerak.

Iste‘mol savatchasi quyidagilarning miqdorlarini belgilash uchun hisob-kitobga asos bo‘lmog‘i lozim:

-eng kam ish haqi va pensiyalar;

-bazaviy ijtimoiy to‘lovlar: ishsizlik, bolani parvarishlash, boquvchisini yo‘qotganlik nafaqalari, stipendiyalar va b.

Savatcha tarkibi: oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlar. Iste‘mol savatchasiga kiruvchi tovarlar va xizmatlar to‘plami har bir mamlakatda turlicha. Uning tarkibi davlat darajasida belgilanadi va ko‘plab omillar: tabiiy- iqlim sharoitlari, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, oziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqarish xususiyatlari, tovarlar va xizmatlarning haqiqatda iste‘mol qilinishi va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. An‘anaga ko‘ra iste‘mol savatchasi 3 qismdan iborat bo‘ladi:

1. oziq-ovqat mahsulotlari;

2. nooziq-ovqat tovarlari: kiyim-kechak, poyabzal, birinchi navbatda zarur bo‘lgan buyumlar, dori-darmonlar, madaniy-maishiy va xo‘jalik uchun mo‘ljallangan tovarlar va h.k.;

3. xizmatlar: kommunal, transport, madaniy-ma‘rifiy va h.k.

Odatda iste‘mol savatchasi aholining 3 ta asosiy ijtimoiy-demografik guruhi: mehnatga layoqatli aholi, pensionerlar va bolalar uchun ishlab chiqiladi. Ya‘ni

aholining turli qatlamlari tirikchiligi uchun zarur eng kam miqdorni belgilashda muayyan davrda iste'mol savatchasidagi barcha ne'matlarni iste'mol qilish normalarini aniqlash zarur. Masalan, oddiy fuqaro normal hayot kechirishi uchun har kuni iste'mol qilishi kerak bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari to'plami va miqdorini hisoblash. Yoki barcha kommunal xarajatlarni qoplashi uchun oyiga qancha summa zarurligini. Bunda odatda iste'mol savatchasi tarkibiga kishi ularsiz bamaylixtir, sog'lom yashashi mumkin bo'lgan tovarlar: tamaki mahsulotlari, alkogolli ichimliklar, delikates (tansiq) mahsulotlar, zeb-ziynat buyumlari kiritilmaydi.

Iste'mol savatchasiga qanday xizmatlar kiritiladi?

Xizmatlar ham inson uchun muhimlik darajasi va hayotiy zarurligiga qarab farqlanishi mumkin. Biroq oziq-ovqat tovarlari yuzasidan bir qarorga kelish masalasi ozmi-ko'pmi tushunarli bo'lsa, xizmatlarning zarur to'plamini belgilashda savollar yuzaga kelishi mumkin. Aholi tirikchiligi uchun zarur eng kam miqdorni belgilashda qanday xizmatlar to'lovi hisob-kitobga kiritilishi kerak? To'g'ri, birinchi navbatda, bular kommunal va transport xarajatlardir. Ayni vaqtda, inson o'z hayotiy faoliyatida boshqa, dolzarbligi jihatidan muhim servis turlaridan ham faol foydalanadi: uyali aloqa va internetdan foydalanadi, tibbiy yordam, turli mutaxassislar maslahatlarini oladi. Mudaniy-ma'rifiy tadbirlar: teatr, muzeylarga borish xarajatlari ham alohida o'tiborga loyiq. Zero kishi nafaqat jismoniy ehtiyojlarini qondirishi, balki aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan yetarli darajada rivojlanishi lozim. Shu sababli yuqorida sanab o'tilganlarning bari ichki iste'mol savatchasini ishlab chiqishda inobatga olinishi lozim degan fikrdamiz.

MDH mamlakatlaridagi iste'mol savatchasi va tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor. Rossiyada 1997 yildagi «Rossiya Federatsiyasidagi tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor to'g'risida» va 2012 yildagi «Umuman Rossiya Federatsiyasi bo'yicha iste'mol savatchasi to'g'risida»gi qonunlar amal qiladi. RFda iste'mol savatchasi har 5 yilda belgilanadi. Oziq-ovqat mahsulotlari uning yarmini (50%), nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlar esa – har biri chorak qismini (25% + 25%) tashkil etadi. Ushbu mamlakat iste'mol savatchasi to'plami hamda tovarlar va xizmatlar iste'moli normalarining aniq raqamlari bilan havola orqali o'tib tanishish mumkin. **Qozog'istonda** oziq-ovqat savatchasi ilmiy asoslangan oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining fiziologik normalari bo'yicha hisoblab chiqariladi. Nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarga xarajatlarning qat'iy belgilangan ulushi minimal iste'mol savatchasi qiymatining 45%i miqdorida belgilanadi. Ya'ni qozog'istonliklarning iste'mol savatchasidagi oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 55%ni tashkil etadi. Quyidagi jadvalda MDHning ayrim mamlakatlaridagi tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor sharh e'lon qilingan kunda ushbu mamlakatlar valyutalarining rasmiy kursi bo'yicha AQSh dollari ekvivalentida ko'rsatilgan.

Davlat	Tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor
Qozog'iston Respublikasi	24459 tenge (\$ 75,44)
Rossiya Federatsiyasi (2017 yil III choragidagi ma'lumotlar)	aholi jon boshiga – 10328 rubl (\$ 178)
	mehnatga layoqatli aholi uchun – 11160 rubl (\$ 192,35)
	pensionerlar uchun – 8496 rubl (\$ 146,43)
	bolalar uchun – 10181 rubl (\$ 175,48)
Belarus Respublikasi (2017 yil IV choragidagi ma'lumotlar)	mehnatga layoqatli aholi uchun – 420 belorus rubli 60 tiyin (\$ 211,16)
	pensionerlar uchun – 331, 82 b.r. (\$ 166,59)
	to'rt kishilik oila uchun – 328, 45 b.r. (\$ 164,9);
	uch kishilik yosh oila uchun – 356, 1 b.r. (\$ 178,78)
Qirg'iziston Respublikasi (2017 yil IV choragidagi ma'lumotlar)	butun aholi uchun – 4 864,42 qirg'iz so'mi (\$ 71,09)
	mehnatga layoqatli aholi uchun – 5 440,04 so'm (\$ 79,5)
	pensiya yoshidagi aholi uchun – 4355,8 so'm (\$ 63,65)

Jadvaldan ko'ringanidek, mamlakatlar bo'yicha raqamlar keskin farqlanadi. Bu nimadan dalolat beradi? Iste'mol savatchasi insonning iste'mol tovarlari va xizmatlarga minimal xarajatlaridan tashkil topishi sababli ularning narxlari alohida olingan mamlakat aholisining turmush kechirish qiymatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu tariqa, tirikchilik uchun zarur eng kam miqdorning yuqoriligi – dori-darmonlar, oziq-ovqat mahsulotlari, kommunal xizmatlar va boshqalarning qimmatligidan dalolat. Bundan tashqari, turli ijtimoiy va yosh guruhlarining ehtiyojlari har xil bo'ladi. Keltirilgan jadval pensionerlarning tirikchiligi uchun zarur eng kam miqdor, masalan, mehnatga layoqatli aholinikiga qaraganda kamligini yaqqol namoyish etmoqda.

Iste'mol savatchasi tarkibiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar:

-demografik omillar: oilalar katta-kichikligi va tuzilishi, aholining tarkibi va jins- yosh tuzilmasi va b.; ijtimoiy-iqtisodiy omillar: oilalarda oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarning haqiqatda iste'mol qilinishi; barcha guruhdagi aholining ehtiyojlari, ularning daromadi darajasi va b.;

-inson salomatligini saqlash va hayotiy faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan eng kam iste'mol hajmlari hamda tovarlar va xizmatlar ro'yxati bo'yicha ilmiy tavsiyalar;

-aholining ijtimoiy himoyalinishini ta'minlashga doir davlatning moliyaviy imkoniyatlari;

-tovarlar va xizmatlarning real bozor narxлари;

-boshqa mamlakatlarning tajribasi va b.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha omillar, xorij tajribasining tahlil natijalari bilan birga, O'zbekistonda iste'mol savatchasi va tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor loyihalarining ishlab chiquvchilari tomonidan e'tiborga qabul qilinmog'i lozim. zbekiston iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi 2020 yil dekabr oyida O'zbekistonda iste'mol savatining hisob-kitobini e'lon qildi. Bunda jahon tajribasi va aholining ijtimoiy so'rov natijalarini hisobga olingani aytilmoqda. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, iste'mol savatining miqdori bir kishi uchun taxminan 2157000 so'mni tashkil etadi. Iste'mol savatiga oziq-ovqat mahsulotlaridan — non, yorma va dukkakli mevalar, go'sht, sabzavotlar, poliz, mevalar (sitrus mevalar va ziravorlar) sut mahsulotlari kiritilgan. Shuningdek, nooziq-ovqat — dorilar, kosmetika va uy-ro'zg'or buyumlari mahsulotlari va kommunal xizmatlar, transport xarajatlari va qo'shimcha o'quv kurslaridam o'rin olgan. Iste'mol savati aholining uchta ijtimoiy-demografik guruhi — mehnatga layoqatli aholi, nafaqaxo'rlar va bolalar uchun ishlab chiqilishi lozim. Federatsiya bir oyda o'rtacha mehnatga layoqatli shaxs iste'mol qiladigan tovar va xizmatlarning ro'yxatini ham tayyorladi.

Unga ko'ra, bir kishi oy davomida 10 dona non, 3 kg un, 8 kg mol, qo'y va tovuq go'shti, 1 kg kolbasa iste'mol qiladi. Shunindek, 3 kg baliq mahsulotlari, 2 litr sut, 18 dona tuxum, 1 kg shakar va 1 litr o'simlik yog'i hamda 2 kg guruch ro'yxatdan o'rin olgan. Qolaversa, 8 kg kartoshka, 6 kg piyoz, 2 kg sabzi, 4 kg pomidor, 2 kg bodring, mevalar esa 1 kilogramdan iste'mol qilinishi qayd etilgan. Oziq-ovqat mahsulotlariga jami — **1 mln 299 ming so'm**, nooziq-ovqat mahsulotlariga esa — **858 ming so'm** sarflanishi belgilangan.

	Номлиниши	Улчов бирлиги	Истеъмолат ҳажми	1 улчов бирлиги баҳоси	Сумма
Нон ва унли маҳсулотлар					
1	Нон (буханка)	дона	10	1 600,00 сум	16 000,00 сум
2	Ун	кг	3	6 500,00 сум	19 500,00 сум
3	Макарон маҳсулотлари	кг	2	8 000,00 сум	16 000,00 сум
Жами					51 500,00 сум
Гушт ва гушт маҳсулотлари					
4	Мол гушти	кг	4	75 000,00 сум	300 000,00 сум
5	Қўй гушти	кг	2	75 000,00 сум	150 000,00 сум
6	Товуқ	кг	2	24 000,00 сум	48 000,00 сум
7	Копбаса маҳсулотлари	кг	1	55 000,00 сум	55 000,00 сум
Жами					553 000,00 сум
Балиқ ва балиқ маҳсулотлари					
8	Балиқ	кг	2	40 000,00 сум	80 000,00 сум
9	Балиқ маҳсулотлари	кг	1	33 000,00 сум	33 000,00 сум
Жами					113 000,00 сум
Сут ва сут маҳсулотлари					
10	Сут	л	2	8 000,00 сум	16 000,00 сум
11	Қаймоқ	200 г	2	7 000,00 сум	14 000,00 сум
12	Кефир (қаттиқ)	л	2	8 190,00 сум	16 380,00 сум
13	Сметана	400 г	1	7 590,00 сум	7 590,00 сум
14	Сарниёр	250 г	2	6 000,00 сум	12 000,00 сум
15	Творог	400 г	1	13 800,00 сум	13 800,00 сум
Жами					78 770,00 сум
16	Шакар	кг	1	8 000,00 сум	8 000,00 сум
17	Тухум	дона	18	1 000,00 сум	18 000,00 сум
18	Усимлик Аюйи	л	1	16 000,00 сум	16 000,00 сум
19	Маргарин	200 г	1	6 000,00 сум	6 000,00 сум
20	Чой	200 г	1	9 200,00 сум	9 200,00 сум
21	Туз	кг	1	2 400,00 сум	2 400,00 сум
22	Зирдорлар	дона	3	5 000,00 сум	15 000,00 сум
Жами					74 600,00 сум

Сабзавотлар

31	Картошка	кг	8	4 500,00 сум	36 000,00 сум
32	Сабзи	кг	2	3 000,00 сум	6 000,00 сум
33	Лавлаги	кг	1	3 000,00 сум	3 000,00 сум
34	Шолғом	кг	1	3 000,00 сум	3 000,00 сум
35	Карам	кг	2	1 000,00 сум	2 000,00 сум
36	Кукатлар	кг	4	1 000,00 сум	4 000,00 сум
37	Пиёз	кг	6	2 500,00 сум	15 000,00 сум
38	Саримсоқ/пиёз	кг	0,5	25 000,00 сум	12 500,00 сум
39	Помидор	кг	4	10 000,00 сум	40 000,00 сум
40	Бақдажон	кг	1	10 000,00 сум	10 000,00 сум
41	Булғор қалпампирн	кг	1	15 000,00 сум	15 000,00 сум
42	Бодринг	кг	2	6 000,00 сум	12 000,00 сум
43	Кабачок	кг	1	14 000,00 сум	14 000,00 сум
44	Қопоқ	кг	1	2 500,00 сум	2 500,00 сум
45	Қовун	кг	2	3 500,00 сум	7 000,00 сум
46	Тарвуз	кг	2	2 500,00 сум	5 000,00 сум

Жами**187 000,00 сум****Гуруч ва ёрмалар**

23	Гуруч	кг	2	15 000,00 сум	30 000,00 сум
24	Сули ёрмаси (овсяная крупа)	кг	1	6 000,00 сум	6 000,00 сум
25	Бугдой ёрмаси (манная крупа)	кг	1	3 800,00 сум	3 800,00 сум
26	Гречка	кг	1	10 000,00 сум	10 000,00 сум
27	Нухат ёрмаси	кг	1	3 800,00 сум	3 800,00 сум

Жами**53 600,00****Дуқаклар (бобовые)**

28	Нухат	кг	1	15 000,00 сум	15 000,00 сум
29	Фасоль	кг	1	11 600,00 сум	11 600,00 сум
30	Мош	кг	1	8 500,00 сум	8 500,00 сум

Жами**35 100,00 сум**

Шахсии гигиена ва косметика воситалари

59	Совун	дона	1	4 500,00 сум	4 500,00 сум
60	Тиш пастаси	дона	1	8 000,00 сум	8 000,00 сум
61	Шампунь	дона	1	20 500,00 сум	20 500,00 сум
62	Бошқа воситалар				25 000,00 сум

Жами **58 000,00 сум**

Хужалик моллари

63	Кир ювиш кукун	дона	1	10 000,00 сум	10 000,00 сум
64	Туалет қоғози	дона	2	1 500,00 сум	3 000,00 сум
65	Ювнчи воситалари, теглар	дона	1	5 000,00 сум	5 000,00 сум

Жами **18 000,00 сум**

Мева ва резаворлар

47	Олма	кг	1	9 000,00 сум	9 000,00 сум
48	Урик	кг	1	5 000,00 сум	5 000,00 сум
49	Пилос	кг	1	24 000,00 сум	24 000,00 сум
50	Анор	кг	1	8 000,00 сум	8 000,00 сум
51	Нок	кг	1	5 000,00 сум	5 000,00 сум
52	Шафтоли	кг	1	12 000,00 сум	12 000,00 сум
53	Банан	кг	1	20 000,00 сум	20 000,00 сум
54	Узум	кг	1	5 000,00 сум	5 000,00 сум
55	Малина	кг	1	13 000,00 сум	13 000,00 сум
56	Қулундай	кг	1	15 000,00 сум	15 000,00 сум

Жами **116 000,00 сум**

Цитрус мевалар

57	Лимон	кг	0,5	25 000,00 сум	12 500,00 сум
58	Мандарин	кг	1	23 000,00 сум	23 000,00 сум

Жами **35 500,00**

Хизматлар ва сервислар

66	Тиббий хизматлар ва воситалар		1	58 000,00 сум	58 000,00 сум
67	Саргарошжона хизматлари		1	50 000,00 сум	50 000,00 сум
68	Машгулотлар (кушима таълим, спорт)		1	300 000,00 сум	300 000,00 сум
69	Кабель телевидение		1	40 000,00 сум	40 000,00 сум
70	Интернет ва мобил алоқа		1	100 000,00 сум	100 000,00 сум
71	Транспорт		1	84 000,00 сум	84 000,00 сум
72	Коммунал тулсалар		1	150 000,00 сум	150 000,00 сум

Жами **782 000,00 сум**

Жами **2 157 070,00 сум**

Aholi turmush darajasi tushunchasi deganda ularning haët kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda kishilar ehtiëjining bu ne'matlar bilan qondirilish darajasi tushuniladi. Inson haët faoliyati uchun zarur ne'matlar juda ko'p ehtiyojlarni o'z ichiga oladi. Bularga misol qilib, mehnat sharoiti, ta'lim sohasi, sog'liqni saqlash, oziq –ovqat va uy-joy sifati va shularga o'xshash ko'plab ehtiëjlarni aytish mumkin.

Aholi turmush darajasini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichlardan biri bu albatta aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yaratilgan yalpi milliy mahsulotdir. Ma'lumki, AQSh umumiy milliy daromad hajmi jihatdan dunyoda birinchi o'rinda turadi, lekin milliy daromadning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi bo'yicha Lyuksemburkg birinchi o'rinda turadi. Demak, Lyuksemburda aholi turmush darajasini yaxshilash uchun ko'proq imkoniyat mavjud. Odatda, ko'proq aholi turmush darajasi haqida fikr yuritilganda aholi jon boshiga istemol qilingan milliy daromad ko'rsatkichidan foydalaniladi. Iste'mol miqdori turmush darajasining muhim jihati. Aytaylik, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan milliy mahsulot hajmi bo'yicha Yaponiya AQSh, Shvesiya, Germaniya kabi mamlakatlardan ustun turadi. Lekin aholi jon boshiga iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar bo'yicha Yaponiya orqada, ya'ni Yaponiyada iste'mol hissasi kamroq bo'lib ko'proq investisiya qilinadi. Insonlar o'z daromadlarini avvalambor eng zarur ehtiëjlarini qondirishga sarflaydilar. Undan ortgan qismini esa jamg'aradilar. Daromadda jamg'arish bilan iste'mol bir biriga teskari proparsional bo'lib, birining ortishi ikkinchisining kamayishiga olib keladi. Daromadning qanchasi iste'mol qilinishi va qanchasi jamg'arilishi, albatta, oilaning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liq. Harajatlar, eng avvalo, oziq- ovqat, kiyim kechak, turar-joy, transport va boshqalarga sarflanadi.

O'zbekiston Respublikasi aholisining turmush darajasi va farovonligini o'rganish maqsadida, davlat statistika organlari tomonidan har yili uy xo'jaliklarida tanlama usulda kuzatuvlar o'tkaziladi. O'z navbatida, uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish uslubiyati Jahon Banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining tavsiyalariga asoslangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida o'tkaziladi va ularning soni bir yilda 10000 tani tashkil etadi. Ushbu tanlama kuzatuv hajmi respublika bo'yicha jami uy xo'jaliklarining 0,2% tashkil etadi. 2017 yilda o'tkazilgan uy xo'jaliklari tanlama kuzatuvlarida 50 mingdan ortiq aholi qamrab olingan bo'lib, o'rtacha bir uy xo'jaligiga 5,1 kishidan to'g'ri kelganini ko'rsatdi. Jami kuzatilgan aholidan 48,7% erkaklar va 51,3% ayollarni tashkil etdi. Shuningdek, o'n olti yoshgacha bo'lgan bolalarning ulushi 25,5% o'n olti yosh va undan kattalarning ulushi 74,5% tashkil etib, respublika bo'yicha mehnatga laëqatli aholining ulushi jami aholiga nisbatan 58,8 foizni tashkil etdi. So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan aholi daromadlari va turmush darajasini yanada oshirish, fuqarolarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga to'g'ri

keladigan daromadlar, ish haqi va pensiyalar izchil ravishda o'sib borgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Aholi turmush darajasi tushunchasi juda murakkab va ko'p qirrali bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, har qanday yagona indikator tanlash qiyin, shuning uchun uning turli jihatlarini tavsiflaydigan bir qator statistik ma'lumotlar aniqlanadi. Bugungi kunda aholi turli guruhlarining manfaatlari, mehnatga haq to'lash va mehnatga haq to'lashning samarali tizimi, aholini ijtimoiy himoya qilish choralari hisobga olinadi, shuning uchun ham har bir inson uchun munosib turmush tarziga erishiladi. Keyingi yillarda respublika aholisining daromadlari va turmush darajasini oshirish, shuningdek, fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan hukumat tomonidan qabul qilingan choralarning natijalari aholi jon boshiga to'g'ri keladigan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar, ish haqi va pensiyalarning doimiy o'sishini aks ettiradi. Aholi turmush darajasini baholashda jon boshiga to'g'ri keladigan daromad, xarajatlarning tarkibiy o'zgarishi, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli va uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanganligi bilan bir qatorda yashash sharoiti va standartlari, aholining obod va zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlangani, aholi istiqomat qiladigan muhitni rivojlantirish hamda obodonlashtirish, zarur infratuzilmaning mavjudligi va uning samarasi, zamonaviy talablar asosida ta'lim olish hamda sog'liqni saqlash tizimidan qoniqish kabi muhim ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 2 mart kuni "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonni imzoladi. Farmon bilan "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Davlat dasturi tasdiqlandi. Ushbu dasturilamal hujjat **284 ta banddan** iborat bo'lib, uni amalga oshirish uchun **18 171,4 mlrd. so'm va 10 301,5 mln. AQSh dollari** miqdorida mablag' sarflanishi ko'zda tutilmoqda. Shundan:

-davlat byudjeti va Davlat maqsadli jamg'armalari – **12 883,7 mlrd. so'mni**;

-ijrochilar va xayriya tashkilotlari mablag'lari – **1 426,5 ml. so'mni**;

-tijorat banklarining kreditlari – **561,2 mld. so'mni**;

-xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari mablag'lari va beg'araz yordamlar – **3 300,0 lrd. so'm va 10 301,5 mln. AQSh dollarini** tashkil etmoqda.

Davlat dasturining:

1-yo'nalishi – Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish sohasida 38 ta;

2-yo'nalishi – Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish sohasida 22 ta;

3-yo'nalishi – Iqtisodiyotni rivojlantirish va investisiyalarni faol jalb qilish sohasida 96 ta;

4-yo‘nalishi – Ijtimoiy rivojlanish sohasida 84 ta;

5-yo‘nalishi – Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatni amalga oshirish sohasida 44 ta chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.



1-Yonalishning muhim choralari

- Qonunchilik palatasi va Senat faoliyatida fuqarolarning Internet tarmog‘idagi murojaatlari asosida parlament va deputat so‘rovlarini shakllantirish, saylovchilar bilan bevosita muloqot qilish maqsadida elektron Portal va mobil ilovadan foydalanish imkonini beruvchi “Elektron parlament” tizimi joriy etiladi;
- Qonunchilik palatasida yil yakuniga ko‘ra qabul qilingan har bir qonun xalq tomonidan qanday baholanganini va uning samaradorlik darajasini **monitoring qilish** hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha **tegishli choralarni ko‘rish amaliyoti** yo‘lga qo‘yiladi;
- Mahalliy vakillik organlari faoliyatida **Kengash so‘rovi** instituti joriy etiladi hamda Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining faoliyatini “**namunali Kengash**” sifatida yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari ko‘riladi;
- Qonunchilik palatasi majlislarida **davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining** o‘z faoliyati bo‘yicha, shuningdek, Hukumat a‘zolari va tarmoqlar rahbarlarining BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarini bajarish,

ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar to'g'risidagi axborotlari muntazam ravishda eshitib boriladi;

- Senatda O'zbekistonning xorijiy davlatlardagi elchilari hisobotini eshitish, shuningdek, aholini tashvishga solayotgan muammolarni tezkorlik bilan hal qilish maqsadida o'rganilgan masalalar bo'yicha bevosita joylarga borib, vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirokida **Senat kengashi va qo'mitalarining sayyor majlislarini o'tkazish tizimi** yo'lga qo'yiladi;
- **"Mening fikrim"** veb-portalining mobil ilovasi ishga tushiriladi, unga kelib tushayotgan murojaatlar deputatlar, mutaxassislar va keng jamoatchilik ishtirokida OAVlar orqali muhokama qilib boriladi;
- Parlamentning qonun ijodkorligi va nazorat faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar **dasturi**, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarni ishlab chiqish bo'yicha **"yo'l xarita"**si, Aholining elektoral madaniyatini yuksaltirish **konsepsiyasi** hamda O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning o'рта va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan **strategiyasi** qabul qilinadi.

2-Yo'nalishning ustuvor jihatlari

- Sud hukmlari, qarorlari, ajrimlari yoki hal qiluv qarorlari qonuniy kuchga kirgan ishlarni prokuror tomonidan tomonlarning (prokurordan tashqari) murojaati mavjud bo'lgandagina suddan talab qilib olish tartibi belgilanadi;
- 1995 yilgacha O'zbekistonga kelgan va shundan buyon fuqaroligi bo'lmagan shaxs guvohnomasi asosida doimiy istiqomat qilayotgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, deb tan olinadi;
- -odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida apellyasiya va kassatsiya instansiyalari isloh qilinib, nazorat tartibida ish yuritish instituti bekor qilinadi;
- tadbirkorlik sohasidagi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat turlari dekriminalizatsiya qilinadi;
- bojxona sohasidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatini birinchi marta sodir etgan, tovar uchun to'lovni ixtiyoriy ravishda to'lagan va bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirgan shaxslar jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi;
- ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolati jinoyat ishlari bo'yicha sudlar vakolatiga o'tkaziladi;
- huquqbuzarlik sodir etgan shaxs tomonidan MJtKda nazarda tutilgan jarimani sud va vakolatli idoralarda ish ko'rilgunga qadar ixtiyoriy to'lashni rag'batlantirish tizimi joriy etiladi;
- "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri, shuningdek, sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatini tartibga soluvchi hamda Jinoyat va Jinoyat-prosessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlari huquqlari kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan

o'zgartish va qo'shimchalarni kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihalari ishlab chiqiladi;

- O'zbekiston fuqarolariga Toshkent shahri va Toshkent viloyatida ko'chmas mulk xarid qilishda ushbu hududlarda doimiy propiskaga ega bo'lish talab qilinmaydi;
- O'zbekistonda doimiy istiqomat qiluvchi va boshqa hududlarda doimiy propiskaga ega bo'lgan fuqarolar tomonidan Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi yangi qurilgan uylarda ko'chmas mulk oldi-sotdisi shartnomalarini rasmiylashtirish uchun davlat bojining alohida stavkasi bekor qilinadi.

3-Yo'nalishning asosiy tadbirlari

- Paxta xomashyosi ishlab chiqarish, majburiy sotish rejasi hamda narxini **davlat tomonidan belgilash amaliyoti bekor qilinadi**, shuningdek, davlatga majburiy g'alla sotish hajmi **25 foizga kamaytiriladi**;
- lisenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlar kamida **ikki baravarga** qisqartiriladi;
- davlat ulushiga ega bo'lgan banklar transformatsiyasi bo'yicha **"yo'l xarita"larini** amalga oshirishga kirishiladi, shu jumladan, **zamonaviy chakana bank xizmatlari turlari** ko'paytiriladi;
- eksportni oldindan moliyalashtirishga qaratilgan **Eksport-kredit agentligi** tashkil qilinadi;
- **"E-ombor"** tovarlarni hisobga olishning elektron tizimi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi; mahalliy eksport qiluvchilarga yuklarni avtomobil va havo transporti orqali eksport qilish xarajatlarining **bir qismi davlat tomonidan qoplab beriladi**, shuningdek, tadbirkorlarning infratuzilma barpo etish bo'yicha xarajatlarining **bir qismi uchun kompensatsiya to'lash mexanizmlari** joriy etiladi;
- kamida 800 mingta keng polosali Internet portlari yaratilib, 12 ming km. optik tolalialoqa liniyalari yotqiziladi;
- "Davlat moliyaviy nazorati to'g'risida"gi, "Davlat qarzi to'g'risida"gi, "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonun loyihalari, Avtomobil yo'llarini rivojlantirish va Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish strategiyalari, Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va Suv xo'jaligini rivojlantirish konsepsiyalari, Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi;
- byudjet mablag'lari hisobidan ilg'or tadbirkorlik loyihalariga grantlar ajratish tizimi ishga tushadi;

- yangi kichik sanoat zonalarini yaratiladi, ularni boshqarish direksiyalariga zarur infratuzilmalarni yetkazib berish uchun Davlat byudjeti mablag'laridan 100 mlrd. so'm ajratiladi;
- har bir tumanda dehqonchilik bilan shug'ullanish istagini bildirgan talabgorlarga qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib ketgan yerlar taqsimlab beriladi va ular kooperatsiyalarga birlashtiriladi;
- **"Raqqamli O'zbekiston – 2030"** dasturi loyihasi ishlab chiqiladi. Unda: axborot texnologiyalari sohasida inson kapitalini rivojlantirish, kadrlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish tizimini takomillashtirish; davlat xizmatlarini raqqamli shaklga transformatsiya qilish va axborot ekotizimini rivojlantirish;

*davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;

*axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarga qo'yiladigan asosiy funksional talablarning yagona reestrini belgilagan holda davlat organlari va tashkilotlarida ushbu mahsulotlardan foydalanishga o'tish; mahalliy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarning yagona bazasini shakllantirish;

**mahalliy axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;*

*davlat boshqaruvi sohasida ma'lumotlarni shakllantirish va qayta ishlashga standartlashtirilgan yondashuvni joriy qilish;

*ma'lumotlar faqat bitta davlat organi yoki uning bo'linmalarida shakllantiriladigan **"ma'lumotlarning yagona manbai"** tamoyilini joriy etish;

*hujjatga yo'naltirilgan tizimdan ma'lumotlarning reestr yozuviga asoslangan tizimga bosqichma-bosqich o'tish masalalari nazarda tutiladi.

- Raqqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga yoshlarning eng ilg'or loyihalarini jalb etish maqsadida **"Xalqaro yoshlar innovatsiya forumi"** hamda forum doirasida **"Eng yaxshi loyihalar"** tanlovi o'tkaziladi.

4- Yo'nalishdagi dolzarb vazifalar

- Ishsizlar va kambag'al oilalar a'zolarini tadbirkorlik va kasbga o'qitish maqsadida 30 ta kollej bazasida hamda Toshkent shahrining har bir tumanida kamida bittadan **"Ishga marhamat"** monomarkazlari va kasbga tayyorlash markazlari tashkil etiladi;
- mutasaddi vazirlik va idorlar hamkorligida kasbga o'qish istagini bildirgan **yolg'iz va ko'p bolali ayollar, ishsizlar, yoshlar** uchun kundalik hayotda ehtiyoj yuqori bo'lgan sohalar bo'yicha kasbga o'rgatish kurslari faoliyati yo'lga qo'yiladi;
- **Kambag'allikni qisqartirish dasturi** loyihasi ishlab chiqiladi. Unda:

- kambag'allik tushunchasini aniqlash metodologiyasi va mezonlarini ishlab chiqish; aholida, ayniqsa, yoshlar va ayollarda **biznes yuritish va tadbirkorlikning zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;**
- **tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish;**
- tadbirkorlik sub'ektlariga **mikromoliyalashtirish xizmatlari va davlat xaridlaridan** foydalanishda keng imkoniyatlar berish uchun sharoit yaratish;
- band bo'lmagan aholini qayta tayyorlash va ishsiz fuqarolarni talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish bo'yicha keng qamrovli dasturlarni amalga oshirish nazarda tutiladi.
- 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimini joriy etgan holda, maktabgacha ta'lim bilan **qamrab olish darajasi 60 %ga yetkaziladi;**
- oliy ta'lim muassasalarida asosiy mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar soni **ikki baravarga** qisqartiriladi;
- OTMlarga davlat granti asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat buyurtmasi parametrlari bosqichma-bosqich **ikki baravarga** oshiriladi;
- **matematika, kimyo-biologiya, geologiya** kabi yo'nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar faollashtiriladi, olimlarga barcha shart-sharoitlarni yaratish choralari ko'riladi;
- davlat tibbiyot tashkilotlari va aholini dori vositalari hamda tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash o'tgan yilga nisbatan **1,3 baravarga** oshiriladi.
- Uy-joy kodeksining yangi tahriri, Ekologiya kodeksi loyihasi, "Suv ta'minoti va oqava xizmatlar to'g'risida"gi va "Kinematografiya to'g'risida"gi qonun loyihalari, Aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil etish davlat dasturi, Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi, Ilm-fan sohasini rivojlantirish, Aholini ijtimoiy himoya qilish, Ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish konsepsiyalari, Qurilish sohasini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqiladi;
- yoshlar ta'limi va ayollar bandligi bo'yicha "Besh tashabbus" loyihasi doirasida alohida umumta'lim muassasalarida **bolalarni maktab fanlariga elektron o'qitish bo'yicha** tajriba tariqasida **axborot tizimlarini** qog'oz hujjatlarni bekor qilgan holda joriy etiladi;
- OTMlar talabalariga o'quv yili davomida **teng ulushlarda kamida to'rt marotaba** o'qish uchun to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati taqdim etiladi;
- Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent davlat yuridik va pedagogika universitetlarida tajriba tariqasida bosqichma-bosqich **masofaviy o'qitish shakli** joriy etiladi;

- Pensiyanı hisoblashda mehnat stajini tasdiqlash va ish haqi miqdorini belgilash **“Yagona milliy mehnat tizimi”** idoralararo dasturiy-apparat kompleksida mavjud ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi;
- **“Davlat fuqarolik xizmati yagona elektron axborot-tahliliy tizimi”** apparat-dasturiy kompleksi joriy etiladi;

4-Yo‘nalishdagi sa’y-harakatlar

- 2020-2023 yillarga mo‘ljallangan **Kiberxavfsizlikka doir milliy strategiya** hamda **“Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”**gi qonun loyihasi ishlab chiqiladi;
- **O‘zbekiston Respublikasining yagona axborot siyosati konsepsiyasi** ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Unda: axborot sohasidagi milliy manfaatlarni belgilovchi axborot siyosatini ishlab chiqish mexanizmlarini shakllantirish;
- davlat organlari matbuot xizmatlarining jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash;
- butunjahon Internet axborot tarmog‘ida o‘zbek tilidagi segmentni rivojlantirish
- va aholining mediasavodxonligini oshirish;
- jurnalistika sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ularning huquq va majburiyatlarini anglashi, respublikaning global axborot makoniga sifatli integratsiyasi bo‘yicha chora-tadbirlar nazarda tutiladi.
- O‘zbekistonda millatlararo totuvlik, do‘stlik va hamjihatlik tuyg‘usini yanada mustahkamlash maqsadida **“Xalqlar do‘stligi va umumxalq birdamlik kuni”** joriy etiladi.
- **Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasi** tasdiqlanadi. Strategiyada:

*mamlakatimizning inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarining to‘liq bajarilishini ta‘minlash;

*fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilishini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish;

*inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy va boshqa kompleks choralar tizimini yaratish;

*qonunchilikka va davlat organlari, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning amaliy faoliyatiga inson huquq va erkinliklari sohasida **xalqaro standartlarni implementatsiya qilish** mexanizmlari va tartibi samaradorligini oshirish;

*aholining inson huquqlari sohasidagi **huquqiy savodxonligini oshirish**, bu borada samarali axborot va ma‘rifat tarqatish, ta‘lim berish faoliyatini tashkil etish;

*inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar, xorijiy mamlakatlar milliy institutlari bilan hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish nazarda tutiladi.

- Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan **mintaqaviy hamkorlik** doirasida kombinatsiyalashtirilgan turizmni "bitta tur – ko'p mamlakatlar" tamoyili asosida rivojlantirish hamda O'zbekistonning tarixiy obidalarini va sayyohlik salohiyatini faol ravishda targ'ib qilishga yo'naltirilgan **chora-tadbirlar** amalga oshiriladi.
- BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashiga 2021-2023 yillarga saylanishi uchun **O'zbekiston nomzodini ilgari surish** bo'yicha amaliy chora-tadbirlar jadallashtiriladi.
- Markaziy Osiyo bo'yicha Yevropa Ittifoqining yangilangan Strategiyasini amalga oshirishda O'zbekistonning faol ishtirokini ta'minlash choralari ko'riladi.
- O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan **ko'p qirrali hamkorlikni** kengaytirish, BMT va uning muassasalari, yetakchi xalqaro institutlar va moliya tuzilmalari, shuningdek, mintaqaviy birlashmalar bilan **uzoq muddatli sheriklikni** chuqurlashtirish yuzasidan aniq takliflar va amaliy chora- tadbirlar ishlab chiqiladi.
- Oliy Majlis palatalari va Adliya vazirligi tomonidan BMT hamda uning Taraqqiyot dasturi vakolatxonalari bilan hamkorlikda **parlamentarizmni rivojlantirish bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'quv markazini** tashkil etish chora-tadbirlari amalga oshiriladi;

Davlat dasturi ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha

"Xalqaro munozara klubi" tashkil etiladi. Unda:

-mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda, islohotlarni amalga oshirishning muhim masalalari bo'yicha **jamoatchilik muhokamasini o'tkazish** va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish;

-davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini doimiy ravishda baholab borish tizimini yo'lga qo'yish maqsadida aholi va ekspertlar o'rtasida **so'rovlar va o'rganishlar o'tkazib borish**;

-ilgari surilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bo'yicha ularning jamoatchilik muhokamasini hisobga olgan holda **asoslangan takliflarni ishlab chiqish**;

-davlat organlari va tashkilotlarining aholi oldidagi hisobdorligini oshirish maqsadida **jamoatchilik eshituvini muntazam ravishda tashkil etish** kabi tadbirlar amalga oshirib boriladi.

Vazirlar Mahkamasi **har oyda** Davlat dasturi bajarilishini Bosh vazir o'rinbosarlari va maslahatchilari huzurida tanqidiy ko'rib chiqadi, **har chorakda** Hukumat majlislarida muhokama qilib boradi hamda o'z vaqtida va to'liq bajarilmagan tadbirlar yuzasidan mas'ul vazirlik va idoralar rahbarlariga nisbatan

tegishli choralar ko'radi; Oliy Majlis palatalari **har chorakda** Bosh vazir va Hukumat a'zolarining Davlat dasturi bajarilishi yuzasidan axborotlarini eshitib boradi hamda bu borada Hukumat faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqadi.

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi:

-Davlat dasturi ijrosini tizimli monitoring qilib boradi; uni sifatli va o'z vaqtida bajarish uchun qo'shimcha choralarni ko'radi;

-har haftada Davlat dasturi to'g'risidagi axborotni umumlashtirib, yakunlarini o'z veb-saytida joylashtirib boradi. Monitoring natijalari to'g'risidagi axborotni Prezident Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritib boradi. Milliy va xorijiy tillarda Davlat dasturi ijrosi bo'yicha axborot-tahliliy sharhlarni, shu jumladan xorijiy tillarda tayyorlaydi. “Xalqaro munozara klubi” doirasida Davlat dasturida belgilangan muhim masalalar yuzasidan muntazam jamoatchilik muhokamalarini o'tkazadi va ommaviy axborot vositalarida keng yoritib boradi. Shu kabi ijtimoiy dasturlar aholining hayotini yashilash uchun xizmat qilmoqdadir.

Nazorat savollari:

1. Daromad turlari va manbalari. Nominal va real daromad. Diskriminatsiyaning iqtisodiy nazariyasi.
2. Daromadlarning tabaqalanishi va tengsizlikdagi qonuniyatlar.
3. Lorens egri chizig'i, samaradorlik va foydani qayta taqsimlash. Daromadlar tengligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar
4. Kambag'allik va uning ifodasi. Kambag'allik ko'rsatkichlari.
5. Davlatning ijtimoiy siyosati, uning maqsadi, vazifalari va vositalari. Davlat ijtimoiy yordami dasturlari.
6. Ishsizlik nafaqasi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Saidkarimova M.I, Yakubova M.A. «Экономическая теория» . Toshkent 2021
2. Курс экономической теории. Учебное пособие под ред. Черпурина М.Н., Киселевой Ye.A.Kirov, izd. «ASA», 1995. – 423-b.
3. Borisov Ye.F. Экономическая теория: Учебник. – 2-ye izd., pererab. i dop. M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005, 170-b.
4. Экономическая теория: Ucheb. dlya stud. vyssh. ucheb. zavedeniy / Pod red. V.D.Kamaeva. 10-ye izd., pererab. i dop. - M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2004,
5. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.:nashriyoti, 2009.
6. O'Imasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.:«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006. – 480 b.
7. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T.,«Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005. – 784 b.
8. Simkina L.G. Экономическая теория. 2-ye izd. -- SPb.: Piter, 2008. --384 s.
9. Stankovskaya I.K., Streles I.A. Экономическая теория: учебник /I.A.Streles. – 3- ye izd., ispr. – M.: Eksmo, 2008. – 448 s.
10. Экономическая теория / Pod red. A.I.Dobrinina, L.S.Tarasevicha, 3-ye izd. – SPb.: Izd. SPbGUEF; Piter, 2008. – 544 s.
11. Kamaev V.D. Экономическая теория: Kratkiy kurs: uchebник / V.D.Kamaev, M.Z.Ilchikov, T.A.Borisovskaya. – 2-ye izd., ster. – M.: KNORUS, 2007. – 384 s.
12. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekiston – iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning yangi va yuksak bosqichi yo'lida: O'quv qo'llanma.– T.: «Iqtisodiyot» nashr, 2008. – 128 b.
13. Ziyaev T.M. Ishchi kuchi va bandlik nazariyalari. – T.: TDIU, 2007.
14. Shodmonov Sh.Sh., Yusupov R.A. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. – T.: TDIU, 2007.
15. Nosova S.S. Экономическая теория. учебное пособие / S.S.Nosova. – M.: KNORUS, 2008. – 520 s.

Internet saytlari.

www.stat.uz –O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.

www.uza.uz –O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.

www.ceep.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.

www.internetindicators.com – Iqtisodiy indikatorlar Internet veb-sayti.

www.uzsecurities.com – O‘zbekiston Respublikasining Qimmatli qog‘ozlar bozori haqida axborot beruvchi rasmiy sayti.

www.uzexport.com - O‘zbekiston Respublikasining mamlakat eksport salohiyati haqida axborot beruvchi rasmiy sayti.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-MODUL.KIRISH. Davlat iqtisodiy siyosati.....	4
1.1.Iqtisodiyot tushunchasi. Ehtiyojlarning cheksizligi va resurslarning cheklanganligi – iqtisodiyotning bosh muammosi. Resurslarning turlari: yer, mehnat, kapital va tadbirkorlik qobiliyati.	4
1.2.To'la bandlik va ishlab chiqarishning potensial hajmi	7
1.3.Ishlab chiqarishning iqtisodiy mazmuni. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi: moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy ishlab chiqarish.....	9
2-Mavzu. Mulkchilik munosabatlari.....	14
2.1. Mulkchilik turlari va shakllari. Mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar.	14
2.2. Mulkni davlat tasarrufdan chiqarish va xususiy lashtirish.....	19
3-Mavzu. Bozor va raqobat.	22
3.1. Davlatning bozor tizimidagi tutgan o'rni va iqtisodiyotga aralashuvining zaruriyati.	22
3.2. Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish xaqidagi turli nazariyalardagi yondashishlar: klassik nazariya (A. Smit), Keyns nazariyasi, monetarizm (M. Fridmen). Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi va vazifalari. Iqtisodiy siyosat ta'rifi, uning turlari.	32
3.3. Mukammal va nomukammal raqobat. Talab tushunchasi va qonuni, uning omillari. Talab egri chizig'ining siljishlari. Taklif tushunchasi va qonuni, uning omillari. Taklif egri chizig'ining siljishlari. Bozor muvozanati.	37
2-MODUL. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.....	47
4. mavzu. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosati, uning maqsadi, vazifalari va vositalari.	47
4.1. Iqtisodiy tizimning makroiqtisodiyot darajasi. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning ahamiyati. Yalpi ichki mahsulotni.....	47
4.2. Milliy hisoblar tizimining boshqa ko'rsatkichlari: sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad, shaxsiy daromad, soliqlar to'langandan keyingi daromad (ixtiyordagi daromad).....	54
5-Mavzu. Inflyasiya va ishsizlik.....	58
5.1. Ishsizlik tushunchasi, turlari, o'lchanishi. Ouken qonuni. Ishsizlikni bartaraf etish yo'llari.	58
5.2.Inflyasiya tushunchasi, turlari, o'lchanishi. Inflyasiyaning iqtisodiy- ijtimoiy oqibatlari. Ishsizlikni bartaraf etish yo'llari.	64
5.3 Iqtisodiy o'sishni tushunchasi va o'lchanishi. Iqtisodiy o'sishning ikki turi –	

ekstensiv va intensiv, ularning omillari. Intensiv iqtisodiy o‘shishning afzalliklari.	
Iqtisodiy o‘shishning ahamiyati.....	69
5.4. Mehnat unumdorligi va sarmoya xarajatlari. Texnika taraqqiyoti iqtisodiy o‘shishning asosiy kuchi. Inson kapitaliga investisiyalar.	74
6 – Mavzu. Tarkibiy-investision siyosat, uning maqsadi, vazifalari va vositalari.	79
6.1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari va rivojlanish shart-sharoitlari. Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllari. Kichik biznes sub’ektlari: yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar.	79
6.2. Tadbirkorlik faoliyatida tashkil etiluvchi monopolistik birlashmalar: kartel, trest, konsorsium, konsern.	82
6.3. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, sanoat diversifikasiya va modernizasiya bo‘yicha davlatning iqtisodiy siyosati.	88
3-MODUL. Byudjet-soliq siyosati	98
7 – Mavzu. Byudjet-soliq siyosati, uning maqsadi, vazifalari va vositalari.....	98
7.1. Moliya tizimi, uning mohiyati va iqtisodiyotdagi vazifalari.....	98
7.2 Davlat byudjeti va uni milliy daromadni qayta taqsimlashdagi ahamiyati. Davlat byudjetining daromadlari tarkibi va xarajatlari.	100
7.3 Byudjet kamomadi, uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. Davlat qarzi. Moliya va inflyasiyaning o‘zaro bog‘liqligi.....	110
7.4. Byudjet kamomadi, uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. Davlat qarzi.	113
7.5.-Moliya va inflyasiyaning o‘zaro bog‘liqligi. Soliq tizimi. Soliq turlari	119
8-Mavzu. Pul-kredit siyosati, uning maqsadi, vazifalari va vositalari.	124
8.1.-Pul muomalasi va unga amal qilish qonuniyatlari. Pul aylanish qoidasi va pul miqdorini (massasini) tartibga solish. Pulga bo‘lgan talab va pul taklifi.	124
8.2. Pul bozori. Pul muomalasining buzilishi, uning sabablari va oqibatlari. Pul chiqarish (emissiya).	128
9 - Mavzu. Qimmatli qog‘ozlar.	132
9.1.- Qimmatli qog‘ozlar va ularning turlari, qimmatli qog‘ozlar bozori.	132
9.2. Pul-kredit tizimini davlat tomonidan tartibga solinishi. Pul-kredit siyosati turlari, uning asosiy vositalari.	149
10-Mavzu. Tashqi savdo siyosati, uning maqsadi, vazifalari va vositalari.	176
10.1. Xalqaro savdo. Tashqi savdo aylanmasi va tashqi savdo balansi, tashqi savdo ko‘rsatkichlari.	176
10.1.Xalqaro savdo mutlaq afzallik nazariyasi (A.Smit). Xalqaro savdoda qiyosiy afzalliklar (D. Rikkardo nazariyasi) va ularni tashqi savdo rivojiga ta’siri.	179
10.3. Xeksher – Olin nazariyasi. Erkin savdo va proteksionizm.	197
11. mavzu. Valyuta bozori.	202
11.1. Valyuta bozori: asosiy tushunchalari. O‘zgarib turuvchi va qat’iy	

(o'zgarmaydigan) valyuta kursi tizimlari.....	202
12. Mavzu. Ijtimoiy siyosat, uning maqsadi, vazifalari va vositalari.	212
12.1 Daromad turlari va manbalari. Nominal va real daromad. Diskriminatsiyaning iqtisodiy nazariyasi. Daromadlarning tabaqalanishi va tengsizlikdagi qonuniyatlar. Lorens egri chizig'i, samaradorlik va foydani qayta taqsimlash. Daromadlar tengligini ta'minlashga qaratilgan chora- tadbirlar. Kambag'allik va uning ifodasi. Kambag'allik ko'rsatkichlari.....	212
12.2. Davlatning ijtimoiy siyosati, uning maqsadi, vazifalari va vositalari. Davlat ijtimoiy yordami dasturlari. Ishsizlik nafaqasi. Mehnat faoliyati bilan mashg'ul bo'lishni rag'batlantirish. Iste'mol savati tushunchasi, mohiyati va turlari. Daromadlarni qayta taqsimlash. Ijtimoiy dasturlar	228
Adabiyotlar ro'yxati.....	247
Internet saytlari.	247

M.A.YAKUBOVA

IQTISODIY SIYOSATGA KIRISH

O'quv qollanma

Bosh muharrir **O.Kozlova**

Badiiy muharrir **J.Hamdamov**

Kompyuterda saxifalovchi **S.Sultanova**

NASH.lits. AA № 8798

«TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI» MЧЖ

Toshkent shahri, Olmazor tumani, Shifokorlar, 21



TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI